ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ SPORT MINISTRLIGI

ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ JOQARÍ BILIMLENDIRIW,
ILIM HÁM INNOVACIYALAR MINISTRLIGI

ÓZBEKSTAN MÁMLEKETLIK DENE TÁRBIYASÍ
HÁM SPORT UNIVERSITETI NÓKIS FILIALÍ
“JEKE GÚRES HÁM TÁBIYIY PÁNLER”
KAFEDRASÍ

“SPORT TÚRLERI TEORIYASÍ HÁM ÁMELIYATÍ: MASHQALA HÁM SHESHIMLER” ATAMASÍNDAĠÍ RESPUBLIKALÍQ ILIMIY-ÁMELIY

KONFERENCIYASÍ MATERIYALLAR TOPLAMÍ

NÓKIS-2025

ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ SPORT MINISTRLIGI

ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ JOQARÍ BILIMLENDIRIW, ILIM HÁM INNOVACIYALAR MINISTRLIGI

ÓZBEKSTAN MÁMLEKETLIK DENE TÁRBIYASÍ HÁM SPORT UNIVERSITETI NÓKIS FILIALÍ "JEKE GÚRES HÁM TÁBIYIY PÁNLER" KAFEDRASÍ

"SPORT TÚRLERI TEORIYASI HÁM ÁMELIYATI: MASHQALA HÁM SHESHIMLER" ATAMASÍNDAǴÍ RESPUBLIKALÍQ ILMIY-ÁMELIY KONFERENCIYA

2025 jıl, 25 aprel

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SPORT VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI NUKUS FILIALI "YAKKA KURASH VA TABIIY FANLAR" KAFEDRASI

"SPORT TURLARI NAZARIYASI VA AMALIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR" MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMAN

2025 yil, 25 aprel

МИНИСТЕРСТВО СПОРТА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И ИННОВАЦИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

КАФЕДРА «ЕДИНОБОРСТВ И ЕСТЕСТВЕННЫХ ДИСЦИПЛИН» НУКУССКОГО ФИЛИАЛА УЗБЕКСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА

РЕСПУБЛИКАНСКАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ «ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА ВИДОВ СПОРТА: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ»

25 апреля, 2025 года

Konferenciyanı shólkemlestiriw komiteti:

Erimbetov B.K.	Direktor, p.i.b.f.d. (PhD), professor - shólkemlestiriw komiteti hám redkollegiya baslıǵı
Mambetnazarov I.M.	Ilimiy isler hám innovaciyalar boyınsha direktor orınbasarı, p.i.b.f.d. (PhD), - shólkemlestiriw komiteti hám redkollegiya baslıǵınıń orınbasarı
Toylibaev S.M.	“Jeke gúres hám tábiyiy pánler” kafedrası baslıǵı, p.i.b.f.d. (PhD), docent - shólkemlestiriw komiteti hám redkollegiya aǵzası
Reymbaeva R.S.	“Jeke gúres hám tábiyiy pánler” kafedrası úlken oqıtıwshısı, b.i.k. - aǵza
Primbetov A.A.	“Jeke gúres hám tábiyiy pánler” kafedrası docenti, p.i.b.f.d. (PhD) - aǵza
Yakupbaev A.A.	“Jeke gúres hám tábiyiy pánler” kafedrası docenti, p.i.b.f.d. (PhD) - aǵza
Jarılkapov U.B.	“Jeke gúres hám tábiyiy pánler” kafedrası úlken oqıtıwshısı, p.i.b.f.d. (PhD) - aǵza
Kuralbaev A.K.	“Dene tárbiyası teoriyası hám gumanitar pánler” kafedrası baslıǵı, p.i.b.f.d. (PhD) - aǵza
Seytmuratov T.Sh.	“Sport oyınları” kafedrası baslıǵı, p.i.b.f.d. (PhD) - aǵza
Mambetov B.J.	Dene tárbiya hám sport boyınsha qánigelerdi qayta tayarlaw hám bilimin asırıw institutı Nókis filialı “Dene tárbiya, sport teoriyası hám metodikası” kefedrası docentı, tariyx ilimleriniń kandidatı - aǵza
Utepbergenov A.Q.	Ájiniyaz atındaǵı NMPI, “Dene mádeniyatı” fakulteti dekanı, b.i.k., docent - aǵza
Niyazov As.T.	Ájiniyaz atındaǵı NMPI, “Sport pánleri” kafedrası baslıǵı, professor - aǵza
Eshbaev A.J.	Ájiniyaz atındaǵı NMPI, “Dene tárbiya teoriyası hám metodikası” kafedrası baslıǵı, docent - aǵza
Sultansuynov A.S.	Berdaq atındaǵı QMU, “Dene mádeniyatı teoriyası hám metodikası” kafedrası baslıǵı b.i.b.f.d. (PhD) - aǵza
Akimov N.	Berdaq atındaǵı QMU, “Dene mádeniyatı teoriyası hám metodikası” kafedrası docenti - aǵza
Turdımuratov J.A.	Berdaq atındaǵı QMU, “Dene mádeniyatı teoriyası hám metodikası” kafedrası docenti - aǵza
Sultamuratov Dj.	“Jeke gúres hám tábiyiy pánler” kafedrası w.w.a. docenti - aǵza

ÓZBEKSTAN MÁMLEKETLIK DENE TÁRBIYASÍ HÁM SPORT UNIVERSITETI NÓKIS FILIALÍ DIREKTORÍ B.K. ERIMBETOVTÍŃ KONFERENCIYA QATNASÍWSHÍLARÍ HÁM MIYMANLARÍNA QUTLÍQLAW USHÍN SÓZI

Húrmetli konferenciya qatnasıwshıları!

Dene tárbiyası, sonıń menen birge sport – bul adamnıń shaxs sıpatında rawajlanıw sistemasınıń ajıralmas bir bólegi bolıp tabıladı.

Usı tarawdı rawajlandırıw boyınsha húkimetimiz tárepinen kóplep sistemalı reformalar júzege kelmekte. Dene tárbiyası hám sport tarawında ámelge asırılıp atırılǵan ózgerislerdiń tiykarǵı maqseti xalqımızdıń densawlıǵın elede bekkemlewge qaratılǵanı sózsiz. Usı reformalardıń tiykarında hár bir sport túrin rawajlandırıwǵa ayrıqsha itibar qaratılıp atır.

Ózbekstan Respublikası Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tárepinen Olimpiya hám Paralimpiya sport túrlerin en jaydırıw hám rawajlandırıwǵa ayrıqsha itibar qaratılıp kelmekte. Bundaǵı kútiletuǵın maqset jaslarımızdı hár tárepleme rawajlanǵan hám densawlıǵı bekkem shaxs etip tárbiyalaw bolıp esaplanadı. Bul boyınsha prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev tárepinen 2017 jıl 6 iyunda qabıl etilgen “Dene tárbiyası hám ǵalabalıq sporttı elede rawajlandırıw ilajları haqqında”ǵı 3031-sanlı Qararı, 2020 jıl 24 yanvardaǵı “Ózbekstan Respublikasında dene tárbiyası hám ǵalabalıq sporttı jáne de jetilistiriw hám rawajlandırıw ilajları haqqında”ǵı 5924-sanlı Pármanı, Ózbekstan Respublikası Prezidentiniń 2025-jıl 13-fevral kúngi 2028-jıl Los-Anjeles qalasında (AQSh) bolıp ótetuǵın XXXIV jazǵı Olimpiya hám XVIII Paralimpiya oyınlarına Ózbekstan sportshıların kompleks tayarlaw boyınsha videoselektor májilisinde Olimpiya hám Paralimpiya sport oyınlarına puxta tayarlıq kóriwdi jańa basqıshqa alıp shıǵıwǵa úlken itibar qaratıldı. Bunıń hámmesi húkimetimiz hám elbasshımızdıń sportqa bolǵan ayrıqsha itibarınıń dáleli bolıp tabıladı.

Búgingi kúnde iskerligimizdiń jemisi sıpatında hár bir sport túrin rawajlandırıwǵa ayrıqsha itibar hám kewil bólip atırmız. Dene tárbiya hám ǵalabalıq sporttaǵı mashqalalar menen birge Olimpiya hám Paralimpiya sport túrleri boyınsha tájiriybeli qánigeler tayarlawdıń teoriyalıq hám metodikalıq tiykarların úyreniw hám rawajlandırıp barıw dáwir talabı bolıp esaplanadı. Joqarı oqıw orınlarında dene tárbiya hám sport boyınsha qánigelerdi tayarlawdıń aktual máselelerin úyreniw menen birge mámleketimizde usı tarawdı rawajlandırıwdıń zárúriyatın payda etedi.

Juwmaqlap aytqanda “Sport túrleri teoriyası hám ámeliyatı: mashqala hám sheshimler” atamasındaǵı respublikalıq ilimiy-ámeliy konfrenciya mámleketimizde dene tárbiyası hám ǵalabalıq sportttı, sonıń menen birge Olimpiya hám Paralimpiya sport túrlerin jánede rawajlandırıwǵa xızmet etedi dep esaplayman hám búgingi konfrenciyanı shólkemlestiriwshi professor-oqıtıwshılardıń jumıslarńnda tasqın tabıslar tileymen.

МАЛАКАЛИ КУРАШЧИЛАРНИНГ МАШҒУЛОТ ВА МУСОБАҚА ЮКЛАМАЛАРИГА МОСЛАШИШ ХУСУСИЯТЛАРИНИ ТАШХИСЛАШ

Еримбетов Байрамбай Карлыбаевич

Ўзбекистон давлат жисмоний тарбия ва спорт университети Нукус филиали директори, педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), профессор

Калит сўзлар: *кўп даражали тизим, машғулот жараёнини назорат қилиш, индивидуал хусусиятлар, машғулот юкламаси, юклама ҳажми, малакали курашчилар.*

Ключевые слова: *многоуровневая система, управление тренировочным процессом, индивидуальные особенности, тренировочная нагрузка, объем нагрузки, квалифицированные курашисты.*

Key words: *multi-level system, training process management, individual characteristics, training load, load volume, qualified kurashists.*

Кириш. Курашда спорт тайёргарлиги тизимини тузиш шундай тайёргарликнинг моҳиятини ташкил этувчи юкламаларга мослашиш хусусиятларини ташхислашни назарда тутиши керак.

Бу спорт машғулотларини бошқариш тамойиллари ва воситаларини ишлаб чиқиш учун курашчиларни тайёрлаш усулларини тўғри таққослашга имкон берадиган, тузилиши ва ишлаш механизмлари бўйича ҳар хил мослашиш мезонларини танлаш асосида курашчиларнинг юкламаларга мослашиш кўрсаткичларини қайд этиб боришни талаб қилади.

Спортчини яхлит кўп даражали тизим сифатида кўриб чиқсак, унинг ўқув-машғулот жараёнини бошқариш алоҳида аломатларга қарши курашишга қаратилган алоҳида таъсирлар билан эмас, балки спортчининг ҳолатини яхлит бирлик сифатида оптималлаштиришга қаратилган таъсирлар тизими орқали амалга оширилади [1]. Спортчига таъсир қилиш тизими унинг машғулот жараёнини назорат қилиш, мусобақаларда энг юқори натижага эришиш учун шарт-шароитлар яратиш мақсадида унинг индивидуал хусусиятлари тизимига асосланиши керак А.Б.Илин.

Тадқиқотнинг мақсади: курашчиларнинг кўп йиллик тайёргарлигида педагогик назоратнинг назарий-методик асосларини такомиллаштиришдан иборат.

Тадқиқотни ташкил қилиш услублари. Ушбу тадқиқотда маълумотлрни йиғиш, маҳсус адабиётларнинг назарий таҳлили ҳамда интернет материалларини умумлаштириш усулларидан фойдаланилди.

Машғулот юкламасининг спортчи ҳолатига таъсирини спортчи томонидан бажариладиган иш ва унинг таъсири ёки организмнинг юкламага бўлган жавоб реакциялари бўйича (физиологик, психофизиологик, психологик мезонларни) аниқлаш мумкин. Шу билан спорт машғулотлари жараёнида спортчиларнинг мослашиш жараёнларини ўрганиш воситалари ва методларига қўйиладиган талаблар аниқланади [2]. Шу билан бирга, ташхислаш маълумотларининг объективлигини бевосита спорт машғулотлари жараёнида ташхисловчи синовларни уйғун равишда киритиш орқали ошириш мумкин Т.Т.Жамгаров; А.В.Родионов.

Машғулот юкламаси катталиги машқлар ҳажми ва шиддати билан баҳоланади. Курашчилар томонидан бажарилган барча машқлар ихтисослашганлик даражасига кўра, яъни мусобақа машқлари ва мусобақа шарт-шароитларига ўхшашлик даражасига кўра беш гуруҳга бўлинди:

1) умумий ривожлантирувчи машқлар (УРМ);

2) махсус-тайёргарлик машқлари (МТМ);

3) курашчининг махсус машқлари (КММ);

4) техник-тактик маҳоратни оширишга ёрдам берадиган шерик билан машқлар (ТТММ);

5) мусобақа машқлари – ўқув-машғулот беллашувлари (ММ).

Бунда ҳар бир машқ вақти ва юрак қисқариш суръати (ЮҚС) ҳисобга олинади, у машқ тугаганидан кейинги дастлабки 10 сония давомида пайпаслаш орқали қайд етилади. Шунингдек, машғулот топшириқлари мазмуни, машқларни бажариш шартлари ва услублари қайд этилади.

Ҳар бир машғулотдаги юклама ҳажми дақиқадаги соф иш вақти билан аниқланади (дам олиш вақти ҳисобга олинмайди). Ўқув-машғулотнинг шиддати қуйидаги формула бўйича аниқланади:

$$P = \frac{\Sigma\ piti}{\Sigma\ ti}$$

бу ерда P -машғулотдаги юклама шиддати,

pi -алоҳида машқнинг шиддати, балларда,

ti - алоҳида машқни бажариш.

Шунингдек, машғулот куни ва микроцикли юкламаси шиддати аниқланади.

Бундан ташқари, юкламанинг шиддатини баҳолаш ЮҚС нинг мутлақ қийматлари маълумотлари бўйича олинди, улар қуйидаги шкала ёрдамида балларга айлантирилди (1-жадвал). Ушбу усул машқларни бажариш учун сарфланган вақтни ҳисобга олган ҳолда юкламанинг шиддатини баҳолашга имкон беради, бу ўртача арифметик кўрсаткичдан кўра ҳақиқий юкламани аниқроқ акс эттиради.

Тадқиқот натижалари ва муҳокамаси. Юклама ҳажмини шиддатига қараб тақсимлаш ҳам ҳисобга олинди. Шу мақсадда қуйидаги шкалага мувофиқ бешта шиддат зонаси ажратилди [3]. Ҳар бир машқда курашчи олган юклама қабул қилинган шиддат зоналарига мувофиқ аниқланди:

- минимал (1-зона) – ЮҚС 10 сония ичида 17-20 зарба;

- кичик (2-зона) - 10 сония ичида 21-24 зарба,
- ўрта (3-зона) – 25-28 зарба,
- катта (4-зона) – 29 – 32 зарба,
- максимал-32 зарбадан ортиқ.

Курашчиларнинг юкламаларга мослашиш даражасини баҳолаш учун сенсомотор реакция кўрсаткичларидан фойдаланилган бир қатор ишлар мавжуд, чунки улар махсус машғулот таъсирининг ижобий кўчишини таъминлайди Ҳ.З.Гаппаров; А.В.Гасков; О.П.Юшков; Н.Биро.

1-жадвал

Машқлар бажаришда курашчиларга ЮҚС қийматларини баллик баҳоларга ўтказиш жадвали

Т/р	ЮҚС катталиги (машқ бажарилганидан сўнг 10 секунд ичидаги зарбалар сони)	Баллар
1	18 дан кам	1
2	19 – 20	2
3	21 – 22	3
4	23- 24	4
5	25 – 26	5
6	27 – 28	6
7	29 – 30	7
8	31 – 32	8
9	33 – 34	9
10	34 дан кўп	10

Иккита ўқув-машғулот йиғинларида курашчиларда машғулот юкламаларининг кўрсаткичлари 2-жадвалда келтирилган.

2-жадвал

Курашчиларнинг мусобақа олди тайёргарлигида машғулот юкламалари тақсимланиши икки хил вариантининг қиёсий тавсифлари

Машқлар гуруҳи	Юкламалар хажми (мин)		Юкламалар шиддати (баллар)	
	1-вариант	2-вариант	1-вариант	2-вариант
УРМ	1326 (64,2)	1046 (51,9)	3,1	3,4
МТМ	245 (11,9)	304 (15,1)	3,6	3,8
КММ	284 (13,7)	318 (15,8)	6,0	6,2
ТТММ	186 (9,0)	302 (14,9)	6,3	6,8
ММ	24 (1,2)	48 (2,3)	7,2	7,8
Жами	2065	2018	3,5	3,9

Изоҳ: қавсларда юкламанинг парциал ҳажмлари кўрсатилган.

Курашчилар машғулот ишларининг асосий қисми нисбатан паст шиддат билан амалга оширилади (1 ва 2 зоналар, улар машғулотнинг биринчи вариантида юкламанинг 66% ва иккинчи вариантида 65% ни ташкил қилади). Ўрта ва юқори шиддат билан (3 ва 4 зоналар) курашчилар

мос равишда 19% ва 13% вақт (иккала вариантда ҳам), максимал шиддат билан эса биринчи вариантда 2% ва иккинчисида 3% вақт оралиғида машқ қиладилар.

Хулоса. Бундай жисмоний енгиш албатта куч билан бўлиши шарт эмас, уни, масалан, тезкорликдаги устунлик ҳисобига амалга ошириш мумкин. Бироқ маълум бир спортчига хос бўлган сифат сингари тезкорлик жисмоний (ҳаракат қобилияти) ва психик соҳаларда турлича намоён бўлиши мумкин. Тадқиқотлар шуни кўрсатдики, экстремал шароитларда тезкор вазифаларни ҳал қилиш билан боғлиқ спорт фаолияти таъсирида, бир томондан, махсус қобилиятларни ривожлантиришга ёрдам берадиган, бошқа томондан, спортчи фаолиятининг индивидуал услубини шакллантириш учун асос бўлган маълум бир индивидуал хусусиятлар шаклланади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Медведев В.Г. Интегративный подход к изучению и оценке технического мастерства спортсменов: дис...канд.пед.наук.-Москва: 2013. - 144 с

2. Керимов Ф.А. Спортда илмий тадқиқотлар – дарслик. – Тошкент: Илмий тахника ахбороти – преес нашриёти, 2021. – 380 б.

3. Семёнов Л.А. Введение в научно-исследовательскую деятельность в сфере физической культуры и спорта: учеб. пос. / Л.А.Семёнов. – М.: Советский спорт, 2011. – 200 с

4. Курамшин Ю.Ф. Теория и методика физической культуры: учебник. - М.: Советский спорт, 2004. - 464 с.

AKADEMIK ESHKAK ESHUVCHILARNING HARAKAT TEXNIKASINI CONCEPT 2 ERGOMETR TRENAJYORI ORQALI O‘RGANISH VA TAHLIL QILISH

Mambetnazarov Islambek Muratbevich

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali ilimiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha direktor o‘rinbosori pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Kalit so‘zlar: *texnologik afzalliklar, akademik eshishda texnikani nazorat qilish, eshkak eshish texnikasini takomillashtirish.*

Ключевые слова: *технологические преимущества, контроль техники в академической гребле, совершенствование техники гребли.*

Keywords: *technological advantages, technical control in academic rowing, improving rowing technique.*

Dolzarbligi. Akademik eshishda texnikani nazorat qilishning barcha natijalari harakatlarni qayd qilishning ikkita instrumental usuli (ularning alohida parametrlari) yordamida olingan. Ikkala usul ham akademik eshkak eshish ergometrida ro‘yxatdan o‘tkazishga qaratilgan. Ularning har biriga xos bo‘lgan texnologik afzalliklari va kamchiliklari ergometrda eshkak eshish texnikasini

takomillashtirish bo‘yicha biz taklif qilgan yechimda ularning o‘rnini belgilab berdi. Biz tomonimizdan foydalanilgan elektron qurilmalari (videokamera, shaxsiy kompyuter) va dasturiy mahsulotlar (VideoPoint, EditStudio, Excel) yordamida amalga oshirilgan videotahlil texnologiyasi eshkakchining tana nuqtalari harakatining ikki tekislikdagi fazoviy va tezlik tavsiflarini olish imkonini beradi.

Tadqiqotning maqsadi. Akademik eshkak eshuvchilarning harakat texnikasini concept 2 ergometr trenajyori orqali tahlil qilish natijasida optimal texnika parametrlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari. 1. Mavzuga doir ilmiy-uslubiy ishlarni o‘rganish va umumlashtirish hamda tahlil qilish. 2. Concept 2 ergometr trenajyoridan foydalangan holda akademik eshkak eshuvchilarning texnik harakatlarini tahlil qilish. 3. Olingan tahlil natijalari asosida eshkak eshish texnikasini yaxshilashga yo‘naltirilgan metodlarni takomillashtirish.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi. Har qanday kontaktsiz texnologiyada bo‘lgani kabi, nuqtalar ixtiyoriy tanlanadi va shuning uchun ular har qanday murakkablikdagi trayektoriya bo‘ylab harakatlarni qayd qilishlari mumkin. Ushbu usulning asosiy kamchiligi, ortiqcha ma’lumotlarga ega massivlardan tahlil uchun foydali ma’lumotlarni tanlash zarurati hisoblanadi. Bunday operatsiyalar qo‘lda amalga oshirilganligi sababli tahlil natijasini olish vaqti va uning xatoligi ortadi. Ushbu metodikani takomillashtirish bir-birini to‘ldiruvchi ikkita yo‘nalishga ega bo‘lishi mumkin. Birinchidan, kadrlar chastotasi 25 Gs dan yuqori bo‘lgan videokameralardan foydalanish mumkin. Bu birlamchi videotahlil massivining hajmini sezilarli darajada oshiradi, ammo o‘lchash xatoligini kamaytiradi. Shuningdek, 1 mln. va undan ortiq elementlarni o‘z ichiga olgan yorug‘lik sezgir matritsalarga ega raqamli videokameralardan foydalanish maqsadga muvofiq, bu esa videodasturni kompyuterda qayta ishlashni tezlashtiradi va kadr diskretizatsiyasini kamaytiradi (1152 864 nuqtaga va 352 288 nuqtaga nisbatan ko‘proq) analog videokamera uchun).

Ikkinchi yo‘nalish video ma’lumotlarga ishlov berishning dasturiy vositalarini takomillashtirish bilan bog‘liq.

Bizning ilovamizda dasturiy ta’minot videotasvirga olish vositalarini tanlashda cheklovchi omil hisoblanadi, chunki u video qator tahlilini avtomatlashtirishning past darajasini ta’minlaydi.

Shuning uchun qo‘lda ishlov berishni saqlab qolgan holda yuqori chastotali videotasvirdan foydalanish qo‘lda ishlov berish vaqtini sezilarli darajada oshiradi va shuning uchun natijalarning aniqligini yetarli darajada oshishiga olib kelmaydi.

Shunga qaramay, biz ushbu videotahlil usulini akademik eshkak eshish bo‘yicha murabbiy uchun eng qulay, katta moliyaviy va vaqt xarajatlarini, kompyuter va video texnologiyalarning chuqur bilimlarini talab qilmaydigan, ammo qaror qabul qilish uchun mutaxassisni foydali ma’lumotlar bilan ta’minlashga qodir bo‘lgan usul sifatida taklif qilamiz.

Eshkakchining ish parametrlarini ergometrda qayd etishning ikkinchi usuli kontaktli texnologiyalarga tegishli.

Ularning o‘ziga xosligi shundaki, o‘rganilayotgan tizimning ma’lum nuqtalarida o‘rganilayotgan obyekt o‘zaro ta’sir qilishi kerak bo‘lgan datchiklar o‘rnatilgan.

Bizning holatimizda (eshkakchining kiyim yoqasida potensiometr ipini mahkamlash bundan mustasno) barcha datchiklar uning harakatlarini ergometr elementlari (banka, dasta) orqali bilvosita qayd qiladi.

O‘lchashlarning yetarlicha yuqori aniqligi signalning 12 razryadli amplituda diskretizatsiyasi (mantiqiy qiymatlar diapazoni - 0 dan 4095 gacha) va datchiklarning 25 Gs so‘rov chastotasi bilan ta’minlanadi.

Bir soat davomida olingan har bir eshkak eshish namunasi uchun quyidagi ma’lumotlar aniqlandi: cho‘qqi kuchi, eshish davomida bajarilgan ish, quvvat (bajarilgan ishning eshish vaqtiga nisbati), eshish uzunligi (dastaning maksimal gorizontal harakati sifatida aniqlangan) va dasta balandligi. Eshishning turli bosqichlari, jumladan, cho‘qqi kuchiga erishish va harakatlanish bosqichining tugash vaqtlari qayd etildi. O‘rganilgan kinematik o‘zgaruvchilar son sezgichi (sonning bukilishi va yozilishini ko‘rsatuvchi), bel-dumg‘aza sezgichi (chanoqning old tekislik atrofida aylanishini ko‘rsatuvchi) va ko‘krak-bel sezgichi (umurtqa pog‘onasining bel qismini bukilishi va yozilishini ko‘rsatuvchi) burchaklarini eshish boshlanishi va tugashi holatlarida hamda maksimal burchak va eshish holatida o‘z ichiga oladi. Shuningdek, bel-dumg‘aza qismi harakatining ko‘krak-bel qismi harakatiga nisbati qayd etildi. Bu yerda 1 qiymati tananing har bir qismining oldinga yoki orqaga harakatiga teng hissasini ko‘rsatadi, birdan katta qiymat bel qismi harakatining ustunligini, 1 dan kichik qiymat esa chanoq harakatining ustunligini bildiradi (McGregor va boshqalar, 2005). Ushbu nisbat eshish boshlanishi va tugashi holatlarida aniqlandi.



.

Sinovdan o‘tkazishning 4-chi oralig‘ida bitta sinovchidan olingan qayta ishlangan ma’lumotlar namunasi

Bir soatlik mashg‘ulot davomida olingan oltita turli eshkak eshish namunalari dispersion tahlil yordamida takroriy o‘lchashlar bilan taqqoslandi, farqlarni aniqlash uchun Tyuki aposterior testi qo‘llanildi; sportchilar ma’lumotlari juftlarga birlashtirildi va qiziqarli o‘zgaruvchi sifatida eshkak eshishning vaqt nuqtasi xizmat qildi

Ishlov berishdan keyin olingan o‘rtacha natijalarning namunasi rasmda keltirilgan bo‘lib, u eshkak eshish paytida bel va chanoqning aylanish manzarasini o‘xshash tarzda aks ettiradi. Ular turli kattaliklarga ega bo‘lsa-da, oldingi tadqiqotlarda kuzatilgan son bo‘g‘imining bukilishi va yozilishining odatiy ko‘rinishini ham namoyish etadi.

Tadqiqotimiz davomida adakemik eshkak eshish mashg’ulotlarida eshish paytida son, toz, boldir harakatlari tahlil qilib borildi. Ushbu tadqiqotda tajribali malakali eshkak eshuvchilar guruhida ergometrda bir soatlik eshkak eshishning eshkak eshish texnikasiga ta’siri o‘rganildi. Ergometrda past intensivlikdagi bu katta hajmli mashg‘ulotlar malakali eshkak eshuvchilar mashg‘ulot olib borildi. Eshkak eshuvchilar mashg’ulotlar chidamlilikni oshirishga qaratilgan bo‘lsada, dastlabki qo’llanilgan mashqlar ba’zi sportchilarda charchash ta’sirlari bir soat ichida yaqqol namoyon bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Bu eshkak eshish texnikasining o‘zgarishida aks etadi va o‘z navbatida, jarohatlanishga olib kelishi mumkinligi aniqlandi. Eshkak eshishning bir soatlik mashg‘ulotining boshlanishi va oxiri o‘rtasidagi farqlar kuzatildi. Natijalar umurtqa pog‘onasining bel qismidan eshkak qismining oxirida ko‘proq foydalanilganini ko‘rsatdi, bu esa charchoq bilan izohlandi. Ushbu oldingi tadqiqotdan farqli o‘laroq, joriy tadqiqotda bir soat davomida sezilarli o‘zgarishlar qayd etilmadi. Bu qisman tadqiqotda ishtirok etgan eshkak eshuvchilarning boshqa guruhga mansubligi va ularning ergometrdagi bir soatlik mashg‘ulotlardan ko‘proq xabardorligi hamda tajribasi bilan bog‘liq bo’lgani aniqlandi. Malakali eshkak eshuvchilarda kinematika quyi darajadagi eshkak eshuvchilarga qaraganda barqarorroq bo‘lgan. Bu esa tajriba va qobiliyatlar tadqiqotlarda kuzatilgan farqlarni tushuntirishi mumkinligini ko‘rsatdi.Bunda eshkak eshuvshilarni vaqtida sonni bukish va yozish bo‘yicha olingan ma’lumotlar tahlil qilindi. Shu bilan birga, bir qator o‘zgarishlar kuzatildi, jumladan, mashg‘ulotning vaqr oraliqlarida sonni bukish va yozishning biroz kamayishi aniqlandi. Bunda bir soatlik mashg‘ulotning oxirida oyoqlar taxminan 3 daraja kamroq bukilgani aniqlandi. Bu holat sonning oxirgi yozilishining 3 darajaga oshishi bilan bog‘liq bo‘lib, eshish paytida harakatlanish fazasiga sarflanadigan vaqtning ko‘payishi kuzatilgani bilan izohlandi. Bu esa harakatlanish oxiridagi bosqichning foiz qiymati bilan belgilangan. Tadqiqotimiz davomida vaqt oraliqlarida eshkak eshuvchilarni son va bo’g’imlarni bukish va yozishni tahlil qidik.

Olti vaqt nuqtasida bel sohasining aylanishidagi o‘zgarishlar. Izoh: bel sohasining egilishi musbat burchaklar bilan, to‘g‘rilanishi esa manfiy burchaklar bilan ko‘rsatilgan. Ma’lumotlar o‘rtacha qiymatlarni (±SD, n=6) ifodalaydi.

Vaqt oralig‘i	**A (2-7 min)**	**Б (14-19 min)**	**C (24-29 min)**	**D (32-37 min)**	**E (44-49 min)**	**J (54-59 min)**
Eshish boshida bukish (°)	33,6 (7,0)	33,9 (6,8)	34,5 (6,7)	34,5 (6,8)	35,8 (7,0)	34,9 (7,2)
Eshish oxirida chozilish (°)	-13,5 (8,0)	-18,1 (5,9)	-18,8 (6,5)	-18,3 (5,8)	-18,7 (5,8)	-20,2 (4,7)
Harakatlanish vaqtida maksimal egilish (°)	35,3 (7,1)	35,8 (7,0)	36,3 (7,0)	36,3 (7,0)	37,6 (7,1)	36,8 (7,5)
maksimal egilish sodir bo‘ladigan harakatning %	92,7 (10,2)	93,2 (10,0)	93,3 (10,1)	93,3 (10,1)	92,4 (11,0)	93,0 (10,4)
Harakatni maksimal uzaytirish (°)	-31,4 (6,3)	-36,0 (5,2)	-37,8 (6,2)	-37,8 (5,0)	-36,5 (5,3)	-36,4 (5,4)
Maksimal kengayish sodir bo‘ladigan harakat tezligi%	31,8 (1,7)	32,2 (1,5)	32,7 (1,6)	32,8 (1,9)	32,2 (3,1)	32,7 (2,9)

Bel-chanoq nisbati. Bir soatlik eshkak eshish davomida bel-chanoq nisbatlarida sezilarli farqlar kuzatilmadi. Soat boshida bel-chanoq nisbati qamrashda 3,4 ± 1,7 va yakunlashda 0,8 ± 0,5 ni tashkil etdi. 14-19 daqiqalarda, ya’ni B vaqt nuqtasida, o‘sish kuzatilib, qamrashda 3,8 ± 2,0 gacha ko‘tarildi, ammo yakunlashda 0,84 ± 0,3 kabi kichik o‘zgarish yuz berdi. Biroq, qamrash nisbati bir soat davomida o‘zgarib, F vaqt nuqtasida (eshkak eshish oralig‘ining 54-59 daqiqalarida) 3,0 ± 1,2 gacha pasaydi. Bu o‘zgarishlar sezilarli bo‘lmasa-da, son bukilishi va yozilishining kamayishi hamda tos va bel aylanishi/bukilishining biroz ortishi bo‘yicha kuzatilgan qonuniyatlarga mos keldi.

Sportchilarning texnik mahoratini aniqlash va baholash uchun ishlatiladigan psixologik testlar ularning psixologik tayyorgarlik darajasini, e'tiborini, motorik ko'nikmalarini va ruhiy barqarorligini baholashga yordam beradi. Quyida bunday testlarning ba'zi turlari keltirilgan:

1. Reaksiya tezligi testi. Maqsad: Sportchining tashqi stimullarga qanchalik tez javob bera olish qobiliyatini baholash. Amalga oshirish: Maxsus qurilmalar yoki kompyuter dasturlaridan foydalaniladi. Masalan, sportchiga yorug'lik yoki tovush signallariga maksimal darajada tezkor javob berish talab qilinadi.

2. Diqqatni baholash testi. Maqsad: Sportchining diqqatini bir joyda to'plash, barqaror saqlash va bir nechta vazifalar orasida taqsimlash qobiliyatini o'rganish. Usullari: Stroop testi (rang-so'z muvofiqligi testi). Bourdon testi (diqqatni uzoq muddat saqlash).

3. Motorik koordinatsiya testi. Maqsad: Qo'l va oyoqlarning birgalikda ishlash qobiliyatini baholash. Amalga oshirish: Harakatlarni aniqlik bilan takrorlash, maxsus moslamalar bilan muvozanat saqlash vazifalari.

4. Stressga bardoshlilik testi. Maqsad: Sportchining musobaqalar davomida ruhiy bosimni yengib o‘tish qobiliyatini aniqlash. Usullari: Savolnomalar (masalan, Spielbergerning tashvish darajasini o‘lchash testi). Simulyatsiya muhitida mashg‘ulotlar.

5. Psixomotor tezlik testi. Maqsad: Sportchining jismoniy harakatlarning tezligi va aniq bajarilish darajasini aniqlash. Usullari: Maxsus dasturlar yoki moslamalar yordamida oddiy va murakkab harakatlar sinovlari o‘tkaziladi.

6. O‘yin sharoitlarida qaror qabul qilish qobiliyatini aniqlash. Maqsad: Sportchining qisqa vaqt ichida to‘g‘ri qaror qabul qilish qobiliyatini baholash. Amalga oshirish: Simulyatsion dasturlar. O‘yin holatlarini tahlil qilish mashg‘ulotlari.

7. Motivatsiya va ichki intizom testi. Maqsad: Sportchining ichki rag‘bati va maqsad sari harakatlanish darajasini aniqlash. Usullari: Savolnomalar va suhbatlar. Testlarni o‘tkazishda muhim jihatlar: Testlar sport turiga moslashtirilishi kerak. Natijalar individual tarzda tahlil qilinib, har bir sportchiga mos tavsiyalar berilishi lozim. Texnologiyalardan foydalanish natijalarni aniqroq qilishga yordam beradi. Agar kerak bo‘lsa, mazkur testlarni o‘tkazish usullari va batafsil qo‘llanma bo‘yicha yordam bera olaman. Akademik eshkak eshuvchilarda psixologik Bourdon testini qo‘llash.

Xulosa. Yuqori malakali akademik eshkak eshuvchilar Concept 2 ergometri yordamida uzoq muddatli mashg‘ulotlarni texnik o‘zgarishlarsiz bajara olishdi. Ushbu holat, ularning ko‘p yillik sport tayyorgarligi natijasida shakllangan texnik barqarorlik va ergometr mashg‘ulotlariga moslashganligi bilan izohlash mumkin. Tadqiqot davomida moslashish davri mavjudligi aniqlanib, bu jarayonni optimallashtirish uchun chigil yozdi (dynamic warm-up) mashqlarini 3-5 daqiqadan ko‘proq vaqt davomida bajarish zarurligi asoslandi. Ushbu vaqt oralig‘ida sportchilarning texnik xatolarini aniq aniqlash imkoniyatlari oshgani kuzatildi. Bundan tashqari, shiddatli mashg‘ulotlar davomida tos, son va belning burchak o‘zgarishlari foizlar bo‘yicha sezilarli darajada oshgani qayd etildi. Bu esa, optimal biomekanik texnikani shakllantirish, harakatlarni muvofiqlashtirish hamda yuqori darajadagi chidamlilikka erishish uchun muhim omil sifatida e’tirof etildi. Ushbu natijalar akademik eshkak eshuvchilarning texnik mahoratini oshirish, mashg‘ulot jarayonlarini samarali modellashtirish va ergometr mashg‘ulotlarining sportchilar tayyorgarligidagi o‘rnini yanada chuqurroq tahlil qilish uchun ilmiy asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Федотова, Е. В. Основы управления многолетней подготовкой юных спортсменов в командных игровых видах спорта / Е. В. Федотова. – М. : СпортАкадемПресс, 2003. – 224 с. – ISBN 5-8134-0140-7

2. Токарева А. В. Самоконтроль и методы оценки физического и функционального состояния студентов [Электронный ресурс] : учеб. пособие / А. В. Токарева, В. Д. Гетьман, Л. Б. Ефимова-Комарова ; СанктПетербургский гос. архит.-строит. ун-т. - Санкт-Петербург : СПбГАСУ, 2016. - 104 с.

3. Семенов Л.А. Введение в научно-исследовательскую деятельность в сфере физической культуры и спорта: учебное пособие/ Семенов Л.А.— Электрон. текстовые данные.—М.: Советский спорт, 2011.—200 c

4. Прищепа, И. М. Анатомия человека: учеб. пособие / И.М. Прищепа. - Минск: Новое знание; Москва: ИНФРА-М, 2017. - 459 с.

YOSHLARNI JISMONIY TARBIYA VA SPORT MASHG‘ULOTLARI ORQALI SOG‘LOMLASHTIRISH

Toylibaev Sultanbek Muxidovich

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali “Yakka kurash va tabiiy fanlar” kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Kalit so‘zlar: *yoshlar, jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari, yoshlar salomatligini mustahkamlash, salomatlik.*

Ключевые слова: *молодёжь, упражнения физического воспитания и спорта, оздоровление молодёжи, здоровье.*

Key words: *youth, physical education and sports exercises, youth health improvement, health.*

Kirish. Dunyoda bugungi kunda yoshlarni jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari orqali sog‘lomlashtirish, ta’lim sifati va samaradorligini oshirishning eng muhim omillaridan biridir. Yoshlarga sport turlari bo‘yicha nazariy bilim, ko‘nikma, malakalarni yuqori darajada berishdan iboratdir. Shu bilan birga, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida, jismoniy tarbiya fani yo‘nalishi bo‘yicha uzviylashtirilgan o‘quv dasturlari, zarur me’yoriy hujjatlar va rejalarning amalga joriy etishi bilan birga jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida, yangi innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish orqali o‘quvchilarda bilim samaradorligini yanada oshirish imkoniyatlari yaratilmoqda.

Jahonda o‘sib kelayotgan yosh avlodning jismoniy salomatligini shakllantirish, sog‘lom turmush tarziga intilish va sportga mehr-muhabbatni singdirish borasida shart-sharoitlar yaratib berish, bolalar ommaviy sportini qishloq joylardan boshlab megapolis shaharlarigacha rivojlantirishga alohida e’tibor berilishi, vatanga sadoqatli barkamol avlodni tarbiyalash, bolalar orasida iste’dodli sportchilarni tanlab olish ularning qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bir qancha ilmiy tadqiqotlarda yoshlarni jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari yordamida sog‘lomlashtirish bilan, faqat o‘zining jismoniy quvvatini tiklash va bo‘sh vaqtini maroqli o‘tkazish uchun emas, balki u orqali sog‘lom turmush tarziga amal qilish, turli salbiy

ta’sirlardan xalos bo‘lish, kuchli iroda va xarakterni shakllantirish uchun shug‘ullanishlari kerakligini ongli ravishda tushunib yetishlari bo‘yicha tizim yetarlicha ochib berilmagan.

Tadqiqotning maqsadi: yoshlarni jismoniy tarbiya va sportning nazariy va amaliy jihatdan funksional jarayoniga asoslangan sog‘lomlashtirish texnologiyalari bo‘yicha takliflar ishlab ciqish.

Tadqiqotni tashkil qilish uslublari. Ushbu tadqiqotda ma'lumotlrni yig'ish, mahsus adabiyotlarning nazariy tahlili hamda internet materiallarini umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

Respublikamiz kelajagi uchun sog‘lom avlodni tarbiyalash hamda voyaga yetkazishda jismoniy tarbiya va sportning ahamiyati juda katta. So‘nggi yillarda jismoniy tarbiya va sport yoshlar hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Shu bois mamlakatimizda aholi salomatligini yanada mustahkamlash, ayniqsa, yosh avlodning barkamol bo‘lib voyaga etishi uchun zarur imkoniyatlar yaratilmoqda. “Bugun biz yurtimizda keng ko‘lamli islohotlar va jadal o‘zgarishlarni amalga oshirmoqdamiz. Va bu yo‘lda jismoniy sog‘lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish bizning ustuvor vazifamiz va biz buning uchun bor kuch va mablag‘larimizning safarbar etamiz”. Bugungi kunda farzandlarimizni barkamol, komil insonlar etib tarbiyalashda, yoshlarni jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari orqali sog'lomlashtirish, ularni mustaqil ravishda jismoniy tarbiya mashqlarini bajarishga o‘rgatish zarur.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi. Tadqiqot yoshlarning jismoniy tarbiya haqidagi mavjud g‘oyalarni pedagogik jarayonning mazmuni, tarkibi, vositalari, texnologiyasi va tibbiy-biologik ta’minoti sifatini yaxshilashning biomexanik va fiziologik determinantlari, ular yoshlarning sog‘lig‘ini saqlash va sog‘lig‘ini shakllantirish darajasini oshirishni oldindan belgilab beradi.

Psixologik, pedagogik va tibbiy-biologik nuqtai nazardan, o‘quv jarayoni sifatini sezilarli darajada yaxshilashning asosiy sharti yoshlarning chidamliligi, mushaklari va jismoniy qobiliyatlarini ustuvor rivojlantirishga qaratilgan proyektiv munosabatlardagi bolalar rivojlanishining ontogenetik xususiyatlarini hisobga olgan holda tavsiyalar berish.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 30 oktabrdagi PF-6099-son “Sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2017 yil 3 iyundagi PQ-3031-son “Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, 2020 yil 24 yanvardagi PF-5924-son “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2020 yil 12 noyabrdagi PQ-4891-son “Tibbiy profilaktika ishlari samaradorligini yanada oshirish orqali jamoat salomatligini ta’minlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori, 2021-yil 5-noyabrdagi PF-5279-son “Sport ta‘limi tizimini tubdan takomillashtirish orqali olimpiya va paralimpiya sport turlari bo‘yicha sportchilar zaxirasini shakllantirish sifatini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2020 yil 10 noyabrdagi PQ-4887-son

“Aholining sog‘lom ovqatlanishini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 19 noyabrdagi 735 son “Aholining sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvatlash va jismoniy faolligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, 2022-yil 3-noyabrdagi PQ-414-sonli “Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda bu sohaga tegishli boshqa bir qator me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Xulosa. Yosharni jismoniy tarbiya tizimi rivojlantirishda zamonaviy vosita va o‘rgatish metodlarini takomillashtirish yuzasidan yetarlicha samarali emasligi, shu bilan birga zamonaviy tadqiqot ko‘rsatkichlari aniqlanishicha 17-18 yoshdagi bolalarni asosiy jismoniy sifatlarini rivojlanish ko‘rsatkihlari 35-38% tashkil qilingaligini, mazkur ishning dolzarbigini belgilab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Бондарь, Е.А., & Бондарь, Е.А. (2017). Роль здоровьесберегающих технологий в работе со студентами вузов. *Научный журнал Дискурс*, (1), 149-154.

2. Матюшинец, П.Г. ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ И ОЗДОРОВЛЕНИЯ МОЛОДЕЖИ. *И СПОРТА*, 1016.

3. Сысоев, А.В., Кузнецов, Б.В., & Соболев, Д.В. (2020). Формирование здоровьесберегающих технологий физического воспитания студентов. *Ученые записки университета им. ПФ Лесгафта*, (12 (190)), 241-246.

ЮКОРИ МАЛАКАЛИ КУРАШЧИ ҚИЗЛАРНИНГ ЧИДАМЛИЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МЕТОДИКАСИ

Якупбаев Алишер Алымбаевич

Ўзбекистон давлат жисмоний тарбия ва спорт университети Нукус филиали ўқитувчиси п.ф.б.ф.д (PhD), доцент

Калит сўзлар. *Эркин курашчи қизлар, жисмоний тайёргарлик, махсус чидамлилик, жимоний ривожланганлик даражаси.*

Ключевые слова. *Девушки-борцы вольного стиля, физическая подготовка, специальная выносливость, уровень физического развития.*

Keywords. *female wrestlers, physical fitness, special endurance, level of physical development.*

Кириш: Республикамизда аёллар кураши спорт турини янада ривожлантриш, курашчиларнинг янги авлодини тайёрлаш, ёшлар ўртасида аёллар кураши спорт турини фаол тарғиб қилиш ва оммалаштриш бўйича кўплаб қарорлар қабул қилиниб, бу борада салмоқли ишлар олиб

борилмоқда. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 29 июлдаги ПҚ-336-сонли “Спорт курашларининг олимпия турларини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарорида аёллар кураши спорт турини янада ривожлантириш, аҳоли ўртасида кенг тарғиб қилиш, иқтидорли спортчиларни аниқлаш, танлаш, саралаш ҳамда уларни профессионал спортчилар сифатида тайёрлашнинг янги тизимини йўлга қўйиш муҳим аҳамият касб этмоқда.

Дунёда эркин курашчи қизларни замонавий шароитларда тайёрлашнинг муваффақиятли ташкил этиш, машғулотлар жараёнини бошқариш ва назорат қилиш усулларининг самарадорлиги, курашчиларни тайёрлашда замонавий технологиялардан оқилона фойдаланиш ҳамда организмнинг ёш хусусиятларини ҳисобга олиб, малакали эркин курашчиларни махсус чидамлилигини тарбиялашга алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Кўплаб мамлакатларда аёллар кураши спорт тури билан шуғулланувчи спортчиларни тайёрлаш тизимини замон талабларига мослаштириш, малакали эркин курашчи қизларнинг махсус чидамлилигини ошириш бўйича ўқув-машғулот жараёнини ташкил қилиш ҳамда эркин курашчи қизларнинг махсус чидамлилигини ошириш ва тайёргарлик турлари кўрсаткичларини ошириш орқали эркин курашчи қизларга мусобақалар жараёнида юқори натижага эришиш имкониятини ошириш долзарблик касб этмоқда.

Соҳа олимлари ва тадқиқотчилар томонидан спорт курашларининг аёллар кураши турига ихтисолашган юқори малакали спортчиларни тайёрлаш тизизмини замон талабларига мос равишда режалаштириш, машғулотларни олиб боришга йўналтирилган илмий тадқиқот ишлари ўтказилмоқда. Ўрганилган илмий адабиётлар таҳлилида аёллар курашчи билан шуғулланувчи спортчиларнинг йиллик тайёргарлик машғулотларини режалаштириш, жисмоний тайёргарлигига қараб машғулот жараёнларини қўлланиладиган восита ва усуллар умумий ва махсус жисмоний тайёргарлик юкламаларининг нисбатлари бажарилиш шиддати, такрорланишлар сони, дам олиш оралиқларига боғлиқ бўлган муаммоларни ҳал этиш бўйича кўплаб илмий изланишлар олиб борилмоқда.

Баркамол авлодни соғлом қилиб тарбиялашдаги жисмоний тарбия ва спортни ўрнини ҳисобга олиб спорт ишларини янада такомиллаштириш, унинг замон талаблари даражасида ўқув ва моддий-техник базасини яратиш ҳамда аҳолининг спортга бўлган қизиқишини ошириш йўлида мақсадли давлат миқёсидаги тадбирлар ишлаб чиқилиб ҳаётга татбиқ этилмоқда.

Тадқиқот мақсади: 18-20 ёшли малакали эркин курашчиларда махсус чидамлиликни ривожлантириш методикасини ишлаб чиқишдан иборат.

Тадқиқотнинг усуллари. Тадқиқотда эркин курашчи қизларни тайёрлаш масалалари бўйича илмий-услубий адабиётларни таҳлил қилиш, педагогик кузатув, физиологик тест, педагогик тест, педагогик эксперимент, математик-статистика усуллардан фойдаланилган.

Тадқиқотнинг объекти сифатида Нукус шаҳар яккакураш спорт турларига ихтисослаштирилган спорт мактабидаги 18-20 ёшдаги малакали эркин курашчи қизларнинг ўқув-машғулот жараёни олинган.

Таъкидлаганимиздек, чидамлилик – курашчи қизлар учун муҳим жисмоний сифат ҳисобланади. Ишда – эркин курашчи қизларда чидамлилик сифатини ривожлантириш мақсади қўйилганлиги сабабли, биз энг муҳим тестларни танлаб олдик, хусусан, купер тести, PWC-170 кг/м/дақ жисмоний иш қобилияти, ЎТС, (мл), нафас олиб нафасни ушлаб туриш, (с), гарвард степ-тести (шартли бирлик), елкалардан ошириб 10 марта ташлаш, (с), 10 марта белдан ошириб ташлаш, (с), 3 дақиқа давомида ўзгарувчан суръатда манекенни ташлаш, (сони) тестининг кўрсаткичи меъёр кўрсатади инобатга олган қолган баҳоланди.

Маълумки, машғулотларни бошлашдан олдин мураббийлар иккита физиологик кўрсаткичларни – ЮҚС ва қон босимини (ҚБ) текширишлари керак ва шундан кейингина эркин курашчи қизлар машғулот жараёнига киритиши керак. Бу, айниқса, эркин курашчи қизлар билан ишлашда “спорт тиббиётининг олтин қоидаси” ҳисобланади. Бироқ, бу қоида қатъий бажарилмайди ва мураббийлар томонидан спортчиларни ЮҚС ва қон босими қатъий текширилиб, индивидуал ҳолати ҳисобга олинмайди. Шунингдек, машғулот давомида организмнинг иш қобилиятини оптимал ҳолатгача тиклаш жараёнини амалга ошириш керак, шундагина кейинги вазифани янада сифатли бажариш мумкин.

Деярли барча тест натижаларида тажриба гуруҳи эркин курашчи қизларининг назорат гуруҳидан сезиларли устунлиги аниқланди. Энергетик таъминлаш нуқтаи назаридан олиб қараганда эркин курашчи қизларда қўлланадиган ва бошқа спорт турларида қўлланадиган ёрдамчи воситалар арсеналидан энг самарали машқларни танлаб олиш ва тизимлаштириш натижалари бўйича, биз, уларнинг энг оптималини тадқиқот давомида педагогик тажриба динамикасида улардан фойдаланиш кетма-кетлигини аниқлаб олиш лозим деб ҳисобладик.

Ўтказилган таҳлил натижасида педагогик тажриба бошида ва охирида тажриба ҳамда назорат гуруҳларининг малакали эркин курашчи қизларда ўрганилаётган параметрлар ўртасида сезиларли статистик фарқлар аниқланди. Иккала гуруҳдаги назорат меъёрларининг ўртача кўрсаткичларини қиёсий статистик таҳлил натижалари 5 жадвалда келтирилган.

Купер синови назорат гуруҳи эркин курашчи қизларда тажриба бошида 1390 бўлган бўлса тажриба охирида 1435 ташкил қилди, тажриба гуруҳи эркин курашчи қизларда тажриба бошида 1395 тажриба охирида 1456 ташкил қилганини кўришимиз мумкин.

PWC-170 кг/м/дақ жисмоний иш қобилияти синови назорат гуруҳи эркин курашчи қизларда тажриба бошида 1438,9 бўлган бўлса тажриба охирида 1592,8 ташкил қилди, тажриба гуруҳи эркин курашчи қизларда

тажриба бошида 1440,5 тажриба охирида 1648,4 ташкил қилганини кўришимиз мумкин.

ЎТС, (мл) синови назорат гуруҳи эркин курашчи қизларда тажриба бошида 3200 бўлган бўлса тажриба охирида 3500 ташкил қилди, тажриба гуруҳи эркин курашчи қизларда тажриба бошида 3300 тажриба охирида 4000 ташкил қилганини кўришимиз мумкин.

Хулоса: Малакали эркин курашчи қизларнинг жисмоний тайёргарлигини техник усуллар ёрдамида оширишда тўртта даражали (ташлашлар, ушлаб туриш, ағдариш ва ўтказиш) турли йўналишларда ҳар хил ушлаб олишлар билан бажариладиган усуллар вариантларини қўл ва оёқларда бажариш эвазига PWC-170 бўйича жисмоний иш қобилияти кўрсаткичида оралиқ босқичда қайд этилди 4,15% ва тажриба охирида ўсиш 14,4% га етди. Гарвард степ-тести индекси бўйича ўсиш ҳам тажрибаларнинг якунида юқори бўлди ва 10,7%ни ташкил қилди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022-йил 29-июлдаги “Спорт курашларининг олимпия турларини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги РҚ-336-сонли Фармони.

2. А.А. Модел высококвалифисированного борса / Монография Карелин А.А.Иванюженков Б.В., Нелюбин В.В.. Новосибирск, 2005 – 265 с.;

3. Сафарова Д.Д., Пулатова М.Д. Взаимоотношения показателей гемодинамики с проявлением физической работоспособности у спортсменок-дзюдоисток // Научно – теоретический журнал «Наука и спорт: Современные тенденсии» №1 (том 14), Казан, 2017, - С. 41-45.

ЮНОН-РУМ КУРАШИ БЎЙИЧА 2025 ЙИЛГИ ОСИЁ ЧЕМПИОНАТИНИНГ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ТАҲЛИЛИ

Жарылкапов Улугбек Бахадырович

Ўзбекистон давлат жисмоний тарбия ва спорт университети Нукус филиали катта ўқитувчиси п.ф.б.ф.д (PhD)

Калит сўзлар. *юнон-рум кураши, натижалар, Осиё-2025 чемпионатини, ғалаба, мағлубият, таҳлил, мусобақа фаолияти.*

Ключевые слова: *греко-римская борьба, результаты, чемпионат Азии-2025, победа, поражение, анализ, соревновательная деятельность.*

Keywords: *greco-roman wrestling, results, Asian Championship 2025, victory, defeat, analysis, competitive activity.*

Долзарблиги. Иорданиянинг Амман шаҳрида спорт курашлари бўйича 2025 йилги Осиё чемпионати жорий йилнинг 25-30 март кунлари давомида бўлиб ўтди. Мусобоқада 25 та давлатдан 364 нафар спортчилар қатнашди.

Ўзбекистон юнон-рум кураши бўйича тарихда илк бор 3та олтин, 2та кумуш ва 1та бронза медаллар билан умумжамоа ҳисобида 2-ўринда якунлади.

Юнон-рум кураши бўйича - 55кг вазн тойфасида Ихтиёр Ботиров бронза медалини қўлга киритган бўлса, - 60 кг вазн тойфасида Алишер Ганиев ва - 72 кг вазн тойфасида Абдулла Алиевлар кумуш медалларини қўлга киритган. - 63 кг вазн тойфасида Айтжан Халмаханов, -77 вазн тойфасида Арам Варданян ва - 87 кг вазн тойфасида Жалгасбай Бердимуратовлар олтин медалларини қўлга киритишди. Юнон-рум кураши бўйича Осиё-2025 чемпионатини ғолиб ва совриндорларини биринчи жадвалда кўришингиз мумкин.

1-жадвал

Юнон-рим кураши бўйича Осиё-2025 чемпионатининг натижалари

Вазн тоифалари	Олтин	Кумуш	Бронза
- 55 кг	Кохэй Ямагива (Япония)	Саджад Али Мукаср Альбидхан (Ироқ)	Ро Ю Чол Ро (Шимолий Кореа)
			Ихтиёр Ботиров **(Ўзбекистон)**
- 60 кг	Ри Се Унг (Шимолий Кореа)	Алишер Ганиев **(Ўзбекистон)**	Каито Инаба (Япония)
			Си Зиюэ (Хитой)
- 63 кг	Айтжан Халмаханов **(Ўзбекистон)**	Мохаммад Махди Аббас Кешткар(Эрон)	Чон Хэн Джэ (Кореа)
			Ким Чан (Шимолий Кореа)
- 67 кг	Саид Эсмаили (Эрон)	Раззак Бейшекеев (Қирғизистон)	Сон Мэн Гван (Шимолий Кореа)
			Кацуаки Эндо (Япония)
- 72 кг	Сейед Даниал Сейед Шамсолла Сохраби (Эрон)	Абдулла Алиев **(Ўзбекистон)**	Лен Чи (Хитой)
			Иссей Хонна (Япония)
- 77 кг	Арам Варданян **(Ўзбекистон)**	Алиреза Морад Абдевали (Эрон)	Ырыскелди Максатбек уулу (Қирғизистон)
			Ибрагим Магомадов (Қозоғистон)
- 82 кг	Мохаммад Нагхоуси (Эрон)	Омар Сатаев (Қозоғистон)	Шахин Эйдимохаммад Бадагимофрад (Қатар)
			Кан По Сон (Кореа)
- 87 кг	Жалгасбай Бердимуратов **(Ўзбекистон)**	Ясин Али Язди (Эрон)	Шамиль Ожаев (Қозоғистон)
			Кумар Сунил (Ҳиндистон)
- 97 кг	Мохаммадхади Абдуллах Сарави (Эрон)	Юри Наказато (Япония)	Нитеш Ҳиндистон)
			Чжан Юфан (Хитой)
- 130 кг	Фардин Хедаяти (Эрон)	Алимхан Сыздыков (Қозоғистон)	Юта Нара (Япония)
			Али Ясин Талиб Аль Шаруи (Ироқ)

Ўзбекистонлик спортчилар қуйидаги рақиблар билан баҳс олиб боришди:

Ихтиёр Ботиров - 55 вазн тойфасида ўтиш баҳсида А.Рахимбаев (ТКМ) устидан 9:0 ҳисобида ишонарли ғалаба қозонди. 1/4 да эса Муратбек УУЛУ

(КГЗ) устидан 9:0 ҳисобида ишонарли ғалаба қозониб ярим финалга йўлланма олди. 1/2 баҳсида С.Албидханга 9:5 ҳисобида мағлуб бўлди. 3-ўрин учун баҳсда Е.Камалиев (КАЗ) устидан 8:4 ҳисобида ғалаба қозонди. Шу тариқа, Ихтиёр Ботиров - 55 вазн тойфасида бронза медалини қўлга киритди.

Алишер Ганиев – 60 кг вазн тойфасида 1/4 баҳсида З.Хи (Хитой) устидан 13:3 ҳисобида ишонарли ғалаба қозониб ярим финалга йўлланма олди. 1/2 баҳсида А.Сулайманов (КГЗ) устидан 9:0 ҳисобида ишонарли ғалаба қозониб финалга йўлланма олди. Финал баҳсида С.Ри (ПРК) 6:4 ҳисобида мағлуб бўлди ва 60 кг вазн тойфасида кумуш медалини қўлга киритди.

Айтжан Халмаханов – 63 кг вазн тойфасида 1/4 баҳсида К.Чан (ПРК) 9:0 ҳисобида ишонарли ғалаба қозониб ярим финалга йўлланма олди. 1/2 баҳсида С.Асетули (КАЗ) устидан 7:16 ҳисобида ишонарли ғалаба қозониб финалга йўлланма олди. Финал баҳсида М.Кешткар(ИРИ) 12:4 ҳисобида ишонарли ғалаба қозониб – 63 кг вазн тоифасида Айтжан Халмаханов мутлоқ ғолиб бўлди.

Нозимжон Бойкузиев – 67 кг вазн тойфасида ўтиш баҳсида М.Жанду (КСА) устидан 5:0 ҳисобида муддатидан олдин “Туше” билан ғалаба қозонди. 1/4 баҳсида М.Квон (КОР) 8:0 ҳисобида ишонарли ғалаба қозониб ярим финалга йўлланма олди. 1/2 баҳсида С. Есмаеили Леига 8:0 ҳисобида мағлуб бўлди. 3-ўрин учун баҳсда М.Сонга (ПРК) 2:2 ҳисобида мағлуб бўлди. Нозимжон Бойкузиев – 67 кг вазн тойфасида 5-ўринда якунлади.

Абдулла Алиев – 72 кг вазн тойфасида 1/4 баҳсида Б.Нобатов (ТКМ) 4:1 ҳисобида ғалаба қозониб ярим финалга йўлланма олди. 1/2 баҳсида И.Хонна (Япония) 6:1 ҳисобида ғалаба қозониб финалга йўлланма олди. Финал баҳсида С.Сохраби 6:1 ҳисобида мағлуб бўлди ва 72 кг вазн тойфасида кумуш медалини қўлга киритди.

Арам Варданян 77 кг вазн тойфасида 1/4 баҳсида И.Магомадов (КАЗ) устидан 9:0 ҳисобида ишонарли ғалаба қозониб ярим финалга йўлланма олди. 1/2 баҳсида А.Садех (ЖОР) устидан 9:0 ҳисобида ишонарли ғалаба қозониб финалга йўлланма олди. Финал баҳсида А.Абдевали (ИРИ) 4:2 ҳисобида ғалаба қозониб 77 кг вазн тоифасида Арам Варданян мутлоқ ғолиб бўлди.

Мухаммадқодир Расулов 82 кг вазн тойфасида ўтиш баҳсида М.Нагхоуси(ИРИ) 1:1 ҳисобида мағлуб бўлди. 3-ўрин учун ўтиш баҳсда Б.Орункул УУЛУ(КГЗ) 7:1 ҳисобида ғалаба қозониб 3-ўрин учун беллашувга йўлланма олди. 3-ўрин учун баҳсда С. Бадагимофрага (ҚАТ) 6:5 ҳисобида мағлуб бўлди. Мухаммадқодир Расулов – 82 кг вазн тойфасида 5-ўринда якунлади.

Жалгасбай Бердимуратов 87 кг вазн тойфасида 1/4 баҳсида С.Парк (КОР) 10:0 ҳисобида ишонарли ғалаба қозониб ярим финалга йўлланма олди. 1/2 баҳсида Ш.Ожаев (КАЗ) устидан 5:1 ҳисобида ғалаба қозониб финалга йўлланма олди. Финал баҳсида Я.Язди (ИРИ) устидан 7:1 ҳисобида

ғалаба қозониб – 87 кг вазн тоифасида Жалгасбай Бердимуратов мутлоқ ғолиб бўлди.

Бехруз Барноев 97 кг вазн тойфасида ўтиш баҳсида И.Фаллатах (КСА) 9:0 ҳисобида ишонарли ғалаба қозонди. 1/4 баҳсида эса Ю.Чанг(Хитой) спортчига 5:1 ҳисобида мағлуб бўлди. Ю.Чанг (Хитой) спортчиси 1/2 баҳсида финалга йўлланмани қолга кирита олмади.

Тимурбек Насимов 130 кг вазн тойфасида1/4 баҳсида А.Касасбах (ЖОР) 4:0 ҳисобида ғалаба қозонди. 1/2 баҳсида А.Сыздыковга (КАЗ) 4:1 ҳисобида мағлуб бўлди. 3-ўрин учун баҳсда А.Шаруига (Ироқ) 6:4 ҳисобида мағлуб бўлди. Тимурбек Насимов – 130 кг вазн тойфасида 5-ўринда якунлади.

Хулоса қилиб айтганда Мамлакатимизда юнон-рум курашини янада ривожлантириш учун ўқув жараёнининг илмий-услубий ёндашувини такомиллаштириш зарур. Спорт заҳираларини тайёрлаш тизимини ривожлантириш дастурларини ишлаб чиқиш ва тасдиқлаш зарурати келиб чиқади. Спортчиларнинг профессионал маҳоратини ва тренерларнинг касбий малакасини ошириш учун юнон-рум кураши бўйича хорижий мактаблар билан ҳамкорликни ривожлантириш ва тажриба алмашиш, юнон-рум курашини ривожланган мамлакатлар билан рақобат қила оладиган даражага етказиш мақсадга мувофиқ бўлар эди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022-йил 29-июлдаги ПҚ 336-сонли «Спорт курашларининг олимпия турларини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида »ги қарори.

Shebaqay boksshıǵa qarsı aldınan tayarlanbastan turıp bellesiw alıp barıw biraz qıyın. Shep qolda berilgen kútilmegen soqqılar hám ádetdegi qarsı háreketlerdi qollaw múmkinshilıǵınıń joq ekenligi qarsılastıń qattı tınıshsızlanıwına alıp keledi hámde onıń ǵayratın sóndiredi. Oń tárepleme boks túsiwshi shebaqay boksshıǵa qarsı taktika tańlap turıp, birinshi náwbette, bul boksshı qaysı usılda bellesiw alıp barıwın esapqa alıw kerek ol hújimshi yáki qarsı hújim usılında, uzaq yáki jaqın aralıqta boks túsedime, toqtawsız hújim etedime yáki onıń hújimleri qısqa juwmaqlanǵan alısıw ózgesheligine iyeme? Ádette bunday boksshılar oń qoldaǵı soqqı ushın biraz ashıq boladı hám sol sebepli olar menen bellesiw alıp barıwda tiykarǵı taktikalıq qural retinde shep qolda shalǵıtıp hám qáwip salıp, oń qolda basqa tez hámde keskin soqqılardı qollaw kerek. Hújimdi demde rawajlandırıw, jaqın aralıqqa ótiw ushın soqqı beriwge tayar oń qoldı shebaqay boksshıǵa jaqınlastırıw maqsetinde ádettegiden kóre biraz júzbe-júz tik turıw jaǵdayın qabıllaw kerek.

Boksshı shebaqay qarsılası menen ushrashqanda sol zattı mudamı yadda saqlawı zárúr, shebaqay boksshılar, hár qıylı usılda bellesiw alıp barıwlarına

qaramastan, mudamı shep qolda keskin soqqı beriwge tayar turadı. Sol sebepli shep qoldağı soqqılardan itibarlılıq penen qarap, abaylı bolıwı zárúr. Jaqın aralıqta bellesiw alıp barıw shebaqay boksshınıń artıqmashlıǵın azaytadı, biraq bul jerde de onıń shep qolda kúshli soqqı beriw múmkinshiligi saqlanıp qaladı.

Shebaqay boksshıǵa qarsı tásirli usıllardan biri oń qolda berilgen hújim soqqısına qarsı shepke aldınǵa qádem taslaw menen shep qolda ámelge asırılatuǵın kesilispe (joqarıdan) soqqı esaplanadı. Bul jerde texnikalardıń tez-tez ushırasıp turatuǵın tiykarǵı túrleri kórsetip ótiledi. Jawınger ámeliyatda olar biraz kóp, biraq olardıń negizi mudamı kóp yáki kem muǵdarda aytılǵanlarǵa jaqın. Biraq boksshılar texnikalarınń hár qıylı túrlerinen hár túrli paydalanadı. Bellesiw basınan aqırına shekem birdey usılda háreket etetuǵın boksshını kemnen-kem jaǵdaylarda ushıratıw múmkin. Bellesiw dawamında jaǵday tásirinde hám qarsılasqa qarsılıq kórsetiw zárúrligi sebepli, boksshı ayrıqsha bolǵan bellesiw usılı hám texnikaların tez-tez ózgertirip turadı, qarsılastı qıyın jaǵdayǵa salıp qoyıw, óziniń qıyın jaǵdaydan shıǵıp ketiwi yáki qarsılas taktikasındağı ózgerislerge iykemlesiwi ushın jańa jawınger qurallardı izlep tabadı.

Juwmaq. Kombinacion boksshı menen shebaqay boksshılar kóp ushraydı hám bul sportshılarǵa qarsı bellesiw taktikasın qollaw júdá ahmiyetli orın iyeleydi. Tuwrı dúzilgen taktika bellesiwdi isenimli ótkeriw hám qarsılastı jeńiw imkaniyatın beredi. kombinacion bellesiw alıp baratuǵın universal hámde shebaqay boksshılarǵa qarsı bellesiwler texnikalıq hám taktikalıq tayarlıqsız joqarı nátiyjelerge erisip bolmaydı.

Paydalanıǵan ádebiyatlar

1. Bim Bekman, Aman Atilov. Boks na 100%. Rostov n/D:Feniks, 2007.- 315.

2. Hámleriy Shitov. Boks dlya nachinayushi'. M.:FAIR-PRESS, 2004.- 448 s.: il.-(Sport).

3. Xalmuxamedov R. D. Boks. Oqıw qollanba. Tashkent. " Lider Press" baspası, 2008 y. 308 bet.

MAHALLALARDA KURASH BO‘YICHA TO‘GARAKLARNI TASHKIL QILISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Xudayorov Doniyor Davlatyor o‘g‘li

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filialı o‘qituvchisi

Kalit so’zlar: *mahalla, kurash, sport to‘garagi, yoshlar, sog‘lom turmush tarzi, sport infratuzilmasi, murabbiylar, sportni ommalashtirish, ijtimoiy hamkorlik, milliy sport, sport siyosati.*

Ключевые слова*: махалля, кураш, спортивный кружок, молодежь, здоровый образ жизни, спортивная инфраструктура, тренеры, популяризация спорта, социальное партнерство, национальный спорт, спортивная политика.*

Keywords: *Mahalla, kurash, sports club, youth, healthy lifestyle, sports infrastructure, coaches, sports promotion, social partnership, national sport, sports policy.*

Kirish. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlarga oid siyosatini amalga oshirish doirasida sportni ommalashtirish, ayniqsa mahalla darajasida sport to‘garaklarini tashkil etish bo‘yicha qator ishlar olib borilmoqda. Xususan, milliy sport turi bo‘lgan kurashni yoshlar orasida targ‘ib qilish, ularni sog‘lom turmush tarziga jalb etish muhim vazifalardan biridir. Mahalla – jamiyatning eng muhim bo‘g‘ini sifatida yosh avlodni tarbiyalashda, ularni sportga yo‘naltirishda beqiyos rol o‘ynaydi. Shunday ekan, mahallalarda kurash bo‘yicha to‘garaklarni tashkil qilish va ularning faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish bo‘yicha mexanizmlarni takomillashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi – mahallalarda kurash bo‘yicha sport to‘garaklarini samarali tashkil qilish va rivojlantirish jarayonini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha takomillashgan mexanizmlarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot orqali yoshlarni sog‘lom turmush tarziga jalb etish, milliy sport turlarini ommalashtirish va ijtimoiy faollikni oshirishga xizmat qiluvchi amaliy tavsiyalar ishlab chiqilishi ko‘zda tutiladi.

Kurash sportining ahamiyati: Kurash – bu nafaqat milliy sport turi, balki yoshlarning jismoniy va ma’naviy jihatdan yetuk shaxs bo‘lib shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. U sabr, iroda, jismoniy bardoshlik, raqibga hurmat kabi fazilatlarni shakllantiradi. Shu sababli, kurashni mahallalardagi sport to‘garaklarida rivojlantirish, bu orqali sog‘lom avlodni voyaga yetkazish strategik ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-maydagi PQ–5110-sonli qarorida sport maktablari va to‘garaklarini rivojlantirish, jumladan, mahallalarda milliy sport turlarini ommalashtirish bo‘yicha qator topshiriqlar berilgan. Bu esa mazkur mavzuning dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Mahallalardagi holat tahlili: Hozirgi kunda respublika bo‘yicha ko‘plab mahallalarda sport bilan shug‘ullanish uchun shart-sharoitlar mavjud emas yoki yetarli darajada emas. Ayniqsa, kurash bo‘yicha to‘garaklar soni cheklangan, murabbiylar tanqisligi, moddiy-texnik baza zaifligi va tashkiliy muammolar mavjud.

Mahalla faollari va yoshlar bilan o‘tkazilgan so‘rovlar asosida aniqlanishicha, kurashga qiziqish yuqori bo‘lsa-da, doimiy faoliyat yurituvchi to‘garaklar soni oz. Aksariyat holatlarda, sport inshootlarining yo‘qligi yoki mavjud joylarning noto‘g‘ri taqsimlanganligi sababli to‘garaklar doimiy ishlamaydi.

Mexanizmlarni takomillashtirish yo‘llari: Mahallalarda kurash bo‘yicha to‘garaklarni muvaffaqiyatli tashkil qilish uchun quyidagi mexanizmlarni takomillashtirish zarur:

1. Infratuzilmani rivojlantirish – Har bir mahallada sport uchun ajratilgan maxsus joylar (sport zallari, maydonchalar) barpo etilishi kerak.

2. Murabbiylar bilan ta’minlash – Yosh va tajribali mutaxassislarni jalb qilish, ularni mahallalarda doimiy ishlashga rag‘batlantirish tizimini yaratish zarur.

3. Mahalliy budjet va homiylik tizimi – Mahalla budjeti hisobidan va homiylar jalb qilinishi orqali to‘garaklarga moddiy yordam ko‘rsatish mexanizmi yo‘lga qo‘yilishi lozim.

4. Mahallaviy musobaqalarni tashkil qilish – Kurash bo‘yicha tuman, shahar va viloyat miqyosida mahalla vakillarining ishtirokida musobaqalarni o‘tkazish orqali sportchilarning mahoratini oshirish mumkin.

5. Axborot-kasbga yo‘naltirish ishlari – Ota-onalar, yoshlar va mahalla aholisi orasida kurashning foydasi haqida targ‘ibot ishlarini kuchaytirish kerak.

Xulosa va takliflar: Kurash bo‘yicha mahallaviy to‘garaklarni rivojlantirish orqali yoshlarni sportga jalb qilish, salbiy illatlardan himoya qilish va sog‘lom avlodni voyaga yetkazish yo‘lida muhim qadamlar qo‘yiladi. Shuning uchun:

- Har bir mahallada kamida bitta kurash to‘garagi tashkil etilishi lozim;
- Mahalla raislari, yoshlar yetakchilari va sport tashkilotlari o‘zaro hamkorlikda ishlashi kerak;
- Kurash bo‘yicha iqtidorli yoshlarni aniqlash va ularga davlat darajasida qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini joriy qilish zarur.

Shuningdek, ilmiy izlanishlar asosida yangi modellar ishlab chiqilishi va tajriba sifatida joriy etilishi mumkin. Shu yo‘l bilan kurashni nafaqat sport turi, balki milliy meros sifatida avloddan-avlodga yetkazish imkoni yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–5110-son qarori, 2021-yil 5-may.

2. “O‘zbekiston Respublikasi sportni rivojlantirish konsepsiyasi”, 2019-yil.

3. Mahallalarda sportni rivojlantirish bo‘yicha metodik tavsiyalar. Toshkent, 2022.

RESPUBLIKAMIZDA YOSH GANDBOLCHI DARVOZABONLARINI TAYYORLASHNI HOZIRGI HOLATI, MAVJUD MUAMMOLARI VA IMKONIYATLARNI ANIQLASH

Zaribboyev Zafarbek Farxod o‘g‘li

Jismoniy tarbiya va sport ilmiy-tadqiqotlar institutining 1-bosqich magistranti

Kalit so‘zlar: *Innovatsion yechimlar, jismoniy tayyorgarlik, psixologik yondashuv, trenerlar malakasi, sport maktablari, musobaqalar*

Ключевые слова*: Инновационные решения, физическая подготовка, психологический подход, квалификация тренеров, спортивные школы, соревнования.*

Keywords: *Innovative solutions, physical training, psychological approach, coaches' qualifications, sports schools, competitions.*

Dolzarbligi: O‘zbekistonda gandbol sporti, ayniqsa yoshlar o‘rtasida kundan-kunga rivojlanib bormoqda. Bu sohada davlat tomonidan keng ko‘lamli chora-tadbirlar olib borilmoqda masalan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-noyabrdagi “O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5279-sonli Farmoni sport infratuzilmasini rivojlantirish va malakali kadrlar tayyorlashga qaratilgandir [1]. Ammo bu sport turida malakali darvozabonlarni tayyorlash jarayoni haqida aniq statistika yoki keng qamrovli ma’lumotlar ochiq manbalarda kam uchraydi. Sport vazirligining rasmiy sayti (https://gov.uz/oz/sport) va O‘zbekiston Gandbol Federatsiyasi (https://uzhandball.uz) ma’lumotlariga ko‘ra shu bilan birga “Umid nihollari” va “O‘zbekiston chempionatlari” kabi ko‘plab yuqori darajali musobaqalardagi o‘yin tahlillari shuni ko‘rsatadiki yosh gandbolchi darvozabonlarda ba’zi texnikalar ko‘nikmaligicha ya’ni malakagacha shakillanmaganligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Masalan, to‘pni qaytarish, ushlash, va tez reaksiya ko‘rsatish kabi asosiy texnikalar ko‘pincha yetarlicha o‘zlashtirilmagan bo‘lib chiqadi. Bu muammo A.Sh.Muminovning tadqiqotlarida ham tilga olingan bo‘lib, unda turli malakali gandbolchilarning chaqqonlik sifatlari tahlil qilingan, unda yosh sportchilarning texnik tayyorgarligidagi kamchiliklar aniqlangan [3]. Bundan tashqari, o‘yinlar jarayonida yosh darvozabonlarda psixologik tayyorgarlikning pastligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. O‘yin davomida stressli vaziyatlarda o‘zini boshqara olmaslik, raqibning harakatlarini oldindan taxmin qila olmaslik va o‘ziga ishonchsizlik kabi holatlar musobaqa natijalariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. L.Z.Xolmurodov o‘z tadqiqotida yosh sportchilarda jismoniy sifatlar bilan birga psixologik tayyorgarlikni rivojlantirish zarurligini ham ta’kidlaydi, chunki bu ularda o‘ziga ishonch va barqarorlikni shakllantiradi [2].

Respublikamizdagi ba’zi yosh trenerlarning xalqaro tajribadan kam foydalanishi darvozabonlarni tayyorlash jarayonini qiyinlashtiruvchi asosiy omillardan biridir. Dunyoning gandbol sport turidan yetakchi mamlakatlari, masalan, Daniya tajribasi shuni ko‘rsatadiki, darvozabonlarni tayyorlashda individual mashg‘ulotlar, biomehanik tahlillar va kinematik usullardan foydalanish yuqori natijalarga erishish imkonini bergan. Biroq, O‘zbekistonda ko‘plab trenerlar bunday innovatsion yondashuvlarni qo‘llashda sustkashlik qilmoqda. Z.Z.Yusupovning tadqiqotlari shuni tasdiqlaydiki, boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida sportchilarni saralashda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish sportchilarning imkoniyatlarini aniqroq baholashga yordam beradi.

O‘zbekistonning chekka hududlarida sport inshoatlarining yetarlicha jihozlanmaganligi yosh darvozabonlarni tayyorlashda jiddiy to‘siq bo‘lib kelmoqda. Shu bilan birga mavjud infratuzilmadan foydalanishda ba’zi yosh trenerlar tomonidan sustkashlik kuzatiladi. Masalan, zamonaviy trenajyorlar va maxsus jihozlardan foydalanish o‘rniga an’anaviy mashg‘ulot usullari qo‘llashadi. Bu esa sportchilarning texnik mahoratini rivojlantirishda bir nechta cheklovlarga sabab bo‘ladi masalan turli ixcham mashg’ulotlarda foydalansa bo‘ladigan vositalar bo‘lsada mashg‘ulotlarda deyarli kam qo‘llaniladi. Ko‘p

xollarda mashg‘ulotlar odatdagidek ya’ni, yugurish, qizinish, to‘p bilan ishlash atrif, 15/20 minutdan 2 taym o‘yin bilan mashg‘ulotlar yakun topadi. Biz tavfsiya qilardikki biomehanik tahlillar, kinematik tahlillar, video tahlillar kabi innavotsiyalardan foydalansalar xalqaro tajribalarni ham o‘zlashtira boshlasalar nafaqat mashg‘ulotlarda sportchilarni texnik xatoliklari kamayadi shu bilan birga musobaqalardagi natijalari ham yaxshilanishlar kuzatila boshlaydi. Bunga yaqqol misol Respublikamizdagi OKMK (Olmaliq kon-metallurgiya kombinati) jamosi.

O‘zbekistonda yuqori natijalar ko‘rsatib kelayotgan OKMK jamoasini misol keltirish mumkin. Ushbu jamoa trenerlarlari darvozabonlar bilan individual mashg‘ulotlar olib borishadi va innovatsion usullardan samarali foydalanishadi. “okmkhandball” Instagram sahifasida joylashtirilgan mashg‘ulot videolari orqali kuzatishingiz mumkin, OKMK darvozabonlar uchun alohida trenerlar jalb qilgan bo‘lib, ular sportchilarning texnika va taktikalarini malaka darajasiga yetkazishga muvaffaq bo‘lmoqdalar. OKMK jamoasi gandbol sportida hozirda Respublikada birinchi o‘rinni mustahkam egallab turibdi, bu esa to‘g‘ri yondashuv va zamonaviy usullardan samarali foydalanishlarini ko‘rsatadi.

Maqsad: Yosh gandbolchi darvozabonlarni jismoniy tayyorgarliklarini zamonaviy innovatsion vositalar asosida takomillashtirishni taklif qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari: - Gandbolchi darvozabonlarning tayyorgarlik holati

- Innovatsion yondashuvlarni joriy etish
- Mashg‘ulotlarni individual tarzda amalga oshirish

Yechim sifatida takliflar: O‘zbekistonda yosh gandbolchi darvozabonlarni tayyorlash jarayonini takomillashtirish uchun quyidagi yechimlarni taklif etamiz:

Xalqaro tajribalarnini o‘rganib borish va qo‘llash: Daniya kabi gandbol bo‘yicha dunyoning yetakchi mamlakatlari tajribasini o‘rganish.

Biomehanik va kinematik tahlillarni amalga oshirish. Bu kabi biomehanik va kinematik tahlillarni gandbolchilarning harakatlarida bajarish. Biomehanik tahlillarni amalga oshirish uchun “*Kinovea”* kabi bepul dasturni taklif qilamiz. Buni *google* platformasi orqali topishingiz mumkin, u orqali mashg‘ulotlardagi asosiy qismini videosini dasturga yuklash orqali tahlillarni amalga oshirishingiz mumkin bo‘ladi. Bu esa gandbolchining turli harakatlaridagi kichik xatoliklarni aniqlash imkonini beradi.

Darvozabonlar uchun individual mashg‘ulotlarni ko‘paytirish: Ya’ni darvozabonlar uchun alohida murabbiy shug‘ullanishi, ularning texnik va psixologik tayyorgarligiga alohida e’tibor qaratishi lozim.

Xorij tajribasini o‘rganib borish: ijtimoiy tarmoqlarda gandbolchi darvozabonlar uchun mavjud mashg‘ulotlarni kuzatib borish, xorijiy va respublikamizda mavjud bo‘lgan ilmiy jurnallarni o‘qib tanishib borishni ko‘paytirish, masalan: “sportda ilmiy tadqiqotlar” va “Fan sportga” kabi jurnallar Oliy Attestatsiya komissiyasi ro‘yxatidan o‘tgan va unda ko‘plab sport sohasi olimlari va mutaxasislari o‘z ilmiy tadqiqotlarini yoritib berishgan.

Xulosa qilib aytganda: Yosh gandbolchi darvozabonlarni tayyorlashda texnik va psixologik tayyorgarligidagi muammolar saqlanib qolmoqda. Ko‘plab murabbiylarning xalqaro tajribalardan kam foydalanishi va sportchilarni saralashdagi xatolari bu jarayonni qiyinlashtirmoqda. Biroq, Daniya kabi yetakchi mamlakatlar tajribasi va Respublikamizdagi OKMK jamoasining mashg‘ulot usullarini modellashtirish orqali ushbu muammolarni bartaraf etish mumkin. Innovatsion usullar va individual mashg‘ulotlardan samarali foydalanish yosh darvozabonlarning malakasini oshirishga samarali xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yl 5 noyabrdagi “O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5279-sonli Farmoni.
2. Xolmurodov, L (2021). Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish. Fan-sportga, (1), 46-49.
3. Мўминов А.Ш. Турли малакали ганд-болчиларнинг чаққонлик сифати кўрсаткичларини тахлилий ўрганиш // “ФАН-СПОРТГА” илмий назарий журнал 2021. 1 сон. Б. 23-25.
4. Юсупов З.З. Бошланғич тайёргарлик босқичига ёш гандболчиларни саралаш технологияси // автореф. дис....педагогика фанлари (PhD). – Чирчиқ. 2020. – 56 б.

ERKIN KURASHCHI XOTIN-QIZLARNING TAKTIK TAYYORGARLIKLARI

Yakupbaev Alisher Alimbaevich

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali

p.f.b.f.d (PhD), dotsent

Kalit so‘zlar: Mashg'ulot, taktik tayyorgarlik, hujum, qarshi hujum, himoya, kombinatsiyalar.

Ключевые слова: Тренировочный процесс, тактическая подготовка, атака, контратака, защита, комбинации.

Key words: Training process, tactical training, attack, counterattack, defense, combinations.

Kirish. Erkin kurashning jadal rivojlanishi, xalqaro maydonda raqobatning kuchayishi kurashchilarning taktik mahoratini nafaqat ko'p yillik sport mashg'ulotlarining dastlabki bosqichlarida, balki sportni takomillashtirish bosqichida ham amalga oshirishni taqozo etadi.

Ayollar kurashi tobora ommalashib bormoqda. 20-asrning ikkinchi yarmidan boshlab ayollar an'anaviy ravishda erkaklar sport turlari hisoblangan - futbol, xokkey, yakka kurashni faol ravishda o'zlashtirdilar. 2000-yillarning boshidan O‘zbekistonda ayollar kurashi jadal rivojlanmoqda. Sportchilar yirik xalqaro musobaqalarda qatnashaib kelmoqda. Ayni paytda erkin kurash bo‘yicha ayollar terma jamoasi Osiyodagi eng kuchli jamoalardan biri hisoblanadi. Ko'pgina mamlakatlarda ayollar kurashining tobora ommalashib borishi uni 2004 yilda

Gretsiyaning Afina shahrida bo'lib o'tgan Olimpiya o'yinlariga kiritish istiqbollarini ochib berdi.

“Taktika” atamasi dastlab harbiy ishlarda qo‘llanilgan bo‘lib, jang paytida dushman ustidan g‘alaba qozonish uchun turli kuch va vositalar yordamida bajariladigan ma’lum manevrlarni bildirgan. Keyinchalik, bu atama inson faoliyatining boshqa sohalariga tarqaldi. Qarama-qarshilik yoki ziddiyat mavjud bo'lgan har qanday vaziyatga nisbatan taktika haqida gapirishingiz mumkin. Bu atamaning umumiy ma’nosi – ustunlikka, g‘alabaga erishish uchun raqibning sharoiti, harakatlari va imkoniyatlarini, o‘z imkoniyatlarini, sifatlarini, individual xususiyatlarini tushunish asosida bellashuv uchun muayyan turdagi qobiliyat va ko‘nikmalardan foydalanishdir.

Sportda "taktika" tushunchasi biroz boshqacha ma'no kasb etdi. Bu raqobat faolligi sharoitida raqib ustidan g'alaba qozonishning turli usullari va metodlardan foydalanishdir.

Sport taktikasi - aniq musobaqa sharoitida eng yuqori natijaga erishish uchun texnik, jismoniy va psixologik sifatlarini maqsadga muvofiq foydalanish san'ati. Taktika vaziyatni tahlil qilish, raqibning harakatlarini tushunish va bashorat qilish uchun aqliy operatsiyalar va harakatlar tizimini amalga oshirishni o'z ichiga oladi. Bu sport musobaqalari qoidalarini, sportchining tayyorgarligidagi resurslar va cheklovlarni, atrof-muhitning o‘ziga xos sharoitlarini, shuningdek, oqilona taqsimlashni hisobga olgan holda, dolzarb raqobat muammolarini hal qilish uchun usullardan foydalanishning eng samarali usullarini tanlash va maqsadli qo'llashni nazarda tutadi. Raqobat harakatlarini amalga oshirish jarayonida harakatlar, raqibga ta'sir qilish va o'z niyatlarini yashirishdir. Sport taktikasining asosiy maqsadi musobaqa faoliyatining usuldan maksimal samaradorlik bilan foydalanish, sportchining musobaqa faoliyatida jismoniy, fiziologik, aqliy imkoniyatlarini ochib berishga va raqibning qarshiligini eng kam yo'qotishlar bilan engib o'tishga imkon beradigan harakatlarga tayanishdan iborat.

Kurash taktikasi - bu musobaqalarda eng yaxshi natijaga erishish uchun yuzaga kelgan muayyan sharoitlarda texnik, jismoniy va irodaviy imkoniyatlardan maqsadga muvofiq holda foydalanishdir. Taktik tayyorgarlik sportchilarda taktika sohasidagi zarur bilimlarni egallash, sport kurashini to‘g‘ri olib borishda ma’lum malaka hamda bilimlarni shakllantirish, shuningdek taktik mahoratni takomillashtirishga qaratilgan.

Taktik tayyorgarlikning asosiy maqsadi sportchida musobaqada g‘alabaga erishish yoki yuqoriroq natijani ko‘rsatish maqsadida sport bellashuvini to‘g‘ri tashkil qilish hamda olib borish qobiliyatini tarbiyalashdan iborat.

Kurash taktikasi sportchilar va murabbiylar faoliyati natijasida rivojlanib, boyib bormoqda. Agar qoidalar o'zgarsa yoki o'tkazish uchun yangi talablar o'zgartirilsa, bellashuv qoidalari yangilanadi. Birinchi kurashchining taktik tayyorgarligining vazifasi - texnik harakatlarni taktik harakatlar bilan bog'lash qobiliyatini rivojlantirish, texnik-taktik mashiqlarini etarli miqdorda takrorlash. Taktik tayyorgarlikning ikkinchi vazifasi operativ taktik fikrlashni rivojlantirishdan iborat bo'lib, bu turli raqiblar bilan bellashuvlarda

ko'nikmalardan oqilona va o'z vaqtida foydalanishni ta'minlashi kerak. Taktik tayyorgarlikning uchinchi vazifasi kurashchini tahlil qilishga va kurash rejasini tuzishga shu asosda tomonlarning imkoniyatlarini mumkin bo'lgan variantlarini bashorat qilishga ya'ni bellashuvni modellashtirishga o'rgatishdir.

Taktik reja va uni musobaqada amalga oshirish texnik, jismoniy va taktik tayyorgarlikning mavjud darajasiga, musobaqa shartlari va xususiyatlariga, raqibning tayyorgarlik darajasi va xususiyatlariga mos kelishi kerak. Taktika, kuch, tezlik, epchillik, murakkab muvofiqlashtirilgan harakatlarda eng yuqori natijaga erishishga qaratilgan bo'lishi mumkin. Yakka kurash sport turlarida taktika raqib bilan kurashish uchun o'z kuchini va mahoratini maksimal darajada yo'naltirishda ifodalanadi.

Zamonaviy sport nazariyasida sportchining tayyorgarlik darajasi va malakasiga, raqiblarning xususiyatlariga qarab taktikaning har xil turlari ajratiladi. Musobaqalarda erkin kurashni o'tkazish shakllari va usullarining kombinatsiyasi sifatida quyidagi taktikalar ajralib turadi.

Birinchi tur passiv taktika - kerakli vaqtda faol harakatlarni amalga oshirish uchun oldindan ko'zda tutilgan tashabbusni ta'minlash.

Ikkinchi tur faol taktika- raqibga o'zi uchun foydali bo'lgan muayyan harakatlarni qo'llashni o'z ichiga oladi.

Uchinchi tur aralash taktika - raqobat kurashini olib borishning faol va passiv shakllari va usullarining kombinatsiyasini o'z ichiga oladi.

Sport musobaqalarida harakatning taktik vazifalarini uch turga bo'lish mumkin: tayyorgarlik, hujum va himoya. Tayyorgarlik harakatlari tabiatan razvedka bo'lib, taktik harakatni amalga oshirishni boshlash uchun vaqtni tanlash, raqibning harakatlarini tahlil qilish o'z taktikasini niqoblashni o'z ichiga oladi. Hujum, himoya va qarshi hujum harakatlarini o'z ichiga oladi. Himoyadagi harakatlar pozitsion, manevr va kombinatsiyaga bo'linadi. Taktik yo'nalishiga ko'ra, barcha harakatlar haqiqiy va yolg'onga bo'linadi. Sport rivojining zamonaviy tendentsiyalari asosida erkin kurashning taktik harakatlar va uslublari arsenali doimiy ravishda yangilanib boriladi. Murabbiylar sportchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda an'anaviy va yangi taktik harakatlar shakllarini ishlab chiqadilar va tanlaydilar.

Taktik tayyorgarlik natijasida sportchilarning taktik tayyorgarligi taktik bilim, ko'nikmaga ega bo'lish, taktik fikrlashni rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Taktik bilimlar - sportda taktikaning turlari va shakllari, taktik vositalar haqida, ularni mashg'ulot va musobaqa faoliyati jarayonida qo'llash to'g'risidagi tushunchalar va g'oyalaridir.

Taktik ko'nikmalar - bu taktik bilimlarga asoslangan harakatlarni bajarish qobiliyatidir. Bu raqibning harakatlarini bashorat qilish, raqobatning rivojlanish jarayonini tahlil qilish, raqobatdosh muammolarni hal qilish usullarini to'g'ri tanlash qobiliyatidir. Musoboqa faoliyatining taktikasi - harakatlar rejasi va ularni amalda amalga oshirishdan iborat. Eng samarali taktika taktik rejaning sportchining texnik, jismoniy va psixologik imkoniyatlariga aniq mos kelishi bilan ta'minlanadi.

Sportchining taktik mahorati uning texnik tayyorgarligiga asoslanadi. Agar sportda texnika ma'lum bir sport turidagi harakat muammolarini eng samarali hal qilishni belgilovchi texnika va harakatlar majmua bo'lsa, taktika ulardan foydalanishning maqsadga muvofiqligidir. Musoboqa faoliyatida taktik masalani yechishga xizmat qiluvchi texnikalar majmuasi harakat deyiladi.

Sportdagi texnika va taktika yagona tizimni tashkil qiladi: har bir taktik harakat yoki texnikadan ma'lum taktikani hal qilishda yurish mumkin, ammo har qanday texnika yoki harakatni taktik tayyorgarliksiz amalga oshirib bo'lmaydi. Bu holat sportga oid ixtisoslashtirilgan adabiyotlarda “texnik-taktik tayyorgarlik” atamasining umumiy qabul qilinishiga olib keldi.

Sport bellashuvlarida taktika muhim rol o'ynaydi. Bellashuvning natijasi ko'p jihatdan sportchilarning taktik mahoratiga, musobaqa o'zgarishlarga muvofiq taktikalarning mukammalligiga bog'liq. Sport kurashida taktikaning o‘ziga xos xususiyati bevosita jismoniy aloqasiga dori vositalarining bir-biriga bevosita ta’sir ko‘rsatishi bo‘lib, bu kurashchilarning harakatlari va javoblari o‘rtasida yaqin bog‘lanishga olib keladi.

Kurashda texnika va taktika o`zaro chambarchas bog`liqlikda, birlikda bo`ladi. Har bir bajarilgan taktik harakat ham ma'lum bir texnik harakatdir. Masalan, siltanish harakatlar taktik maqsadlarda rahibini muvozanatdan chiqarish va hujum qilish uchun sharoit yaratish uchun ishlatilishi mumkin. Bir tomondan, bu texnik harakatlar bo'lsa, ikkinchi tomondan, ular hujumga tayyorgarlik ko'rish taktikasiga kiritilgan. Ya'ni, kurashchilarning raqobatbardosh faoliyatining muvaffaqiyati texnikasi va taktikasiga ega bo'lishiga bog'liq.

Sport kurashida juda ko'p sonli texnik-taktik harakatlar mavjud, bundan tashqari, ularning soni doimiy ravishda o'sib bormoqda. Lekin, ularning xilma-xilligiga qaramay, barcha asosiy taktik harakatlarni taktika turlariga ko'ra uch guruhga birlashtirish mumkin: hujumga qarshi himoya.

Hujum taktikasi erkin kurashda muvaffaqiyatni maksimal darajada ta'minlaydi. Aynan hujumda ayrim kurashchilar jismoniy va ruhiy imkoniyatlarini ochib berishada, texnik-taktik mahorat ko‘rsatishadi, tashabbusni qo‘lga olishadi.

Qarshi hujum taktikasi rahibi faol harakat qilganda yuzaga keladigan qulay daqiqalarda yaqinlashib kelayotgan va javob qarshi hujumlardan foydalanishdan iborat. Bunday taktikalar, agar raqib tezligi past bo'lsa va shu bilan birga doimiy yoki vaqti-vaqti bilan hujum qilishga intilsa, bellashuvning muvaffaqiyatli o'tishiga yordam beradi.

Himoya taktikasi shundan iborat sportchi himoyaga eng ko'p e'tibor beradi, erkin kurashda tashabbus ko'rsatmaydi va faqat xatoga yo'l qo'ygandagina raqibga hujum qilishga harakat qiladi. Agar bu taktika etakchi bo'lsa, u mag'lubiyatga olib keladi.

Erkin kurashchi ayollarning texnik-taktik tayyorgarligi jarayonida quyidagi tarkibiy qismlarni innovacion deb hisoblash kerak: “taktik tayyorgarlik variantlari bilan individual texnik harakatlarni takomillashtirishga e’tiborni kuchaytirish, musobaqadan oldingi bosqichlarda texnik va taktik tayyorgarlik hajmini oshirish. o'quv jarayoni, texnik-taktik harakatlar va sport texnik ko'rsatkichlari tarkibini

nazorat qilish, murakkab texnik va taktik harakatlarni takomillashtirishga urg'u beradi. Bu ayollar va erkaklarning taktik va texnik tayyorgarligini tahlil qilish uning tadqiqot vazifalari doirasidan tashqariga chiqadi. Muayyan ma'noda kurashchi ayollarning taktik tayyorgarligining xususiyatlarini aniqlash zarurati olib tashlanadi, chunki har bir malakali sportchi, jinsidan qat'i nazar, o'ziga xos taktik uslubga ega.

Xulosa. Erkin kurashchi ayollarning taktik va texnik tayyorgarligi sportchilarning natijalari uchun alohida ahamiyatga ega. To'g'ri tuzilgan taktika bellashuvni ishonchli o'tkazish va raqiblarni yutish imkonini beradi. Texnik va taktik tayyorgarliksiz yuqori natijalarga erishib bo'lmaydi. Erkin kurashchi xotin-qizlarning taktik tayyorgarliklarini takomillashtirishda vazn taifalarini hisobga olgan holda tayyorlash samarali dep hisoplaymiz. Chunki yengil vazn toifasidagi sportchilar harakatchang bolib holdan toish qolatlari kamdan-kam kuzatiladi. O‘g‘ir vazn toifasidagi sportchilar esa kam harakatchang bo‘lib holdan toish harakatlari ko’p hollarda ekkinchi bo’limda kuzatilmoqda. Shuning uchun biz sportchilarimizga birinchi bol’imda kam harakatlanib asosiy kuchini ikkinchi bolimga yonaltirish taktikasini ishlab chiqdik va o’z samarasini berdi. Eksperimental guruhning o‘smir erkin kurashchi xotin-qizlarning texnik-taktik tayyorgarliklarini takomillashtirish ularning sport malakasini sezilarli darajada oshirish imkonini berdi. Yoshlar ortasida O‘zbekiston chempionatida ikki nafar sportchimiz “O‘zbekiston sport ustasi” normativini bajarip, ayyollar erkin kurashi bo‘yicha O‘zbekiston terma jamoasiga azo bolishdi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Шахмурадов Ю. А. Методика совершенствования технико-тактического мастерства высококвалифицированных борцов вольного стиля: метод. рекомендации / Ю. А. Шахмурадов, Ш. Т. Невретдинов, Г. Б. Бардамов. – Москва, 198– 44 с.

2. Тараканов Б. И. Системно-исторический анализ и тенденции развития вольной борьбы в программах Олимпийских игр / Б. И. Тараканов, Р. Н. Апойко // Ученые записки университета имени П.Ф. Лесгафта. – 2013 – № 4 (98). – С. 45-49.

TALABALARNING JISMONIY RIVOJLANISHI VA FUNKSIONAL HOLATINI NAZORAT QILISH

Abdugapparov Abdullajon Mamazuparovich
FarDTU, Ijtimoiy fanlar va sport kafedrasi katta o’qituvchisi
Farg’ona,O’zbekiston

Kalit so’zlar: *jismoniy tarbiya, jismoniy tayyorgarlik, jismoniy rivojlanish, gavda tuzilishi, tibbiy-biologik tekshirish.*

Jismoniy tarbiya va sport-umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismlaridir. Shu sababli davlatimizda jismoniy tarbiya va sport taraqqiyoti muammolariga chuqur e’tibor berilishi lozim. Bu borada O`zbekiston Respublikasining «Jismoniy tarbiya va sport haqida» gi Qonuni muhim ahamiyatga ega.

Sog`lom avlod- nafaqat jismonan, balki aqlan yetuk avloddir. Har tomonlama komil shaxsni tarbiyalash uchun tibbiy-psixologik xizmatni tashkil etish, bog`cha yoshdagi bolalar va yoshlar, shuningdek katta yoshdagi aholi bilan jismoniy sog`lomlashtirish ishlarini tashkil etish kerak. Buning uchun eksperimental-asoslangan sog`lomlashtirish dasturlarini ishlab chiqish va ularni o`quv-sog`lomlashtirish pedagogik jarayonga jismoniy tarbiya va sport vositalari yordamida tadbiq etish lozim.

Jismoniy madaniyat-umummadaniyatning tarkibiy qismidir. U nafaqat salomatlikni mustahkamlaydi, balki ayrim tug`ma orttirilgan kasalliklardan forig` qiladi, osteoxondroz, tromboflebit kabi kasalliklarning oldini olishga yordam beradi. Jismoniy tarbiya bilan shug`ullanish-bu jismoniy mashqlarni muntazam bajarish, kun tartibiga va gigiyena qoidalariga rioya qilish, tanani quyosh, havo va suvdan samarali foydalanib chiniqtirish demakdir. Jismoniy madaniyatning tarkibiy qismi- bu sportdir. Sport bilan shug`ullanish-doimiy mashg`ulotlar, doim ortib boruvchi yuklamalar yo`li bilan musobaqalarda yuqori natijalarga erishish demakdir.

Jismoniy rivojlanish deganda organizm shakli va funktsiyalari yetilishining pedagogik jarayoni tushuniladi. Jismoniy rivojlanish inson kuchi yetilayotgan paytda, shuningdek, uning salomatligida maxsus tashkil etilgan tarbiya ta’siri ostida ro`y berayotgan sifat o`zgarishlarni o`z ichiga oladi. Bu ma’noda u jismoniy tarbiyaning natijasi sifatida ko`rib chiqiladi.

Jismoniy yetuklik shaxsni jismoniy tarbiya vositalari yordamida shakllantiruvchi pedagogik jarayon natijasidir. Ta’lim berish- yuksak ishchanlik qobiliyatini tarbiyalash, salomatlikni asrash va mustahkamlash, sog`lom hayot tarziga yo`naltirish uchun kerak bo`ladigan bilim va ko`nikmalar bilan yoshlarni qurollantirishdan iborat.

Shuni qayd etish kerakki, jismoniy tarbiya, asosan, insonni jismonan rivojlantirishga yo`naltirilgan. Jismoniy rivojlanish deganda maxsus tashkil etilgan tarbiya ta’sirida inson salomatligini saqlash va mustahkamlash jarayonida ro`y berayotgan sifat o`zgarishlar tushuniladi. Shuning uchun jismoniy yetuklik nafaqat jismoniy tayyorgarlik ko`rsatkichlari, balki jismoniy rivojlanish, organizmning funktsional va jismoniy holati haqidagi ma’lumotlar bilan ham belgilanadi. Tarbiyaviy sog`lomlashtirish jarayonini to`liq xarakterlash uchun har bir pedagog tibbiy-biologik tekshirishlardan foydalanishi kerak. Jismoniy yetuklikka erishish jarayonida jismoniy rivojlanish, gavda tuzilishi, yurak-qon tizimining funktsional holatini nazorat qilish lozim.

Nazorat ishlari shug`ullanuvchining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash; qo`llanilayotgan jismoniy mashqlarning afzalliklari va kamchiliklarini topish; amaliy mashg`ulotlar rejasini tuzish imkonini beradi.

Nazorat ishlari turli mashqlar yoki testlar yordamida o`tkaziladi. Nazorat mashqlarini qo`llashning aniq tizimi testlash deyiladi. Nazorat mashqlari ayrim jismoniy sifatlar (kuch, chidamlilik, chaqqonlik, chayirlik va h.z.) yoki jismoniy tayyorgarlikni aniqlash maqsadida qo`llaniladigan mazmuni, shakli va bajarilishi

shartlari standartlashtirilgan harakatlardir. Nazorat mashqlari oddiy jismoniy mashqlar sifatida ham qo`llanilishi mumkin.

Jismoniy rivojlanish deganda organizmdagi kuchlar zahirasini aniqlovchi morfologik va funktsional xususiyatlar kompleksi tushuniladi. Insonning jismoniy rivojlanish darajasi jismoniy mashg`ulotlar xarakteri va imkoniyatlarini belgilovchi muhim omildir. Ayni paytda jismoniy rivojlanish jismoniy mashqlar bilan muntazam shug`ullanish natijasi sifatida ham ko`rib chiqiladi.

Talabalarni valeologik tarbiya vositalari yordamida samarali jismoniy rivojlanishi uchun aloxida ko`rsatkichlar o`rtasida o`zaro aloqa darajalarini (korrelyatsiya koeffitsiyenti) aniqlab olish zarur.

Xulosa qilib aytish mumkinki, har tomonlama yetuk, faol shaxsni shakllantirishda sog`lomlashtiruvchi jismoniy mashqlar yordamida kasalliklarni oldini olish va jismoniy rivojlanishni nazorat qilish muhim o`rin tutadi. Sog`lomlashtiruvchi jismoniy tarbiya yoshlarni jismoniy mashqlar va sport bilan shug`ullanishga ehtiyojni mustahkamlash, ularning psixofiziologik asoslarini anglash, jismoniy quvvat va salomatlikni rivojlantirish, sanitar-gigiyenik ko`nikmalarni hosil qilish, sog`lom hayot tarzi yuritishga yo`naltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Атамухамедова М. и др. ВЛИЯНИЕ УМСТВЕННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ У УЧАЩИХСЯ НА ГАЗООБМЕН В РАЗЛИЧНЫХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ УСЛОВИЯХ //Символ науки. – 2019. – №. 3. – С. 81-83.

2. Atamukhamedova M. R., Eminov A. Y., Boratov O. M. CHANGES IN THE RESPIRATORY AND BLOOD SYSTEM AS A RESULT OF PHYSICAL EXERCISES //CHANGES. – Т. 10. – С. 10-2019.

3. Атамухамедова М. Р., Саидова А. Я. ФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ СДВИГИ В ОРГАНИЗМЕ ДЕТЕЙ В НЕБЛАГОПРИЯТНЫХ УСЛОВИЯХ ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ //ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОЙ НАУКИ. – 2018. – С. 136.

YOSH VELOSPORTCHILARNING TEXNIK-TAKTIK TAYYORGARLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY O‘QITISH METODLARI

Akmanova Durdona Allayar qizi

O’zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali 3-bosqich talabasi

Kalit so‘zlar: *yosh velosportchilar, texnik-taktik tayyorgarlik, zamonaviy o‘qitish metodlari, interaktiv yondashuv, sport pedagogikasi.*

Ключевые слова: *юные велосипедисты, технико-тактическая подготовка, современные методы обучения, интерактивный подход, спортивная педагогика.*

Keywords: *young cyclists, technical and tactical training, modern teaching methods, interactive approach, sports pedagogy.*

Kirish. Zamonaviy sportda texnologik yuksalish, ilm-fan asosida shakllanayotgan o‘qitish tizimi va individual yondashuv metodlari sportchilar tayyorgarligining sifati va samaradorligini belgilovchi asosiy omillar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, bu jarayon yosh sportchilar, xususan velosport bilan shug‘ullanayotgan o‘smirlar uchun juda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan shu bosqichda sportchining asosiy texnik va taktik ko‘nikmalari shakllanadi, sportga bo‘lgan munosabati va kelajakdagi natijalariga zamin yaratiladi.

Velosport bugungi kunda global miqyosda rivojlanayotgan, katta jismoniy va aqliy tayyorgarlikni talab qiluvchi sport turi bo‘lib, unda qatnashuvchi sportchilar nafaqat yuqori tezlikda harakatlanish, balki to‘g‘ri strategik qarorlar qabul qilish, muvozanatni saqlab qolish va dinamik sharoitda rejalashtirish qobiliyatiga ham ega bo‘lishlari lozim. Bu esa ularning texnik-taktik tayyorgarligini muntazam va ilmiy asoslangan usullar bilan rivojlantirishni taqozo etadi.

Yosh velosportchilar bilan olib boriladigan mashg‘ulotlar an’anaviy yondashuvlardan farqli ravishda, ularning yoshiga, jismoniy imkoniyatlariga, ruhiy tayyorgarligiga va individual ehtiyojlariga moslashtirilgan bo‘lishi kerak. Bunday yondashuv sportchilarning sog‘lig‘iga zarar yetkazmasdan, ularning rivojlanish sur’atini oshirishga xizmat qiladi. Shu bois, zamonaviy murabbiylar o‘quv-mashg‘ulot jarayonida psixologik yondashuv, axborot texnologiyalaridan foydalanish, individual monitoring va natijalarga yo‘naltirilgan mashg‘ulot uslublarini faol qo‘llab kelmoqda.

Bugungi kunda velosportda ishlatilayotgan o‘qitish metodlari ichida video-tahlil, VR texnologiyalar, GPS monitoring, interaktiv mobil ilovalar kabi zamonaviy vositalar orqali yosh sportchilarning harakatlari ustida aniq kuzatuv va tahlillar olib borilishi, texnik xatolarni qisqa fursat ichida aniqlab, ularga tuzatish kiritish imkonini bermoqda. Bundan tashqari, treninglarda sportchilarga real musobaqa holatlarini simulyatsiya qilish orqali taktika va qaror qabul qilish tezligini rivojlantirish mumkin bo‘lmoqda.

Ushbu maqolada aynan yosh velosportchilarning texnik va taktik tayyorgarligini rivojlantirishga doir zamonaviy o‘qitish metodlariga e’tibor qaratilib, ularning afzalliklari, amaliyotda qo‘llash usullari va samaradorlik darajalari tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi - sportchining har tomonlama yetuklikka erishishida innovatsion yondashuvlarning o‘rni va ahamiyatini ochib berishdan iborat bo‘lib, ayni paytda O‘zbekiston sport tizimida ushbu metodlarning qanday joriy etilishi mumkinligi ham muhokama qilinadi.

Asosiy qism. Yosh velosportchilar bilan ishlashda ularning o‘ziga xos rivojlanish bosqichlarini, ya’ni jismoniy, psixologik va aqliy xususiyatlarini inobatga olish nihoyatda muhim hisoblanadi. Ayniqsa, bu yosh davrda organizm hali to‘liq shakllanmagan bo‘lganligi sababli, har qanday yuklama va mashg‘ulotlar bosqichma-bosqich rejalashtirilib, sportchilarning salomatligi va motivatsiyasi birinchi o‘ringa qo‘yilishi lozim bo‘ladi. Shu sababli, yosh sportchilar bilan olib boriladigan tayyorgarlik jarayonlari faqatgina jismoniy

jihatdan emas, balki ularga mos psixologik va texnik yondashuvlar bilan olib borilishi talab qilinadi.

Texnik tayyorgarlikni shakllantirishda sportchining velosipedni to‘g‘ri boshqarishi, pedal aylanishini samarali amalga oshirishi, harakat koordinatsiyasini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishi va muvozanatni saqlab qolishi kabi ko‘nikmalarga alohida e’tibor berish lozim bo‘ladi. Bu borada zamonaviy metodlar, jumladan, modulli mashg‘ulotlar orqali har bir texnik harakatni bosqichma-bosqich o‘rgatish, video tahlillar orqali sportchining o‘z xatolarini ko‘rib, tuzatish imkoniyatini yaratish, hamda yuqori texnologiyali trenajyorlar yordamida harakatni avtomatlashtirish kabi usullar keng qo‘llanmoqda.

Taktik tayyorgarlik esa, sportchining real musobaqa sharoitlarida raqobatbardosh harakat qilishi, raqiblar strategiyasini to‘g‘ri baholashi va o‘z kuchini to‘g‘ri taqsimlay olishi bilan bog‘liq bo‘lgan murakkab ko‘nikmalar to‘plamidir. Bunday tayyorgarlikni shakllantirishda simulyatsion vaziyatlar yaratish, sportchilarga guruhli topshiriqlar berish va strategik qarorlarni tezkor qabul qilish mashqlarini o‘rgatish orqali natijadorlikka erishish mumkin bo‘ladi. Shuningdek, har bir mashg‘ulotdan so‘ng murabbiylar tomonidan taktik tahlil o‘tkazilishi, sportchining o‘z qarorlariga baho berishi va xulosalar chiqarishi orqali o‘z ustida ishlashga undash muhimdir.

Bugungi kunda sport pedagogikasi innovatsion texnologiyalarni qo‘llash orqali yana-da yuqori natijalarga erishmoqda. Xususan, VR (virtual reallik) texnologiyalari sportchilarga sun’iy muhitda musobaqa sharoitini his qilish, qaror qabul qilishda tezlikni oshirish va psixologik tayyorgarlikni mustahkamlash imkonini bermoqda. Bundan tashqari, dronlar yordamida mashg‘ulotlarni suratga olish va GPS texnologiyalari orqali sportchining harakat tezligi, yurak urish ritmi va yo‘l harakati ma’lumotlarini to‘plash orqali individual trening rejalari tuziladi. Shu bilan birga, mobil ilovalar sportchilarga o‘z mashg‘ulotlarini monitoring qilish, statistikani tahlil qilish va shaxsiy yutuqlarini nazorat qilish imkonini bermoqda.

Murabbiyning roli esa, zamonaviy sportda faqatgina mashq beruvchi mutaxassis emas, balki sportchining rivojlanish yo‘nalishlarini belgilovchi, uni har tomonlama qo‘llab-quvvatlovchi murabbiy-psixolog va motivator sifatida qaralmoqda. Har bir yosh sportchi uchun alohida trening dasturi ishlab chiqilishi, ular bilan doimiy individual suhbatlar olib borilishi va ota-onalar bilan hamkorlikda ijtimoiy muhit yaratilishi murabbiylik faoliyatining ajralmas qismiga aylanmoqda. Shu tarzda, texnik va taktik tayyorgarlikni birgalikda olib borish, zamonaviy o‘qitish metodlarini qo‘llash, sportchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish va murabbiylar tomonidan doimiy yondashuvlar orqali sportchining salohiyatini to‘liq ochish mumkin bo‘ladi.

Xulosa. Yosh velosportchilarning texnik-taktik tayyorgarligini oshirishda zamonaviy o‘qitish metodlari muhim ahamiyatga ega. Innovatsion yondashuvlar sportchilarda mustaqil fikrlash, tezkor qaror qabul qilish va strategik harakat qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bugungi kunning talabi shundaki, murabbiylar va sport maktablari trenerlari bu metodlardan faol foydalanishlari,

har bir sportchining individual rivojlanishini tahlil asosida boshqarishlari lozim. Shunda velosportchilar yuqori natijalarga erisha oladilar va xalqaro maydonda muvaffaqiyat qozonadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mahkamov, A. (2022). *Sport pedagogikasi asoslari*. Toshkent: O‘zDJTI nashriyoti.

2. Karimova, D. (2021). “Velosportda innovatsion trening texnologiyalari.” *Sport ilmi jurnali*, №3, 45–49-betlar.

3. Ustimov, A. (2020). *Yosh sportchilar bilan ishlash metodikasi*. Samarqand: Ziyo nashriyoti.

4. International Cycling Union (UCI). (2023). *Coaching Youth Cyclists: Technical and Tactical Preparation*. Lausanne.

5. Bompa, T. (2018). *Periodization: Theory and Methodology of Training*. Human Kinetics.

JAS JEŃIL ATLETIKASHÍLARDÍŃ FIZIKALÍQ JÚKLEMELERGE BEYIMLESIWINDE TEZLIK-KÚSH TAYARLÍǴÍNÍŃ INDIVIDUAL-TIPOLOGIYALÍQ ÓZGESHELIKLERI

Mambetkasimova Qırmızı Baltabaevna
Ózbekstan mámleketlik dene tárbiyası hám sport universiteti Nókis filialı “Jeke gúres hám tábiyiy pánler” kafedrası assistent oqıtıwshısı

Yoldasheva Farangis Xamro qızı
Ózbekstan mámleketlik dene tárbiyası hám sport universiteti Nókis filialı jeńil atletika qánigeligi 1-basqısh studenti

Tayanısh sózler: *jeńil atletikashılar, vegetativ basqarıw túrleri, periferik qannıń beyimlesiw reakciyaları, bulshıq et jumısınıń quwatı, jumıs qábileti, organizmniń fizikalıq awırlıqqa beyimlesiw nızamlılıǵı.*

Kirisiw. Fizikalıq miynetke beyimlesiw mashqalası, ásirese, úlken shınıǵıw júklemeleri, emocional stressler tán bolǵan zamanagóy sportta ayrıqsha áhmiyetke iye. Sportshılardıń ósip baratuǵın fizikalıq awırlıqqa beyimlesiwi intensiv shınıǵıwlardan keyin organizmniń fiziologiyalıq parametrleri tikleniwiniń tezlesiwin, fizikalıq islew qábiletiniń tikkeley artıwın ańlatadı.

Fizikalıq júklemeler tásirinde beyimlesiwdiń jańa dárejesiniń qáliplesiwi basqarıw sistemalarınıń zorıǵıwı hám gomeostatikalıq qayta dúziliw nátiyjesinde júz beredi, bul organizmniń rezerv imkaniyatlarınıń tawsılıwına, densawlıqtıń joǵalıwı menen beyimlesiwdiń buzılıwına alıp keliwi múmkin. Sońǵı jılları ámeliyatta adam organizminiń vegetativlik basqarılıwınıń túrleri haqqındaǵı túsinikler keńnen qollanılmaqta, organizmniń funkcional sistemalarınıń sistemalı shólkemlestiriliwi hám vegetativlik gomeostazdıń basqarılıw mexanizmleriniń óz-ara baylanıslılıǵı haqqında maǵlıwmatlar alınǵan, biraq, sport tayarlıǵınıń hár qıylı dáwirlerinde jeńil atletikanıń tezlik-kúsh túrlerinde jas sportshılardıń bir túrdegi fizikalıq júklemelerinde arnawlı emes qorǵanıwdıń beyimlesiw

reakciyalarınıń tiykarında jatatuǵın tipologiyalıq nızamlılıqlar haqqında maǵlıwmatlar joq. Usı múnásibet penen joqarı sport nátiyjelerine erisiw ushın shınıǵıw procesin optimallastırıw maqsetinde beyimlesiw reakciyaların qadaǵalaw hám olardıń bulshıq et iskerligi kórsetkishleri menen óz-ara baylanıslılıq qásiyetlerin úyreniw áhmiyetli bolıp tabıladı.

Bul shınıǵıw procesiniń nátiyjeliligin arttırıw maqsetinde fizikalıq júklemelerdiń optimal rejelerin qáliplestiriwde qızıǵıwshılıq oyatadı.

Izertlew usılları hám shólkemlestiriliwi. Sport razryadına iye (II jas óspirimler yamasa III úlkenler) 12-14 jastaǵı 88 sportshı (48 ul hám 40 qız) qadaǵalawǵa alındı. Izertlewler Nókis qalasındaǵı balalar hám jas óspirimler mektebinde hám oqıw-shınıǵıw shınıǵıwlarında, gúzgi-qısqı jıllıq shınıǵıwlar ciklinde, tayarlıq hám jarıs dáwirlerinde fizikalıq júklemeler hám startlar sanın esapqa alǵan halda ótkerildi. Sportshılardıń ulıwma fizikalıq tayarlıǵı bir túrli bolıp, koordinaciyalıq qábiletlerdi, kúshti, tezlikti, shıdamlılıqtı, iykemlilikti rawajlandırıwǵa tiyisli shınıǵıwlardı óz ishine alǵan.

Arnawlı fizikalıq tayarlıqta kinetikalıq hám dinamikalıq kúsh boyınsha jeńil atletikanıń tańlap alınǵan túrindegi háreket elementlerine uqsas bolǵan shınıǵıwlar: sprinterlik juwırıw, sekiriw shınıǵıwları, kross juwırıw, sport háreketli oyınları názerde tutılǵan. Beyimlesiw reakciyalarınıń tiykarında jatqan quramalı neyrogumoral ózgerisler aq qannıń morfologiyalıq quramında óz kórinisin tabatuǵın bolǵanlıqtan, periferiyalıq qannıń formalı elementleri qatnaslarınıń kórsetkishleri úyrenildi.

Usınıslarǵa muwapıq tómendegi beyimlesiw reakciyaları ajıratıldı: “shınıǵıw reakciyası”, bul organizmge kúshsiz faktor tásirine juwap retinde rawajlanadı; ortasha kúshli faktorlar tásirinde júz beretuǵın “aktivleniw reakciyası”; Bulshıq et jumısı PWC170 testi boyınsha, jumıs islew qábileti Garvard step-testi boyınsha bahalandı.

Izertlew nátiyjeleri hám olardıń talqılawı. Sport tayarlıǵınıń tayarlıq dáwirinde 12-14 jaslı jeńil atletikashılarda vegetativ balanstı shólkemlestiriw mexanizmleriniń hár qıylı bolıwı baqlandı: normotoniya 34%, simpatikotoniya 36%, vagotoniya 30% sportshılarda anıqlanǵan.

Sport tayarlıǵınıń usı dáwirinde tonika normaları sportshılar ushın járdem beredi, qannıń formalı elementleri qatnasına beyimlesiw reakciyalarınıń yáki variantı bar: 76,6% timiko-limfa sistemasınıń fiziologiyalıq aktivligin kórsetiwshi “shınıǵıw reakciyası”; 23,4% - timikolimfa sisteması aktivliginiń artıwın kórsetiwshi “aktivleniw reakciyası”.

Usıǵan baylanıslı sportshılardıń usı toparları ushın fizikalıq awırlıq organizmniń beyimlesiw mexanizmlerine kúshsiz yamasa ortasha kúshli tásir ekenligin boljaw múmkin.

Simpatikotoniya sportshılarında “shınıǵıw reakciyası” 1,2 márte kem, “aktivlestiriw reakciyası” 2,5 márte kem, usı topar jeńil atletikashılarınıń 28,1%inde normotoniklerde bolmaǵan “stress reakciyası” belgilengen. “Stress reakciyası” timiko-limfa sisteması aktivliginiń basqarılıwı menen xarakterlenedi, bul bolsa shınıǵıw procesinde bir túrdegi simpatikotoniklerdiń úshten birine

normadan artıqsha tásir kórsetiwdi boljawǵa imkaniyat beredi. “Stress reakciyası” patologiyalıq procestiń specifik emes tiykarı ekenligin esapqa alıp, simpatikotonik sportshılardan salamatlıq jaǵdayın dinamikalıq baqlaw, adaptaciyalıq reakciyalardı qadaǵalaw, shınıǵıw procesin qatań differenciallastırıp shólkemlestiriw talap etiledi.

Simpatikotoniyalı er balalarda qız balalarǵa qaraǵanda 2,7 márte kóbirek islew qábiletin bahalawdıń jaqsı nátiyjeleri belgilendi, biraq tek usı toparda ǵana tikleniwdi bahalawdıń qanaatlandırıwshısız nátiyjesi bar edi.

Bul bolsa joqarı fizikalıq júklemelerde bulshıq et sistemasınıń funkcional imkaniyatları beyimlesiw reakciyalarınıń buzılıw qáwpin keltirip shıǵaradı hám kemeyedi.

Juwmaq. 12-14 jaslı jeńil atletikashılarda sport tayarlıǵınıń tayarlıq hám jarıs dáwirlerinde turaqlı saqlanıp qalatuǵın vegetativ basqarılıwdıń hár qıylı túrleri menen kórinetuǵın vegetativ teńsalmaqlılıqtı shólkemlestiriw mexanizmleriniń bir tekli emesligi baqlanadı. Tezlik-kúsh xarakterindegi júklemelerde vegetativ basqarılıwdıń hár qıylı tiplerine iye bolǵan adamlarda parıferik qan kórsetkishleri hám bulshıq et xızmetiniń sapalarınıń adaptiv reakciyalarınıń hár qıylı variantları qáliplesedi. Normotoniya menen awırǵan sportshılar sport tayarlıǵınıń qaysı dáwirine qaramastan optimal adaptaciya hám bulshıq et xızmeti reakciyaların saqlap qaladı. Olar fiziologiyalıq processlerdin vegetativ basqarılıwınıń optimal mexanizmleri menen baylanıslı. Simpatikotoniyalı hám az dárejede vagotoniyalı sportshılarda vegetativ regulyaciya mexanizmleriniń zorıǵıwı menen baylanıslı bolǵan beyimlesiw reakciyaları hám bulshıq et xızmetiniń qolaysız variantları bolıwı múmkin. Bul topar sportshılarınıń jarıs dáwirine shekem jumıs qábileti hám tikleniw kórsetkishleriniń jaqsılanıwı vegetativ basqarıw mexanizmleriniń zorıǵıwı menen túsindiriledi, bul bolsa jarıs dáwirinde kóp júklemelerde organizmniń funkcional imkaniyatlarınıń buzılıwına sebep bolıwı múmkin. “Trenirovka reakciyaları” bolǵan tonika normaları jeńil atletikashıları simpatikotonik hám vagotonik jeńil atletikashılarına qaraǵanda joqarı sport nátiyjelerine kóbirek erisedi. “Stress reakciyasına” iye bolǵan simpatikotonik sportshılar eń kem nátiyje beredi.

Paydalanılǵan ádebiyatlar dizimi:

1. Кузнецов Г.В. Основы применения упражнений на силовые качества в тренировочном процессе бегунов-легкоатлетов / Г.В. Кузнецов, Б.Ф. Прокудин // Человек, здоровье, физическая культура и спорт в изменяющемся мире. - 2015. - С. 623-630.

2. Лалаева Г.С. Комплекс прыжковых упражнений для легкоатлетов на начальном этапе подготовки / Г.С. Лалаева, Е.Ю. Дьякова // Современные тенденции в образовании и науке. - 2013. - С. 88-90.

3. Спиридонова Л.Е. Повышение уровня развития скоростной выносливости с помощью специальных упражнений для легкоатлетов северных районов / Л.Е. Спиридонова, Н.П. Олесов // Актуальные вопросы

физического воспитания, спортивной тренировки, оздоровительной и адаптивной физической культуры. - 2017. - С. 71-75.

BOSHLANG‘ICH TAYYORGARLIK BOSQICHIDA SHUG‘ULLANUVCHI DZYUDOCHI QIZLARNING JISMONIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Darmenbaeva Klara Azatbay qizi

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali
Yakka kurash va tabiiy fanlar kafedrasi
stajyor-o‘qituvchisi

Kalit so‘zlar: *Dzyudochilar, jismoniy tayyorgarlik, texnik tayyorgarlik, o‘quv-mashg‘ulotlari, kuch tayyorgarligi, tezlik, kuch, mikrotsikl, rejalashtirish.*

Ключевые слова: *Дзюдоисты, физическая подготовка, техническая подготовка, учебно-тренировочные занятия, силовая подготовка, скорость, сила, микроцикл, планирование.*

Keywords: *judokas, physical training, tactical training, training, strength training, speed, strength, microcycle, planning.*

Dolzarbligi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish borasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-fevraldagi “O‘zbekiston sportchilarining navbatdagi yozgi va qishki Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlarida muvaffaqiyatli ishtirok etishi uchun tayyorgarlik ishlarini jadallashtirish to‘g‘risida”gi PQ–127-son qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek, aholi o‘rtasida dzyudoning olimpiya sport turi sifatida ommaviyligini oshirish, yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish tizimini takomillashtirish, milliy terma jamoalarimizning nufuzli sport musobaqalarida yuqori natijalarga erishishini ta’minlash maqsadida:

Dzyudo sport turini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari etib belgilandi. Dzyudoni aholi o‘rtasida ommaviy sport turlaridan biriga aylantirish, iqtidorli sportchilarni aniqlash, tanlash va saralash (seleksiya) hamda ularni professional sportchilar sifatida tayyorlashning yangi tizimini yo‘lga qo‘yildi. Bu esa yurtimizda jismoniy tarbiya va sportni yanada yuqori pog‘onaga ko‘tarish uchun qonuniy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning maqsadi: Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidagi dzyudochi qizlarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, anketa so‘rovnomasi, pedagogik nazorat, pedagogik kuzatuv, pedagogik testlash, pedagogik tajriba va matematik-statistika usullaridan foydalanilgan.

Tajriba natijalari va uning muhokamasi. Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidagi dzyudochi qizlarning jismoniy tayyorgarliklarini tekshirish uchun bir qator pedagogik tajribalar amalga oshirildi.

Tadqiqot ishtrokchilari boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidagi dzyudochi qizlar ikki guruhga bo‘linishdi 1 – nazorat guruhi (20 kishi), ushbu guruh

tarkibiga kiruvchilar 2021 - yilda, yuqorida qayd etilgan nazorat sinov mashqlari yordamida nazoratdan (tekshiruvdan) o‘tkazildi, hamda kuzatuvning birinchi kunidan boshlab, mashg‘ulotlarda ishtirok etishni davom etishdi.

2-guruh pedagogik tadqiqot guruhi (20 kishi) bu guruh ham 1-guruh bilan yonma - yon ravishda nazoratdan o‘tkazildi, tadqiqot guruhi 6 oy davomida (2021-yil, olti oy muddatda) jismoniy va texnik tayyorgarliklarini shakllantirish maqsadida yo‘naltirilgan vositalar qo‘llanildi.

Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidagi dzyudochi qizlarning texnik va jismoniy rivojlanish darajasini baholash uchun eng muhim nazorat testlari qo‘llanildi:

1. 30 m. ga yugurish
2. 60 m. ga yugurish
3. 3x10 m ga maksimum yugurish
4. Turgan joydan uzunlikka sakrash
5. Yerga tayangan holatda qo‘llarni bukib yozish (marta)
6. Qollarni oldinga chozgan holda uturib, turish (marta)
7. Arqonda sakrash (1 daqiqa)
8. Osoto-gari- engdan va elkadan ushlab, oyoq bilan tashqi tomonidan chalib yiitish (30 soniya ichida, marta)
9. O goshi -engdan va belbog’dan ushlab, beldan oshirib tashlash (30 soniya ichida, marta)
10. Kata guruma -ikkala qol bilan bir qolni ushlab, oyoq bilan chalib yiqitish (30 soniya ichida, marta)

Shuningdek, tadqiqotimizga jalb qilingan tajriba va nazorat guruhidaagi boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidagi dzyudochi qizlarning total ko‘rsatkichlari, ularning jismoniy rivojlanishi darajasini hamda tana tuzilishi xususiyatlarini tahlil qilindi.

Xulosa. Pedagogik tajriba davomida nazorat guruhidagi dzyudochi qizlarining jismoniy qobiliyatlarini testlash ko‘rsatkichlari ijobiy, biroq, bizning fikrimizcha, u boshlang’ich tayyorgarlik bosqichidagi dzyudochi qizlarining jismoniy tayyorgarligini rivojlanishini aks ettiradi. Shunday qilib, biz tomonimizdan ishlab chiqilgan va pedagogik tajriba davomida sinovdan o‘tgan harakatli o‘yin usulini qo‘llash jarayonida jismoniy qobiliyatlarni rivojlantirish metodikasi bo‘yicha o‘tkazilgan o‘quv-trenirovka mashg‘ulotlari dzyudo bilan shug‘ullanuvchi 9-12 yoshli qizlarning jismoniy va texnik qobiliyatlarini namoyon qilish darajasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Elov A.N. Dzyudo, Tashkent / 2005.
2. Югай Л.П. Основы дзюдо. Ташкент, 2003 г.
3.Куванов, В.А. Методика предотвращения травмоопасных ситуаций в тренировочной и соревновательной деятельности по вольной борьбе / И.В. Бобров // Учёные записки университета имени П.Ф. Лесгафта. – 2017. - №5 (147). – С. 91-93.

KURASH BOYÍNSHA OQÍW-TRENIROVKA SHÍNÍǴÍWLARÍN KLASTER USÍLÍNDA SHÓLKEMLESTIRIWDIŃ PEDAGOGIKALÍQ SHÁRTLERI

Alxamov Mansur Rustamovich
O‘zbekstan mámleketlik dene tarbiyası va sport universiteti Nókis filialı
“Jeke gúres hám tabiyiy pánler kafedrası” stajyor-oqıtıwshısı
Keńesbaev Temirbek
Ózbekstan mámleketlik dene tárbiyası hám sport universiteti Nókis filialı studenti

Tayanısh sózler: kurash, texnik, taktik, klaster, jaraxat, pedagogikalıq uqıp, bellesiw, shınıǵıw.

Pútin shınıǵıw procesin quraytuǵın klaster elementleri dáslepki shınıǵıwdıń tiykarǵı dúzilisi esaplanadı. Sporttaǵı oqıw shınıǵıwları hár qanday aqılǵa say islengen fizikalıq shınıǵıwlar dúzilisine tán bolǵan bir qatar ulıwma qásiyetlerge iye. Hár bir trenirovka tiykarınan ush bólimnen ibarat: tayarlıq, tiykarǵı hám juwmaqlawshı.

Sport - trenirovka shınıǵıwlarınıń strukturalıq qásiyetleri, eń dáslep, tańlanǵan sport túrlerinde maksimal shınıǵıw effektine erisiwge baǵdarlanǵanı menen belgilenedi. Eger shınıǵıwlardıń mazmunı shınıǵıw dáwiri hám basqa jaǵdaylarǵa qaray quramalı hám tar qánigelesken xarakterge iye bolıwı múmkin bolsa da, orınlanıwı kerek bolǵan wazıypalardıń qásiyetleri, barlıq gruppalar ushın tán emes. Shınıǵıwlardıń hár bir bólegi arnawlı belgilengen waziypanı atqaradı: tayarlıq bóleginde, tiykarǵı bólekke uyqas túrde deneni tayarlaw, bul jerde sportshılar texnikalıq uqıptı iyeleydi, juwmaqlawshı shınıǵıwlar júklemelerdiń tásirin hám dáslepki tikleniw dáwirine qaytıwǵa qaratılǵan. Shınıǵıwdıń bul quramı onıń bólimlerine arnawlı muwapıqlıqtı támiyinlep beredi, yaǵnıy tayarlıq hám juwmaqlawshı bólimler tiykarǵı bólimge salıstırǵanda anıq boysınatuǵın funkciyanı iyelewi, strukturalıq tárepinen oǵan dawamlılıǵına organikalıq túrde baǵınıwı názerde tutıladı.

Kurash boyınsha shınıǵıwlar quramı ayriqsha qasiyetlerge iye yaǵniy shınıǵıwdıń tayarlıq bóleginde arnawlı bir pedagogikalıq shártler klasterine ámel qılıwdı talap etedi, bul tómendegilerden ibarat:

• bulshıq et hám shemirsheklerdiń mayısqaqlıǵın asırıw ushın dene temperaturasın kóteriw.

• texnikalıq háreketlerdi orınlawda qatnasatuǵın buwınlardıń háreketsheńkigin asırıwǵa qaratılǵan bir qatar arnawlı tayarlıq shınıǵıwların orınlaw;

• háreketlerdiń amplitudasin asırıw hám arqa omırtqa bólimindegi barlıq bulshıq etlerdiń jaǵdayın jaqsılaw; Texnikalıq tayarlıq, hám ózin ózi saqlawdıń quramalı elementlerin ámelge asırıw ushın palwanlardıń suyek-bulshıq et apparatların jóneltiriw. Bul pedagogikalıq shártlerdiń orınlanıwı trenirovkanıń tiykarǵı bólegin jáne de nátiyjeli shólkemlestiriwge múmkinshilik beredi. Trenirovkanıń juwmaqlawshı bólegin tabıslı orınlaw ushın pedagogikalıq

shártlerdiń klasteri elementleri tolıq orınlanıwına ámel qılıw kerek, hám buǵan tómendegiler kiredi.

• bulshıq etlerdiń qısqarıwın jumsartıwǵa, mayısqaqlıqtı asırıwǵa qaratılǵan shınıǵıwlar;

• júrek-qan tamır hám dem alıw sistemalarınıń iskerligin ásteletiwi;

• buwınlarda, shemirsheklerde hám bulshıq etlerdiń qan támiynatı jaqsılanadı, bul bolsa kernewdi jeńillestiredi hám gúresshilerdiń tayansh- háreket apparatı iskerligin jaqsılaydı. Hár bir bólek shınıǵıw aldınǵı hám keyingi shınıǵıwlar menen baylanıslı. Olardıń quramı hám dúzilisi gruppalardıń ulıwma sanına, júklemelerdiń ulıwma sapasına, júkleme hám dem alıw rejiminiń qásiyetlerine baylanıslı. Buwınlarda háreketsheńlikti asırıw ushın shınıǵıwlardıń mólsheri tuwrısındaǵı másele júdá qıyın másele esaplanadı. Arnawlı ádebiyatlarda bul máseleni sheshiwge júdá kóp háreket etilgen. Ayrım avtorlar hár bir shınıǵıwdaǵı anıq háreketler sanın kórsetedi. Bunda buwınlardıń ayriqsha qásiyetleri, jası, fitness dárejesi hám basqalar esapqa alınadı. Fiziologik izertlewler nátiyjesinde turaqlı túrde birdey júklemege individual gruppalardıń ayırmashılıqların anıqlaǵanda sezilerli dárejede asıp ketkeni anıqlandi hám kerisinshe, tek individual dozalanǵan fizikalıq iskerlik ayrım jaǵdaylarda 20 -30% parq penen deneniń túrli sistemaları ortasında birdey reakciyanı támiyinleydi. Biraq, hesh qanday qóllanbada, shınıǵıwlar ushın differentsial klasterli jantasıw joq, hátte olar baylanısıwshı apparattıń qaysı strukturalıq bólegine, antagonist bulshıq etler yamasa suyeklerine jóneltirilganligi anıqlanbaǵan. Solay etip, shınıǵıwdıń qaytalanıw sanınan tásirlengen bulshıq etler toparınıń massasına hám buwınlardıń formasına baylanıslılıǵı aytıp ótken. Bir seansda omırtqa tekshesin bukkende maksimal qaytalaw sanı 60 tan 80 ge shekem, qısqarıp qosılıwı 40 tan 60 qa shekem, jelkesi 30 dan 50 ge shekem, basqa buwınlar 15 ten 20 ǵa shekem. Shınıǵıwlardan maksimal nátiyje alıw ushın shınıǵıwlardı hár kúni bir saat dawamında orınlaw usınıs etiledi. maslasıwshanlıqtı rawajlandırıw dáwiri hám maslasıwshanlıqtı saqlap turıw dáwirinde 30 minut. [5].

Shınıǵıwlardı mólsherlewde artikulyar apparatlardıń dúzilisi hám aktivliginiń joqarıda xarakterlengen nizamlıqlarınan kelip shıǵıp, tómendegi tiykarǵı qaǵıydalarǵa ámel qılıw usınıs etiledi.

• Funktsional júkleme, eger bul olardıń fiziologik shegaralarınan tısqarıǵa shiqpasa, deneniń maslasıwshı qábiletin rawajlandırıwǵa járdem beredi. Bunday process patologiyalıq jaǵdayǵa alıp kelmeydi bunda artikulyar apparatlardıń progressiv ózgeriwine alıp keledi.

• Kishi júklemeler deneniń iykemlesiwine tasiri az boladı yaǵnıy kutilgan effektti bermeydi. Organizmniń az-azdan hám izbe-iz qozǵalıwın buzatuǵın artıqsha júkler, onıń iskerligin jamanlastıradı, buwın qaltaǵa túsiwin, qospa sumka hám ligamentlardıń erte qartayıwın keltirip shıǵaradı.

• Artikulyar apparatlar uzaq múddetli hám birdey túrdegi zatlarǵa qaraǵanda qısqa múddetli, biraq tıǵız hám hár qıylı júklerge shıdam beriwge ılayıq.

• Gigiena normalarına ámel qılıwda hárekettiń zárúr diapazonın támiyinleytuǵın minimal muǵdardaǵı shınıǵıwlardan paydalanıw usınıs etiledi.

Joqarıdagilarga muwapıq, passiv háreketlerdiń anıq sanın kórsetetuǵın hár qanday usınıslar tek kútilmegende haqıyqıy bolıwı múmkinligi anıqlanǵan, sebebi bul nomer kóplegen ózgeriwshilerdiń funkciyası retinde anıqlanıwı kerek. Bunday parametrlerge maslanǵan bulshıq etler massası, olardıń aldınǵı tásirlerge iykemlesiw dárejesi, bul tásirinlerdiń tábiyatı, dominant funkciyanıń tábiyatı hám basqalar kiredi. Kurash boyınsha shınıǵıwlarda maslasıwshanlıqtı rawajlandırıw ushın tiykarǵı pedagogikalıq shártler klasteri tómendegishe qáliplestirildi:

• shınıǵıwlar quramalılıǵı hám júklemediń basqıshpa basqısh asıp barıwın názerde tutatuǵın áste aqırınlıq;

• shınıǵıwlardı hár kúni orınlawdı názerde tutqan úzliksizlik;

• buwınlardıń barlıq gruppaları jıldamlıǵın bir tegisde rawajlanıwın hám kurash texnikasın qollanıwda qatnasıwshı barlıq bulshıq etler hám shemirsheklerdiń elastikligin asırıwdı názerde tutatuǵın kompleks jantasıwdan ibarat.

Trenirovkada sozılıwshı shınıǵıwlar deneniń túrli bólimlerin arnawlı júklemelerge tayarlawdan baslanadı. Shuǵıllanıwshılardı denesin basqarıwǵa, fizikalıq qasiyetlerin rawajlandırıwǵa úyretiw kerek, oǵan ózin abaylaw elementleri, texnikalıq usıllar hám jekpe- jek gúres alıp barıw ushın zárúr bolǵan tayarlıqtıń basqa elementlerin úyretiw zárúrli esaplanadı. Ulıwma rawajlandırıwshı shınıǵıwlar gúresshilerdiń fizikalıq rawajlanıwın, organizmniń iskerligin asırıwǵa kómeklesip funktsional múmkinshiliklerin jaqsılaydı. Bul shınıǵıwlardı sportshılar tájriybesine baylanıslı halda isletiledi: tómen razryadlı gúresshelarde úlken kólemde, joqarı razryadtaǵılarda kishi.

Ulıwma rawajlandırıwshı shınıǵıwlarǵa qaraǵanda, arnawlı shınıǵıwlar kurashtıń jarısı shártlerine kóbirek jaqınlastırılgan. Olar arnawlı tayarlıq (jetekshi) hám konditsion (rawajlantdırıwshı) larga bólinedi. Ulıwma rawajlandırıwshı shınıǵıwlar tikkeley bolmaǵan ayriqsha háreketlerdiń ámelge asırılıwın támiyinleytuǵın fizikalıq sapalardı rawajlandırıw ushın mólsherlengen.

Tayarlıq shınıǵıwları oqıw -trenirovka shınıǵıwlarınıń qaǵıyda retinde sabaqtıń tayarlıq bóleginde isletiletuǵın úlken arnawlı júklemelerge organizmniń barlıq sistemaların tayarlaw ushın mólsherlengen. Jetekshi shınıǵıwlar sport iskerliginiń qıyın sharayatlarında organizmniń sensomotor sistemasın ayriqsha háreketlerdi ózlestiriwge ástelik penen elementar túrde jetelew ushın mólsherlengen.

Paydalanılǵan ádebiyatlar:

1. Adilov S.Q. - Sport pedagogik mahoratini oshirish (kurash). O‘quv qo‘llanma. Toshkent: “Fanlar akademiyasi bosmaxonasida” nashr etilgan 2019. – B.221.

2.Алиев И.Б - Курашда кўп йиллик тайёргарлик босқичларида машғулот юкламаларини оптималлаштиришнинг илмий-назарий асослари. Monografiya. “O‘zkitobsavdonashriyoti”. 2020. – 128 b.

3.Arslonov Q.P., - Milliy kurash turlari va uni o‘qitish texnalogiyalari. O‘quv qo‘llanma. Toshkent “Turon Zamin Ziyo” 2014. – 204 b.

OG‘IR ATLETIKACHILARNING TAYYORGARLIK TURLARI

Berdimuratova Janigul Jaqsimurat qizi

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali

Kalit so‘zlar: *Og‘ir atletika, mashg'ulot, mashqlar,shidamlılık, egiluvchanlik, dast ko‘tarish , siltab ko‘tarish .*

Ключевые слова: *Тяжелая атлетика, тренировка, упражнения, выносливость, гибкость, рывок, толчок.*

Keywords: *Weightlifting, training, exercises, endurance, flexibility, snatch, clean and jerk.*

Kirish. Hozirgi paytda og‘ir atletika sportida butun mashg'ulot yuklamasining 20% klassik mashqlar ulushiga to‘g‘ri keladi. Shu sababli maxsus yordamchi mashqlarda nazorat me'yorlarining bajarilishiga ko‘ra sportchilarning jismoniy tayyorgarligi darajasi to‘g‘risida fikr yuritish mumkin. Sportchilarning vazn toifalari va malakalarini hisobga olgan holda ba’zi maxsus yordamchi mashqlarda nazorat me'yorlarini belgilab berganlar. Ma'lumki, og‘ir atletikachilar mashg‘ulotlarida ko‘proq dast ko‘tarish, ko‘krakka ko‘tarish, ko‘krakda va yelkada shtanga bilan o‘tirib-turish, shuningdek, ustunlardan siltab ko‘tarishdan foydalanadilar.

Tadqiqot maqsadi. Bu mashqlar nazorat me'yorlarini, sportchilarning tayyorgarlik darajasini baholashda asosiy hisoblanadi.

Siltab ko‘tarishdagi natijaning oyoq mushaklari kuchi bilan bogliqligini aniqlayotib, shuni isbotladiki, muvaffaqiyatli siltab ko‘tarish uchun eng zarur narsa - bu oyoq mushaklari kuchining ko‘tariladigan vazndan kamida 30 % ga ortiq bolishidir. A.V. Chernyak malumotlariga ko‘ra, yuqori malakali sportchilarda bu nisbat 20% ni tashkil etadi, bu ularning oyoq mushaklaridan samarali foydalan ishlarini ko‘rsatadi. P. Dobrev bolgariyalik eng kuchli sportchilarning tayyorgarligini o‘rganib turib, barcha vazn toifalari uchun dast ko‘tarish va yarim cho'kkalab dast ko‘tarishdagi natijalar o‘rtasidagi bog’liqlik o‘rtacha katta ekanligini aniqladilar. Sportchilarning shaxsiy vazni ortishi va ularning mahorat darajasi o‘sishi bilan dast kotarish hamda yarim cho‘kkalashda dast ko‘tarish tasniflari toifalari o‘rtasidagi farq haqli ravishda ortadi. Biroq nisbiy ko‘nikishda farq o‘rtacha 80% ni tashkil etadi. V.G. Oleshko og‘ir atletikachilarning musobaqaga jismoniy tayyorgarlik darajasini aniqlayotib, o‘z tadqiqotlarida maxsus yordamchi nazorat mashqlari sonini o‘rtacha kengaytirdi.

Tadqiqotni tashkil qilish uslublari. Ko‘p sonli nazorat me’yorlari yordamida og‘ir atletikachilarning jismoniy tayyorgarlik darajasini aniqroq bilish mumkin. Pedagogik tajriba davomida aniqlanishicha, yarim cho‘kkalab dast ko‘tarishdagi natijalar turli vazn toifasidagi va har xil malakali sportchilarda dast ko‘tarishda 80±2,9% ni, yarim cho‘kkalashda shtangani ko‘krakka ko‘tarib siltab ko‘tarishda 82±3,3% ni tashkil etadi. Klassik va boshqa maxsus yordamchi mashqlardagi natijalar o‘rtasidagi bog‘liqliklarni tadqiq qilayotib, V.G. Oleshko quyidagi xususiyatlarni ajratadi:

Tadqiqot natijalari va muhokamasi.1. Sport malakasiga ega va turli vazn toifasidagi og‘ir atletikachilarning ustunlardan siltab ko‘tarishdagi maksimal natijalari siltab ko‘tarishdagiga qaraganda o‘rtachadan yuqori. Supadan yarim cho‘kkalab dast ko‘tarish, tizzada osilib turgan shtangani cho‘kkalab dast ko‘tarish, shtangani ko‘krakka ko‘tarish, tizzadan siltab ko‘tarish va ko‘krakdan «shvung» usulida siltab ko‘tarish mashqlaridagi natijalar tegishli klassik mashqlardagi maksimal natijalardan o‘rtacha past. Bunda o‘rganilayotgan mashqlar natijalari orasida farq ma’lum chegarada turadi. Cho‘kkalab shtangani ko‘krakka ko‘tarishda eng katta mashg‘ulot natijasi turli sport malakasiga ega, har xil vazn toifasidagi og‘ir atletikachilarda siltab ko‘tarishdagi maksimal natijalardan ±2% atrofida o‘zgarib turadi. 2. Turli vazn toifasidagi malakali og‘ir atletikachilarda ba’zi maxsus yordamchi mashqlardagi nisbiy natijalar og‘ir atletikachining vazni oshishi sababli pasayganligi kuzatiladi. 3. Yuqorida uchta ko‘rilayotgan malakalardagi sportchilarda maxsus yordamchi mashqlardagi nisbiy natijalar orasida katta farqlar aniqlanmadi. Malakali og‘ir atletikachilarda yelkada va ko‘krakda shtanga bilan o‘tirib-turishlar natijalari nisbati mos ravishda o‘rtacha 115-125% ni tashkil etdi.

Xulosa. Og‘ir atletikachilar tayyorgarlik turlari mashg‘ulotining uslubiy xususiyatlari Sport mashg‘ulotlari jarayoni va bir qator tamoyillarni o‘z ichiga oladi, ular kompleks holda sportchini yuqori natijalarga erishishga samarali tayyorlashni taminlaydi. Ularning eng asosiylari: tarbiyalash, o‘qitish va harakat hamda funksional imkoniyatlarini takomillashtirdi.

Adabiyotlar:

1. Solamov R. S. Oqıw qóllanba. Sport shınıǵıwınıń teoriyalıq tiykarları. Tashkent 2005 jıl. -182 b.

2. AbdullayevA. A., Xonkeldiyev Sh. Sh. Sabaqlıq. Fizikalıq mádeniyat teoriyası hám metodikasi. Tashkent 2005 jıl. -273 b.

3. Matkarimov R. M. Tyajelaya atletika Uchebnik. (Izd. UzGosIFK) Tashkent-2005 god.-115 b.

VELOSPORTDA TEXNIKANI O‘RGATISH USLUBIYATI

Serimbetov Qarlıbay Orazımbetovich

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: *texnika, velosipedda to‘g‘ri o‘tirish, takomillashtirish, pedal aylantirish, mushaklar, shosse, o‘smirlar, rama o‘lchami.*

Ключевые слова: *техника, правильная посадка на велосипеде, совершенствование, педалирование, мышцы, шоссе, юниоры, размер рамы.*

Key words: *technique, correct bike position, improvement, pedaling, muscles, road, juniors, frame size.*

Kirish. Sport mashg‘ulotlarining maqsadi - insonlarning jismoniy rivojlanishi uchun maqbul imkoniyatlarni amalga oshirish, har bir insonga xos bo‘lgan jismoniy sifatlarni va ularga bog‘liq bo‘lgan qobiliyatlarni insonni faol jamoatchi deb tavsiflovchi ma’naviy va axloqiy sifatlar bilan birgalikda har

tomonlama takomillashtirish: shu asosda jamiyatning har bir a’zosini unumli mehnatga va boshqa muhim jamoat faoliyatiga tayyorgarligini ta’minlashdir.

Biroq, mazkur maqsadni shakllantiruvchi aniqroq vazifalar mavjuddir. Ularni quyidagi guruhga ajratish mumkin: jismoniy (maxsus va umumiy), texnik, taktik, nazariy va ma’naviy-idrokiy.

Velosportda texnikani o‘rgatish uslubiyati. Poygachini texnik tayyorlash uslubi taktikaga o‘rgatish jismoniy rivojlantirish bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, umumiy ma’lum pedagogik negizlarga asoslangan.

Tadqiqotning maqsadi. 11-15 yashar o‘spirinlar uchun velosipedda o‘tirish va uni takomillashtirish.

Tadqiqotning vazifasi. Velosipedda to‘g‘ri o‘tirish - bu tananing velosipedda shunday joylashishiki, bunda poygachiga maqbul jadallikda pedallarni aylantirganda imkon boricha kattaroq masofada ishning maksimal quvvatini rivojlantirish imkoni yaratiladi. 11-15 yashar o‘spirinlar uchun rulni juda pastga tushirish yaramaydi. Rulning to‘g‘ri o‘rnatilganini belning holatidan tekshirish mumkin. Juda oldinga chiqarilgan yoki juda yaqinlashtirilgan rul nafas olishni qiyinlashtiradi.

Rulni sportchi rulni pastki qismidan ushlaganda yoki shosse velosipedining tormoz dastalarini ushlaganda erkin nafas oladigan qilib o‘rnatish kerak. Agarda bunday rul bo‘lmasa, tor ruldan ko‘ra keng rul o‘rnatgan yaxshiroqdir.

Velosipedda o‘tirishni aniqlashda murabbiy sportchining qo‘llari zo‘riqmasligiga va tirsak bo‘g‘inlarida birmuncha bukilgan bo‘lishiga ahamiyat berishi kerak. Tirsaklarni juda ham yonga yoymoq yaramaydi, chunki bu qarshilik kuchini ko‘paytiradi, muhimi esa to‘g‘ri chiziqli tekis uchishga halaqit beradi. Oyoqlarning, boshning va tananing harakatlari tirsaklari yoyilgan va shu sababdan zo‘riqqan qo‘llarga ham birmuncha darajada ta’sir qiladi, bu bilan rulni har tomonga siltanishiga olib keladi.

To‘g‘ri cho‘zilgan qo‘llar bilan velosipedda uchish ham xato hisoblanadi, u ham tekis harakatga halaqit beradi, tananing alohida qismlarining va umuman butun organizmning tez toliqishga olib keladi, to‘g‘ri gavda shakllanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Rulni to‘g‘ri qo‘llar bilan ushlayotgan velosipedchining kuraklari chiqib turgan, bo‘yini pastga egilgan va beli bukilgan bo‘lsa, bu holda velosipedda o‘tirish noto‘g‘ri. Bunday holatda u velosipedni uzoq vaqt, ayniqsa tez hayday olmaydi. Bunday o‘tirish organizmning ichki organlariga, ayniqsa o‘pka va yurak faoliyatiga salbiy ta’sir etadi.

Boshning holati ham velosipedchining gavdasi va velosipedda o‘tirishiga ta’sir etadi. Bosh haddan tashqari pastga tushirilsa gavdani egish mumkin emas bo‘ladi. Bosh gavda bilan bir chiziqda va gavdani xuddi davomi bo‘lishi kerak.

Velosipedda o‘tirishni aniqlaganda bo‘yin, oyoqlarni tanaga nisbatan va sonlarning boldirga nisbatan uzunligini hisobga olish kerak. Ko‘pgina hollarda bir xil bo‘yli velosipedchi o‘smirlar tananing alohida qismlarining turli o‘lchamlari sababidan bitta velosipeddan foydalana olmaydilar. Ko‘pincha velosipedda o‘tirishga pedallarni aylantirishda butun doira bo‘ylab kuch ishlatish imkoni bog‘liq bo‘ladi. Masalan, bukilgan bel yoki egilgan gavda pedallarni tepaga

aylantirganda to‘liq kuch ishlatishga imkon bermaydi, sonlarni egishga xizmat qiluvchi mushaklar esa qisqara olmaydilar. Bunday holatda pedal passiv ravishda oyoqlarni tepaga itaradi va sportchi beixtiyor ravishda egarda sakrab-sakrab ketadi. Bunday o‘tirishda velosipedchilar yuqori tezlikni rivojlantira olmaydilar.

O‘smirlar bir xil holatda uzoq vaqt uchishga o‘rganib qolib, yangi holatda o‘zini noqulay sezish hollari ham bo‘ladi. Yangi o‘tirish holatini egallash uchun unga dastlab sekin uchish, keyin kichik uzatishda tezlanishlarni bajarish tavsiya etiladi. Bunda uchish texnikasi buzilgunga qadar tezlikni oshirish kerak. Bunday mashqlarni ko‘p marotaba takrorlagandan so‘ng shug‘ullanuvchi yangi o‘tirish holatiga o‘rganadi va o‘zining sport ko‘rsatkichlarini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Oyoqlarni pedallarda shunday joylashtirish kerakki, bunda velosipedchining tovoni shatunlarning vertikal holatida pedal o‘qiga bemalol yetishi kerak. Boldir-oyoq va qalqonsimon mushaklari kam rivojlangan o‘smirlar oyoq kaftlarini pedallarda 3-10 mm oldinga surishlari kerak. Oyoq kaftlari kichkina bo‘lgan va qalqonsimon mushaklari yaxshi rivojlangan poygachilar oyoq kaftlarini pedallarda 3-5 mm orqaga surishlari kerak. Oyoq kaftining pedal o‘qiga qarab kuch sarflash nuqtasi va boldir-tovon orasidagi richagning bunday holda kattalashtirish pastki mintaqani o‘tishni ancha yengillashtirib, bu bilan birga vaqt birligi ichida shatunning aylanish sonini orttiradi. Bu ayniqsa trekda qisqa masofalarda katta ahamiyatga ega.

Velosipedda o‘tirish qulayligi egarning sifati va uni o‘rnatilishiga bog‘liq. Egar shunday balandikka o‘rnatiladiki, unda shug‘ullanuvchi velosipedga o‘tirganida oyoq uchlari bilan yerga tega olishi yoki pastki holatda turgan pedalga tekis oyog‘ining tovonini qo‘yishi mumkin bo‘lsin. Egar oyoq o‘lchami 39-40 bo‘lgan velosipedchilar uchun bunday holatda qo‘yiladi. Agar oyoq o‘lchami kichikroq bo‘lsa, egar har 3-4 mm ga tushiriladi, agar oyoq o‘lchami 40 dan kattaroq bo‘lsa, egar tegishli ravishda balandroq ko‘tariladi. Pedal aylantirish texnikasini tekshiruvlari shuni ko‘rasatadiki, pedal aylantirganda pastki holatda turgan oyoqning son va boldir suyaklari orasidagi burchak 120-140° ni tashkil etganda egar eng qulay balandlikda o‘rnatilgan bo‘ladi. Shosse poygachilariga egarni 1-2 sm ga orqaga surish tavsiya etiladi (minus o‘tirish). Bunday o‘tirish pedal aylantirishning barcha mintaqalarida kuch ishlatishga qulay bo‘lib, to‘g‘ri texnikaning hosil bo‘lishiga yordam beradi.

O‘smir yigitlar uchun egar gorizontal tekislikda o‘rnatiladi; shosse velosipedlaridan foydalanuvchi yuniorlar uchun egarning uchini 5-10 sm ga ko‘tariladi. Egarning bunday holati oldinga qarab surilib ketishga yo‘l qo‘ymaydi va gavda hamda qo‘llar mushaklarini bo‘shashtirish, egarda erkin holatda o‘tirish imkonini beradi. Velosiped ramasining o‘lchamlari shug‘ullanuvchilarning bo‘yiga mos bo‘lishi kerak. Murabbiy o‘quvchisining anatomik tana tuzilishini hisobga olishi kerak. Tekis oyoqli poygachilar velotuflilariga tirnoqlarni o‘rnatish uchun oyoq kaftlarini shatunlarga parallel ravishda pedallarda joylashtiriladi, “X” simon oyoqlilarga oyoq uchlarini tashqarisidan 3-8° ga buradilar, “O” simon oyoqlilarga tovonlarni shatunlardan 2-4° tashqi tomonga buradilar. Oyoq

kaftlarini pedallarda joylashtirishning odatiy qabul qilingan qoidalarga bu qo‘shimchalar poygachilarga vertikal tekislikda odatiy xatolarga yo‘l qo‘ymasdan pedal aylantirish imkonini beradi; birinchi holda velosipedning gorizontal nayiga tizzalar bilan tegib ketish, ikkinchi holda tizzalarni yon tomonga yoyish. Ikkala holdagi bu xatolar pedal aylantirishda samara darajasini kamaytiradi. Bunday tirnoqlar bilan pedal aylantirganda velosipedchi kuchni pedal o‘qining tashqi tomoniga yo‘llaydi, bu esa pedallarga bosishning tarqalib ketishi natijasida “pedal-shatun” uzatish tizimiga yo‘naltirilgan kuch kattaligini kamaytiradi. Yo‘qotish darajasini iloji boricha kamaytirish maqsadida pedal o‘qiga qo‘yiladigan kuch nuqtasini shatunga iloji boricha yaqinlashtirish kerak. Buning uchun pedal ramkasi qo‘yiladigan tirnoq tirqishini tashqi tomondan 2-4 mm dan kamga aralash yoki oddiy tirnoqlarning tashqi tomonidan metall yoki charm plastinalar qo‘yish kerak. Shatunlarni tanlashda quyidagi tavsiyaga amal etilsa bo‘ladi: past bo‘yli o‘spirinlarga 160 va 165 mm shatunlar, o‘rta va baland bo‘ylilarga 165-170 mm, baland, lekin jismoniy zaif poygachilarga esa 170-175 mm uzunlikdagi shatunlami tanlash kerak. Son va boldir mushaklari yaxshi rivojlangan va asosan treklarda qisqa masofaga poygalarda ixtisoslashgan o‘smirlarga, bo‘yidan qat’i nazar, 165 mm uzunlikdagi shatun qo‘yish kerak.

Pedal aylantirish texnikasini o‘rgatish va uni takomillashtirish. Pedal aylantirish texnikasi velosiped sportida eng muhim masala hisoblanadi. Tadqiqotlarning ta’kidlashicha, musobaqalarning 6-8% pedal aylantirish samarasiga bog‘iqdir. OTM va BO‘SM larda dars o‘tishning hamma davri mobaynida texnikaning bu qismiga alohida e’tibor qaratilishi bejiz emas.



Pedal aylantirish texnikasini o‘rgatish

Pedal aylantirish texnikasi to‘g‘risida to‘g‘ri taassurot hosil qilish maqsadida pedal aylantirishda mushaklarning guruhi kuch sarflovchi mintaqalarni o‘rganib chiqish kerak. Pedal aylantirish davrida to‘rtta asosiy va to‘rtta oraliq mintaqalar mavjud (soat strelkasi bo‘yicha):

1. Yuqori asosiy mintaqa.
2. Uzatishni almashtirishning 3-mintaqasi (oraliq).
3. Orqa asosiy mintaqa.

4. Uzatishni almashtirishning 2-mintaqasi (oraliq).
5. Pastki asosiy mintaqa.
6. Uzatishni almashtirishning 1-mintaqasi (oraliq).
7. Oldingi asosiy mintaqa.
8. Uzatishni almashtirishning 4-mintaqasi (oraliq).

Birinchi asosiy mintaqa (oldingi) sonni, boldirni rostlash, oyoq kaftini bukish hisobiga o‘tiladi. Kuch tepadan pastga yo‘naltirilgan.

Ikkinchi asosiy mintaqa (pastki) asosan boldir va oyoq kafti mushaklarini bukilishi hisobiga o‘tiladi. Kuch orqaga yo‘naltirilgan.

Uchinchi asosiy mintaqa (orqa) sonning, boldiming va oyoq kaftining ichki tomoning bukilishi hisobiga o‘tiladi. Kuch yuqoriga yo‘naltirilgan.

To‘rtinchi asosiy mintaqa (yuqori) boldir mushaklarining rostlanishi hisobiga o‘tiladi. Kuch tepaga yo'naltirilgan.

Shunday qilib, doiraviy pedal aylantirishda kuch, ya’ni kuch ishlatilishi to‘rtta asosiy yo‘nalishga ega: pastga, orqaga, tepaga, oldinga.

Pedalni bir mintaqadan boshqa mintaqaga o‘tish chegarasida ishlovchi mushaklarning zo‘riqish yo‘nalishi va tana pastki qismlari harakatlarining almashinuvi sodir bo‘ladi. Shunday qilib, aylantirishning asosiy mintaqalari orasida joylashgan oraliq mintaqalarda pedal estafeta tayoqchasi kabi bir mushaklar guruhidan ikkinchisiga uzatiladi.

Birinchi oraliq mintaqa birinchi (oldingi) va ikkinchi (pastki) asosiy mintaqalar orasida joylashgan. Bu yerda son va boldirning rostlanishi va oyoq kaftining faol bukilishi to‘xtaydi. Tizza va tos-son bo‘g‘imlari orasidagi burchak eng katta darajaga yetadi. Mushaklarning ishlovchi guruhlarining almashinuvi sababli kuch ishlatish yo‘nalishi o‘zgaradi (kuch tepadan pastga yo‘nalishi orqaga o‘zgaradi) va tizza va tos-son mushaklari orasidagi burchak kamayadi.

Ikkinchi oraliq mintaqa ikkinchi (pastki) va uchinchi (orqa) asosiy mintaqalar orasida joylashgan. Bu mintaqada sonning va oyoq kaftining orqa tomonining bukilishi boshlanadi, boldir bukilishi davom etadi. Boldir-tovon bo‘g‘imining orasidagi burchak eng katta darajaga yetadi, tos-boldir va boldir-tovon bo‘g‘imlari orasidagi burchak kamayishni boshlaydi, tizza bo‘g‘imidagi burchak kamiyishni davom ettiradi. Bu oraliq mintaqada ishga tushgan mushaklar kuch ishlatish yo‘nalishlarini o‘zgartiradilar: orqaga yo‘naltirilgan kuch pastdan tepaga yo‘nalishga o‘zgaradi.

Uchinchi oraliq mintaqa uchinchi (orqa) va to‘rtinchi (yuqori) asosiy mintaqalar orasida joylashgan. Unda tos va boldir bo‘g‘imining bukilishi to‘xtaydi, tizza va boldir-tovon bo‘g‘imlari orasidagi burchak maksimal darajaga yetadi. Bu mintaqada ishga tushgan mushaklar kuch ishlatish yo‘nalishlarini o‘zgartiradilar: odinga intilgan kuch yo‘nalishini tepadan pastga o‘zgartiradi.

Yuqorida aytilgandan mushaklarni taranglanishi va bo‘shashishi ko‘rinib turibdi. Agarda oldingi mintaqa tos, boldir rostlaguvchilari ishi va oyoq kaftining bukilishi evaziga bajarilsa, unga qarama-qarshi bo‘lgan orqa mintaqa esa tegishli ravishda tos, boldir va oyoq kaftining orqa bukuvchilari evaziga o‘tiladi. Shunday bog‘liqlik boshqa asosiy mintaqalarni - orqa va pastki mintaqalarni o‘tishda ham

kuzatiladi. O‘xshash hodisani oraliq o‘tish mintaqalardagi ishda ham kuzatish mumkin. Agar birinchi oraliq mintaqada tos va boldirning bukilishi to‘xtasa, tos-boldir bo‘g‘imlaridagi burchaklar o‘z maksimal darajasiga yetsa va mushaklar orqaga yo‘nalgan yangi kuchlanishni boshlasa, unga qarama-qarshi bo‘lgan uchinchi mintaqada esa tos va boldirning bukilishi tamomlanadi. Mushaklarning ishidagi, suyak bo‘g‘im apparatidagi va kuch yo‘nalishining o‘zgarishidagi xuddi shunday bog‘liqlikni qolgan ikki oraliq mintaqalarda - ikkinchi va to‘rtinchi mintaqalarda ham kuzatiladi.

Xulosa: Xulosa qilib shuni aytish mumkinki sport mashg‘ulotlarining maqsadi - insonlarning jismoniy rivojlanishi uchun maqbul imkoniyatlarni amalga oshirish, har bir insonga xos bo‘lgan jismoniy sifatlarni va ularga bog‘liq bo‘lgan qobiliyatlarni insonni faol jamoatchi deb tavsiflovchi ma’naviy va axloqiy sifatlar bilan birgalikda har tomonlama takomillashtirish, shu asosda jamiyatning har bir a’zosini unumli mehnatga va boshqa muhim jamoat faoliyatiga tayyorgarligini ta’minlashdir. Velosportda texnikani o‘rgatish, velosipedda o‘tirish va uni takomillashtirish, to‘g‘ri o‘tirish va organizmning ichki organlariga ta’siri, oyoqlarning pedallarga joylashtirilishi, shosse velosipedlaridan foydalanuvchi yuniorlar uchun egarning balandligi, pedal aylantirish texnikasini o‘rgatish va uni takomillashtirish haqida va poygachini texnik tayyorlash uslubi taktikaga o‘rgatish jismoniy rivojlantirish bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, umumiy ma’lum pedagogik negizlarga asoslangan.

Adabiyotlar:

1. Chernikova Y.N, Karimov I.I, Xolmuratov O.Yu Velosport nazariyasi va uslubiyati (darslik) Toshkent 2018-y, 171-177 b

2. Анатомия велосипедиста Совндаль Ш. 2011 г

3. Y.N. Chernikova, I.I. Karimov, O.Yu. Holmurotov, Sport pedagogik mahoratini oshirish Velosport (darslik) Toshkent 2017 yil

12-13 YOSHLI YENGIL ATLETLARNI TEZKORLIK, KUCH SIFATLARI VA USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Balmuratov Kayirjan Konisbaevich

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali o‘qituvshisi

Bazarbaeva Biybinaz Sarsenbay qizi

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali talabasi

Tayanch so’zlar*: Yosh sportchilar, tezlik-kuch mashqlari, komplekslar mashqlar.*

Ключевые слова: *Юные легкоатлеты, скоростно-силовая подготовка, комплексы упражнений.*

Key words: *Young athletes, speed-strength training, exercise sets.*

Dolzarbligi. Hozirgi rivojlanish darajasi yengil atletika oldingi ishtiroki bilan tavsiflanadi bolalarni intensiv mashg'ulotlarga va raqobatbardosh faoliyatga jalb qilish. Sportdagi natijalarning doimiy o'sishi, birinchi navbatda, jismoniy tayyorgarlikka talablarni oshiradi yosh sportchilar. Hozirgi vaqtda uning yuqori darajasiga erishilmoqda sezilarli darajada kuchayishi va ortishi bilan bog'liq o'quv

jarayonining davomiyligi va ayniqsa jarayon sportning ilg'or bosqichlarida jismoniy tarbiya mutaxassisliklar.

Adabiyot ma'lumotlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, bu juda dolzarb masala ishlab chiqish va eksperimental asoslashda tezlik va kuch sifatlarini rivojlantirishning samarali vositalari va usullari turli sport turlari vakillari, ayniqsa o'smirlar yosh, chunki bu yoshda davrlar kuzatiladi berilgan jismoniy sifatning eng katta biologik o'sishi.

Ya'ni, ular yosh xususiyatlarini hisobga olishga imkon beradi sportchilar, ularning sog'lig'ini saqlash, talab emas qo'shimcha vaqt sarflash va shu bilan birga ta'minlash jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish va buning natijasida sport mahoratining o'sishi.

Yengil atletika samaradorligi bilan bog'liq yuqori bilan ta'minlangan maxsus ishlash bilan birgalikda anaerob-alaktat quvvatining rivojlanish darajasi ancha yuqori aerob quvvati va samaradorligi tiklanish jarayonlari. Shuning uchun, maxsus vazifa jismoniy tarbiya - tezlikni oshirish sportchining jismoniy faoliyatining tarkibiy qismi va vositalari va ta'lim usullari rivojlanishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak tezlik va tezlik-quvvat (portlovchi) komponentlari motor harakatlari.

Tadqiqotning maqsadi. tezlikni oshirishdir 12-13 yoshli yengil atletikachilarning tayyorgarligi.

O‘rganish usullari va tashkil etilishi. Pedagogik tajriba "O‘zDJTSU Nukus filiali" bazasida o'tkazildi. Tajribada 12 yoshdan 13 yoshgacha bo'lgan 28 nafar o'g'il ishtirok etdi yengil atletika. Nazorat va har biri 14 kishidan iborat eksperimental guruh. Boshqaruv guruh standart o'quv dasturiga muvofiq mashg'ulot o'tkazdi "O’zDJTSU Nukus filiali" muassasasining boshlang'ich sport ixtisosligi guruhlari uchun yengil atletika. Eksperimental guruh o'rgandi yoshlarni tezlikni kuchaytirish bo'yicha bizning taklif qilingan metodologiyamiz sportchilar, qaysi foydalanish asoslangan edi pliometrik mashqlar.

Plyometrik mashqlarni mashg'ulotimizga kiritish jarayonida sportchilarning yoshligini hisobga olgan holda amalga oshirildi. Oddiy Plyometrics xavfsizroq va kamroq jihoz talab qiladi. Bular mashqlar oltitasi uchun haftada bir yoki ikki marta amalga oshirildi hafta va faqat keyin ko'proq edi murakkab pliometrik mashqlar.

Tajribani boshlashdan oldin biz sinov o'tkazdik 12-13 yoshli yengil atletikachilarning tezlik-kuch tayyorgarligi. Olingan natijalar statistik ma'lumotlar haqida gapirishga imkon berdi nazorat guruhi (CG) va eksperimental guruhning bir xilligi (EG), ya'ni biz o'rgangan ko'rsatkichlarda sezilarli farqlar yo'q edi.

Aniqlangan tezlikda chidamlilik yugurishda 300 metr masofada natija, o'sish kuzatildi ham nazorat, ham eksperimental guruhlarda ko'rsatkichlar, lekin ular ahamiyatli emas edi. Bu shuni ko'rsatadiki, bu davrda yosh sportchilarni tayyorlash rivojlanishga qaratilgan emas edi tezlik chidamliligi va asosiy e'tibor tezlikni rivojlantirishga qaratilgan edi tezlik va kuch sifatlari.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi. Tugatgandan keyin o'rganish davomida yakuniy test o'tkazildi. Qabul qildi Natijalar yosh ekanligini

aytishga imkon berdi tadqiqot davomida eksperimental guruh sportchilari ko'pchilikda natijalar sezilarli darajada yaxshilandi nazorat mashqlari (1, 2-jadval).

1-jadval - Tezlik va kuchga tayyorlik ko'rsatkichlari eksperimental guruh sportchilari

№	Sinov mashqlari	Tajribadan oldin	Tajribadan keyin	O'sish (%)
1	30 m yugurish (soniya)	4,65 ± 0,23	4,44 ± 0,09	8,46
2	30 m yugurish (sek.)	4,16 ± 1,17	4,07 ± 2,01	6,36
3	Tik turgan holda uzunlikka sakrash (sm)	201,4 ± 1,6	208,7 ± 1,9	5,62
4	Bir joydan yuqoriga sakrash (sm)	44,67 ± 2,56	48,03 ± 2,79	7,52
5	300 m yugurish (soniya)	50,71 ± 0,12	50,18 ± 0,11	9,25

2-jadvaldan ko'rinib turibdiki, nazorat guruhida sub'ektlar o'rganilayotgan ko'rsatkichlarda ma'lum o'zgarishlar yuz berdi, ammo ular unchalik muhim emas edi.

2-jadval - Tezlik-quvvatga tayyorlik ko'rsatkichlari nazorat guruhidagi sportchilar

№	Sinov mashqlari	Tajribadan oldin	Tajribadan keyin	O'sish (%)
1	30 m yugurish (soniya)	4,61 ± 0,2	4,49 ± 1,2	2,6
2	30 m yugurish (sek.)	4,1 ± 1,23	4,06 ± 1,07	1,68
3	Tik turgan holda uzunlikka sakrash (sm)	204,5 ± 1,4	206,6 ± 1,5	2,23
4	Bir joydan yuqoriga sakrash (sm)	44,33 ± 2,38	45,92 ± 2,56	4,58
5	300 m yugurish (soniya)	50,59 ± 0,11	50,43 ± 0,10	3,12

Natijalarning sezilarli o'sishini ta'kidlash kerak sakrashni nazorat qilish mashqlari (tik turib uzunlikka sakrash, 96 tik turgan sakrash), bu samaradorlikning oshishini ko'rsatadi portlovchi kuch va undan tez itarish imkonini beradi yo'lida ijobiy o'zgarishlarga olib keladi yugurish tuzilishining fazoviy-vaqt xususiyatlari qadamlar.

Bu 30 metr yugurishda natijalarning ijobiy dinamikasini tushuntiradi (boshdan va harakatda). Bundan tashqari, yugurish natijalarining yaxshilanishi 30 tani tashkil etadi metr yugurish natijalari bilan solishtirganda ancha sezilarli 30 metr harakatda. Bu portlovchi moddalarning ko'payishining ko'rsatkichidir sportchilarning kuchi.

Sakrashni nazorat qilish mashqlari natijalari tezlik testlarida ishlashga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Shunday qilib, ichida ga muvofiq yugurish tezligini aniqlaydigan harakatda 30 metrga yugurish masofalar va ishtirokchilarning tezlik sifatlari va ko'rsatkichlari aniqlanadi eksperimental guruhda sezilarli darajada ko'paydi dastlabki ma'lumotlarga nisbatan sezilarli darajada ($P<0,05$). Buni maxsus jarayonda ekanligi bilan izohlash mumkin mashg'ulotlarga "portlovchi" sakrashlar kiradi, pliometrik (zarba) bajarish usuli qo'llanilgan mashqlar.

Tezlik va tezlik-kuchning progressiv rivojlanishi uchun yosh sportchilarning sifatlaridan alohida foydalanish kerak o'quv mashg'uloti o'zgaruvchan usulni ta'minlaydi "zarba" sakrash va yugurish mashqlarining optimal kombinatsiyasi.

davomida sa'y-harakatlari natijasida olingan "yangi izlar ta'siri" mustahkamlash repulsiya, nuqtai nazaridan istiqbolli uslubiy texnika hisoblanadi tezlik va kuch tayyorgarligi darajasini oshirish. O'z ichiga kiritish maxsus tayyorgarlik bosqichida o'quv jarayoni, biz taklif qiladigan plyometrik mashqlar komplekslari va ta'minlovchi alohida darsda ulardan foydalanish taktikasi turli mashqlar ketma-ketligi majburiy bilan har bir yondashuvda yo'nalish va qat'iy dozalash qatorlar orasidagi dam olish oralig'ini nazorat qilish, hissa qo'shgan "silliq" yugurishda natijalarni yaxshilash.

Xulosa. Shunday qilib, tajribaga asoslangan tadqiqot biz ko'rsatkichlarning sezilarli o'sishini aniqladik yengil atletikachilar orasida tezlik-kuch tayyorgarligi eksperimental guruh. Natijalarni o'rganish va tahlil qilish foydalanish degan xulosaga kelish mumkin plyometrik mashqlar 12-13 yoshli yengil atletikachilarning tezlik-kuchga tayyorlik darajasining oshishiga olib keladi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Ilyin M. A. Maxsus preparatni qo'llash texnologiyasi yosh qisqa masofaga yuguruvchilarning sport mashg'ulotlari /M. A. Ilyin: dis. ...kand. ped. Sci. Butunrossiya ilmiy tadqiqot Fizika instituti madaniyat.M., 2002. 174 b.

2. Yengil atletika. Sprint: uchun namuna dasturlari Yoshlar va sport maktabi / Sport maktabi / ed. V. G. Nikitushkina. M.: Sovet sporti. 2005 yil.116 s.

3. Mehrikadze V.V. Yosh sprinterni tayyorlash / V. Mehrikadze. M.: Jismoniy tarbiya, ta'lim va fan. 2011. 163 s.

16-18 YOSHLI KURASHCHI QIZLARNING TAYYORGARLIK DARAJALARI

Razaxov Kopbergen Dauletbaevich

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali Yakka kurash va tabiiy fanlar kafedrasining assistent o‘qituvchisi

Kalit so‘zlar: *sport takomillashuv, kurashchi qizlar, sport tayyorgarligi, kurashchi qizlarning o’quv-mashg‘ulot jarayoni, tezkor-kuch tayyorgarligi.*

Ключевые слова: *спортивное совершенствование, борцы-женщины, спортивная подготовка, быстросиловая подготовка. тренировочный процесс борцов-женщин,*

Key words: *sports improvement, female wrestlers, sports training, training process of female wrestlers, fast-strength training.*

Mavzuning dolzarbligi: Davlatimizda sport turlariga shuning ichida ayollar shug’ullanishi mumkin bo‘lgan sport turlariga e‘tibor kundan-kunga kuchaymoqda. Shundan ayniqsa kurash sport turlari bilan ayol-qizlarning shug’ullanishi uchun ham kerakli shart-sharoitlar yaratilmoqda. Mazkur sport turida jismoniy tayyorgarlikni takomillashtiruvchi mashg‘ulot asoslari, musobaqa qoidalariga zid bo‘lmagan texnik harakatlarga o‘rgatish metodikasi, taktik tayyorgarlik dasturlari ishlab chiqilgan bo‘lsa ham, har yilgi musobaqada yangi nomlar kashf etilishi kuzatilmoqda, bu esa sport sohasida xotin-qizlarni tayyorlash tizimini yangi texnologiyalar asosida tashkil etish va samarali

boshqarish hamda yuklamalarni optimal rejalashtirish muhim ahamiyat kasb etishini anglatadi. Sport turlari bo‘yicha texnik-taktik va jismoniy tayyorgarlikni takomillashtirishga bag’ishlangan ko’plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ammo, xotin-qizlarning jismoniy tarbiya va sport yo‘nalishlarida yuqori natijalarga erishishga qaratilgan ilmiy qarashlar yetarlicha o‘rganilmaganligi dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Tadqiqot maqsadi kurashchi qizlarining tayyorgarliklarini takomillashtirish bo’yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot obyekti O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida tahsil oluvchi kurashchi qizlarning o‘quv mashg’ulotlari jarayoni.

Tadqiqot predmetini O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida tahsil oluvchi kurashchi qizlarning o‘quv-mashg’ulot jarayonlarida umumiy jismoniy tayyorgarligi.

Kurash bilan shug‘ullanuvchi qizlarda musobaqa faoliyatining tahlili hamma kurash turlariga xos bo‘lgan tezkor-kuch tayyorgarligi hamda maxsus chidamlilikka bo‘lgan katta talabni aniqladi. Buni yosh kurashchilarning ko‘p yillik mashg‘ulotini rejalashtirishida hisobga olish lozim. Kurash musobaqalari kurashchilarni tayyorlashda o‘quv – mashg‘ulot jarayonining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Kurashchining yoshi va tayyorgarligiga qarab musobaqalar dasturi hamda yuklamalar me‘yorlari ishlab chiqilgan. Kurash bilan shug‘ullanishning boshlang‘ich bosqichida musobaqalarda ishtirok etish uchun bolalar tayyorgarligining davomiyligi bir yilni tashkil qiladi. Kurash bo‘yicha musobaqalarni o‘tkazish yuzasidan uslubiy tavsiyalar keltirilgan, ko‘rinib turibdiki, o‘smir kurashchilar uchun musobaqa yuklamasi yosh va kurash bilan shug‘ullanish stajiga qarab asta sekin oshib boradi. Osmir kurashchilar uchun musobaqalarning optimal sonini aniqlash ko‘p yillik tayyorgarlikni rejalashtirishda muhim tarkibiy qism hisoblanadi. Kurashchining ko‘p yillik tayyorgarligi – yuqori malakali kurashchilarni tayyorlashga qaratilgan murakkab hamda uzoq davom etadigan pedagogik jarayondir. Rus olimlarining fikricha, terener, ko‘p yillik mashg‘ulot rejasini tuzish mobaynida, mashg‘ulot va musobaqa yuklamalari hajmi, yo‘nalishi yildan-yilga qay tarzda o‘zgarib borishini, bu o‘zgarishlar tarbiyalanuvchilarning ahloqiy, iroda, jismoniy, texnika-taktik va nazariy tayyorgarligiga qanday ta‘sir ko‘rsatishini hamda u kurash yutuqlarining yosh dinamikasida xalqaro toifadagi kurash ustasigacha qanday aks etishini tasavvur qila olishi lozim. Ko‘p yillik mashg‘ulot jarayonidagi mashg‘ulot yuklamalari yo‘nalishi hamda hajmi o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida umumiy va yordamchi tayyorgarlik asosiy o‘rinni egallaydi. Dastlabki bazaviy tayyorgarlik bosqichi yordamchi tayyorgarlik hajmining 6 ga oshishi bilan tavsiflanadi (u umumiyi bilan birga mashg‘ulot ishining umumiy hajmidan 80-90% ga oshadi). Maxsus tayyorgarlik, odatda, 15% dan oshmaydi.

Ko‘p yillik mashg‘ulot jarayonida umumiy (A), yordamchi (B) va maxsus (V) tayyorgarlikning taxminiy nisbatlari (% da). Ixtisoslashgan bazaviy

tayyorgarlik bosqichida maxsus tayyorgarlik ulushi muhim darajada oshadi va umumiy tayyorgarlik ulushi kamayadi. Alohida imkoniyatlarni maksimal amalga oshirish bosqichida maxsus tayyorgarlik umumiy ish hajmidan 60% gacha etishi va undan ko‘p bo‘lishi mumkin.

Xulosa: Sport sohasida ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili, musobaqa bellashuvini tuzish va unga rioya qilish bilan bir qatordi kurashchilarning tayyorgarligi bo‘yicha dasturlarni kuzatish, o‘rganish, yangilarini yaratish va takomillashtirish bizga tayyorgarlikni boshqarishda pog‘onalar ahamiyati dinamikasining modelini ishlab chiqish hamda amalda asoslab berishga yordam berishi aniqlandi.

Ko‘plab olimlar kurash sport turida yosh nisbati judayam muhim ahamiyat kasb etishini ta‘kidlaydilar, ya‘ni 12 yoshdan keyin to 17 yoshgacha kurash sportidagi texnik-taktik harakatlarni bajara olish imkoniyatlarini takomillashishida muhim ahamiyat kasb etadigan asosiy sifatlarning jadal rivojlanish davri deb ta‘kidlashsa, unga qo‘shimcha sifatida bazaviy texnikaning yuzaga kelishi va rivojlanish davri deya ta‘kidlashadi. Shuning uchun, kurashchi tayyorgarligida kurash sport kurashi bilan shug‘ullanuvchi qizlarda o‘rgatish uchun musobaqa qoidalariga zid bo‘lmagan texnik-taktik harakatlar, murakkab hujum harakatlari, taktik tayyorgarlikning turli usullari, kombinasiyali hujum va himoya harakatlarining bajarilishidagi o‘zaro bog‘lanishlarga asosiy e‘tiborni qaratish zarurligi aniqlandi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va uslubiyati. T., 2005.
2. Kerimov F.A. «Kurash tushaman», -T., 1994. 265 b

13-15 YOSHLI ERKIN KURASHCHI QIZLARNING TEZKOR-KUCH SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH USLUBIYATI

Alimbetova Amina Urazimbetovna

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali stajyor o‘qituvchisi

Kalit so‘zlar: *erkin kurashchi qizlar, tezkor-kuch, sifat, usuliyat, rivojlantirish, trenirovka, Antropometrik o’lchovlar, tibbiy nazorat, ta’sir vaqti, tezkorlik qobiliyati, yuklama, mashg’ulot.*

Ключевые слова: *женская борьба, скоростно-силовые качества, методика, развитие, тренировка, антропометрические измерения, медицинский контроль, время воздействия, скоростная способность, нагрузка, тренировка.*

Kirish. O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni faol rivojlantirish, aholining barcha qatlamlarini, ayniqsa, yoshlarni jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug‘ullanishga jalb qilish, jamiyatda sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda[1].

Dunyo miqyosida boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida shug‘ullanuvchi erkin kurashchilarning o‘rni kun sayin oshib bormoqda. So‘nggi yillarda

o‘tkazilib kelinayotgan nufuzli sport musobaqalarida, jumladan, Olimpiada va Osiyo o‘yinlari, Jahon va Osiyo chempionatlari, hamda qator an’anaviy xalqaro turnirlarda sport natijalarining uzluksiz o‘sib borishi, raqobatni yanada keskinlashishiga olib kelmoqda. Erkin kurash amaliyotida yuksak sport natijalariga erishish maqsadida jismoniy tayyorgarligining ahamiyatliligi oshib bormoqda. Bu o‘z navbatida ularning tayyorgarligiga yuqori talablar qo‘ymoqda. Ushbu jarayonlar erkin kurashchi qizlarni tayyorlashga bo‘lgan yangi vosita va uslublar asosida takomillashtirilgan uslubiyatlarni ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Bu esa mutaxassislar tomonidan ilmiy asoslangan izlanishlar olib borishni taqozo etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-iyuldagi PF-336-sonli “Sport kurashlarining olimpiya turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni yurtimizda erkin kurash sport turini yuqori pog‘onaga ko‘tarish uchun qonuniy asos bo‘lib xizmat qilmoqda [2].

Mamlakatimizda Olimpiya o‘yinlari dasturidan joy olgan erkin kurashi sport turini aholi o‘rtasida yanada ommalashtirish, sportchilarga keng imkoniyatlar yaratish borasida davlatimiz rahbari tomonidan bir qator samarali ishlar olib borilayotganligini ta’kidlab o‘tish joiz. Shu bois, erkin kurash sport turida natijalarning to‘xtovsiz o‘sishi, xalqaro maydondagi yuqori raqobat sportchilarning ko‘p yillik tayyorgarlik tizimida mavjud uslubiy, tashkiliy va boshqaruv muammolarining samarali yechimlarini tinimsiz izlashni talab qiladi. Erkin kurashchilarning ko‘p yillik tayyorgarlik davrida sportchilarning nafaqat jismoniy va texnik-taktik tayyorgarliklarini takomillashtirish, balki va ularning sport natijalariga yuqori ta’sir ko‘rsatuvchi vosita va uslublarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda erkin kurashi sport turi bo‘yicha faoliyat olib borayotgan murabbiylar erkin kurashchilarning tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirish uslubiyatining yillik mashg‘ulot sikllarida asosan texnik tayyorgarliklariga e’tibor qaratmoqdalar. Bu esa, o‘z navbatida, 13-15-yoshli sportchining jismoniy holatiga kam vaqt ajratilishi (yillik tayyorgarlikning ayrim sikllarida) va sport natijalarining dinamikasi pasayishiga olib keladi.

Erkin kurashchilarning jismoniy sifatini rivojlantirish bo‘yicha Respublikamizda ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan, ammo 13-15 yoshli erkin kurashchilarning tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirish uslubiyati jismoniy sifatini maxsus mashqlari orqali rivojlantirnish bo‘yicha tadqiqot ishlari olib borilmagan. Bu esa yosh erkin kurashchilarning ko‘p yillik tayyorgarligida turli muammolarni yuzaga chiqaradi.

Adabitotlar tahlili va metodologiya. Bugungi kun sport amaliyotida iste’dodli sportchilarni tayyorlash masalasiga yangicha nazar bilan yondashish zaruriyatini tug’dirmoqda. Ushbu zaruriyat ayniqsa kurashda yaqqol ko’zga tashlanadi. Erkin kurashchilarimiz jahon sport maydonlarida muhim g’alabalarni qo’lga kiritib kelmoqda. Ammo erishilgan yuksak o’rinlarni saqlab qolish uchun trenirovka jarayonini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlarni davom ettirish zarur bo’ladi.

Erkin kurashchi qizlar va zahira tayyorgarligini takomillashtirishning yangi mashg’ulot yuklamalarini oqilona rejalashtirish, nazorat qilish muammosini hal etish bilan bog’liq.

1. Erkin kurashchi qizlarning tayyorgarligi bosqichlarida sportchilar organizmiga turlicha kattalikdagi yuklamali va har xil yo’nalishli mashg’ulotlarning ta’siri xususiyatlarini o’rganish.

2. Erkin kurashchi qizlar guruhlarida tayyorgarligi bosqichlarini rejalashtirishda mashg’ulot jarayonida turli kattalikdagi va yo’nalishdagi yuklamalarni almashlab berish xususiyatlariga bog’liq samaradorlikni aniqlash.

3. Erkin kurashchi qizlarning tayyorgarligi bosqichlarini tuzishda mashg’ulot jarayonida turli kattalikdagi va yo’nalishdagi yuklamalarni almashlab o’tish xususiyatlariga bog’liq samaradorlikni aniqlash.

4. Erkin kurashchi qizlarda maxsus tezkor-kuch sifatlarini aniqlash va tayyorgarlik bosqichida ularni rivojlantirish usuliyotini aniqlashda o’quv-trenirovkalardagi mashq yuklamalarini ishlab chiqish.

6. Erkin kurashchi qizlarda maxsus tezkor-kuch sifatlarini aniqlash va tayyorgarlik bosqichida ularni rivojlantirish usuliyoti bo’yicha trenirovka jarayoni o’rganish.

Muammoning o’rganilganlik darajasi: Sport fani sohasining taniqli olimlari ta’rificha, sport tayyorgarligi jarayonida mashg’ulotlarni rejalashtirishda, ayniqsa, sport kurashida mahoratli sportchilar zahiralarini va malakali sportchilarni tayyorlashda mashg’ulotlar shiddatini, mashq samaradorligini kuchaytirish mazmuni bo’yicha har xil nuqtai nazardagi fikrlar farki kuzatilmoqda. Shu nuqtai nazarlarda mavjud kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan ilmiy-uslubiy yondashish natijasida sportchilarning xalkaro musobaqalardagi ishtirokini va yuqori natijalarga erishishlarini ta’minlashda sport tayyorgarligi mashgulotlarining samaradorligini oshirish bugungi kunda sport amaliyotida dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu jumladan, mutaxassislar tomonidan o’rganilgan va ishlab chiqilgan maxsus va musobaqaoldi tayyorgarlik mashg’ulotlari yuklamalari kattaligi va yo’nalishi ilmiy asoslangan mashg’ulotlarga bo’lgan etiyojni ko’rsatmoqda. Sport mashg’ulotlari jarayonida rasional yuklamalarni bajarish, ish hajmini oshirish borasida mikrosikllarga asoslangan optimal dasturlar tuzilishi, har bir mashg’ulot vazifasi samaradorligini takomillashtirish masalasi sport amaliyotida katta o’rin tutadi. Shu singari, malakali kurashchilar guruhlariga rejalashtirilgan mashg’ulotlarni, turli kattalikdagi va yo’nalishdagi yuklamalar bilan olib boriladigan mashg’ulotlarni rasional darajada muvofiqlashtirish, kuniga bir yoki ikki marta mashg’ulot o’tkaziladigan mashg’ulotlar bosqichlarining asosiy uslubiy tamoyillarini rejalashtirish usullari va tuzilishi yetarlicha aniqlanmagan.

Muhokama va natijalar. Erkin kurash mashg’ulotlarida turli kattalikdagi va yo’nalishdagi yuklamalarning qo’llanilishi mazkur masalani hal etishda katta ahamiyatga ega bo’lishidan qat’i nazar, ularning sportchilar organizmiga ta’siri to’g’risidagi muammo hal qilinmagan. 13-15 yoshli erkin kurashchi qizlarni

maxsus tezkor-kuch sifatlarini aniqlash va mashg'ulotlarda rivojlanish samaradorligini tahlil qilish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi: kurashchilar tayyorlash tizimida organizmiga katta va turli yo'nalishdagi yuklamalarning ta'siriga talluqli tadqiqot natijalari olinib, yosh kurashchilar guruhlarida mashq yuklamalarining samaradorligini oshirishda quyidagi yangi uslublardan foydalanildi:

13-15- yosh erkin kurashchi qizlarning mashg'ulot izchilligi, kunlari, kunlik va haftalik mikrosikllar (MS);

- samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan qo'shimcha mashg'ulotlarning uygunligi, mashgulotlarning umumiy sonini oshirish va uning natijasida maxsus ish qobiliyati samaradorligi o'rganildi;

- Erkin kurashchi qizlarning tayyorgarlik bosqichlarini rejalashtirish jarayonida mashg'ulot yuklamalarining bajarilishini nazorat qilish, yuklamalarning turli kattaligi, yo'nalishi, mashg'ulotlar turining kuchi va ta'sir qilish tavsifi o'rganildi;

- Erkin kurashchi qizlarning tayyorgarlik bosqichlari davomiyligining o'zgaruvchan holatiga va haftalik mikrosikl tizimida turli yo'nalishlarda bajarilgan yuklamalarning natijalari samaradorligiga baho berildi;

Erkin kurashchi qizlarda maxsus tezkor-kuch sifatini rivojlantirishda trenirovka mashq yuklamalarining yangicha taqsimlash orqali faoliyatidagi natijalarni yuqori darajaga ko'tarish.

- tadqiqot jarayonida kurashchi qizlarning tayyorgarligi bosqichlarining tuzilishi, turli yuklamalar va yo'nalishdagi usullarda o'rganildi va samaradorligi tadqiqotda isbotlab berildi.

13-15 yoshli erkin kurashchilarning ish qobiliyatini oshirish borasida mavjud bo'lgan omillarning biri sifatida tayyorgarlik bosqichlarida katta yuklamali mashg'ulotlar sonini izchillik bilan, zo'r bermasdan oshirish uslublari ishlab chiqilib, 13-15 yoshli erkin kurashchi qizlarning tayyorgarlik bosqichlarida mashg'ulotlar kattaligi va yo'nalishi tizimlarini takomillashtirish, maxsus jismoniy tayyorgarligi sifatlarini rivojlantirish borasida qo'shimcha mashgulotlarni uyg'unlashtirishda mikrosikl mashg'ulotlarini rasional almashlab o'tkazish, katta yuklamali mashg'ulotlarning umumiy sonini oshirish va uning natijasida kurashchilarning maxsus ish qobiliyatini samarali rivojlantiradi.

Erkin kurashchi qizlarda maxsus tezkor-kuch sifatlarini aniqlash va ularni rivojlantirish uslubiyati orqali trenerovkadagi yuklamalarini optimal rejalashtirish musobaqalarda yuqori natijalarni beradi.

Erkin kurashchi qizlarda tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirish erkin kurashchining raqib qarshiligini engib o'tish yoki mushak kuchlanishi hisobiga unga qarshilik ko'rsatish qobiliyati tushuniladi. Kuchning quyidagi turlarini ajartish qabul qilingan: umumiy va maxsus, mutlaq va nisbiy, tezkor va portlovchan, kuch chidamliligi.

Yuqoridagilarga asoslangan holda shunday xulosa qilish mumkin: sportchilar organizmining shaxsiy xususiyatlari va har bir kurashchining

tayyorgarlik darajasiga qarab mashg’ulot yuklamalarining hajmi, shiddati va takrorlar soni alohida belgilanadi. Tadqiqot natijasiga har bir kurashchining mashqlanganlik darajasi va shaxsiy xususiyatlari ta’sir qilmasligi uchun biz ilmiy tadqiqot ma’lumotlariga mos holda solishtirma tadqiqot variantlaridan foydalandik.

Shu bilan birga kurashchilar 24 soatdan keyin uzoq muddatli, 2 kundan keyin qisqa muddatli shiddat bilan bajariladigan ishlarni bemalol bajarishlari mumkin. Erkin kurashchi qizlarning maxsus tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirish tahlili: Erkin kurashchi qizlarning maxsus tezkor-kuch sifatlarini aniqlash va tayyorgarlik bsqichida ularni rivojlantirish ustida ish olib bordik. Oldimizga qo’yilgan masalalarni o’rganish maqsadida kurashchilar bilan olib boriladigan trenirovka jarayoni hamda va etakchi trenerlar, mutaxasislar ish tajribasi umumlashtirildi hamda tadqiqotlar olib borildi. Olingan natijalar asosida aniqlandiki erkin kurashchilarning maxsus tezkor-kuch sifatlarni muayyan darajada harakatlar tezkor-kuch talab qiluvchi amallarda katta ahamiyatga ega bo’ladi. kurashchilarda turli mushak guruhlari kuchining ortishi bir me’yorda bo’lmaydi va yuqori shiddatga erishadi. Bunday erkin kurash bilan shug’ullanish tezkor-kuch sifatlari topografiyasiga, ya’ni turli mushak guruhlarining maksimal kuchi nisbatiga o’z muhrini bosadi.

Erkin kurashchi qizlarni maxsus tezkor-kuch sifatlarini trenirovkadagi mashq yuklama vositalarini hajmi yig’indilarini tahlil qilish, tekshirilayotgan kurashchilarning yuqori sport natijalarini egallashda maqsadida o’tkaziladi. Nazorat qilish uchun 20 ta kurash bilan shug’ullanuvchi kurashchi tanlab olindi. Erkin kurashchi qizlar bilan olib boriladigan yuklamalarning amaliy mashg’ulotlarda keng qo’llanishi tizimlashtirildi va katta yuklamali mashg’ulotlardan so’ng tiklanish holatlariga faol ta’sirlari aniqlandi; mashg’ulotlarni rasional almashlash asosida kurashchilarning tayyorgarlik bosqichlari mikrosikllari variantlari, turli kattaligi va yo’nalishiga qaratilgan mashg’ulotlarni tashkil etish borasida tajribaviy ko’rsatkichlar olindi.

Yosh erkin kurashchi qizlar bilan olib boriladigan o’quv trenirovkasida maxsus tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirish musobaqalarda yaxshi natijalarga erishishga imkon beradi. trenirovkaning faqat asosiy qismidagi maxsus tezkor-kuch sifatlarni tayyorgarlik bosqichida ularni rivojlantiruvchi trenirovka yuklamalari tahlili olindi. Trenirovka bosqichi tayyorgarligini asosiy vositalarining hajmi har xilligi, o’rtacha hajm, standart og’ish keltirilgan. Asosiy qilib erkin kurashchi qizlarning darajasiga va murakkablik koeffisientiga qarab trenirovka mashqlarini taqsimlash qabul qilindi. Hamma maxsus mashqlar o’z ichiga yuqori bo’lgan trenirovka vositalarini olgan, ya’ni sherik bilan kurashish, shartli kurash, texnik-taktik mahoratni takomillashtirish uchun sherigi bilan bajariladigan mashqlar olingan.

Ixtisoslashtirilgan trenirovka mashqlari hajmi jihatidan ularni murakkabligiga qarab taqsimlandi. Kuzatuvlar shuni ko’rsatadiki, ayrim trenerlar qisqa muddat ichida kurashchilarni tayyorlash maqsadida jismoniy sifatlarni rivojlantiruvchi mashqlarni zo’rma-zo’raki qo’llaydilar. Bu borada ayniqsa

maxsus tezkor-kuch sifatini tarbiyalash bolaning jismoniy imkoniyatini e’tiborga olish zaruriyatini belgilaydi. Me’yoridan ortiq beriladigan surunkali maxsus tezkor-kuch mashqlari shug’ullanayotgan bolani zo’riqish holatiga tushirib qo’yishi muqarrar. Shuning uchun maxsus tezkor-kuch mashqlarini qo’llashdan avval maxsus tezkor-kuch sifatini baholovchi ommabop maxsus test mashqlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqotlar natijasida quyidagi asos qilib olindi: 1. Maxsus rezina bilan ishlash 30 soniya (marta). 2.Maxsus tezkor-kuch sifatini rivojlantirish uchun 20 soniya davomida o’z vazndan kichik sherik bilan oyoqlarga shongip kirib chiqish (marta). 3.20 soniya turgan holatda sherigini boyniga qoyib otirib turish (marta). 4. 10 soniyada yotgan holda oyoqlarni 45C kotarish (marta). 5.Bir daqiqa davomida 20kg shtangani pastdan tepaga kotarib tushirish (marta). Erkin kurashchilar faoliyatida va xususan musobaqa bellashuvlarida barcha turdagi maxsus tezkor-kuch sifatlari (umumiy va maxsus, mutloq va nisbiy, statik va dinamik, tezkor-portlovchi) hal qiluvchi ahamiyatga ega bo’lishi mumkin. Shuning uchun o’quv-trenirovka jarayonida maxsus tezkor-kuchni rivojlantirishga e’tibor qaratish kurashchilar tayyorlashning muhim shartlaridan biridir. Erkin kurashchilarda har xil turdagi maxsus tezkor-kuch sifatlarini o’rganish qayd etilgan ko’rsatkichlar tadqiqot boshida sezilarli darajada sayoz ekanligini ko’rsatdi. Jumladan, tajriba va nazorat guruhdagi shug’ullanuvchilarni qo’shib hisoblaganda ham ularning ko’rsatkichlari tadqiqot boshlanmasdan avval deyarli farq qilmadi.

Erkin kurash bilan shug’ullanuvchi qizlarning maxsus tezkor-kuch sifatlarini rivojlanish darajasi natijalari

(Nazorat guruh 10 kishi, Tajriba guruhi 10 kishi)

1-jadval

№	Tezkor-kuch testlar	Tadqiqot guruhi		Nazorat guruhi		T-dan keyin farqi	
		T.dan oldin	T.dan keyin	T.dan oldin	T.dan keyin	T	N
		O’rtacha	O’rtacha	O’rtacha	O’rtacha		
1	Maxsus rezina bilan ishlash 30 soniya (marta).	24	28	21	23	4	2
2	Maxsus tezkor-kuch sifatini rivojlantirish uchun 20 soniya davomida sherik bilan oyoqlarga shong’ip kirib chiqish (marta).	7	10	5	7	3	2
3	20 soniya turgan holatda sherigini boyniga qoyib otirib turish (marta).	6	8	5	6	2	1
4	10 soniyada yotgan holda oyoqlarni 45^{C} kotarish (marta).	9	11	7	8	2	1

5	Bir daqiqa davomida 20kg shtangani pastdan tepaga kotarib tushirish (marta).	6	7	4	5	1	1

Erkin kurashchi qizlar, maxsus rezina bilan ishlashda tadqiqot guruhi kurashchilarda o'rtacha arifmetik qiymati 24 ni tashkil qildi. Nazorat guruhida erkin kurashchilarda o'rtacha arifmetik qiymati 21 ni tashkil qildi.

Maxsus tezkor-kuch sifatini rivojlantirish uchun 20 soniya davomida sherik bilan oyoqlarga shong'ip kirib chiqish usullarni bajarish tadqiqot guruhi kurashchilarda o'rtacha arifmetik qiymati 7 ni tashkil qildi. Nazorat guruhida erkin kurashchilarda o'rtacha arifmetik qiymati 10 ni tashkil qildi. 20 soniya turgan holatda sherigini boyniga qoyib otirib turish tadqiqot guruhi erkin kurashchilarda o'rtacha arifmetik qiymati 6 ni tashkil qilodi. Nazorat guruhida erkin kurashchilarda o'rtacha arifmetik qiymati 5 ni tashkil qildi. 10 soniyada yotgan holda oyoqlarni 45^C kotarish tadqiqot guruhi erkin kurashchilarda o'rtacha arifmetik qiymati 9 ni tashkil qildi. Nazorat guruhidagi erkin kurashchi qizlarda o'rtacha arifmetik qiymati 7 ni tashkil qildi. Bir daqiqa davomida 20kg shtangani pastdan tepaga kotarib tushirish tadqiqot guruhi erkin kurashchi qizlarda o'rtacha arifmetik qiymati 6 ni tashkil qildi. Nazorat guruhida erkin kurashchi qizlarda o'rtacha arifmetik qiymati 4 ni tashkil qildi. Olib borilgan tadqiqotlardan so'ng aniqlandiki yosh erkin kurashchilarda tezkor-kuch sifatlari etarli darajada rivojlanmagan deb baholashga asos bo'ldi. Erkin kurashchi qizlarda maxsus tezkor-kuch sifatini rivojlantirish maqsadida olib borilgan pedagogik tadqiqotlardan so'ng tadqiqotning samarasini baholash maqsadida tadqiqot va nazorat guruhlariga mansub erkin kurashchi qizlar ko'rsatkichlari statistik tahlil qilindi. Erkin kurashchi, maxsus rezina bilan ishlash da tadqiqot guruhi erkin kurashchi qizlarda o'rtacha arifmetik qiymati 28 ni tashkil qildi. Nazorat guruhida erkin kurashchi qizlarda o'rtacha arifmetik qiymati 23 ni tashkil qildi. Maxsus tezkor-kuch sifatini rivojlantirish uchun 20 soniya davomida sherik bilan oyoqlarga shong'ip kirib chiqish usullarni bajarish tadqiqot guruhi kurashchilarda o'rtacha arifmetik qiymati 10 ni tashkil qildi. Nazorat guruhida erkin kurashchi qizlarda o'rtacha arifmetik qiymati 7 ni tashkil qildi. 20 soniya turgan holatda sherigini boyniga qoyib otirib turish tadqiqot guruhi erkin kurashchi qizlarda o'rtacha arifmetik qiymati 8 ni tashkil qilodi. Nazorat guruhida erkin kurashchi qizlarda o'rtacha arifmetik qiymati 6 ni tashkil qildi. 10 soniyada yotgan holda oyoqlarni 45^C kotarish tadqiqot guruhi erkin kurashchi qizlarda o'rtacha arifmetik qiymati 11 ni tashkil qildi. Nazorat guruhidagi erkin kurashchi qizlarda o'rtacha arifmetik qiymati 8 ni tashkil qildi Bir daqiqa davomida 20kg shtangani pastdan tepaga kotarib tushirish tadqiqot guruhi erkin kurashchilarda o'rtacha arifmetik qiymati 7 ni tashkil qildi. Nazorat guruhida erkin kurashchi qizlarda o'rtacha arifmetik qiymati 5 ni tashkil qildi.Tadqiqot guruhida ushbu ko'rsatkichlar ustunlikka ega ekanligi ma'lum bo'ldi. Tadqiqotga jalb qilingan erkin kurashchi qizlarning tezkor-kuch sifatlarini rivojlanish yuqori deb xulosa qilishga asos bo'la oladi. ehtimol, mazkur vaziyat pedagogik tadqiqot guruhiga

mansub yosh erkin kurashchi qizlarni alohida e’tibor doirasida ekanligi ularning ruhiy-emosional holatini ijobiy pog’onaga biroz ko’tarilganligidir.

Xulosalar

1.Ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili shuni ko’rsatdiki, so’nggi yillarda erkin kurashchi qizlar tayyorgarlik bosqichlarining mashg’ulotlari kattaligi va yo’nalish tizimlarini takomillashtirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Trenirovkadan tashqari shakllarda amaliyot bilan bog’liq xarakat malakalari va ular bilan bog’liq bo’lgan maxsus tezkor-kuch sifatlarning rivojlantirishga qaratilgan mashqlarning samaradorligi kurash bo’yicha etakchi mutaxasis olimlar tomonidan o’rganilgan.

2. Erkin kurashchi qizlarda tayyorgarlik bosqichidagi maxsus tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirishda jarayonida alohida ahamiyat berish kerak bu esa erkin kurashchilarning musobaqalarda yuqori natijalarga erishishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5 noyabrdagi PQ-5281-sonli “2024-yil Parij shahrida (Fransiya) bo‘lib o‘tadigan XXXIII yozgi olimpiya va XVII paralimpiya o‘yinlariga O‘zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to‘g‘risida”gi qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-iyuldagi PQ 336-sonli «Sport kurashlarining olimpiya turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida »gi qarori.

3. Kerimov F.A Sport kurashi nazaryasi va usuliyati T.2007y

BOKSDA MUSOBAQALARNING TURLARI VA MUSOBAQA FAOLIYATI

Allanazarov Ikram Genjeevich

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali assistent o‘qituvchisi

Kurbanova Aydana Jańabay qızı

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali 1-bosqich talabasi

Tayanch so‘zlar: *boksda musobaqalarning turlari, vazifalari, musobaqa faoliyati, havaskor boks, asosiy musobaqalar.*

Ключевые слова: *виды соревнований по боксу, задачи, соревновательная деятельность, любительский бокс, основные соревнования.*

Key words: *mypes of boxing competitions, tasks, competition activities, amateur boxing, main competitions.*

Dolzarbligi. Olimpiada sport o’yinlari tarkibida sport musobaqalari markaziy element hisoblanib, bu sportchilarning musobaqalar natijaviy faoliyati uchun talab qilinuvchi barcha tashkiliy, uslubiy va tayyorgarlik tizimlari tavsiflarini belgilab beradi. Musobaqalarsiz sportning o’zining ham mavjud bo’lishi qiyin hisoblanadi. Shu sababli olimpiada sporti sezilarli darajada

musobaqalarning funksiya bajarishi va rivojlantirilishini ta’daqlashga yo’naltirilgan bilimlar va faoliyat sohasi sifatida qarab chiqilishi mumkin.

Tadqiqot maqsadi. Belgilangan maqsad va vazifalari, tashkillashtirish shakli, ishtirokchilar tarkibiga bog‘liq holda sport musobaqalarini har xil turlarga ajratib chiqish.

Tadqiqot vazifasi. Tayyorgarlik musobaqalari. Ushbu musobaqalarda asosiy vazifa – sportchilarning musobaqalar faoliyatida oqilona texnika va taktikani takomillashtirish, organizmning turli xil tizimlarini musobaqalarga tegishli yuklamalarga moslashtirish va boshqalardan tashkil topgan. Bunda sportchilarning mashq qilish darajasi oshiriladi, ularda musobaqalarga bo’lgan tajriba va ko’nikmalari shakllantiriladi.

Yirik rasmiy musobaqalar uzoq vaqt davomiyligidagi tayyorgarliklar ko’rilishi samaradorligini o’zida aks ettirib, sportchilar va jamoaning tayyorgarligi joriy tizidaqi baholash imkonini beradi. Boshqa musobaqalar esa nisbatan muhim ahamiyatga ega hisoblangan musobaqalar uchun sportchilarning ishtirokini aniqlashda munosib sportchilarni tanlab olish masalasini hal qilishni ta’daqlab beradi, shuningdek, sportchilarning har tomonlama tayyorgarligi takomillash-tirilishining muhim samarali vositasi hisoblanadi.

Tayyorgarlik, nazorat, yaqinlashtiruvchi (model), saralish va asosiy musobaqalar ajratib ko’rsatiladi.

Nazorat musobaqalari sportchilarning tayyorgarlik darajasini baholash imkonini beradi. Bu musobaqalar davomida sportchilarning texnika, taktikani o’zlashtirish darajasi, harakatlarga oid sifatlarning rivojlanish darajasi, musobaqalar yuklamalarga nisbatan psixik jihatdan tayyorlik darajasi tekshiriladi. Nazorat musobaqalarining natijalari tayyorgarlik jarayoni tuzilishiga o’zgartirishlar kiritish imkonini beradi. Nazorat musobaqalari maxsus tashkil qilingan, shuningdek turli xil darajadagi rasmiy musobaqalar ko’rinishlarida amalga oshirilishi mumkin.

Yaqinlashtiruvchi (model) musobaqalar. Ushbu musobaqalarning asosiy vazifasi – sportchilarni makrotsikldagi, yillik, to’rt yillik davomidagi asosiy musobaqalarga olib kelish, yo’naltirish hisoblanadi. Bu musobaqalar sportchilarning tayyorgarligi tizimi tarkibida maxsus tashkil qilingan musoba-qalar ko’rinishida, shuningdek, rasmiy taqvim musobaqalar shakllarida bo’lishi mumkin. Ular oldinda turgan musoba-qalarni to’liq yoki qisman modellashtirishi talab qilinadi.

Saralash musobaqalari sportchilarni terma jamoa tarkibiga tanlab olish va yuqori darajadagi musobaqalar uchun ishtirokchilarni saralab olish maqsadlarida amalga oshiriladi. Bu ko’rinishdagi musobaqalarning o’ziga xos farqlanib turuvchi jihatlari – tanlash sharoitlari bilan belgilanadi, ya’ni nazorat normativlarini bajarishda ma’lum bir o’rinlarni egallash amalga oshirilib, o’z navbatida bu holat asosiy musobaqalarda chiqish imkonini beradi. Saralash tavsiflari rasmiy, shuningdek, maxsus tashkil qilingan musobaqalar tavsiflariga ega bo’lishi mumkin.

Asosiy musobaqalar. Asosiy musobaqalar sportchilarning sport takomillashish-ning ushbu bosqichida nisbatan yuksak natijalar ko'rsata olishi imkoni beruvchi musobaqalar hisoblanadi. Ushbu musobaqalarda sportchilarda mavjud bo'lgan texnik-taktik va funksional imkoniyatlar to'liq holatda yo'naltirilishi talab qilinadi, jumladan bunda nisbatan yuqori natijalarga erishish uchun maksimal darajada maqsadlar qo'yilishi, psixik jihatdan ham yuqori darajada tayyorgarlik namoyon bo'lishi qayd qilinadi.

Belgilangan vazifalarga bog'liq holatda musobaqalar turli xil shaklarda amalga oshiriladi.

Tumanlar, shaharlar, viloyatlar, Respublika, KSJ va idoralar miqyosidagi sport to'garaklari, jismoniy tarbiya jamoalari, o'rtasidagi *birinchilik* uchun o'quv-mashg'ulotlar amalga oshiriladi va nisbatan kuchli bokschilar, jamoalar, tashkilotlar aniqlanadi.

Xotira musobaqalari davomida sport yoki ijtimoiy tashkilotlar, gazeta tahririyat-lari, vazirliklar va idoralar miqyosida ilg'or davlat arboblari yoki buyuk sportchilar xotirasiga bag'ishlangan, shuningdek, bayramlar munosabati bilan musobaqalar tashkil qilinishi amalga oshiriladi.

Bellashuv uchrashuvlari ko'rinishidagi musobaqalarda esa shahar, respublika miqyosidagi sport jamiyatlari, jismoniy tarbiya jamoalari to'garaklari, sportchilar guruhlari o'rtasida mahoratni takomillashtirish, sportchilarda vatanparvarlik va o'z jamoasiga, shahar va o'z respublikasiga sodiqlikni tarbiyalash maqsadlarida amalga oshiriladi.

Saralash musobaqalari terma jamoa tarkibini yig'ish maqsadlarida kuchli bokschilar orasidan tanlab olishni amalga oshirish uchun o'tkaziladi.

Tasnifiy musobaqalar («*ochiq ring*») – kichik razryadlardagi sportchilarni tayyorlashning asosiy shakli hisoblanib, ularning kelgusida katta ringga chiqish imkoniyatlarini ta'daqlaydi.

Musobaqalar ko'lami va o'tkazilish miqyosiga ko'rarazryad, yosh va og'irlik toifalari bo'yicha hududiy, idoralararo, xalqaro, yopiq, ochiq musobaqalarga ajratiladi.

Hududiy miqyosdagi musobaqalar jismoniy tarbiya va sport ishlari qo'mitasi tomonidan tashkil qilinib, shahar, tuman, viloyat, respublika miqyosida boksning holatini va rivojlanishini tekshirish maqsadlarida, KSJ va idoralarga mansubligidan qat'i nazar tegishli hududda istiqomat qiluvchi alohida sportchilar va sport jamoalarining ishtirokini hisobga olgan holatda o'tkaziladi.

Idoralararo musobaqalar joylarda ishlash holatini tekshirish maqsadlarida KSJ va idoralar tomonidan tashkil qilinadi.

Xalqaro musobaqalar O'zbekiston Respublikasi miqyosida Sport vazirligi tomonidan tashkil qilinib, shuningdek, KSJ va idoralar tomonidan horijiy bokschilarni jalb qilish asosida tashkillashtiriladi. Olimpiada, jahon birinchiligi va Yevropa birinchiligi musobaqalari AIBA va EABA tomonidan tashkil qilinadi.

Yopiq musobaqalar faqat tegishli tashkilotlar a'zolari o'rtasidagina tashkil qilinadi.

Ochiq musobaqalar – barcha taklif qilinganlar uchun tashkil qilinadi.

O’tkazilish tavsiflariga ko’ra musobaqalar quyidagi turlarga ajratiladi:

a) *shaxsiy* – bu musobaqalarda faqat har bir og‘irlik toifalari bo’yicha shaxsiy o’rin aniqlanadi;

b) *shaxsiy-jamoaviy* – bu musobaqalarda har bir bokschining alohida, shaxsiy natijalari aniqlanib, keyin esa ularning shaxsiy natijalari asosida jamoaviy natijalar, o’rinlar belgilanadi;

c) *jamoaviy* – bu musobaqalarda jamoa a’zolari – har bir bokschining shaxsiy natijalari asosida faqat tegishli jamoalarning egallagan o’rni aniqlanadi.

Boks bo’yicha musobaqalar quyidagi uchta tizimdan biri bo’yicha amalga oshirilishi mumkin:

a) *yutqazganlarning chiqib ketishi*, ya’ni bunda ishtirokchi (jamoa) birinchi marta yutqazgan vaziyatda musobaqani tark etadi;

b) *yutqazganlarning chiqib ketishi*, ya’ni bunda ishtirokchi (jamoa) ushbu musobaqada belgilangan va mavjud tegishli qoidalarga binoan ikkinchi marta yutqazgan vaziyatda musobaqani tark etadi;

c) *aylanma tartibda* (faqat jamoalar uchun) – bunda musobaqada ishtirok etuvchi jamoalar o’zaro bir martadan uchrashishlari va har bir ishtirokchining ikkitadan ortiq yutqazishlarga ega bo’lmasligi belgilanadi.

Xulosa. Tumanlar, shaharlar, viloyatlar, Respublika, KSJ va idoralar miqyosidagi sport to’garaklari, jismoniy tarbiya jamoalari, o’rtasidagi birinchilik uchun o’quv-mashg‘ulotlar amalga oshiriladi va nisbatan kuchli bokschilar, jamoalar, tashkilotlar aniqlanadi va Respublikamizning bayrog‘ini yuksaklarga kotarishga hissa qo‘shadigan boksshilarni tayyorlashimiz kerak.

Adabiyotlar:

1. R.D.Xalmuxamedov, V.D.Anashov, P.M.Adilshaev, I.G.Allanazarov. Boks teoriyası hám metodikası 2023. 557 b

2. Karimov M.A., Xalmuxamedov R.D., Quyashematov I.Yu., Tajibaev S.S. Boksshılardıń sport -pedagogikalıq sheberligin asırıw. T., 2011. 478 b.

OQÍW SHÍNÍǴÍW BASQÍSHÍNDAǴÍ ERKIN GÚRESSHILERDIŃ KOMBINACION HÚJIM HÁREKETLERIN JETILISTIRIW

Joldasov Arziwbek Sultanbay ulı

Ózbekstan mámleketlik dene tárbiya hám sport universiteti Nókis filialı oqıtıwshısı

Tayanısh sózler: *erkin gúresshiler, texnikalıq-taktikalıq tayarlıq, kombinacion húJim.*

Kirisiw. Erkin gúres boyınsha xalıq aralıq turnirlerde, Aziya, Jáhán birinshilikleri hám Olimpiada oyınlarında palwanlarımız joqarı nátiyjelerge erisip kelmekte. Ózbekstandaǵı erkin gúresshilerimiz xaliq aralıq maydanda úlken tabıslardı qolǵa kirgizgenler, Olimpiada chempionlari, jáhán chempionlari – Artur Taymazov, Dilshod Mansurov, Begzod Abduraxmonovlar menen maqtanamız. Erkin gúres Jáhán sport áleminde bólek, rawajlanıp atır hám onıń ushın júdá kóp ilimiy izertlewler alıp barılmaqta. Buǵan baylanıslı ilimpazlarımız tárepinen házirgi kúnde ádewir jumıslar alıp barılmaqta, biraq bul qılınıp atırǵan jumıslar

kemlik etiwi ayqın kózge taslanıp qalıp atır. Jarıs qaǵıydalarınıń keyingi jıllardaǵı ózgerisleri gúresshilerge joqarı talaplardı qoyıp atır. Bul bolsa taǵı jańa talaplardı palwanlar aldına qoyadı. Yaǵnıy, bellesiwdi joqarı pát penen, texnikalıq háreketlerdi qarsilasinan aldın orınlawda gúresshiniń fizikalıq tayarlıǵında da jańa talaplardı payda etedi. Ásirese, erkin gúreste qarsılastan ústin keliw ushın kombinacion háreketlerdi shólkemlestiriw hám olardı jetilistiriw aktual másele bolip esaplanadı. Yaǵnıy, taktikalıq tárepten joybarlastırılǵan pikirdi ámelge asırıwda kóp jaǵdaylarda erkin gúresshileriniń kombinacion háreketlerdi joqarı dárejede shólkemlestire almaslıǵı texnikalıq usıllardı shınjırın tárizde orınlaw waqtında qıyınshılıq tuwdırıwı mashqala bolıp qalıp atır.

Izertlewdiń maqseti. Oqıw shınıǵıw basqıshındaǵı erkin gúresshilerdiń maqseti, tiykarınan, fizikalıq hám texnikalıq tayarlıqtı asırıw, gúrestiń tiykarǵı elementlerin jetilistiriw, sonday-aq, gúresshiler sipatında professional dárejege erisiwden ibarat. Bul basqıshta tómendegi maqsetler ámelge asırıladı:

Fizikalıq tayarlıq: Gúresshilerdiń kúsh, shıdamlılıq, tezlik, beyimlesiwsheńlik hám kónlikpelerin rawajlandırıw. Fizikalıq tayarlıqtıń joqarı dárejesi gúrestiń hár bir aspektin nátiyjeli orınlawǵa járdem beredi.

Texnikalıq tayarlıq: Gúrestiń tiykarǵı texnikaları (máselen, usıllar, qol-ay menen islew, óz poziciyasın saqlaw hám húǵim qılıw) úyreniledi hám olardı duris hám nátiyjeli qollanıw ushın turaqlı túrde shınıǵıladı.

Taktikalıq hám psixologiyalıq tayarlıq: Gúresshilerge qarsılasın talqılaw, onıń kúshsiz táreplerin anıqlaw hám soǵan sáykes strategiya islep shıǵıw úyretiledi. Bunnan tısqarı, ózin-ózi basqarıw, sácizlikke qarsı gúresiw hám motivaciyanı saqlaw sıyaqlı psixologiyalıq faktorlar da úlken áhmiyetke iye.

Fizikalıq hám texnikalıq qátelerdi dúzetiw: Shınıǵıw dawamında gúresshilerdiń qáteleri anıqlanıp, olardı dúzetiw hám jetilistiriwge baǵdarlanadı.

Gúres usılların úyreniw: Hárbir gúresshi ózine tán usıldı rawajlandıradı, bul usılda onıń kúshli tárepleri hám abzallıqları esapqa alınadı.

Kombinaciya - gúresshiniń quramalı texnikalıq - taktik háreketi esaplanadı, gúresshi qarsılasına salıstırǵanda bir usıldı kórsetkende onıń qorǵanıw ekinshi usılǵa qolay jaǵday jaratılǵadaǵi húǵim háreketi bolıp tabıladı.

Pikirimizshe, sport trenirovkasi processinde aylanba tezleniwlerge tiyisli túrli shiniǵiwlar kompleksi menen uzaq múddet dawamında úzliksiz shuǵıllanıw háreket anıqlıǵı, jetiliskenligi hám nátiyjesin asırıw múmkinshiligin jaratadı. Eger, bul tezleniw shınıǵıwları fizikalıq sapalar hám texnikalıq-taktik ilmiy tájriybelerdi qáliplestiriwge tiyisli shınıǵıwlar menen birgelikte (gezekpe-gezek) qollanılsa kútilgen nátiyje jáne de joqarılaw dárejege kóteriledi.

Yu. M. Shuyko, F. A. Kerimovlar gúresshiler fizikalıq sapaların bahalaw ushın tómendegi test shınıǵıwların usınıs etilgen:

- bálent startdan 30 metrge juwırıw:
- qol-jelke hám bel bulshıq etleri kúshin anıqlaw:
- ornında turıp joqarıǵa sekrew:
- 2 x 800 metrge juwırıw:
- úlken tezlikte (20 s) manekenni taslaw:

Avtorlar óz izertlewleri nátiyjelerine tıykarlanıp, gúresshilerdi 3 shártli gruppaǵa ajıratadı, «tezlik-kúsh ózgeshelikli gúresshiler arnawlı shıdamlılıq ózgesheligine iye gúresshiler jáne unıversal» gúresshiler. F.A. Kerimov uzaq jıllar dawamında túrli jastaǵı hám ilmiy tájriybege iye gúresshiler ústinde izertlewler ótkeriw nátiyjesinde fizikalıq sapalardıń texnikalıq sheberligine hám jarıs procesine tuwrıdan-tuwrı baylanıslı ekenligin aytıp ótedi. Onıń pikirine qaraǵanda, fizikalıq sapalar qànshellilik joqarı dárejede qáliplesken bolsa, sport sheberligi sonsheli dàrejede ósip baradı.

Joqarıda belgilengen ilimiy ádebiyatlardıń analitik túsindiriwi saylanǵan temanıń qanshellilik aktual ekenliginen derek berip turıptı. Haqıyqattan da, kombinacion háreketlerdi ámelge asırıwǵa qaratılǵan fizikalıq tayarlıqtaǵı shıdamlılıq sapası maman gúresshilerdi tayarlawda zárúrli tiykar retinde sport sheberligin nátiyjeli qáliplesiwde tiykarǵılardıń biri bolıp esaplanadı. Usınıń menen bir qatarda ilimiy maǵlıwmatlardıń analizine kóre hár qanday fizikalıq tayarlıq procesi de shıdamlılıq sapasın nátiyjeli rawajlanıwǵa alıp kelebermeydi hám texnikalıq-taktik sheberligin qáliplesiwge unamlı tásir etpewi múmkin. Kerisinshe, kóbinese sport uqıbına unamsız tásir etiwi de itimaldan jıraq emes. Hádden tıs paydalanılǵan shıdamlılıqqa jóneltirilgen shınıǵıwlar sportshı organizminiń halsizleniwine alıp keliwi múmkin.

Izertlewdi shólkemlestiriw usılları. Oqıw -trenirovka processinde fizikalıq tayarlıq shınıǵıwların qollaw hár bir gúresshiniń jası, gúres túriniń qásiyeti hám sportshınıń ilmiy tájriybesi hám de násillik múmkinshiliklerin itibarǵa alıwdı talap etedi. Sol sebepli maman gúresshilerdi tayarlaw máselesi sport trenirovkasi processinde arnawlı bir maqsetke jóneltirilgen fizikalıq shınıǵıwlar kompleksinen ibarat bolıw tiyis. Gúresshiniń taktik tayarlıq processinde tómendegilerdi názerde tutıw kerek:

- erkin gúres taktikasınıń teoriyalıq tiykarların ózlestiriw (taktik usıllar arsenallari haqqındaǵı, olardı qanday hám qaysı túrdegi sharayatlarda qollaw kerekligi hám basqalar haqqındaǵı bilimlerdi iyelew);
- erkin gúrestegi qarsılaslar múmkinshiligin hám de bolajaq jarıslardıń shárt-shárayatların úyreniw;
- taktik usıllardı, olardıń kombinaciya hám variantların jetilisken taktik sheberlik hám ilmiy tájriybelerin iyelep alǵanǵa shekem ózlestiriw;
- taktik sheberlikke erisiw ushın zárúr bolǵan taktik pikirlewdi hám basqa qábiletlerdi tárbiyalaw.

Bul wazıypalardıń tiykarǵısı taktik pikirlewdi tárbiyalaw bolıp, ol gúreste tartısıw rejesin dúzip shıǵıw hám ámelge asırıw boyınsha bir qatar aqlıy operatsiyalardı óz ishine aladı. Taktik pikirlew aqıl, yad hám dóretiwshilik oyda sawlelendiriwge súyenip, tiyisli bilim hám tájiriybelerden paydalanıwǵa, gúres tartısıwında jaǵdaydı qunt penen baqlaw, tez túsine alıw hám bahalay biliw, waqıtında tuwrı sheshimge kele biliw qábiletine tiykarlanadı.

Izertlew nátiyjeleri hám dodalaw. Jarıs waqıtlarında gúzetilip, qarsılastıń taktik múmkinshilikleri analiz qılınadı hám ulıwmalastırıladı, úyrenilgen taktik variantlar hám sistemalar tekserip kóriledi.

Taktik sistemalardıń variantları tómendegi tártipte úyreniledi:

1. Kórip shıǵılaǵan húјim yamasa qorǵanıw usıllarınıń tiykarǵı mazmunı jáne onıń variantları menen tanısıw;

2. Arnawlı bir variant ushın xarakterli bolǵan taktik háreketlerdi iyelew;

3. Qarsılastan sheginip turıp qorǵanıw usılları taktikalarin úyreniw.

Bul úyreniw shınıǵıwların (qarsılastıń, qorǵawshınıń) qarsılıǵı menen tòmen tezlikte orınlaw; shınıǵıwdı gúres sharayatına teń bolǵan tezlikte orınlaw; shınıǵıwdı qorǵanıwshınıń aktiv qarsılıǵı menen orınlaw; quramalı sharayatlarda úyrenilip atırǵan usıllar tiykarında arnawlı wazıypalarǵa kóre háreket qılıp atırǵan qarsılastı jeńiw; shınıǵıwdı qarsılastıń qálegen túrdegi aktiv qarsılıgı astında qaytarıw hám bekkemlew (mudamı straxovka astında alıp barılsın!). Jańa texnikalıq háreketlerdi (usıllardı) úyreniwden aldın texnikalıq usıllardı bolıp iyelew hám de psixologiyalıq hám fizikalıq tayarlıqtı tiyisli dárejege kóteriw kerek.

Taktikalıq tayarlıq klassifikatsiyasiniń toparına tıykarlanıp, kombinaciya jaǵdaylarınıń klassifikatsiyasi tómendegishe kórinisti quraydı:

Birinshi usıl: Xabar beriw jaǵdaylarınan keyin húјimshi qarsılastan qorǵanıw nátiyjesinde gózlegen usıllardı qollay alıwı. Mısalı: húјim etiwshi gúresshi qarsılasin jelkesinen asırıp jıǵıltıw hám qarsılası ózin qorǵaw ushın gewdesin tuwrı teń salmaqlılıq jaǵdayına keltiriwge urınǵanda, qolınanan ustap turıp jıǵıltıw.

Ekinshi usıl: qarsılası reakciyasınıń aktivligin asırıw ushın háreket etilip, onıń qorǵaw usılların qollap, qarsı húјim etiwine májbúr ettirip, húјim etiwshi sol waqıt ishinde óziniń ekinshi usılın jumısqa salıp qoyıwı. Mısalı: qarsılastı túrtip jiberip qolınan ustap, qarsılastın awdarılıp túsirip atırǵanda, aralıqtaǵı basılǵan san bólegin iliwge háreket etiwindegi háreketden paydalanıp, húјim jetip atırǵan gúresshi qarsılastı qolınan uslap jelkesinen asırıp jıǵıltıw.

Úshinshi usıl: Húјimshi birinshi usıldı qollaw waqtında qarsılası sonday jaǵdayǵa keltiredi, bunda qarsılası hálsizlengen qorǵaw reakciyası menen yamasa mazasızlanıp, ulıwma, itibarsızlıq penen juwap beriwi múmkin. Kombinaciyalardıń hàrakterli tárepi sonda, bul eki usıllar biriktirilip, bir pútinlikte dem alıssız atqarıladı. Mısalı: Qoldan ustap soqqı urıw menen siltep aldınǵa ótkeriw; ol hám gewdeni ustap jıǵıltıw hám ekilenip atırǵan waqtında keri qolınıń sırtqı tárepden ilip, qol menen gewdeni de ilgen jaǵdayda iyilip jıǵıltıw.

Juwmaqlaw. Alıp barılǵan jumıslar hám izertlew nátiyjesine kóre kombinacion húјim háreketlerin jetilistiriw erkin gúreste úlken áhmiyetke iye ekenligi anıqlandı hám bunıń natiyjesinde úlken jetiskenliklerge erisiw múmkin. Ádebiyatlar analizi sonı kórsetedi, kombinacion húјim háreketlerin jetilistiriw jarıs sharayatında sheshiwshi àhmiyetke iye ekenligi kózge taslandı.

Oqıw-shınıǵıw processinde kombinacion húјim háreketlerin jetilistiriw jas erkin gúresshileriniń fizikalıq tayarlıǵında texnikalıq-taktik sheberliginiń qáliplesiwinde ulken àhmiyetke iye.

Paydalanılǵan ádebiyatlar

1. Kerimov F.A. “Sport kurashi nazariyasi ya uslubiyati” Darslik T 2018. B 157- 158.
2. Tastanov N.A. – “Kurash turlari nazariyasi va uslubiyati” Darslik. T. 2017. B 17-18.
3. Набатникова М.Я. Основы управления подготовки юных спортсменов. М., “ФиС”, 1982. С 59-60.

QO‘L JANGI BILAN SHUG‘ULLANUVCHILARNI MUSOBAQALARGA TAYYORLASH SAMARADORLIGI

Nurmedov Nurmuxammed Axmed o‘g‘li

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali o‘qituvchisi

Kalit so’zlar: *Qo‘l jangi bo‘yicha milliy terma jamoa a’zolarining nufuzli xalqaro musobaqalarda ishtirokini ta’minlash, milliy terma jamoalarimizning nufuzli sport musobaqalarida yuqori natijalarga erishishini ta’minlash” kabi vazifalarni amalga oshirish belgilangan.*

Kirish. Dunyo miqyosida so‘nggi yillarda malakali sportchilarni tayyorlashning samarali tizimi tobora takomillashib bormoqda. Qo‘l jangi bilan shug‘ullanuvchilar mashg‘ulotlarini samarali tashkil etish, ko‘p yillik tayyorgarlik jarayonini to‘g‘ri rejalashtirish va musobaqalarda yuqori darajadagi istiqbolli sportchilarni tayyorlash keng qamrovli jarayon hisoblanadi. Qo‘l jangi sportining xalqaro sport arenalarida raqobat muhitining murakkablashuvi, Olimpiya o‘yinlarida hamda jahon miqyosidagi musobaqalarda barqaror sport natijalarini qo‘lga kiritishning keskinlashib borayotganligi, mutaxassis va murabbiylar oldiga muhim masalalarni qo‘yadi. Shuning uchun qo‘l jangi bilan shug‘ullanuvchilarni samarali tayyorlash jarayonida ularning maxsus jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish orqali musobaqalarda yuqori natijadorligini belgilab beruvchi zamonaviy mashg‘ulot vosita va uslublarini amaliyotga tatbiq etish malim ahamiyat kasb etadi.

Jahon amaliyotida qo‘l jangi bilan shug‘ullanuvchilarni ko‘p yillik tayyorgarligi tizimini tuzish, ularning mahorati va maxsus ish qobiliyatini oshirish, o‘quv-mashg‘ulot jarayonining uslubiy yo‘nalishini tanlash, umumiy va maxsus tayyorgarlik vositalaridan oqilona foydalanish muammolari bo‘yicha ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Qo‘l jangi sport turi bo‘yicha musobaqalashuv jarayonining jadallashishi hamda o‘smir qo‘l jangi bilan shug‘ullanuvchilarni samarali tayyorlashda soha olimlari va murabbiylari oldiga zamonaviy vositalar va usullarni ratsionalizatsiya qilish talabini qo‘ymoqda. Qo‘l jangi bilan shug‘ullanuvchilarni musobaqa oldi tayyorgarligini samarali tashkil qilish hamda ularning bellashuv faoliyatidagi shiddatini hisobga olgan holda maxsus jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish dolzarb va yechimi talab qilinayotgan muammolardan biridir.

Respublikamizda Qo‘l jangi sport turini aholi, ayniqsa, yoshlar, Qurolli Kuchlar harbiy xizmatchilari va huquqni muhofaza qilish organlarining xodimlari

oʻrtasida yanada ommalashtirish, soha uchun moddiy-texnik bazani mustahkamlash hamda malakali kadrlar, trenerlar va hakamlar tayyorlash hamda ularni professional sportchilar sifatida tayyorlashning yangi tizimini yoʻlga qoʻyish muhim ahamiyat kasb etmoqda. “Qoʻl jangi boʻyicha milliy terma jamoa a’zolarining nufuzli xalqaro musobaqalarda ishtirokini ta’minlash, milliy terma jamoalarimizning nufuzli sport musobaqalarida yuqori natijalarga erishishini ta’minlash” kabi vazifalarni amalga oshirish belgilangan. Hozirda, sport amaliyotida koʻp yillik tayyorgarlikning ma’qul tizimini ishlab chiqish, musobaqa faoliyatida yuqori natijalarni qoʻlga kiritish va oʻquv-mashgʻulot jarayonini bellashuv faoliyati talablariga muvofiqlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqishni talab etmoqda. Bu mashgʻulotlarga samarali vosita va uslublarni kiritish muammosini koʻlamdorligidan darak beradi, qoʻl jangi bilan shugʻullanuvchilarning maxsus qobiliyatlarini rivojlantirish asosiy jihatlardan biri boʻlib, musobaqalarda yuqori natijalarni qoʻlga kiritishning muhim vazifasi hisoblanadi. Sportchilar maxsus jismoniy tayyorgarligini hisobga olgan holda oʻquv-mashgʻulot jarayonini tashkil etish hamda aynan kuch va tezkor-kuch qobiliyatlarini rivojlantirish masalalarining ilmiy oʻrganilmaganligi soha olimlari va mutaxassislari oldida turgan muhim vazifalardan biri boʻlib qolmoqda.

Tadqiqotning maqsadi qoʻl jangi bilan shugʻullanuvchilarni musobaqalarga tayyorlash metodikasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

qoʻl jangi bilan shugʻullanuvchilarni musobaqalarga tayyorlashda texnik tayyorgarligini oshirish metodikasini ishlab chiqish;

qoʻl jangi bilan shugʻullanuvchilarning integral tayyorlash metodikasini takomillashtirish;

qoʻl jangi bilan shugʻullanuvchilarini jismoniy tayyorgarligini oshirishda raqiblarning kuchli va zaif tomonlariga qarab individuallashtirilgan mashgʻulotlar metodikasini ishlab chiqish;

qoʻl jangi bilan shugʻullanuvchilarini tezlik sifatini rivojlantirish uchun kutilmagan signal va hujumlarga javoban sportchining reaksiya tezligini oshirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida qoʻl jangi bilan shugʻullanuvchilarning oʻquv-mashgʻulot va musobaqa faoliyati jarayoni olingan.

Tadqiqotning predmetini qoʻl jangi bilan shugʻullanuvchilar maxsus jismoniy tayyorgarlik koʻrsatkichlarini hisobga olgan holda kuch va tezkor-kuch qobiliyatlarini rivojlantirishning tabaqalashtirilgan uslubiyati tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda ilmiy va uslubiy adabiyotlarni oʻrganish va tahlil qilish; ilgʻor tajribalarni tahlil va sintez qilish, pedagogik kuzatishlar, pedagogik testlash, pedagogik tajriba, matematik statistika kabi usullardan foydalanilgan.

Ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

qoʻl jangi bilan shugʻullanuvchilarni musobaqalarga tayyorlash uchun texnik elementlarini (jangovor holatda turish, harakat ritmi, trayektoriya, zarbalar, harakat shiddati) xususiyatlariga asosan jismoniy sifatlarni rivojlantirish orqali dinamik oʻzgaruvchan pozitsiyalarda asosiy zarbalarni berish hisobiga qoʻl va

oyoqlarda bajariladigan mashqlarini o‘zaro bog‘likda bajarish imkoniyatlari oshirilgan;

qo‘l jangi bilan shug‘ullanuvchilarni zarba kuchi va tezkorligini oshirishda og‘irliklar bilan plyometrik mashqlar, tezlanib yugurishlar, sparing va simulyatsiya janglari, oyoq harakatlari, blok qo‘yish va qarshi hujumlar kabi kombinatsiyalarni mashg‘ulotlarga singdirish hisobiga turli xil vazndagi sportchilarni integral tayyorlash metodikasi takomillashtirilgan;

qo‘l jangi bilan shug‘ullanuvchilarini jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda raqibga nisbatan masofani ushlab qo‘l va oyoqlar bilan zarbalarni berishda bo‘g‘ish, raqibning hujum zarbalariga qarshi chalish, ko‘tarib tashlash usullaridan foydalanib himoyalanish kabi texnik harakatlarni qadama-qadam bajarish hisobiga sportchilarning kuchli va zaif tomonlariga qarab individuallashtirilgan mashg‘ulotlar metodikasi ishlab chiqilgan;

qo‘l jangi bilan shug‘ullanuvchilarini tezlik sifatini rivojlantirish uchun kutilmagan signal va hujumlarga javoban sportchining reaksiya tezligini muvozanatni yo‘qotmasdan adekvat javob berishda moro, qo‘l-oyoq koordinatsiyasiga ta’sir qiluvchi reflekslarini tarbiyalash hisobiga zarba kuchi va yo‘nalishini aniq belgilash imkoniyati kengaytirilgan.

Amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

qo‘l jangi bilan shug‘ullanuvchilar kuch va tezkor-kuch qobiliyatlarini rivojlantirish bo‘yicha qo‘llashga doir tabaqalashtirilgan uslubiyati ishlab chiqilgan;

qo‘l jangi bilan shug‘ullanuvchilar uchun umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish bo‘yicha ilmiy-uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

qo‘l jangi bilan shug‘ullanuvchilarning maxsus jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlarini hisobga olgan holda maxsus musobaqa tayyorgarligini samarali rejalashtirish bo‘yicha me’yorlar ishlab chiqilgan.

Amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, qo‘l jangi bilan shug‘ullanuvchilarning maxsus jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlarini hisobga olgan holda tayyorlash tizimini ilmiy hamda amaliy jihatdan yanada boyitishga, zamonaviy sport amaliyotida qo‘l jangi bilan shug‘ullanuvchilarni tayyorlashning maqbul shart-sharoitlarida musobaqa faoliyatiga asoslangan mashg‘ulot jarayonini aniq rejalashtirish hamda qo‘l jangi bilan shug‘ullanuvchilarning maxsus musobaqa tayyorgarligini belgilash bo‘yicha tabaqalashtirilgan uslubiyatni va me’yorlarini ishlab chiqishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Xulosa. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, qo‘l jangi bilan shug‘ullanuvchilarning maxsus jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlarini hisobga olgan holda tayyorlash tizimini ilmiy hamda amaliy jihatdan yanada boyitishga, zamonaviy sport amaliyotida qo‘l jangi bilan shug‘ullanuvchilarni tayyorlashning maqbul shart-sharoitlarida musobaqa faoliyatiga asoslangan mashg‘ulot jarayonini aniq rejalashtirish hamda qo‘l jangi bilan shug‘ullanuvchilarning maxsus musobaqa tayyorgarligini belgilash bo‘yicha tabaqalashtirilgan uslubiyatni va me’yorlarini ishlab chiqishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Ашкинази, С.М. Технико-тактическая подготовка в комплексных (смешанных) единоборствах / Монография // С.М. Ашкинази, К.В. Климов. -СПб.: «Маматов», 2016. - 145 с.
2. Борисов, А. А. Современные тенденции повышения эффективности физической подготовки курсантов в военном вузе / А.А. Борисов, К.Н. Дементьев, Р.Е. Булат, О.В. Пристав // Теория и практика физической культуры. - 2016. - № 9. - С. 42-44.
3. Борисов, А.А. Направления совершенствования раздела «Рукопашный бой» в военных ВУЗах / А.А. Борисов // Актуальные проблемы физической и специальной подготовки силовых структур. - науч. ред. Журнал/под. ред. дпн, проф. В.Л. Пашута. - СПб.: ВИФК МОРФ, 2013. - №4 (22). -24-27 с.

YOSH KARATECHILARNING YILLIK MASHG‘ULOT JARAYONLARINI REJALASHTIRISH USLUBIYATI

Otalieva Adelya Raxmetovna

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali o‘qituvchisi

Kalit so‘zlar: *karate, kata, mashg‘ulot, sport, taktika, jismoniy tayyorgarlik.*

Ключевые слова: *каратэ, ката, тренировка, спорт, тактика, физическая подготовка.*

Karate (yaponcha – hech narsasiz qo‘l bilan) - qurolsiz o‘zini-o‘zi himoya qilish, inson tanasining nozik joylariga qo‘l yoki oyoq bilan zarbalar berishga asoslangan sport kurashining bir turi hisoblanadi.

“Karateda birinchi hujumga o‘tilmaydi”. Bu karatedagi yeng mashhur so‘z bo‘lib, amaliyotchilarga muhim axloq kodeksini eslatadi. Karate sporti hech qachon shafqatsiz bo‘lmaslikka va hech qachon muammoga duch kelmaslikka davad qiladi. Karate faqat o‘zini himoya qilish uchun mavjud va har bir Kata blokdan boshlanishi bu esa o‘z navbatida pozitsiyani aniq ko‘rsatib turadi. Qadimgi karate ustalari talabalarni faqat hurmatli odamlarning tavsiyasi bilan qabul qilishgan, shuning uchun ular yangi talaba munosib inson yekanligiga amin bo’lishgan. Siz xushmuomala bo’lishga va atrofingizda do’stona muhit yaratishga harakat qilishingiz kerak, shunda o’zingizni himoya qilish zarurati hech qachon paydo bo’lmasligi mumkin. Inson hamisha muammolardan yiroq bo‘lishga harakat etadi. Ammo o’zingizni, oilangizni yoki do‘stlaringizni tajovuzkor yoki aqlga quloq solmaydigan tajovuzkorlardan himoya qilish uchun kurashishingiz kerak bo‘lgan o‘ta og‘ir holat bo’lishi mumkin. Bunday holda, siz tashabbusni o’z zimmangizga olishingiz va agar kerak bo’lsa, vaziyatni o’z foydangizga burishingiz uchun birinchi navbatda hujum qilishingiz kerak.

Harbiylar aytganidek, “oldindan zarba berish”. Bundan tashqari, sport musobaqalarida siz tashabbus ko’rsatishingiz va jangni nazorat qilishingiz kerak. Seng so’zma-so’z “oldin” degan ma’noni anglatadi. Siz o’z harakatingizni raqibingiz qilganidan oldinroq qilasiz, aniqrog’i, sizning fikringiz unikidan tezroq

ishlaydi. Agar siz tashabbus ko’rsatmasangiz va raqibingiz xohlagan narsani qilishiga yo’l qo’ysangiz va shu bilan vaziyatni nazorat qilsangiz, umid qilishingiz mumkin bo’lgan yeng yaxshi narsa faqat uning harakatlarini nusxalashdir. Sizning mag’lubiyatingiz yaqin bo’ladi. Jang qilishga qaror qilib, vaziyatni nazorat qilishingiz kerak. Raqibingizni xohlagan joyingizga manevr qilish orqali, uni ma’lum bir harakat qilishga yoki xato qilishga majburlah talab etiladi. Raqibni manipulyatsiya qilish orqali siz ishonchli g’alabaga yerishasiz. Albatta, buni qilish har doim ham oson yemas, lekin siz hech bo’lmaganda foydali pozitsiyani saqlashingiz kerak.

Fizikalıq tayarlıqtı ámelge asırıwdaǵı izbe-izlilik, sportshınıń qáliplesiw dáwiri menen tıǵız baylanıslı bolǵan bir neshe etapqa bóliniwi menen kózge taslanadı. Ulıwma fizikalıq tayarlıq etapınan baslap, izbe-izlik penen oyınshınıń profilin qáliplestiriwshi etapqa, al onnan arnawlı qıymıl-háreket sıpatların joqarı dárejede rawajlandırıw etapına ótedi.

Birinshi etap basketbolshılardıń tiykarǵı sıpatların, birinshi náwbette tezligin, shaqqanlıǵın hám mayısqaqlıǵın rawajlandırıw ushın júdá qolaylı. Usı etapta alınǵan kónlikpeler bekkemlenip, oyın is-háreketleri ushın xarkterli qıymıl-háreketleri tiykarın jaratadı.

Ekinshi etapta fizikalıq sıpatlardı rawajlandırıwǵa qánigelestirilgen tásir kórsetiwge múmkinshilik beretuǵın biraz jedel (intensiv) shınıǵıwlardı qollanıw

ushın qolaylı múmkinshilikler jaratıladı. Sonlıqtan, fizikalıq tayarlıq tar qánigelestiriwdiń jańa belgilerine iye boladı, biraq sol waqıttıń ózinde hár táreplemelilikti de saqlap qaladı.

Úshinshi etapta fizikalıq tayarlıq joqarı dárejede qánigelestirilgen boladı. Adam organizminiń funkcionallıq dárejesi kólemi hám jedelligi (intensivligi) boyınsha úlken júklerdi (nagruzka) qollanıwǵa múmkinshilik beredi.

Arnawlı fizikalıq tayarlıq dep fizikalıq sıpatlardı maqsetke muwapıq rawajlandırıw procesi túsiniledi. Sonday-aq oyın usılların ózlestiriwge, taktika háreketleriniń nátiyjeligin asırıwǵa, sport formasına erisiwge, sonday-aq psixologiyalıq tayarlıqtı jetilistiriwge járdem beredi. Onıń tiykarǵı maqseti-fizikalıq sıpatlardı hám olardıń birliktegi óz-ara baylanısların rawajlandırıw. Bul jerde texnikalıq–taktikalıq xarakterdegi shınıǵıwlar, basqa sport túrleriniń shınıǵıwları sáykes keledi. Ulıwma fizikalıq tayarlıq hám arnawlı fizikalıq tayarlıq arasındaǵı shegara tek shártli mániste ǵana boladı, sebebi tásir etiw effekti qollanıp atırǵan shınıǵıwǵa salıfstırǵanda kóbirek qollanılıp atırǵan metodqa baylanıslı.

Shınıǵıwlardıń tásirin tártiplestiriwshi faktlarǵa kúsh salıw dárejesi, qaytalanıwlar sanı, pauzanıń dawamlılıǵı, energiya menen támiyinleniw processleriniń ha'rakteri kiredi.

Paydalanılǵan ádebiyatlar

1. A..A..Pulatov, F.V.Ganiyeva, B.M.Miradilov, D.T.Xusanova, F.A..Pulatov "Basketbol nazariyasi va uslubiyati" 2017 yil.
2. Портнов. Ю.М "Баскетбол" Учебник для вузов физической культуры. М: Астра семь. 1997г. -480с.
3. Ковалевский А..А, Комкина О.В. Физическая подготовка юных баскетболистов. Московсая область 2014г.

O'ZBEKISTON VA XORIJIY ADABIYOTLARDA 5-6 YOSHDAGI BOLALARNING KOORDINATSION QOBILIYATLARINI O'RGANILISHINING BUGUNGI HOLATI VA TADQIQOTLAR YUZASIDAN MA'LUMOTLAR

Allambergenova Raushana Duisenbay qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Kalit so'zlar: *koordinatsion qobiliyat, harakat faoliyati, jismoniy rivojlanish, maktabgacha yosh, motorika, bolalar fiziologiyasi, o'yin faoliyati, psixofiziologik xususiyatlar.*

Ключевые слова: *координационные способности, двигательная активность, физическое развитие, дошкольный возраст, моторика, физиология детей, игровая деятельность, психофизиологические особенности.*

Key words: *coordination abilities, motor activity, physical development, preschool age, motor skills, child physiology, play activity, psychophysiological characteristics.*

Kirish. Ma’lumki, 5-6 yoshdagi bolalarning harakat faoliyati ularning yoshga doir rivojlanish xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liq. Jismoniy tarbiyaning samarali rivojlanishini ta’minlash uchun, avvalo, bolaning yoshga xos o‘ziga xos jihatlari hamda jismoniy imkoniyatlarini chuqur o‘rganish zarur bo‘ladi. Aynan maktabgacha davrda inson organizmida morfofunktsional o‘zgarishlar eng faol tarzda kechadi. Bu yosh oralig‘ida bola tez sur’atlarda harakat ko‘nikmalari va hayotiy harakat malakalarini egallab boradi. 5-6 yoshga kelib esa ular “maktabga tayyorgarlik” deb ataluvchi funksional va morfologik yetuklik darajasiga yetadilar. Bolaning keyingi hayoti va jismoniy rivojlanishidagi muhim poydevor aynan shu davrda shakllanadi [2].

Ba’zi tadqiqotchilar ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish uchun maktabgacha yoshdagi bolalarning ontogenez bosqichlarini hisobga olish zarurligini alohida ta’kidlaydilar. Ularning fikricha, aynan shu yondashuv orqali tarbiyaviy ishlarni oqilona boshqarish va to‘g‘ri yo‘naltirish mumkin. 5-6 yoshdagi bolalar organizmi jadal rivojlanish bosqichiga kiradi, ular tez o‘sib, tana tuzilishida sezilarli o‘zgarishlar yuzaga keladi.

Ayniqsa bu davrda bolalarda harakat faoliyatiga bo‘lgan qiziqish kuchayadi. Shu bilan birga, tana tuzilishida ilk jinsiy o‘zgarishlar - “yarim o‘sish” deb ataluvchi holat kuzatiladi. Bu davrda tana bo‘yi o‘sishi jadallashadi, oyoq va qo‘llarning o‘sishi tananing boshqa qismlariga nisbatan tezroq ro‘y beradi.

5-6 yoshdagi bolalarning jismoniy va aqliy rivojlanishning yosh xususiyatlari. Bolalik davri davomida bolalar skeleti bosqichma-bosqich suyaklashib boradi. Bola ilk yurishni boshlaydigan davrda, ya’ni hayotining birinchi yilidayoq, tovon suyaklarining shakllanishi hamda umurtqaning tabiiy egri chiziqlari paydo bo‘la boshlaydi va bu jarayon maktabgacha yosh davrigacha davom etadi. 6-7 yoshga kelib, bola organizmida tayanch-harakat tizimining rivojlanishi hali to‘liq tugallanmagan bo‘ladi. Tanadagi 206 ta suyaktan deyarli har biri bu davrda sezilarli o‘zgarishlarga uchraydi. Umurtqa pog‘onasi, asosan, tog‘ay moddasidan iborat bo‘lib, u tananing tayanch vazifasini bajaradi. Qo‘l va oyoq bo‘g‘imlarining tez-tez jarohatlanishi esa ko‘pincha bog‘lovchi to‘qimalar boylamlar, paylar va fastsiyalarning yaxshi rivojlanmaganligi bilan bog‘liq bo‘ladi.

Mushak tizimi harakat aktida yetakchi rol o‘ynaydi. 4-7 yoshli bolalarda mushak massasi o‘rtacha tana vaznining 27 foizini tashkil etadi, pastki oyoq-qo‘llar va gavda mushaklari nisbatan yaxshi rivojlangan bo‘ladi. Yuqori oyoq-qo‘llar mushaklari esa 5-6 yoshda tezroq rivojlana boshlaydi. Qorin pressi mushaklari esa sust rivojlangan bo‘lib, katta zo‘riqishlarga bardosh bera olmaydi. Yuqori tonusga ega bo‘lgan bukuvchi mushaklarning morfologik rivojlanishi yozuvchi mushaklarga nisbatan orqada qoladi, bu esa yangi harakatlarni o‘zlashtirishda ma’lum qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning mushak to‘qimasi katta yoshdagilarnikidan tuzilishi jihatidan farq qiladi. Ularning mushaklarida kapillyarlar tarmog‘i yanada zich va keng rivojlangan bo‘lgani uchun qon aylanishi yaxshi ta’minlanadi hamda moddalar almashinuvi faolroq kechadi.

Biroq bu yoshdagi bolalar uchun nafasni ushlab turish yoki kuchli zo‘riqishni talab qiladigan jismoniy mashqlarni bajarish ancha murakkablik tug‘diradi.

Harakatni bajaruvchi mushaklar dam olish holatidagi mushaklarga nisbatan ko‘proq energiya va oziqa moddalarga ehtiyoj sezadi. Bu talab asosan yurak faoliyati orqali ta’minlanadi. Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda yurak urish tezligi (YuUT) odatda 92-95 urish/daqiqani tashkil etadi, bu ko‘rsatkich kattalarda esa 60-65 urish/daqiqani tashkil qiladi. 5 yoshli bolalarda yurak urishining tezlashuvi ko‘pincha yurak ritmining beqarorligi bilan kechadi. Yurak faoliyatining barqarorlashuvi esa odatda boshlang‘ich maktab yoshiga kelib, markaziy asab tizimining yetarli darajada shakllanishi natijasida yuzaga keladi.

Maktab yoshiga kirish bilan bola organizmiga qo‘yiladigan funktsional talablar ortadi, bu esa, avvalo, nafas olish tizimining yetarlicha rivojlangan bo‘lishiga bog‘liq bo‘ladi. Katta maktabgacha yosh davrida qovurg‘alarning joylashuvi o‘zgaradi va ularning faol o‘sishi kuzatiladi, bu holat ko‘krak qafasining shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shuning natijasida nafas olish jarayonida ko‘krak qafasining harakatlanish imkoniyati ortadi va bu nafas olish mexanizmining o‘zgarishiga sabab bo‘ladi. Aynan shu yoshdan boshlab, interkostal mushaklar nafas olish va chiqish jarayonlarida faol ishtirok eta boshlaydi. Shu tariqa nafas olish “ko‘krak tipi”ga xos tus oladi, bunda nafas olish jarayoni asosan diafragma hamda qorin devori mushaklarining ishtiroki orqali amalga oshiriladi. Jismoniy mashqlar vaqtida morfologik o‘zgarishlar tufayli nafas olish zaxira hajmining ortishi kuzatiladi, bu esa o‘pkaning samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun qulay fiziologik sharoit yaratadi.

Harakat qobiliyati uchun asab tizimining rivojlanish darajasi katta ro‘l o‘ynaydi. 5-6 yoshdagi eng yuqori asab faoliyati boshqa organlardan farqli o‘laroq miyaning og‘irligi va hajmi bo‘yicha katta yoshdagi insonlar yuqori asab faoliyat darajasining 90% ni tashkil qiladi. Miya yarim sharlaridagi asab hujayralarining o‘sishi va strukturaviy differentsiatsiya bosqichi boshlang‘ich maktab yoshiga qadar yakuniga yetadi.

Har qanday rivojlangan vosita muvofiqlashtirish qobiliyatining rivojlangan vosita funktsiyasini ob’ektiv ravishda ko‘rsatip o‘tishi mumkin. Dvigatel analizatori (efferent qism) olti yoshda kattalar darajasiga yetadi, uning afferent qismi strukturaviy differentsiatsiyani yakunlaydi. Bu 6 yoshli bolalarga harakatlarni “kinetik” tahlil qilish va vosita harakatlarining fazoviy-vaqt parametrlarini yanada muvaffaqiyatli farqlash imkonini beradi. Shu munosabat bilan, maktab yoshida “qo‘pol” shakllarini o‘rganishdan “nozik” harakat shakllarin o‘rganishga o‘tish mumkin. Bu yoshga kelib muvozanatni saqlash qobiliyati va harakatlarning izchilligi darajasi oshadi, yurish balog‘at yoshiga yetadi, qo‘llarda aniq harakatlarini bajarish qobiliyati paydo bo‘ladi.

5-6 yoshdagi bolalarning harakatlarini boshqarishda og‘zaki bo‘lmagan xotira muhim rol o‘ynaydi, bu vosita muvofiqlashtirish qobiliyatining rivojlanishi bilan bog‘liq. Bola harakatlarining tezligi va kuchi sezilarli darajada oshadi, parvoz bosqichi yugurishda paydo bo‘ladi, muvofiqlashtirish qobiliyatlari yaxshilanadi, epchillik yaxshilanadi va moslashuvchanlik oshadi.

M.S Koshevaning (2021) ta‘dqioqtlarga ko‘ra 6 yoshli bola voqealar ketma-ketligini tahlil qilishga qodir. Mantiqiy fikrlash aniq (majoziy) fikrlashdan ustun kela boshlaydi. O‘rganilgan harakatlarning analitik idroki almashtiriladi imitatsiya va taqlid qilish qobiliyati oshadi [1].

O.N Trofimov (2011) va L.I Penzullaevaning (2014) tadqiqotlariga ko‘ra 5 yoshdan boshlab ko‘plab bolalar allaqachon parallel ravishda ikki turdagi harakatlarni bajarishga qodir. Mavhum, kontseptual fikrlash asoslari, 4 yoshli bolalarda assotsiativ fikrlashdan farqli o‘laroq, ichki nutqni shakllantirish imkoniyati tez o‘sib bormoqda. Shu bilan birga, maktabgacha yoshdagi bolalarning fikrlashidagi tabiiy xususiyatlar saqlanib qoladi [5., 4]. O‘yinning bolalar hayotidagi ahamiyati juda katta va u bola hayotidagi asosiy o‘rinni egallashda davom etmoqda. O‘yinni boshqa faoliyat turlari ya’niy yozish, arifmetika, o‘qish va boshqalar bilan almashtirishga urinishlar bolaning o‘zini va tashqi dunyoni bilish jarayonlarini sezilarli darajada sekinlashtirishiga olib keladi. O‘yin jarayonida harakatlar madaniyati oshadi, ilgari o‘rganilganlarning yangi kombinatsiyalari ishlab chiqiladi va ixtiyoriy harakatlar olinadi. O‘zini erkin o‘yinlarda ortiqcha yuklanishdan himoya qilib, bola mikropauzalar bilan yukni tartibga solishga qodir.

A.N Pavlovaning (2020) ma’lumotlariga ko‘ra O’yinnnig vazifasi bolaning barcha jismoniy qobiliyatlari va moyilliklarini rivojlantirish hisoblanadi O’yin o‘rgatadi, shakllantiradi, o’zgartiradi, tarbiyalaydi. O‘yin hissiy rivojlanish uchun muhimdir, travmatik vaziyatlar natijasida kelib chiqadigan qo‘rquvni yengishga yordam beradi, ijtimoiy normalar va rollarni yaxshiroq va muvaffaqiyatli o‘zlashtirishga yordam beradi” deb hisoblaydi [3]. Shu bilan birga, katta maktabgacha yosh davri boshlanishidan oldin, diqqat e’tiborni jamlash hali ham qiyinchilik bilan saqlanib turiladi, uning hajmi va barqarorligi esa biroz oshadi. 6 yoshga kelib bolalar 15-20 daqiqaga diqqat-e’tiborini qaratishlari mumkin, bu esa aqliy faoliyatini tiklash uchun pauza bilan mashg‘ulotlarni rejalashtirishni talab qiladi.

A.T Xasanovning fikricha 5-6 yoshli bolalarda koordinatsion qobiliyatlar ularning umumiy jismoniy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, muvozanatni saqlash, harakatni boshqarish va muvofiqlashtirish kabi ko‘nikmalar shu davrda shakllanadi. Ushbu yosh davrida tanlab olingan gimnastika vositalari orqali koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirish bolalarning harakat faoliyatini faol va samarali tashkil qilish imkonini beradi. Shuning uchun jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida maxsus mashq va usullardan foydalanish juda muhim hisoblanadi [6].

L.Z. Xolmurodovning tadqiqotida maktabgacha yoshdagi bolalarning koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirishda maxsus jismoniy mashqlarning ahamiyati ilmiy asoslangan. Muallif bolalarning yosh xususiyatlariga mos, bosqichma-bosqich takomillashib boruvchi mashqlar tizimini ishlab chiqqan hamda ularni amaliyotda qo‘llab, sezilarli natijalarga erishgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, tizimli va metodik yondashuv orqali bolalarda muvozanat, harakat aniqligi, fazoviy tasavvur va harakatlarni boshqarish qobiliyatlari

samarali rivojlanadi. Dissertatsiya natijalari pedagogik-amaliy faoliyat uchun katta ahamiyatga ega bo‘lib, maktabgacha ta’lim muassasalari jismoniy tarbiya jarayoniga innovatsion yondashuvlarni joriy etish imkonini beradi [7].

Maktabgacha yosh davrida bolaning asosiy kognitiv (aqliy) funksiyalari - idrok, tafakkur, xotira va nutq faol sur’atda shakllanadi. Bu bosqich yuqori sezuvchanlik (sensor sezgirlik) davri bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli, bolalar bilan ishlashda yoki ularning kundalik faoliyatini tashkil etishda katta ehtiyotkorlik talab etiladi. Ayniqsa, bolaning asab tizimiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan kuchli tashqi stimullarning (shovqin, zo‘ravon tasvirlar, haddan tashqari yorqin yoki keskin taassurotlar) ta’sirini kamaytirish muhim ahamiyatga ega. Shu sababli ota-onalar va tarbiyachilar bolaning kunlik mashg‘ulotlarini e’tibor bilan rejalashtirishlari zarur.

Bizga ma’lum katta maktabgacha yoshdagi bola psixikasining rivojlanishining muhim natijasi vosita harakatlarini taqlid qilish qobiliyatidan turli xil o‘zgaruvchan vosita holatlarida mustaqil qaror qabul qilishga o‘tish hisoblanadi. Bola hayotining bu davri bolalik qaramligidan bolalik mustaqilligiga o‘tish sifatida belgilanishi mumkin. Bola boshqa bolalar bilan birgalikda harakat qilishni hohlaydi va qila oladi, u jamiyatda o‘z o‘rnini egallash uchun iloji boricha tezroq o‘z xohish-istaklari va manfaatlarini ijtimoiy maqbul doiraga kiritishga yordam beradigan boshqa xatti-xarakatlarga erishishga intiladi.

Shu bilan birga ushbu ehtiyojni amalga oshirish shartlaridan biri bu vosita faoliyatining o‘z-o‘zidan va uyushgan shakllarida ishtirok etishdir. Ikkinchisi, o‘qituvchining tashkiliy ta’siri bilan tavsiflanadi va bolaning jismoniy rivojlanish jarayonida yetakchi sifatida taqdim etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Кошева М.С. ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У ДЕТЕЙ СТАРШЕГО ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА // РАЗРАБОТКА И ПРИМЕНЕНИЕ НАУКОЁМКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ИНТЕРЕСАХ МОДЕРНИЗАЦИИ СОВРЕМЕННОГО ОБЩЕСТВА. - 2021. - С. 156-161.

2. Лукянченко А.М., Дворкина, Н.И. (2012). ДИАГНОСТИКА РАЗВИТИЯ КООРДИНАЦИОННЫХ СПОСОБНОСТЕЙ РУК У ГИМНАСТОК 5-6 ЛЕТНЕГО ВОЗРАСТА. In Тезисы докладов XXXX научной конференции студентов и молодых ученых вузов Южного Федерального округа (pp. 97-97).

3. Павлова А.Н. СОВРЕМЕННЫЕ ИГРЫ СОВРЕМЕННЫХ ДЕТЕЙ // Студент-Исследователь. Филин: физкультура, личность, наука. - 2020. - С. 319-322.

YOSH SPORTCHILARNI JISMONIY TAYYORLASH TUSHUNCHASI, MAQSAD VA VAZIFALARI

Atashov Marat Tenelbayevich

Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Nukus filiali v.b dotsenti

Kalit sozlar: *Jismoniy tarbiya, sport, ta’lim, tayyorgarlik, mashg‘ulot, jismoniy yuklama, jarayon.*

Ключевые слова: *Физическая культура, спорт, образование, подготовка, тренировка, физическая нагрузка, процесс.*

Keywords: *Physical culture, sport, education, preparation, training, physical load, process.*

Kirish. Prezidentimiz tashabbusi va uning bevosita rahbarligi ostida jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish bo‘yicha qabul qilingan Qaror, Qonun va Farmonlar hamda ularni bosqichma-bosqich hayotga tadbiq qilinishi, ayniqsa diyorimiz bo‘ylab, hatto uzoq qishloq hududlarida ham minglab jahon andozalariga mos sport inshoatlarining bunyod etilishi, soha kadrlarini tayyorlash, qayta tayyoriash va ularning kasbiy-pedagogik malakalarini oshira borishga siyosiy e’tibor qaratilib kelinmoqda.

Mamlakatimizda yosh avlodni har tomonlama barkamol inson etib tarbiyalash davlat siyosatining bosh masalalaridan biri sifatida qaraladi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha 2017-2021 yillarga muljallangan harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoniga asosan davlat dasturi ishlab chiqildi. Bu dastur amalga oshirilgan ishlarimizning izchil davomi sifatida muhim xujjat bo‘lib, unda davlatchiligimizning barcha yo‘nalishlariga alohida e’tibor qaratilgan.

Asosan o‘quvchilarni jismoniy tarbiya va sportga jalb qilish, ulardan iste’dodli yoshlarni saralab olish (selektsiya) hamda sport maktablari sport bazasini shakllantirish maqsadida keyinchalik mintaqaviy sport musobaqalarida ishnirok etish uchun jismoniy tarbiya ishlarining (sinfdan tashqari va boshqalar) maqsadi, vazifalari, sport to‘garaklari va mashg‘ulatlarini tashkil etish, o‘sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasi va uning madaniyati haqida fikrlarini bildirib, yigilishda Prezidentimiz jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini yanada rivojlantirish bo‘yicha istiqbolli muhim vazifalarni belgilab berdi.

Asosiy qism. Ma’lumki, sportning har bir turi sportchining jismoniy qobiliyatlariga maxsus talablar qo‘yadi, xilma-xil jismoniy fazilatlar o‘ziga xos uyg‘unlashgan bo‘lishi va namoyon etilishi talab qilinadi. Masalan, sprinter (yaqin masofaga yuguruvchi)dan avvalo tezkor-kuchlilik fazilatlarining maxsus nisbatda bolishi (ba’zan uni sprinterlik qudrati deb ataladi), shuningdek, jumladan, mushak qisqarishining energetik resurslaridan anaerob (ozod kislorod yo‘qligida) foydalanishga asoslangan tezlik, chidam talab qilinadi. Stayer (uzoq masofaga yuguruvchi) uchun esa, aksincha birinchi navbatda nafas olishdagi modda almashinish (kislorod almashinishi) jarayoni yuksak darajada bolishiga

asoslangan chidamlilik zarurdir. Sportchining umumiy jismoniy tayyorgarligi deganda, ular tanlangan sport turi uchun xos bo‘lmagan, biroq sport faoliyatida muvaffaqiyatga erishish uchun bevosita va bilvosita ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan har tomonlama jismoniy qobiliyatlarni tarbiyalash nazarda tutiladi. Umumiy jismoniy tayyorgarlik maxsus tayyorgarlik uchun zamin varatadi, ya’ni tanlangan sport turida kamol topish uchun zarur shart-sharoit sifatida kuchlilikni, tezkorlikni, chidamlilikni, epshillikni, chaqqonlikni har tomonlama rivojlanishini ta’minlaydi. Sportchining umumiy jismoniy tayyorgarligi mazmuni uning qaysi sport turi bo‘yicha ixlisoslashganligiga bog‘liq. Sportchining umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligi jarayonida jismoniy tarbiyaning barcha vositalaridan, ya’ni jismoniy mashqlar, chiniqish va sog‘iomlashtirishning tabiiy omillari (oftobda pishish, havo va suv muhitining xususiyatlari), rejim va boshqa gigiyenik sharoitlaridan foydalaniladi[1].

Yosh sportchilarni jismoniy tayyorlash sport mashg‘ulotlarining eng muhim tarkibiy qismlaridan hisoblanib, organizmni har tomonlama rivojlantirish, sog‘liqni mustahkamlash, jismoniy qobiliyatlarni takomillashtirish va tayyorgarlikning barcha boshqa turlari uchun mustahkam funktsional baza yaratishga yo‘naltirilgan jarayon sifatida tushuniladi.

Zamonaviy sport, sportchilarning jismoniy tayyorgarligiga yuksak talablar qo‘yadi. Buni quyidagi omillar bilan izoxlash mumkin:

1) Sportdagi yutuqlarning o‘sib borishi har doim sportchidan jismoniy qobiliyatlar rivojining yangi darajasini talab qiladi;

2) Jismoniy tayyorgarlikning yuqori darajasi mashg‘ulot va musobaqa yuklamalarini oshirishning zaruriy sharti;

Qo‘llaniladigan vositalarning ta’sir ko‘rsatish xususiyati va yo‘nalishiga ko‘ra jismoniy tayyorgarlikni umumiy jismoniy tayyorgarlik (UJT), yordamchi hamda maxsus jismoniy tayyorgarlik (MJT) turlariga bo‘lib o‘rganiladi.

Yosh sportchilarning umumiy jismoniy tayyorgarligi (UJT) yuksak natijalarga erishish uchun poydevor, zarur asos hisoblanadi.

U quyidagi vazifalarni hal etishga qaratilgan:

1) yosh sportchilar organizmining funktsional imkoniyatlarini oshirish;

2) jismoniy sifatlar - kuch, tezkorlik, chidamkorlik, epchillik va egiluvchanlikni rivojlantirish;

3) yosh sportchilar organizmining jismoniy rivojlanishidagi nuqsonlarni yo‘q qilish.

Umumiy jismoniy tayyorgarligi (UJT) tarkibiga nihoyatda turli-tuman vositalar kiradi; ular sirasida snaryadlar bilan bajariladigan, sheriklikda, maxsus qurilmalarda amalga oshiriladigan mashqlar, har xil sport turlari - akrobatika, yengil atletika, sport o‘yinlari, suzish va boshqalarga xos umumrivojlantiruvchi mashqlar bor.

Yosh sportchilarning yordamchi jismoniy tayyorgarligi maxsus jismoniy qobiliyatlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan samarali faoliyat uchun zarur bo‘lgan funktsional asosni yuzaga keltirishga muljallanadi. U maxsus yo‘nalishga ega bo‘lib, quyidagi vazifalarni hal etishga qaratilgan:

1) sportchining tanlangan sport turiga xos harakat faoliyatlarida namoyon bo‘ladigan funktsional imkoniyatlarini rivojlantirish;

2) organizmning yuqori darajadagi maxsus yuklamalarga chidamliligi qobiliyatini takomillashtirish;

3) tiklanish jarayonlarining kechish shiddatini orttirish.

Yosh sportchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligi (MJT) tanlangan sport turi bo‘yicha musobaqa faoliyatining xususiyatlari qo‘yadigan talablarga qat’iy rioya qilgan holda jismoniy qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan. Yosh sportchilarni maxsus jismoniy tayyorlash quyidagi vazifalarni hal etadi:

1) tanlangan sport turi uchun xos bo‘lgan jismoniy qobiliyatlarni takomillashtirish;

2) tanlangan sport turi bo‘yicha muvaffaqiyatli texnik-taktik takomillashuv uchun zarur bo‘lgan harakat ko‘nikmalarini chuqurlashtirib rivojlantirish;

3) ixtisoslashtirilgan mashqlarni bajarishda ko‘proq qatnashadigan alohida mushak guruhlarini tanlab rivojlantirish.

Yosh sportchilarning maxsus jismoniy tayyorgarlik (MJT) harakat ko‘nikmalari tizimidagi eng muhim harakat sifatlarini rivojlantirishga yo‘naltiriladi. Shuning uchun maxsus jismoniy tayyorgarlikning asosiy vositalari sifatida musobaqa mashqlari ularning sportchi organizmiga ta’sirini kuchaytiruvchi har turli murakkablashtiruvchi unsurlar bilan birgalikda qo‘llaniladi.

Jismoniy tayyorgarlikning barcha turlari muayyan uxshashliklarga ega. Yosh sportchilarning jismoniy tayyorgarligi sport ixtisosligi bilan chambarchas bog‘liq. Mashq jarayonida jismoniy tayyorgarlikning biror turiga yetarlicha baho bermaslik oxir-oqibat sport mahoratining kuchayishiga to‘sqinlik qiladi. Yosh sportchilarning mashg‘uloglarida umumiy jismoniy tayyorgarligi (UJT) va maxsus jismoniy tayyorgarligi (MJT) vositalari nisbati qo‘yiladigan vazifatar, sportchilarning yoshi, malakasi, ularning alohida xususiyatlari, mashg‘ulot jarayonining bosqich va davrlari, organizmning ayni paytdagi holatidan kelib chiqib o‘zgartiriladi. Sportchining malakasi oshib borar ekan, MJT vositalarining hissasi ortib, UJT vositalarining hajmi shunga muvofiq tarzda kamayib boradi[2].

Xulosa. Soha mutaxassislari trener va o‘qituvchining pedagogik faoliyati serqirra va keng qamrovli murakkab jarayon bo‘lib, u barcha turdagi o‘quv-mashg‘ulot, ta’lim-tarbiya, o‘quv-uslubiy, tashkiliy va sportchilar tayyorlash jarayonini boshqarish bilan bog‘liq strategik vazifalarni hal etishga qodir mutaxassis bo‘lmog‘i lozim. Shunday ekan, ushbu pedagogik jarayonda trener-o‘qituvchi va sportchi o‘rtasidagi munosabat (hamkorlik), o‘rgatish (ta’lim) va tarbiyaning birligi, murabbiy va sportchining shaxsiyati muhim ahamiyatga egadir.

Adabiyotlar

1. Miradilov B.M. Basketbol nazariyasi va uslubiyati. darslik 2021-yil.

2. Goncharova O.V. Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish: O‘quv qo‘lpanma. Toshkent, 2005.

YENGIL ATLETIKA SPORT TURIDA TAYYORGARLIK USULLARI

Esemuratova Gulmira

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali talabasi

Kalit so‘zlar: *yengil atletika, sport, jismoniy rivojlanish, sog‟‟lik, tarbiya, sportchi, sakrash, tayyorgarlik.*

Kirish. Har bir shaxs har tomonlama jismoniy rivojlanish, sog‟‟liqni mustahkamlash va sportda muvaffaqiyat qozonib, o„z o„rnini topish uchun jismoniy va ma‟‟naviy irodaviy jihatlarning asosiylarini rivojlantirish va tarbiyalash kerak bo„ladi. Ana shu sifatlarning asosiylarini rivojlantirish va tarbiyalash yengil atletikachilar tayyorgarligining muhim qismidir. Yengil atletikachilarning asosiy jismoniy sifatlarini rivojlantirish (jismoniy tayyorgarlik) – eng avvalo, sportchining har tomonlama va maxsus jismoniy rivojlanish jarayonidir. Shunga binoan jismoniy tayyorgarlik umumiy jismoniy tayyorgarlikka va maxsus jismoniy tayyorgarlikka bo„linadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Umumiy jismoniy tayyorgarlik deganda yengil atletikachining har tomonlama rivojlanishi, ya‟‟ni harakatlanish apparatini rivojlantirish, organizm va tizimlarni mustahkamlash, ularning funksional imkoniyatlarini oshirish, boshqara olish qobiliyatini yaxshilash, kuch, tezkorlik, chidamlilik, chaqqonlik va egiluvchanlikni oshirish, qomat va tana tuzilishidagi kamchiliklarni tuzatish nazarda tutiladi. Bunga erishish uchun turli xil harakat faoliyatida qatnashuvchi organizm organlari va tizimlari hamda tana qismlariga jismoniy mashqlar yordamida muntazam ta‟‟sir etib turish zarur. Buning uchun esa yuqorida aytib o„tilgan 3 guruh mashqlardan, ayniqsa, turli xil umumiy rivojlantiruvchi mashqlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo„ladi.

Maxsus jismoniy tayyorgarlik yengil atletikaning mazkur turini bajarish uchun nima talab etilishiga qarab, sportchi organizmining hamma funksional imkoniyatlarini, barcha organlar va tizimlarini yuqori darajada rivojlantirishga qaratilgan. Buning uchun, tabiiyki, tanlab olingan yengil atletika sport turining mashqlari va maxsus mashqlardan foydalaniladi. Umumiy jismoniy tayyorgarlik uchun ko„pgina umumiy ta‟‟sir ko„rsatadigan mashqlardan, maxsus tayyorgarlik uchun esa aniq maqsadga yo„naltirilgan mashqlardan foydalaniladi. Lekin umumiy jismoniy tayyorgarlikda ham jismoniy rivojlanish, tana tuzilishi, qomatdagi ayrim kamchiliklarni yo„qotish uchun aniq yo„naltirilgan mashqlar qo„llaniladi. Yuqorida ta‟‟kidlanganidek, umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlikda kuch, tezkorlik, chidamlilik, chaqqonlik va egiluvchanlik xususiyatlarini rivojlantiruvchi mashqlar asosiy rol o„ynaydi. Aynan shu jismoniy sifatlarda yengil atletikachining butun organizmidagi organlar va tizimlar ish qobiliyatiga asoslanib, uning harakat qilish imkoniyati aks etadi. Yengil atletika sakrashlari ikki turga bo„linadi: 1) vertikal to„siqlarni yengib o„tish bilan sakrashlar (balandlikka sakrash va langarcho„pga tayanib sakrash); 2) gorizontal to„siqlarni yengib o„tish bilan sakrashlar (uzunlikka sakrash va uch hatlab sakrash). Sakrash samaradorligi depsinish fazasida, sakrash natijaliligining asosiy omillari hosil bo„ladigan paytda aniqlanadi. Bunday omillarga quyidagilar kiradi:

1) sakrovchi tanasining boshlang‟ich uchib chiqish tezligi; 2) sakrovchi tanasi UOMining uchib chiqish burchagi. UOMning uchish fazasidagi harakat yo„nalishi depsinish xususiyatiga va sakrash turiga bog‟liq bo„ladi. Uch hatlab sakrash uchta uchish fazasiga, langarcho„pga tayanib sakrash esa uchish fazasining tayanch va tayanchsiz qismlariga ega. Yengil atletika sakrashlari o„z tuzilishiga ko„ra aralash turga taalluqlidir, Ya‟ni bu yerda ham tsiklik, ham atsiklik harakat elementlari mavjud. Sakrashni yaxlit harakat sifatida tarkibiy qismlarga ajratish mumkin:

- yugurib kelish va depsinishga tayyorlanish – harakat boshlanishidan tortib to depsinadigan oyoqni depsinish joyiga qo„yish paytigacha;
- depsinish (itarilish) – depsinadigan oyoqni qo„ygan paytdan boshlab, to uning depsinish joyidan uzilish paytigacha;
- uchish – depsinadigan oyoq depsinish joyidan uzilgan paytdan boshlab to yerga qo„nish joyiga tegish paytigacha; - yerga tushish
– yerga tushish joyiga tegish paytidan boshlab to tana harakati to„liq to’xtagunga qadar.

Yugurib kelish va depsinishga tayyorlanish. To„rt xil sakrash turlari (uzunlikka, uch hatlab, balandlikka, langarcho„pga tayanib sakrash) yugurib kelishda o„ziga xos xususiyatlarga ega, lekin ma‟lum bir umumiy tomonlari ham bor.

Yugurib kelishning asosiy vazifasi – sakrovchi tanasiga sakrashga mos bo„lgan optimal yugurib kelish tezligini berish hamda depsinish fazasi uchun optimal sharoitlarni yaratish. Yugurib kelish depsinishga tayyorlanish boshlanishidan oldin tsiklik harakat tuzilishiga ega. Unda yugurish harakatlari yugurib kelishdagi harakatlardan bir oz farq qiladi. Yugurib kelish maromi doimiy bo„lishi kerak, ya‟ni uni urinishdan urinishga o„zgartirib turish kerak emas.

Odatda yugurib kelish sportchida ayni paytda kuzatiladigan uning jismoniy imkoniyatlariga mos keladi. Tabiiyki, jismoniy funksiyalar yaxshilanishi bilan yugurib kelish o„zgaradi, tezlik, qadamlar soni oshadi (ma‟lum chegaragacha), lekin yugurish maromi o„zgarmaydi. Bu o„zgarishlar sakrovchining ikkita asosiy jismoniy sifatlariga bog‟liq, ularni parallel tarzda rivojlantirish zarur. Bu tezkorlik va kuchdir. Yugurib kelishning boshlanishi odatiy, har doim bir xil bo„lishi kerak. Sakrovchi yugurib kelishni, go„yoki start olgandek, turgan joyidan yoki yugurib kelish boshlanishining nazorat belgisigacha kelish bilan boshlashi mumkin. Yugurib kelishda sakrovchining vazifasi nafaqat optimal tezlikka erishish, balki depsinadigan oyoqni itarilish joyiga aniq qo„ya bilish lozim, shuning uchun yugurib kelish, uning maromi va hamma harakatlar doimiy bo„lishi kerak. Yugurib kelishning ikkita variantini ajratish mumkin:

1) bir xil tezlanish bilan yugurib kelish;
2) tezlikni saqlab turishi bilan yugurib kelish.

Bir xil tezlanish bilan yugurib kelishda sakrovchi asta-sekin tezlik ola boshlaydi, uni yugurib kelishning oxirgi qadamlarida optimal darajagacha

yetkazadi. Tezlikni saqlab turish bilan yugurib kelishda sakrovchi deyarli darrov, birinchi

qadamlardanoq optimal tezlikni oladi, uni butun yugurib kelish davomida saqlab turadi, oxirida so‘nggi qadamlarda uni biroz oshiradi. U yoki bu yugurib kelish variantining qo‘llanilishi sakrovchining individual xususiyatlariga bog‘liq.

Xulosa. Yugurib kelishning oxirgi qismining (depsinishga tayyorlanish) ajralib turuvchi xususiyati sakrash turiga bog‟liq. Umumiy ajralib turuvchi xususiyati – yugurib kelish va yugurib kelish bo„lagida tana a‟zolari harakatlari tezligining oshishidir. Yugurib kelib uzunlikka sakrashda depsinishga tayyorlanishda oxirgi qadamlarning uzunligi biroz kamayadi va ularning sur‟ati oshadi. To„g‟ri chiziqli yugurib kelishga esa hamma usuldagi sakrashlarda (“hatlab o„tish”, “to„lqin”, “yumalab o„tish” (perekat), “to„ntarilib o„tish” (perekidnoy) depsinishga tayyorlanish oxirgi ikkita qadamda, qadam tashlaydigan oyoq ancha uzunroq qadam tashlagan paytda (shu orqali UOMni kamaytirgan holda), depsinuvchi oyoq esa ancha qisqa tez qadam tashlaydi, bunda sakrovchi yelkasi UOM proyeksiyasi ortiga tashlanadi.

Adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси “Жисмоний тарбия ва спорт тўғрисида”ги қонуни Халқ сўзи.- 2000. – 28 май.

2. Андрис Э.Р., Кудратов Р.К. Енгил атлетика: Ўқув қўлланма.-Т.: ЎзДЖТИ, 1998.

3. Верхошанский Ю.В. Основы специальной физической подготовки спортсменов.-М.: Физкультура и спорт, 1988.

14-15 YOSHLI KARATECHILARNING BOSHLANG‘ISH TEXNIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY NAZARIY ASOSLARI

Genjemuratov Alisher Kenesbay uli

O‘zbekston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali “Yakka kurash va tabiiy fanlar”kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi

Mawlenbergenova Umida Salamatovna

O‘zbekston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali Karate ta’lim yunalishi 1-bosqich talabasi

Kalit so‘zlar: *Harakat ko‘nikmasi, harakatga o‘rgatish bosqichlari, Karate WKF sporti maxsus qol va oyoq zarbalari, umumiy va maxsus tayyorgarlik, 1 haftalik mikrotsikl mashg’ulot jaroyani, Jugut orqali tezlikni rivojlantirish metodikasi.*

Dolzarbligi. O‘zbekiston Respublikasida sporti rivojlantirish oliy maqsadi hisoblanad. Bu oliy maqsad jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasidagi barcha tashkilotlar uchun umumiy hisoblanadi. Karate WKFsportida 14-15 yoshli karatechilarning umumiy jismoniy va maxsus jismoniy tayyorgarligi jihatlari optimal ravishda takomillashtirilmaganligi mavzuimizning dolzarbligi hisoblanadi.Shu kunga qadar 14-15 yoshli

karatechilarning aniq rejalashtirilgan Karate WKF bo‘yicha chet el olimlari va yurtimiz olimlarning aniq rejalashtirilgan uslubiy qo‘llanmalari va nashr etilgan kitoblari va albatta rejalashtirilgan aniq metodik mashg‘ulotlari ishlab chiqilmagan.

Karate WKF sport turida 14-15 yoshli karatechilarning texnik jangovar holatini rejalashtirilgan yangi mashg‘ulotlar jaroyanlari orqali eng yuqori optimal holatga etkazish .

14-15 yoshli karatechilarning maxsus texnik tayyorgarlik vaqtidagi yo‘l qo‘ygan xatoliklari o‘rganish va uni to‘g‘irlash.

Karatechilarning maxsus jangovar holatini eng yuqori holatga yetkazish uchun eng sara hujumga o‘tuvchi maxsus jangovar zarbalarini takomlashtirish.

14-15 yoshli karatechilarning mashg‘ulot oldi tiklanish jarayonlarini hisobga olgan holda texnik tayyorgarligini takomillashtirish. Jismoniy mashqlar texnikasi muntazam ravishda rivojlanadi: odatlangan texnika takomillashtiriladi, ba’zida esa usullar barham topadi, yangilari tuziladi. Bu jarayon qator sabablar bilan belgilanadi:

1. Sport tayyorligi darajasiga talablarning muntazam o‘sayotganligi.

2. Harakatlar bajarilishining mukammallashgan usullarini uzluksiz izlash, muvofiq tekshirishlar natijasi va rolining oshishi.

3. Yangi sport anjom-jihozlarining yuzaga kelishi.

Maqsadi. Karate WKF sportida 14-15 yoshli karatechilarning texnik tayyorligi rivojlantirish bo‘yicha mashg‘ulot jarayonini tashkillashtirish, asosan 14-15 yoshli karatechilarning jismoniy tayyorgarligini va jangovar holatini yaxshilash uchun bizga aniq rejalashtirilgan mezosikl mashg‘ulot davrini olamiz. Sababi 14-15 yoshli karatechilar yosh bolalarga nisbatan aqliy va jismoniy taraftan yaqshi rivojlangan boladi. Albatta 14-15 yoshli karatechilarning jismoniy tayyorligini hisobga olgan holda. Sportchining texnikasi kinematik dinamik va ritmik xususiyatlari bilan belgilanadi.

Texnikaning kinematik xususiyatlari makon va vaqtda namoyon bo‘ladi. Bularga fazoviy, vaqtinchalik va makon-vaqt xususiyatlari kiradi. Sportchi tanasi va qismlarining pozitsiyalari va harakatlari, ularning traektoriyasi va boshqalar texnikaning fazoviy xususiyatlari hisoblanadi. Vaqtinchalik ma‘lumotlar texnika, va harakatlar va ularning qismlarini bajarish muddatini o‘z ichiga oladi. Texnika va harakatlarni bajarishda tezlik va tezlashuv sport mashqlari texnikasining fazoviy-vaqt xususiyatlari bilan bog‘liq. Texnikaning dinamik xususiyatlari sportchining tana qismlarining bir-biri bilan, sportchi tanasining atrof-muhit va sport anjomlari bilan o‘zaro ta'sirida namoyon bo‘ladi.

Xulosa. Sportchi chidamliligi mashqlarni bajarishda o‘quv yuklamalari quyidagi beshta tarkibiy qism bilan tavsiflanishi kerak: mashqning intensivligi, mashqning davomiyligi, dam olish vaqtlarining davomiyligi, dam olish tabiyati va takrorlanish soni va chidamlilikni rivojlantirishning quyidagi usullari qo‘llaniladi: o‘lchangan yuk bilan doimiy mashqlar usuli, takroriy va oraliq mashqlar usuli, o‘yin usuli, raqobatbardosh o‘chirish usuli.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Salomov R.S. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. Darslik. T.: «ITA-PRESS», 2015. 2 96 бет.

2. Платонов В.Н. Система подготовки спортсменов в олимпийском спорте. Общая теория и ее практические приложения. К.: Олимпийская литература, 2004. с. Библиогр.: 1068 назв. Ил. 522. Табл. 206. 808

3. Olimov.M.S Yengil atletikachi talabalarni mashg'ulotlar jarayonida funktsional imkoniyatlarini shakllanishi va tiklanish surati, "FAN SPORTGA" илмий-назарий журнали Ўзбекистон давлат жисмоний тарбия ва спорт университети муассислигида чоп этилади. 2023/8

ERKIN GÚRESSHI QÍZLARDÍ TAYARLAWDA FIZIKALÍQ SAPALARDÍ RAWAJLANDÍRÍW

Alimbetova Amina Urazimbetovna

Ózbekstan mámleketlik dene tárbiyası hám sport universiteti Nókis filialı stajyor oqıtıwshısı

Tayanısh sózler: *tezlik, shaqqanlıq, shıdamlılıq, iyiliwsheńlik, kúsh, psixlogiya, texnika-taktika, fizikalıq sapalar, erkin gúresshi qızlar.*

Ózbekstanda dene tárbiya hám sportti jedel rawajlandırıw, xalıqtıń barlıq qatlamların, ásirese, hayal-qızlardı dene tárbiya hám ǵalabalıq sport penen turaqlı shuǵıllanıwǵa tartıw, jámiyette salamat turmis tárizin úgit-násiyatlaw boyinsha keń kólemli jumıslar ámelge asırılmaqta.

Dúnya kóleminde erkin gúres penen shuǵıllaniwshi hayal qızlardıń ornı kún sayın artıp barmaqta. Keyingi jıllarda ótkerilip kiyatırǵan abıraylı sport jarıslarında, sonıń ishinde, Olimpiada hám Aziya oyınları, Jáhán hám Aziya chempionatları, sonday-aq, bir qatar dástúriy xalıqaralıq turnirlerde sport nátiyjeleriniń úzliksiz ósip barıwı, básekiniń jáne de keskinlesiwine alıp kelmekte. Hayallar gúresi ámeliyatında joqarı sport nátiyjelerine erisiw maqsetinde fizikalıq tayarlıqtıń áhmiyeti artıp barmaqta. Bul óz gezeginde olardıń tayarlıǵına joqarı talaplar qoymaqta. Bul jaǵdaylar erkin gúresshi qızlardi tayarlawǵa baylanıslı jańa qurallar hám usıllar tiykarında jetilistirilgen metodikalardı islep shıǵıwdı talap etpekte. Bul bolsa qánigeler tárepinen ilimiy tiykarlanǵan izleniwler alıp barılıwın talap etpekte.

Ózbekstan Respublikası Prezidentiniń 2022-jil 29-iyuldegi PQ-336-sanlı "Sport gúresleriniń olimpiada túrlerin jáne de rawajlandırıw ilajları haqqında"ǵı Pármanı elimizde hayallar gúresi sport túrin joqarı basqıshqa kóteriw ushin nizamlı tiykar bolip xizmet etpekte.

Elimizde Olimpiada oyınları baǵdarlamasınan orın alǵan hayallar gúresi sport túrin xalıq arasında jáne de ǵalaba en jaydırıw, sportshılarǵa keńnen imkaniyatlar jaratıw baǵdarında mámleketimiz basshısı tárepinen bir qatar nátiyjeli jumıslar alıp barılıp atırǵanın atap ótiw kerek. Sol sebepli, hayallar gúresi sport túrinde nátiyjelerdiń toqtawsız ósiwi, xalıqaralıq maydandaǵı joqarı báseki sporshılardıń kóp jıllıq tayarlıq sistemasında bar metodikalıq,

shólkemlestiriw hám basqarıw shınıǵıwlarınıń nátiyjeli sheshimlerin tınımsız izlewdi talap etedi. Erkin gúresshi qızlardiń kóp jıllıq tayarlıq dáwirinde sporshılardıń tek fizikalıq hám texnikalıq-taktikalıq tayarlıqların jetilistiriw emes, al olardıń sport nátiyjelerine joqarı tásir kórsetiwshi qurallar hám usıllardı islep shıǵıw úlken áhmiyetke iye.

Házirgi kúnde hayallar gúresi sport túri boyınsha jumıs alıp barıp atırǵan trenerler erkin gúres penen shuǵıllanıwshı qızlardı tayarlawda fizikalíq sapalardi rawajlandiriw metodikasınıń jıllıq shınıǵıw cikllerinde tiykarınan texnikalıq-taktikalıq tayarlıqlarına itibar qaratıp kelmekte.

Insannıń organizminde túrli dárejede qáliplesken kúsh, tezlik, shıdamlılıq, shaqqanlıq, dene buwınları jıldamlıǵı hám iyiliwsheńligı fizikalıq sapalar dep ataw qabıl etilgen. Insan organizminiń sol sapaların qanday kórinetuǵın ete alıwına qaray individke kúshli, shaqqan, tezlik dep baha bergen. Bul sapalar ólshewge iye, onıń kórsetkishleri fizikalıq tayarlıq kórsetkishleri dep ataladı hám kórsetkishler arqalı sportshınıń shuǵıllanıw shınıǵıwlarına hám sport jarıslarına tayınlıǵı anıqlanadı. Mısalı, sportshınıń 100kg salmaqlıqtaǵı shtanganı jelkege alıp tek 3 márte otırıp tura alsa, basqası sol salmaq penen 5 márteden artıq otırıp tura alıwı múmkin. Sol shınıǵıwdı eki ret artıq atqarǵanlıǵı ushın ekinshisiniń kúsh sapası rawajlanǵan dep bahalanadı. Bul sapa organizmniń suyek, bulshıq et hám basqa aǵzalarınıń toqımaları, kletkaları rawajlanǵanlıǵına baylanıslı bolmay, ruwxıy psixikalıq paziyletlerine de baylanıslı. Sol sebepli háreket sapaların tárbiyalaw ruwxıy paziyletlerdi tárbiyalaw jumısı menen bekkem baylanıslı hám tárbiyanıń sol baǵdarına qural bolıp xızmet etedi. Háreket sapaların tárbiyalawǵa umtılıw insaniyattıń ázeliy ármanı. Miynet quralları, áskeriy úskene hám aslaxa menen mámile etiwdiń natiyjeliligi tábiyat insanǵa sawǵa etken hám onı tárbiya processinde rawajlandırıw múmkin bolǵan fizikalıq paziyletlerge baylanıslı tárbiyalaw kerekligi máselesin kese qoyadı. Dene tárbiyasın, atap aytqanda, fizikalıq sapalardı rawajlandırıwdı mazmunınıń joqarılıǵı hám salmaqlılıǵı kózge ayqın taslanıp turıptı. Sonı atap kórsetiw zárúr, fizikalıq sapalardı rawajlandırıwda olardıń (kúsh, tezlik, shaqqanlıq, shıdamlılıq, iyiliwshilik) barlıǵın texnikalıq usıllar menen óz-ara ajıralmas baylanıstırıp aparıwdı tárbiya procesi belgilep ótedi.

Biraq sporttıń málim bir túrinde arnawlı bir paziylet kúshlilew qáliplesedi, rawajlanadı hám ol jetekshi háreket sapası formasında boladı. Basqa sapalarǵa salıstırǵanda rawajlanadı, biraqolar járdemshi, háreket sapası formasında kóriniwi múmkin. Mısalı, sporttıń jeke gúres túrlerinen erkin gúreste tiykarınan shıdamlılıq sapasın rawajlandıradı dep esaplansa, shaqqanlıq járdemshi sapası jol menen de rawajlanadı. Biraq erkin gúresshi qızlarda shaqqanlıqtı da tárbiyalaw tiykarǵı zárúrli áhmiyetke iye boladı. Sonıń menen birge erkin gúresshi qızlarda kúsh fizikalıq sapası da jetekshi paziyletlerden esaplanadı. Jeńil salmaqlı qarsılası menen kóp shınıǵıw qılıw bolsa tezlikti rawajlantıradı. Ámeliyatda bul shınıǵıwlar arqalı shıdamlılıq hám iyiliwsheńlikte járdemshi fizikalıq sapa formasında rawajlanıwınıń guwasımız. Hayallar gúresi boyınsha ótkeriletuǵın jarıslar múddeti xalıqaralıq jarıslar qaǵıydaları menen belgilenedi. Sol jarıslar

múddetinde qaysı sportshı óz jumıs qábiletin sapası hám nátiyjeliligi tárepinen qanshellilik uzaq waqıt saqlay alsa yamasa onı asıra alıw kúshine iye bolsa, oǵan áwmet sonshelli kúlip baǵıwı anıq. Basqasha etip aytqanda is qábiletiniń sapa hám nátiyjelilik dárejesin kóp yamasa kem waqıt dawamında saqlanıwı ulıwma hám arnawlı shaqqanlıq sapalardıń,qánshelli dárejede rawajlanǵanlıǵı menen belgilenedi. Sonı aytıpótiwkerek, is qábileti haqqında gáp ketkende, ásirese sóz onıń sapası hám nátiyjeliligine tiyisli bolsa, fizikalıq sapalardıń qáliplesken yamasa qáliplespegenligine barıp taqaladı. Yaǵnıy nátiyjeli nátiyjege muwapıq ulıwma hám arnawlı shıdamlılıq kúsh, tezlik, shaqqanlıq, iyiliwsheńlik sapaların ózinde sáwlelendirgen boladı. Bul sapalardıń óz-ara tıǵız baylanıslılıǵı hám olardıń joqarı dárejedegi integral nátiyjesi sport sheberliginiń arnawlı bir natiyjesin belgilep beredi. Maqsetke muwapıq joybarlastırılǵan fizikalıq tayarlıq sportta uqıplılıqtı qáliplestiriw hám jarıs dawamında joqarı nátiyjege erisiwde júdá zárúrli faktorlardan biri bolıp tabıladı. Biraq, sport ámeliyatında mudamı joybarlastırılǵan fizikalıq shınıǵıwlarǵa muwapıq háreket sapaların rawajlandırıwda kútilgen nátiyjeni bermewi jaǵdayları tez-tez ushırasıp turadı. Bunıń tiykarǵı sebeplerinen biri shınıǵıwlarda qollanılǵan ol yamasa bul fizikalıq shınıǵıwlardıń kólemi hám kúshi hám de bul kórsetkishlerdi shuǵıllanıwshılar organizmine tásir etiw dárejesi (organizmdi júklemege bolǵan keri juwap reaksiyası) obiektiv túrde baxalanbaǵalıǵında bolıp tabıladı. Sol sebepli de oqıw – shınıǵıw processinde qollanılıp atırǵan fizikalıq júkleme (fizikalıq shınıǵıwlar)dıń shuǵullanıwshılar organizminiń funksional múmkinshiliklerine muwapıqlıǵı itibarǵa alınıwı, sol júklemeni maqsetke muwapıq joybarlaw múmkinshiliklerin jaratadı. Erkin gúresshilerdi tayarlawda háreket funksiyasınıń bir-birine tıǵız baylanıslı tárepine ayrıqsha itibar qaratıladı:

- sportshınıń texnika-taktikalıq tájiriybelerge úyretiw hám olardı jetilistiriw;
- sportshı fizikalıq sapaların saylanǵan sport túri qásiyetine muwapıq túrde tárbiyalaw. V.N.Platonovtıń pikirine qaraǵanda ulıwma fizikalıq tayarlıq túsinigi sportshınıń háreket sapaların hár tárepleme (garmonikalıq túrde) rawajlanǵanlıq dárejesin ańlatadı. Máselege sol tárizde jantasıw insan sawlıǵın (sportshıda) qáliplestiriw bolsa maqsetke muwapıq bolıp tabıladı. Álbette, «úlken» sportta bul da zárúr. Biraq, bunday ámeliyat hám soǵan tiykarlanǵan shuǵıllanıw metodikası tájiriybeli sportshılardı tayarlawda joqarı jarıs nátiyjesine erisiw nátiyjesin páseytiwi itimaldan shette emes. Sebebi, hár bir sport turiniń ózine tán hám ózine muwapıq qásiyetleri bar ekenligi sebepli bir sport túrine kóbirek kúsh-shaqqanlıq sapası ústin tursa, ekinshi bir sport túrinde shıdamlılıq sapası jetekshi orın oynaydı yamasa úshinshi bir sport túrinde iyiliwsheńlik sapası tiykarǵı áhmiyetke iye boladı. Biraq, belgilengen pikirden arnawlı bir sport túrine málim fizikalıq sapa júdá zárúr, basqası bolsa zárúrli emes degen juwmaq kelip shıqpaydı. Kerisinshe, hár bir sapanıń arnawlı bir sport jaǵdayında azı-kóbi menen zárúrli «ulisi» ámelde boladı Joqarıda belgilengen pikir hám oy-pikirler grek-rim gúresinde ásirese, ayqın kózge taslanadı. Sport tarawına tiyisli ilimiy-metodikalıq ádebiyatlarda bul mashqalaǵa ayrıqsha itibar qaratılǵan. Sońǵı jıllarǵa kelip ilimpazlar ortasında tájiriybeli sportshılardı tayarlawda fizikalıq tayarlıqtıń ornı,

atap aytqanda fizikalıq sapalardıń bir-birine tıǵız baylanıslılıǵı hámde olardı sport sheberligine bolǵan tásiri haqqındaǵı máseleler barǵan sayın úlken qızıǵıwshılıq oyatıp atır. Aldın tastıyıqlap ótilgenindey, kúsh hám shaqqanlıq sapaların óz-ara muwapıq tárizde qáliplestirip barıw sportshınıń tayarlıǵına unamlı tásir kórsetedi.

Sóz fizikalıq tayarlıq hám sonıń menen birge sportshılardı tayarlawda háreket sapaların (shaqqanlıq, kúsh, shıdamlılıq, iyiliwsheńlik) bir-birine baylanıstırıp qáliplestiriw zárúrligi haqqında barar eken, buǵan baylanıslı shaqqanlıq sapasına ayrıqsha itibar beriw maqsetke muwapıq bolıp tabıladı.Hár bir sport túrinde atqarılatuǵın háreket tájiriybesi negizinde shaqqanlıq sapaları sheshiwshi zárúrli derek bolıp esaplanadı. Mısalı, grek-rim gúresinde qol ishinen kirip kókrekten asırıp taslaw ushın, húJim háreketin jeńiw ushın shaqqanlıq sapası bul tájiriybe tabıslı támiyinleytuǵın faktor bolıp tabıladı. Usı sapa húJim yamasa qarsı húJim usılların nátiyjeliligi qısqa waqıtta úlken tezlik penen qollawda jaqsı nátiyje beredi. Haqıyqattında da, analiz nátiyjelerine kóre erkin gúres boyınsha Jáhán, Evropa, Aziya hám basqa xalıqaralıq jarıslarda jeńiske erisken kópshilik grek-rim gúresshiler joqarı dárejede rawajlanǵan shaqqanlıq sapası qábiletine iye bolǵan sportshılar bolıp esaplanadı. Erkin gúreste shaqqanlıq sapası da jeńiske jetekleytuǵın tiykarǵı dereklerden biri bolıp tabıladı. Buǵan baylanıslı belgili izertlewshi alım I.V.Verxoshanskiy dıqqattı tartıwshı oǵada zárúrli maǵlıwmatlar keltiredi. Mısalı, grek-rim gúresinde texnikalıq sheberlikke salıstırǵanda parıq etiwshi qásiyetlerinen biri bul ózgeriwsheń jarıs jaǵdayında shaqqanlıq sapasın rawajlandırıw tiykarında atqarılatuǵın quramalı háreket tájiriybeleri bolıp tabıladı. Usınıń menen bir qatarda uzaq múddet dawam etetuǵın jarıs processinde texnikalıq tájiriybelerdi joqarı nátiyjede orınlaw birinshi náwbette arnawlı shıdamlılıq apasına tikkeley baylanıslılıǵı tastıyıqtı talap etpeydi. I.V.Verxoshanskiydıń baqlawlarına qaraǵanda, grek-rim gúresi boyınsha Jáhán chempionatı qatnasıwshılarınıń jarıs dawamında orınlanǵan texnikalıq tájiriybeleri jarıstıń 3-dáwirinde óz nátiyjesin keskin tómenletken. Bul jaǵday áne sol tájiriybeli grek-rim gúresshileriniń arnawlı shaqqanlıq sapası joqarı dárejede qáliplespegenligine itibar qaratadı. Solay eken, bunnan kórinip turǵan texnikalıq sheberlik nátiyjesin uzaq waqıt saqlap turıwda arnawlı shaqqanlıq sapası ayrıqsha orın iyeleydi. Tájiriybeli grek-rim gúresshileriniń tayarlawda shaqqanlıq sapasın aytıp ótiw kerek, oqıw - shınıǵıw processinde barlıq fizikalıq sapalardı garmonikalıq túrde rawajlandırıw tájiriybeli grek-rim gúresshileriniń tayarlaw girewi bolıp tabıladı. Juwmaq: Fizikalıq apalardı rawajlandırıw ushın grek-rim gúresiniń tiykarǵı shárti qarsılasınıń qol menen ustap orınlanatuǵın shınıǵıwlar usınıs etiledi. Erkin gúresshi qızlaridiń fizikalıq sapalardı rawajlandırıwda tómendegi shınıǵıwlardan paydalanıldı:

Kúshti rawajlandırıw ushın: turnikti uslaǵan halda qoldı bulip jazıw; jerge tayanǵan halda qoldı bulip jazıw; tik turǵan halda otırıp turıw; gimnastikada tekshesine asılǵan halda ayaqlardı kóterip túsiriw; arqanda ayaqlı hám ayaqsız kóteriliw.

Tezlikti rawajlandırıw ushın: 10m, 20m, 30m juwırıwlar, orında turǵan halda uzınlıqqa sekiriwler, turnikti uslaǵan halda qoldı bulip jazıw 20sek, jerge tayanǵan halda qoldı bulip jazıw 20sek, 20sek manekendi kóterip taslaw.

Iyiliwsheńlikti rawajlandırıw ushın: Tik turǵan halda kópir halatına túsiw, tik turǵan halda kópir halatına tusip aldıǵa hàm arqaǵa sekiriwler, tik turǵan halda kópir halatına túsip óz aynalası atrapında aylanıwlar.

Shaqqanlıqtı rawajlandırıw ushın: 3x10 juwırıw; aldıǵa arqaǵa domalawlar; hareketli oyınlar; estafetalar; uslaw ushın oyınlar.

Shıdamlılıqtı rawajlandırıw ushın: 1000m ge juwırıw, 25m, 50m juziw. boladı.

Kórsetilgen shınıǵıwlar arqalı erkin gúres penen shuǵıllanıwshı qızlardıń fizikalıq sapaların rawajlandırıwda úlken áhmiyetke iye hàm jarıslarda joqarı nátiyje beredi dep isenemiz.

Ádebiyatlar

1. Ózbekstan Respublikası Prezidentiniń 2022-jil 29-iyuldegi PQ-336-sanlı"Sport gúresleriniń olimpiada túrlerin jáne de rawajlandırıw ilajları haqqında"ǵı Pármanı.
2. Ф.А.Керимов Спорт кураш назарияси ва услубияти. Т., 2018. 88-б
3. Тастанов Кураш назарияси ва услубияти. Т., 2017. 170-б

DZYUDO KURASHIDA TA'LIM DASTURIDA ISHLAB CHIQISH METODIKASI

Kazakov Baxram Allayarovich

Qoraqalpoq davlat universiteti fakultetlararo jismoniy madaniyat kafedrasi katta-oqituvchisi

Allayarov Dilshod Bahramjanovich

Olimpiya va milliy sport turlari bo'yicha Nukus oliy sport mahorati maktabi volleybol sport turi bo'yicha murrabiy

Kalit so'zlar: *jismoniy ish qobilati, nerv, gimnastika mashqlari, ATF, KF, yosh davrlari, muskul lar, suyaklar, o'pka, yurak qon-tomir tizimi.*

Ключевые слова: *физические возможности, нервы, гимнастические упражнения, АТФ, МВ, юный возраст, мышцы, кости, легкие, сердечно-сосудистая система.*

Key words: *physical abilities, nerves, gymnastic exercises, ATP, MV, age, muscles, bones, lungs, cardiovascular system.*

Biz ta'lim dasturini pedagogik asoslarini dzyudochilar uchun maxsus mashqlar, ta'lim va tarbiya (Ahloqiy tarbiya, oqitish metodlari, malakalarni takomillashtirish va sifatini oshirish, yuklamalarni muvofiqlashtirish, nazorat qilish) metodolarini eng samarali usullarini qisimlarga ajratib organib chiqdik. Xulosamiz boyicha chiziqli-tarmoqli dasturlashtirilgan tamoili boyicha mashg'ulot jarayonini tashkil qilish talim jarayonini togri boshqarib borish imkonini beradi.

Yani 1-bosqichda topshiriqlar: Usullar texnikasi togrisida shug‘ullanuvchilarda togri tassavur hosil qilish. Shuningdek zarur bolgan anjomlar (vositalar):

1. Usulni tushuntirib berish, musobaqa qoydasi boyicha uni bajarishning qonuniyatlari shartlarini korsatish.

2. Usul texnikasini namuna tarzida namoyon qilib ko‗rsatish.

3. Turli xil korkazmali qurollar yordamida usullar texnikasini korsatib berish hamda usulni egallash usullari togrisida korsatma berish.

4. Organiladigan texnik usulning oziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda shug‘ulanuvchilarning harakat sifatlarini rivojlantirga qaratilgan tayyorlov mashqlari kompleksidan iborat bolgan oquv topshiriqlari majmuasi: (seriaysi)

2-bosqich topshiriqlari: Usullarning asl zvenosini bajarishning texnik vositalari ularning detallarini va umuman butun usulni toliq bajarish texnikasini egallab olish. Vositalar:

1. Harakatli mashqlar (usullarni)ni egallab olish uchun maxsus tayyorlov mashqalari. Bunda asosiy e‘tibor harakatli mashqlarning eng muhim zvenosini egallab olishga qaratiladi. Bu yerda topshiriqning ikkinchi seriyasi-oz strukturasi boyicha organilayotgan mashqlarga oxshaydigan, lekin ulardan kora yengilroq bolgan mashqlar kompleksi qollaniladi.

2. Organiladigan mashqni soddaroq shaklda bajarib korish. Bu tidbir shug‘ullanuvchilarning diqqat e‘tiborini mashqning asosiy qismiga qaratish keyin esa harakatning asosiy tomonlarini detallar boyicha bajarishga qaratish uchun zarurdir.

3. Usulni musobaqalashuv sharoitiga yaqinlashtirib umimiy tarzda bajarishga orgatish.

3-Bosqich topshiriq: Oganilayotgan usul mashq texnikasi, shug‘ullanuvchilarning mashq bajarish sohasidagi qobilyati, kurashish texnikasining oziga xos xususiyatlarini aniqlash, hamda uni yana ham takomillashtirish yo‗llarini belgilab olish. Vositalar:

1. Oragnilayotgan usulning turli variantlarini bajarib korish hamda mazkur mashqni bajariyotgan dzyudochining individual hususiyatlariga kopiroq darajada muvofiq keladigan eng yaxshi variantini tanlab olish.

2. Natijalarni hisobga olish maqsadida (sust va faol qarshilik korsatish usullarini qollab) mashqa bajarish hamda osha mashqning bajarilish texnikasiga (bolalar hisobida) baho qoyish.

3. Organilayotgan mashqni yaxshi bajarip eng yuksak sport natijalarni qolga kiritish uchun har bir shug‘ullanuvchiga beriladigan individual topshiriqlarni aniqlab chiqish.

Oqitishning birinchi bosqichidan boshlab qollaniladigan sozlab berish va namoyish qilib korsatish usulini peadgog shundan keyingi hamma bosqichlarda ham qollaydi. Bunda u yangi-yangi vazifalar ortaga qoyilishi munosabati bilan ularga tegishli ozgartirishlar kiritib boradi. Mashqlarni bajarib boorish texnikasiga oid individual xususiyatar koproq ta‘limning uchunchi bosqichida aniqlab olinadi. Ta‘lim jarayonida murabiy shug‘ullanuvchilarining harakatlarni

qanday bajariyotganliklarini diqqat bilan kuzatib turishi va ular oldiga oz vaqtida yangi-yangi vazifalar qoyishi favqulotda muhim ahamiyat kasb etadi. Hatolarni yo'qotish uchun kuydagi usullarni qollash tavsiya etiladi. Mashg'ulotni takrorlab qayta tushuntirib berish, takroriy ravishda korsatib berish, rasmlardan foydalanish, maxsus usullar qollash, muayyam ma'noga ega bolgan topshiriqlar berish va boshqa shunga oxshash usullardan foydalanish tavsiya etiladi. Talim dasturini oquv topshiriqlaridan tashkil topgan har-bir oquv topshiriqdan keyin oquv materialini mumkin qadar ongli va samarali ozlashtirib olishni taminaydigan muayyan harakatlarning aniq maqsadini kozlagan sistemasi boshlanadi, yani ta'limning dasturlashtirilgan olgoritimi ishlab chiqilgan. Ushbu algoritim dzyudochilarda mashq harakatlarni tarbiyalash vazifalarni kompleks tarzda hal qilish imkonini beradi, malaka va maxoratlarni rivojalantirish va takomillashtirish vaqtini qisqartiradi.

Ta'lim dasturi 4 ta asosiy tamoil negziga qurulgan:

1. dastlabk malakalar (mashg'ulot materiali, jarayonlar) aniqlanadi.
2. shg'ullanuvchilar nimaga orgatilishi belgilanadi keyin uni taxlil qilinadi.
3. Mashg'ulot tarkibiy elementleriga ajratib chiqiladi.
4. Shundan keyingina puxta-pishiq oylagan izchillik asosida tayyorlangan material shug'ullanuvchilarga taqdim etiladi.

Ta'lim dasturini amalga oshirish korgazmali tarzda va muayyan izchillik bilan kechmog'i uchun har-bir material sxematik tarizda «Oqitish dasturi strukturasi» korinishidan bayon etiladi. Ushbu struktura oziga hos qadamlar va karlardan iborat bolib bunda kadr axborotni namoyish qilish vositasi, qadam esa harakat va pedagogik vazifalar mushtarakligi bilan birlashtirilgan kadrlar toplamidir. Shuningdek barcha harakatlarni bir tekis namoyon bo'lishini yo'lga qo'yish lozim.

1-qadam – Dasturga kirish

2-qadam – Usulni nazariy jihatdan organish

3-qadam – Tayyorlov mashqlarni ozlashtirilishi

4-qadam – Kirishish mashqlarining ozlashtirilishi

5-qadam – va undan keyingilari – Usulning ozlashtirilishi (maxsus mashqlar). 3-qadamdan boshlab shug'ullanuvchilarda topshiriqni amaliy jihatdan bajarishga oid axborot va metodik korsatmalar beriladi. Ularni harakatlari takroriy havola qilinadi va sportchilar bu harakatlarni takrorlashlari uchun sharoitlar yaratib beriladi. Har bitta usul malaka darajasiga yetguncha takrorlanadi. Usullarni sportchilar jismonan, qalbal va ruxan sezishlari lozim bo'ladi. Shundagina ular bu usullar texnikasini o'zlashtira olishadi.

Ishlab chiqilgan oqitish dasturidagi har-bir qadam oquv topshiriqlari seriyasiga bolinadi, har bir seriya esa navbatda qat'iy metodik izchillik asosida osib boradigan murakkablik boyicha tanlangan topshiriqlarga mashqlarga bolinadi. Dastur materialni organishda biror topshiriqni shug'ullanuvchilar tomonidan tola ozlashtirib olinganida va ular boyicha tuzulgan kontrol talablar bajarilgan taqdirdagini navbatdagi topshiriqlarga yokiy qadamlarga otish nazarda tutilgan.

Nazariy tayyorgarlikga texnik, taktik va psixologik tayyorgarlikni oshirib borishni oziga hos bir bazasi deb qaralmog‘i kerak. Dzyudochilar bilan nazariy mashg‘ulot otkazishga tayyorgarlik korayotgan vaqtda pedagog murabbiyga quydagilar tavsiya etiladi:

Otiladigan mashg‘ulot mavzularini oqib berish, har bir oquv yilida ularga ajratiladigan soatlarni qancha ekanini aniqlab chiqish.

Tegishli bolimdagi oquv materialining mazmuni bilan yaxshilab tanishib chiqish.

Shug‘ullanuvchilar nimani tushunib va ozlashtirib olishlari kerakligini bilish uchun metodik korsatmalarni, kotarilgan masalalarni puxta oylab oqib chiqish.

Nazariy mashg‘ulot otkazishning tashkiliy jihatdan qanday shaklda bolishini (suhbatlar otkazish, adabiyotlarni mustaqil ravishda organish va hokazolar) aniqlab olish kerak. Hozirgi kunda eng muhim bo‘lib borayotgan muammolar bu sportchilarga dzyudo sport turi bo‘yicha yangi texnikalarni o‘rgatishdir. Ularni eng qulay va samarali bo‘lishini taminlash maqsadida nafaqat amaliy balki nazariy malumotlarni ham qo‘llagan holda mashg‘ulot o‘tgazish joiz bo‘lib bormoqda. Buning uchun barcha usullarni video shakillarda olib ularni mashg‘ulot jarayonida sportchilarga ko‘rsatib borish va bu harakatlarni takrorlagan holda mustahkamlab borish lozimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Селуянов В.Н., Шестаков М.П., Косллеина И.П Оснывы научно методической деятельности в физической культуре М. Спорта Академ. Пресс. 2001.

2. Догчский Д. Д. Зацорский В. М. Биомеханика М. Фис.

3. Совершенствование технического мостерство спортсмена М. Фис.

4. Радионов А. В Спортсмен прогнозирует решение М. Фис.

JISMONIY TAYYORGARLIK ASOSLARI

Kadirbaev Bayrambay Jaksibaevich

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali “Yakka kurash va tabiiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi

Kalit so‘zlar: *boks, test, jismoniy sifatlar, chidamlilik, tezlik va kuch sifatlari.*

Ключевые слова: *бокс, тестирование, физические качества, выносливость, скоростно-силовые качества.*

Key words: *boxing, testing, physical qualities, endurance, speed and strength qualities.*

Kirish. Boksda, bazaviy texnikani o‘zlashtirishning samaradorligi, zamonaviy ijtiomiy sharoitlarda nafaqat kalendar yoshi bilan belgilanadigan maxsus jismoniy sifatlarining rivojlanishi darajasi bilan aniqlanadi (1,3). Lekin, bolalar va o‘smirlar sport maktibidagi ish amaliyoti bolalarning umumiy jismoniy rivojlanishini rag‘batlantirmaydi, chunki bolalar trenerining ishidagi asosiy leytmotiv – uning shogirdini sport natijasi hisoblanadi. Yosh sportchilarni

tayyorlashda ixtisoslashtirishning erta amalga oshirilishi, bir guruhdan boshqasiga o‘tish va ayniqsa, yuqori natijalar sportiga o‘tishi paytida, ularga o‘z sport potensiallarini to‘liq ochishga imkoniyat bermaydi. Shu tufayli, dastlabki o‘qitish bosqichida yosh bokschilarni umumiy jismoniy, maxsus jismoniy va maxsus tayyorgarlik vositalarining rasional strukturasini ilmiy asoslash muammolari, bolalar va o‘smirlar sporti mutaxassislari uchun ancha qiziqish uyg‘otadi va sport zahiralarini tayyorlashning dolzarb vazifasi hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi: dastlabki o‘qitish bosqichida yosh bokschilarni maxsus jismoniy tayyorgarliklarining holatini o‘rganish.

Tadqiqotning vazifasi: yoshi 10-14 da bo‘lgan yangi shug‘ullanayotgan bokschilarning jismoniy tayyorgarliklari darajalarini aniqlash.

Jismoniy rivojlanishni baholash uchun quyidagi testlar qo‘llanildi:

1* - yugurish 100 m (vaqt);

2* - yugurish 800 m (vaqt);

3* - yakkacho‘pda osilib turgan holatda 10 ta o‘tishlarni bajarish;

4* - yotgan holatda tayanchda qo‘llarni 10 marta bukishlarni va rostlashlarni bajarish vaqti;

5* - yakkacho‘pda osilib turgan holatda qo‘llarni 10 marta bukishlarni va rostlashlarni bajarish vaqti;

6* - chalqancha yotgan holatda tanani 10 marta bukishlarni va rostlashlarni bajarish vaqti;

7* - qorinda yotgan holatda tanani 10 marta bukishlarni va rostlashlarni bajarish vaqti;

8* - yarim o‘tirgan holatda oldinga 10 marta sakrashlarni bajarish vaqti;

9* - orqadagi tayanch holatidan tosni 10 marta ko‘tarishlarni bajarish vaqti (yarim ko‘prik);

10* - baland joyda turgan holatdan oyoq uchlariga 10 marta ko‘tarilishlarni bajarish vaqti.

Keltirilgan 10 ta test mashqlaridan ko‘rinib turibdiki, biz, testlashning tadqiq qilinayotgan yoshdagi bolalarda rivojlanishning yuqori sur'atlariga ega bo‘lgan asosiy sifatlarini testlashga urindik, aynan:

- umumiy chidamlilikni rivojlantirish uchun – 10 dan to 12 yoshgacha;
- maxsus chidamlilikni - 13 dan to 14 yoshgacha;
- tezkor-kuch sifatlarni rivojlantirish uchun - 9 dan to 10 yoshgacha va 13-14 yosh.

Tadqiqot natijalari. Boksda, musobaqalarda ishtirok etishning natijaviyligi, birinchi navbatda, portlovchi kuch, tezkorlik, reaktivlik va maxsus chidamlilik kabi harakat sifatlari bilan ta’minlanadi (2,4). Tadqiqotlar jarayonida, mualliflar, dastlabki o‘qitish bosqichlarida jismoniy tayyorgarlik, keyingilarida esa – psixik tayyorgarlik yetakchi hisoblanishini ko‘rsatishgan.

Shu tufayli, bizning dastlabki tadqiqotlarimizda, boks sport maktabida shug‘ullanish ishtiyoqini bildirgan bolalarning jismoniy rivojlanishlarini testlash bilan bog‘liq bo‘lgan masalalar ko‘rib chiqildi. Bunda, boks bilan shug‘ullanish ishtiyoqini bildirganlarning kamchilik ekanligi tufayli, hozirgi vaqtda, biz,

dastlabki tayyorgarlik guruhlariga har xil yoshdagi bolalarni qabul qilishga majbur bo‘lmoqdamiz. Bizning tadqiqotlarimizda 10-14 yashar yoshga oid guruhlar ishtirok etishdi.

Boks bo‘yicha bolalar va o‘smirlar sport maktabi (BO‘SM), olimpiya zahiralarining ixtisoslashgan bolalar va o‘smirlar maktabi (OZIBO‘M), yuqori sport mahorati maktablari (YuSMM) va olimpiya zahiralari kollejlari (OZK) uchun o‘quv dasturi, tayyorgarlikning dastlabki bosqichi guruhlariga qabul qilishning quyidagi yoshga oid guruhlarini nazarda tutadi (1-jadval).

Shunday qilib, bizning tadqiqotlarimizda, o‘qitishning 2 ta bosqichidagi yoshga oid guruhlar ishtirok etishdi.

Sport maktabiga qabul qilish paytida har xil yoshdagi yosh bokschilarni testlash natijasida, zamonaviy shahar sharoitlarida yashaydigan va boks bilan shug‘ullanish istagi bo‘lgan bolalarning jismoniy rivojlanishlari to‘g‘risida tasavvur hosil qilishga imkon beradigan natijalar olindi.

1-jadval

Tayyorgarlikning bosqichlari bo‘yicha o‘quvchilarni sport maktablariga qabul qilishning minimal yoshlari

Sport turi	Tayyorgarlik bosqichlari													
	Dastlabki tayyorgarlik			O‘quv-trenirovka				Sport takomillashuvi			Yuqori sport mahorati			
Boks	1 yil	2 yil	3 yil	1 yil	2 yil	3 yil	4 yil	1 yil	2 yil	3 yil	1 yil	2 yil	3 yil	4 yil
	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	0	21	22	25

Shug‘ullanishni yangi boshlagan bokschilarning jismoniy tayyorgarliklarini testlashning umumlashtirilgan ma’lumotlarini tahlil qilish orqali (2-jadval), jismoniy imkoniyatlarni yoshga oid aspektda umumiy ijobiy dinamikasini mavjudligini aytish mumkin.

2-jadval

Jismoniy sifatlarning yoshga oid dinamikasi (n=40)

Test	**Yoshi**				
	10 yosh	**11 yosh**	**12 yosh**	**13 yosh**	**14 yosh**
1*	19,18±1,2	18,48±0,26	18,2±0,35	17,42±1,36	16,5±1,13
2*	254±22,9	219,33±12,78	212,8±4,86	211,0±25,78	204,85±10,09
3*	15,47±5,66	14,1±3,07	12,58±1,70	11,98±3,34	10,12±3,52
4*	9,75±2,77	9,0±1,15	8,82±0,63	8,4±1,36	7,95±1,31
5*	20,01±5,18	15,78±2,70	14,42±0,71	14,41±2,41	10,27±4,49
6*	13,56±2,05	12,7±3,40	11,52±0,91	11,52±2,33	10,27±4,49
7*	10,03±3,28	9,18±1,83	8,38±2,29	8,12±1,23	6,2±1,19
8*	7,78±1,60	6,97±0,66	6,86±1,40	6,72±1,09	6,44±0,64
9*	8,73±1,74	8,16±1,70	7,76±1,96	7,51±1,48	7,2±1,07
10*	8,24±1,71	7,34±1,05	6,72±1,79	6,70±0,97	6,77±0,45
1*-10* bu yerda va keyinchalik test mashqlarining nomlari					

Lekin, testlarga lokal jalb qilingan har xil mushak guruhlari jismoniy imkoniyatlarining yoshga oid ijobiy dinamikasining ishonarli asinxronligi ko‘rinadi. Bunda, ushbu asinxronlik aniq yoshga oid bog‘liqlikka ega emas. Barcha test mashqlari bo‘yicha natijalarning maksimal yaxshilanishi, faqatgina 10-11 yosh davrlari orasida kuzatiladi (r<0,05): chidamlilik bo‘yicha ketma-ket ijobiy dinamika; 4* - qo‘llarning yuqori mushaklari tezkor-kuch imkoniyatlari; 6* va 9* testlar bo‘yicha – tananing oldingi yuzasi mushaklari.

Umumiy chidamlilik darajasi bo‘yicha (2* testi), 11 dan to 13 yoshgacha bo‘lgan yangi bokschilar bir-biridan farq qilmaydi (>r0,05). Oyoq mushaklarining tezkor-kuch imkoniyatlari (8* va 10* testlar) 12, 13 va 14 yashar o‘smirlarda ishonarli farq qilmadi (r>0,01). Qo‘llar mushaklari va tananing oldingi yuzasi mushaklarining tezkor-kuch imkoniyatlari bo‘yicha (3*,5* va 6* testlar) 12 va 13 yashar bolalar ham rivojlanishning ishonarli bir xil darajasida bo‘lishdi (r>0,05).

Xulosa. Bolalarning jismoniy rivojlanishlari darajalarini 10-14 yoshda tadqiq qilish, barcha test mashqlari bo‘yicha yoshga oid ijobiy dinamikani aniqladi. Shu bilan birga, bolalar va o‘smirlar sport maktabida shug‘ul-lanish ishtiyoqini bildirgan barcha bolalar, yoshiga qaramasdan, yuqori yoshga oid chegarasi 12 yosh bo‘lgan boks maktabidagi dastlabki sport o‘qitish guruhi uchun jismoniy tayyorgarlik bo‘yicha nazorat normativlarini bajara olishmadi.

Adabiyotlar

1. Кшинин, И.И. Стабильность показателей физического развития и двигательных способностей у юных боксеров / И.И. Кшинин, В.А. Осколков // Научные и методические проблемы физического воспитания, спорта и оздоровительной физической культуры. Выпуск 12: материалы итоговой научно-методической конференции. - Волгоград: ВГАФК, 2006. - С.51-53.

2. Кузнецов, А.В. Специальная физическая подготовка юных боксеров в годичном тренировочном цикле: автореф. дис. канд. пед. наук / А.В. Кузнецов. - М., 2006. - 19 с.

3. Халмухамедов Р.Д., Тажибаев С.С. Ёш яккакурашчиларни кўп йиллик тайёргарлик жараёнинг турли босқичларида саралашнинг меъёрлари/ Ўқув-услубий қўлланма − ЎзДЖТИ., 2013. – 166 б.;

ULÍWMA BILIM BERIW MEKTEPLERINDE FUTBOL DÓGEREKLERINIŃ JÍLLÍQ REJESI

Seytmuratov Timur Shamshetovich

Ózbekstan mámleketlik dene tárbiyası hám sport universiteti Nókis filialı "Sport oyınları" kafedrası baslıǵı p.i.b.f.d (PhD)

Yusupbaeva Barshınay Dawletbay qizi

Ózbekstan mámleketlik dene tárbiyası hám sport universiteti Nókis filialı 1-kurs studenti

Tayanısh sózler: *jıllıq reje, dógerek shınıǵıwları, rejelestiriw, fizikalıq, texnikalıq-taktikalıq, psixologiyalıq, tayarlıq, medicinalıq tekseriw.*

Kirisiw. Sport penen shuǵıllanıw organizmniń ulıwma fizikalıq rawajlanıwına unamlı tásir etedi, ishki organlardıń hár tárepleme rawajlanıwına járdem beredi, zat almasıwın jaqsılaydı hám háreket koordinaciyasın rawajlandıradı.

Ulıwma orta bilim beriw mektebi oqıwshılarınıń jıllıq dógerek shınıǵıwların rejelestiriwde tiykarǵı itibar salamatlıqtı bekkemlewge, hár tárepleme fizikalıq, texnikalıq-taktikalıq hám psixologiyalıq tayarlıqtı rawajlandırıwǵa qaratıladı.

Sport dógereklerin shólkemlestiriwden maqset: oqıwshılardıń bos waqıtların mazmunlı ótkeriw, olardıń salamatlıǵın bekkemlew hám jarıslarda joqarı nátiyjelerdi qolǵa kirgiziwden ibarat.

Sport dógereklerin shólkemlestiriwden aldın barlıq balalar medicinalıq tekseriwden ótiwi hám medicina xızmetkeriniń juwmaǵın alıwı kerek. Sport dógereklerine shuǵıllanıwshılardı qabıllaw, sport túrleriniń ózgesheliklerinen kelip shıqqan halda 10-11 jaslardan usınıs etiledi. Kishi toparǵa 10 jasqa jetpegen bolsa da, yaǵnıy fizikalıq tárepinen jaqsı rawajlanǵan hám shınıǵıwǵa medicina xızmetkeri tárepinen ruxsat etilgen oqıwshılar da qabıllawı múmkin. 1-kestede kórinip turganınday, medicinalıq tekseriw hám qadaǵalaw testlerin tapsırıw da hár bir toparda birdey waqıttı talap etedi.

Álbette, shınıǵıwlardı rejelestiriwde sportshılardı tayarlawdıń uluwma kórinisi principlerine qatań ámel etiw lazım. Sonda ǵana dógereklerdiń nátiyjeliligi unamlı boladı.

1-keste.

Futbol dógereklerinde shuǵıllanatuǵın oqıwshılar ushın jıllıq shınıǵıw qurallarınıń bólistiriliwi

№	Mazmunı	Saat kólemi
1	Teoriyalıq shınıǵıw	8
2	Ulıwma fizikalıq tayarlıq	62
3	Arnawlı fizikalıq tayarlıq	18
4	Texnikalıq tayarlıq	47
5	Taktikalıq tayarlıq	11
6	Jarıslar	Sport ilajları jumıs rejesi boyınsha
7	Qadaǵalaw testlerin ótkeriw	4
8	Medicinalıq kórikten ótkeriw	2
9	**Ulıwma saatlar**	**152**

Túsinik:

1. 11-12 jaslı balalar oyını kólemi kishireytirilgen maydanda ótkeriledi.
2. Shınıǵıwshılar medicinalıq tekseriwden ótkeriledi.
3. Testler oqıw jılının basında hám aqırında ótkeriledi.

Oqıtıwshı ilajı bolǵanınsha oqıw materialların - teoriyalıq shınıǵıwdı ámeliy shınıǵıw menen baylanıstırıp alıp barıwı kerek. Teoriyalıq shınıǵıwlar dawamında kórgizbeli qurallardan, video hám foto materiallarınan paydalanıw múmkin. Shınıǵıwshılardıń jasın esapqa alǵan halda shınıǵıwlarda salamatlandırıwǵa kóbirek áhmiyet qaratıladı (2-keste).

Ulıwma bilim beriw mekteplerinde 11-12 jaslı oqıwshılar ushın shólkemlestirilgen dógerek shınıǵıwlarınıń jıllıq rejesi

TEMALAR	Saatlar		
Jámi	**Jámi**	**Teoriyalıq shınıǵıw**	**Ámeliy shınıǵıw**
Teoriyalıq shınıǵıw	**8**		-
Ózbekstanda futboldı rawajlandırıw haqqındaǵı qarar hám pármanlar		1	-
Futboldıń payda bolıwı hám rawajlanıw tariyxı		1	-
Ózbekstanda futboldıń rawajlanıw tariyxı		1	-
Salamatlastırıw hám shınıqtırıw máseleleri		1	-
Ulıwma fizikalıq tayarlıq	**62**		**62**
Fizikalıq tayarlıq haqqında ulıwma túsinik		1	-
Sap shınıǵıwları. Júriw hám juwırıw túrleri		-	2
Qısqa, orta hám uzaq aralıqqa juwırıw		-	5
Tezlik qábiletin tárbiyalaw		-	6
Asılıp hám tayanıp orınlanatuǵın shınıǵıwlar		-	4
Kúsh qábiletin tárbiyalaw		-	6
Milliy hám háreketli oyınlar		-	5
Sport oyınları (voleybol, basketbol, gandbol)		-	6
Shıdamlılıqtı tárbiyalaw		-	6
Estafeta oyınları		-	6
Iyiliwsheńlikti tárbiyalaw		-	6
Milliy hám háreketli oyınlar			4
Koordinaciyalıq qábiletlerdi tárbiyalaw			6
Arnawlı fizikalıq tayarlıq	**18**		**18**
Arnawlı fizikalıq tayarlıq haqqında ulıwma túsinik		1	-
Toptı qaptal sızıqtan oyınǵa kirgiziw		-	2
8 metr aralıqqa toptı tosıqlar arasınan alıp júrip dárwazaǵa soqqı beriw		-	4
Uzaq aralıqqa top uzatıw		-	4
3x20 metrge top alıp júriw.		-	4
Jonglyorlıq qılıw		-	4
Texnikalıq tayarlıq	**47**		**47**
Texnikalıq tayarlıq boyınsha ulıwma túsinik		1	-
Ayaqta topqa soqqı beriwdi úyretiw		-	6
Toptı toqtatıwdı úyreti		-	4
Top alıp júriwdi úyretiw		-	6
Futbol elementleri bar háreketli oyınlar		-	4
Toptı uzatıw hám toqtatıwdı úyretiw		-	6
Toptı qaptal sızıqtan oyınǵa kiritiw		-	4
Toptı alıp qoyıwdı úyretiw		-	6
Topqa bas penen urıwdı úyretiw		-	4
Uzaq aralıqqa top uzatıwdı úyretiw		-	5
Dárwazaman oyın texnikası		-	2

Taktikalıq tayarlıq	**11**		**11**
Taktika hám taktikalıq sistemalar haqqında túsinik		1	-
Maydandı kóre alıw boyınsha shınıǵıwlar		-	4
Húјim hám qorǵanıw háreketleri		-	4
Top penen hám topsız taktikalıq háreketler		-	3
Eki tárepleme oyınlar	Oyınlarda balalardıń hár tárepleme tayarlıqları tekserilip barıladı, kemshilikler teoriyalıq sabaqlarda aytıp barıladı		
Jarıslar	Sport ilajları jumıs rejesi boyınsha		
Qadaǵalaw testlerin ótkeriw	**4**	Shuǵıllanıwshılardıń texnikalıq ulıwma hám arnawlı fizikalıq tayarlıǵın tekseriw boyınsha qadaǵalaw normaların alıw	
Medicinalıq kórikten ótkeriw	**2**		
Jámi	**152**	**8**	**138**

Juwmaqlaw: Shınǵıwlarda qoyılǵan maqsetke qarap teoriyalıq hám ámeliy bilimler berilip barıldı. Shınıǵıwlardıń teoriyalıq bóliminde futbol sport túrine kiriw, rawajlanıw tariyxı, ulıwma hám arnawlı tayarlıq jáne texnikalıq-taktikalıq tayarlıq boyınsha ulıwma túsinikler berip barıldı. Hár bir sabaqta shuǵıllanıwshılardıń fizikalıq tayarlıǵın arttırıwǵa qaratılǵan qurallar qollanıldı alıp barılǵan shınıǵıwlarda shuǵıllanıwshılardıń jasın esapqa alǵan halda bólistirilgen júkleme normalarına qatań ámel etken halda shólkemlestirilip, olardıń keyingi shınıǵıwǵa shekem bolǵan jaǵdayları baqlap barıldı.

KURASH MILLIY MEROS VA ZAMONAVIY SPORT TURI SIFATIDA

UzDSMI Nukus filiali Jismoniy madaniyat o‘qituvchisi

Berdimuratov Razatdin

Kalit so‘zlar: *Kurash, milliy sport, xalqaro sport, tarbiya, yoshlar, IKA, sport falsafasi.*

Prezident Sh.Mirziyoyevning tashabbusi bilan Respublikamizda endi har yili 6-sentabr “Kurash” milliy sport turi kuni deb e‘lon qilishi sportchi va murabbiylarimizni to‘lqinlantirib yangi marralani zab etishga bel bog‘lashga turtki bo‘ldi. Millatimiz faxri, tarixiy merosi bo‘lgan, ota-bobolarimizdan ma’naviy boylik hisoblangan sport turlaridan biri kurash milliy sport turi hisoblanadi. Kurash milliy sport turini rivojlantitish bo‘yicha Prezidentimiz va davlatimiz tomonidan qaror va farmonlar qabul qilinishi sportchilarimiz va yoshlarimiz uchun katta imkoniyat echiklari ochishiga zamin yaratdi. Masalan, 2017-yil 2-oktabrdagi PQ-3306-sonli “Kurash milliy sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yili 7-noyabrdagi “Kurash milliy sport turini yanada rivojlantirish va ommalashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi 893-sonli, 2018-yil 5-mart “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlarining

qabul qilinishi qisqa vaqt ichida kurash milliy sport turining rivojlanishida tarixiy hujjat sifatida e’tirof etildi.

Sportning inson hayotidagi roli beqiyosdir. Ayniqsa, milliy sport turlari xalqning tarixiy xotirasi, madaniyati va ma’naviy qadriyatlarining ajralmas qismidir. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, kurash sporti o‘zbek xalqining ajdodlardan meros bo‘lib kelayotgan bebaho boyligidir. Uning nafaqat jismoniy chiniqtirish, balki tarbiyaviy va ma’naviy jihatdan inson kamolotiga xizmat qilishi uni o‘ziga xos sport turi sifatida ajratib turadi.

Kurashning tarixiy manbalardagi aks etish Kurash sporti qadim zamonlardan beri Markaziy Osiyo xalqlari orasida ommalashgan bo‘lib, uning ilk ko‘rinishlari miloddan avvalgi davrlarga taalluqlidir. “Avesto”da kuch va jasorat timsoli sifatida kurashga ishora qilinadi. Shuningdek, kurash Amir Temur davrida harbiy tayyorgarlik vositasi sifatida keng qo‘llanilgan (Usmonov, 2006). O‘zbekistonda mustaqillik yillarida kurashga bo‘lgan e’tibor kuchaydi. 1998-yil Xalqaro Kurash Assotsiatsiyasining (IKA) tashkil etilishi bilan ushbu sport turining xalqaro maqomi mustahkamlandi (Tursunov, 2010). Kurashning asosiy tamoyillari va musobaqa qoidalari

Kurash sportining asosiy prinsiplari halollik, jasorat va raqibga hurmat ko‘rsatishdir. Sportchilar faqat tik holatda kurash olib boradilar. Pastga cho‘zilish, oyoqdan ushlash kabi usullar taqiqlangan bo‘lib, bu kurashni xavfsiz va yoshlar uchun mos sport turiga aylantiradi.

Musobaqalarda ishtirokchilar belbog‘ kiyimida maydonga chiqadilar, harakatlar "halol", "yonbosh", "chala" kabi ballar orqali baholanadi. Kurashning xalqaro rivoji va sport tizimidagi o‘rni. Kurash bugungi kunda Osiyo, Yevropa, Afrika va Janubiy Amerika qit’alarida faol rivojlanmoqda. Jahon chempionatlari, qit’a birinchiliklari, xalqaro turnirlar orqali kurashning geografiyasi tobora kengaymoqda. 2022-yilgi Osiyo o‘yinlariga kurashning kiritilishi bu sport turining olimpiya yo‘nalishidagi rivojini tasdiqlaydi (IKA, 2022).

Kurashning tarbiyaviy va pedagogik funksiyalari Kurash sporti yosh avlodni jismoniy barkamollik sari yo‘naltirish bilan birga, ularni ma’naviy jihatdan ham tarbiyalaydi. Unda qatnashayotgan sportchilar sabr-toqat, halollik, do‘stlik, qat’iyatlilik kabi ijobiy sifatlarni egallaydilar. Shu sababli, O‘zbekiston maktablari va sport maktablarida kurash to‘garaklari faoliyat yuritmoqda.

Xulosa. Kurash – bu shunchaki sport turi emas, balki o‘zbek xalqining tarixiy va madaniy merosidir. Uning zamonaviy sport tizimidagi o‘rni, xalqaro maydondagi muvaffaqiyatlari va yoshlar tarbiyasidagi ijobiy ta’siri kurashni strategik sport turiga aylantirmoqda. Uni yanada rivojlantirish, ilmiy tadqiqotlar orqali o‘rganish va xalqaro sport sahnasida mustahkamlash dolzarb vazifalardandir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Usmonov, B. (2006). O‘zbek kurashi tarixi. Toshkent: “Fan”.

2. Tursunov, A. (2010). Kurash: tarix, rivojlanish va zamonaviy bosqichlar. Toshkent: O‘zDJTI nashriyoti.

3. Karimov, F. (2015). Sport nazariyasi va metodikasi. Toshkent: O‘zSPU nashriyoti.

SPORT BO‘YICHA IXTISOSLASHGAN SINF FAOLIYATI SAMARADORLIGINI ANIQLASH MEXANIZMLARI

Allambergenov Aydos Alauatdinovich
Alfraganus Universiteti 2-bosqich magistri
E-mail: aydosallambergenov1717@gmail.com

Kalit so‘zlar: *Sport sinflari, samaradorlik, jismoniy tayyorgarlik, psixologik holat, pedagogik metod, motivatsiya, sport ta’limi, tahlil, innovatsion yondashuvlar.*

Ключевые слова: *спортивные классы, эффективность, физическая подготовка, психологическое состояние, педагогические методы, мотивация, спортивное образование, анализ, инновационные подходы.*

Keywords: *sports classes, effectiveness, physical fitness, psychological condition, pedagogical methods, motivation, sports education, analysis, innovative approaches.*

Kirish. Sport bo‘yicha ixtisoslashgan sinf faoliyati samaradorligini aniqlash mavzusi, o‘zining dolzarbligi va ahamiyati bilan ta'lim tizimida muhim o‘rin tutadi. Bugungi kunda yoshlarni sportga yo‘naltirish va ularning sport salohiyatini rivojlantirish uchun turli usullar, metodlar va dasturlar ishlab chiqilmoqda. Ayniqsa, ixtisoslashgan sport sinflari, bu sohada ta'lim olishni xohlagan o‘quvchilarga zamonaviy pedagogik va psixologik yondashuvlar orqali eng yaxshi natijalarga erishishga imkon yaratadi.

Sport sinflarining faoliyati samaradorligini baholash, ularning o‘quvchilarga nafaqat sport ko‘nikmalarini o‘rgatish, balki jismoniy va ruhiy rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Buning uchun sportchi o‘quvchilarning sportdagi yutuqlari, shaxsiy rivojlanish darajasi, psixologik holati va umumiy ijtimoiy moslashuvlari kabi ko‘plab omillarni hisobga olish zarur.

Ushbu ishda, sport bo‘yicha ixtisoslashgan sinf faoliyatining samaradorligini aniqlash metodologiyasi, tahlil qilish jarayonlari va natijalarga ta'sir etuvchi omillar o‘rganiladi. Maqsad – sport ta'limining samaradorligini oshirish va o‘quvchilarning sportdagi muvaffaqiyatlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish.

Sport bo‘yicha ixtisoslashgan sinflarning faoliyati samaradorligini o‘rganish masalasi so‘nggi yillarda bir qancha ilmiy tadqiqotlar va amaliy ishlar orqali yoritilgan. Ta'lim sohasidagi izlanishlar, sportga ixtisoslashgan sinflarning o‘quvchilarga sport bilimlarini o‘rgatish bilan birga, jismoniy va psixologik jihatdan rivojlanishiga katta ta'sir ko‘rsatishini ta'kidlaydi. Biroq, bu sohada o‘rganilganlik darajasi hali ham cheklangan va ko‘plab masalalar ochiq qolmoqda.

Sport ta'limi va uning samaradorligini baholash borasida bir nechta yirik tadqiqotlar mavjud. Ularda, sportchi o‘quvchilarning jismoniy salohiyati, maqsadga yo‘naltirilgan treninglar va psixologik tayyorgarliklar o‘rtasidagi

o‘zaro bog‘liqlik o‘rganilgan. Biroq, ixtisoslashgan sinflarning ta'lim samaradorligini to‘liq o‘lchashga qaratilgan metodologiya hali mukammal rivojlanmagan. Shuningdek, pedagogik va psixologik yondashuvlar, shuningdek, sinf ichidagi o‘quvchilar o‘rtasidagi ijtimoiy va psixologik muhitning samaradorlikka ta'siri o‘rganilmagan.

Shu bilan birga, ayrim tadqiqotlar sport bo‘yicha ixtisoslashgan sinflarda o‘qishning, o‘quvchilarning nafaqat sport ko‘nikmalarini, balki ularning psixologik barqarorligini ham rivojlantirishi mumkinligini ko‘rsatadi. Yana bir qator ishlarda sport sinflarining umumiy ta'lim dasturlari bilan integratsiyasi, o‘quvchilarning muvaffaqiyatlarini yanada oshirish uchun zarur omil sifatida ko‘riladi.

Shunday qilib, sport bo‘yicha ixtisoslashgan sinflarning faoliyat samaradorligini o‘rganish borasida hali ham ko‘plab ilmiy va amaliy savollar ochiq qolmoqda. Bu boradagi tadqiqotlar ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, sport ta'limining yangi metodlari va yondashuvlarini ishlab chiqish uchun muhim ahamiyatga ega.

Sport bo‘yicha ixtisoslashgan sinflarning faoliyati samaradorligini o‘rganish borasidagi ilmiy izlanishlar asosan uchta asosiy yo‘nalish bo‘yicha olib borilmoqda: birinchisi, sportchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasini o‘lchash; ikkinchisi, ularning psixologik barqarorligi va motivatsiyasi; uchinchisi, o‘quv jarayonidagi pedagogik metodlarning samaradorligi.

Jismoniy tayyorgarlikning samaradorligini aniqlash borasida, sport sinflarida jismoniy holat va ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun o‘qituvchilar tomonidan qo‘llaniladigan trening usullari, individual va guruhli yondashuvlar tahlil qilinadi. Tadqiqotlar, o‘quvchilarni tanqidiy va natijaga yo‘naltirilgan tarzda o‘qitishning jismoniy rivojlanishga ta'sirini ko‘rsatmoqda. Bunda, o‘quvchilarning sportdagi muvaffaqiyatlarini o‘lchashning aniq va ishonchli metodlari, shuningdek, individual yondashuvlar haqida ko‘plab fikrlar bildirilgan.

Psixologik jihatdan, sport sinflarida o‘quvchilarni stressni boshqarish, o‘ziga ishonchni oshirish va muvaffaqiyatga erishish uchun motivatsiyani yaratish bo‘yicha ko‘plab psixologik yondashuvlar o‘rganilgan. Shuningdek, o‘quvchilarni maqsadga yo‘naltirilgan holda rivojlantirish, ularning psixologik holatini yaxshilash va o‘z imkoniyatlarini to‘liq ochish uchun zarur bo‘lgan metodlar ham tadqiqotlar asosida ko‘rsatilgan. Sport ta'limining psixologik asoslarini o‘rganish orqali, sportchi o‘quvchilarning mental holatini yaxshilash va ularni yanada muvaffaqiyatli qilish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish mumkin.

Bundan tashqari, sport bo‘yicha ixtisoslashgan sinflarning pedagogik metodlarini o‘rganish, o‘quvchilarga beriladigan ta'limning samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Pedagogik tadqiqotlar, sport ta'limi jarayonida innovatsion usullarni qo‘llash, interaktiv va amaliy yondashuvlarni ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatadi. Sport o‘quvchilari uchun ta'lim jarayonida o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashish va ko‘plab ta'lim strategiyalarini qo‘llash ularning muvaffaqiyatiga katta ta'sir ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, sport bo‘yicha ixtisoslashgan sinflarning faoliyatini o‘rganish jarayonida, ta'limning umumiy sifatini baholash uchun ko‘plab indikatorlar, jumladan, o‘quvchilarni rag‘batlantirish tizimi, ularning ijtimoiy faolligi, sportdagi yutuqlari va o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanish ko‘rsatkichlari tahlil qilinadi. Bularning barchasi, sport bo‘yicha ixtisoslashgan sinflarning samaradorligini aniqlash va uni yaxshilash uchun zarur bo‘lgan omillarni belgilashda yordam beradi.

Shunday qilib, sport bo‘yicha ixtisoslashgan sinflarning faoliyat samaradorligini o‘rganish sohasida mavjud ilmiy tadqiqotlar ta'lim jarayonini yanada takomillashtirish va sportchilarni eng yuqori darajada tayyorlash imkoniyatlarini yaratish uchun muhim asosni tashkil etadi. Shu bilan birga, bu boradagi tadqiqotlar kelgusida yangi yondashuvlar va metodlarni ishlab chiqishga imkon beradi, bu esa sport ta'limining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Sport bo‘yicha ixtisoslashgan sinflarning faoliyat samaradorligini o‘rganish borasida bir qancha mashhur olimlar va ularning nazariyalari mavjud. Quyida sport ta'limi va uning samaradorligini baholashga oid ayrim olimlar va ularning asarlariga qisqacha to‘xtalamiz:

Mihail P. D'yakov. Mihail D'yakov sport ta'limi va jismoniy tarbiya sohasida katta ilmiy ishlar olib borgan olimlardan biridir. Uning "Jismoniy tarbiya va sportda samaradorlik" degan asarida sport sinflarida o‘qishning jismoniy va psixologik rivojlanishga ta'siri tahlil qilinadi. D'yakovning nazariyasiga ko‘ra, sport faoliyati o‘quvchilarda yuqori darajadagi motivatsiya va ijtimoiy moslashuvni shakllantiradi, bu esa o‘z navbatida ularning sportdagi yutuqlariga ta'sir qiladi.

Boris G. Ananyev. Ananyev, psixologiya va pedagogika sohasidagi yetakchi olimlardan biri bo‘lib, sportchilarni psixologik tayyorgarlikdan o‘tkazish zarurligini ta'kidlagan. Uning "Sportchilarni psixologik tayyorlash" asarida, sportchilarni stress va tayyorgarlik jarayonida o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyatini oshirishga qaratilgan psixologik strategiyalarni ishlab chiqqan. Ananyevning nazariyasiga ko‘ra, sportchilarni psixologik jihatdan tayyorlash, ularning jismoniy tayyorgarligi bilan parallel ravishda rivojlanishi kerak.

Jiri V. Neumann. Neumann, sportdagi muvaffaqiyatlarni baholash va o‘quvchilarning umumiy rivojlanishini tahlil qilishda metodologik yondashuvlarni ishlab chiqqan. Uning "Sport ta'limi metodlari" nomli asarida sport bo‘yicha ixtisoslashgan sinflarda qo‘llaniladigan pedagogik metodlarning samaradorligini o‘rganish bo‘yicha keng ko‘lamli tahlillar mavjud. Neumann o‘quvchilarning jismoniy tayyorgarligini, shuningdek, motivatsiya va psixologik holatini birgalikda rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Georgiy V. Shevchenko. Shevchenko sport ta'limida zamonaviy yondashuvlarni ishlab chiqqan. Uning nazariyasiga ko‘ra, sportchilarning psixologik va jismoniy tayyorgarliklarini integratsiyalash kerak. Shevchenko, sport ta'limining muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun sportchilarni o‘zaro raqobatni va muvaffaqiyatga intilishni boshqarishga qaratilgan strategiyalarni qo‘llash zarurligini ta'kidlaydi.

Lidiya N. Kolosova. Kolosova o‘z asarlarida sport ta'limi va jismoniy tarbiya sohasidagi nazariy va amaliy yondashuvlarni ishlab chiqqan. Uning "Sportda muvaffaqiyat va motivatsiya" asarida, o‘quvchilarning sportdagi muvaffaqiyatlari va ularning ta'lim jarayonidagi o‘zaro ta'siri haqida batafsil tahlil keltirilgan. Kolosova, sportchilarning muvaffaqiyatini nafaqat jismoniy tayyorgarlik, balki psixologik tayyorgarlik ham muhim omil ekanligini isbotlagan.

John S. Hattie. Hattie, ta'lim sohasidagi eng mashhur olimlardan biri bo‘lib, o‘quvchilarning muvaffaqiyatini oshirish uchun samarali pedagogik metodlarni o‘rganishga katta e'tibor qaratgan. "Visible Learning" asarida, Hattie ta'lim samaradorligini baholashda o‘quvchilarning ijtimoiy va psixologik holatini hisobga olish zarurligini ta'kidlaydi. U sport ta'limi jarayonida, o‘quvchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirish, motivatsiya va maqsadga yo‘naltirilgan treninglar orqali sportdagi muvaffaqiyatlarni yuksaltirish mumkinligini ko‘rsatadi.

Bu olimlar va ularning nazariyalari sport bo‘yicha ixtisoslashgan sinflarning faoliyati samaradorligini oshirish va o‘quvchilarning sportdagi muvaffaqiyatlariga ta'sir ko‘rsatadigan omillarni yaxshilashda muhim ahamiyatga ega. Ularning ishlari, sport ta'limining samaradorligini oshirish uchun zarur metodlarni ishlab chiqish va o‘quvchilarning jismoniy va psixologik rivojlanishiga e'tibor qaratish zarurligini isbotlaydi.

Sport bo‘yicha ixtisoslashgan sinflarning faoliyati samaradorligini tahlil qilishni jadval asosida taqdim etish uchun, asosan uchta asosiy omilni (jismoniy tayyorgarlik, psixologik holat va pedagogik metodlar) hisobga olish mumkin. Har bir omil bo‘yicha tahlilni amalga oshirish uchun, ularning sportchilar va o‘quvchilarga ta’sirini o‘rganish zarur. Quyidagi jadvalda sport bo‘yicha ixtisoslashgan sinflarda faoliyat samaradorligini o‘rganish uchun muhim bo‘lgan omillar va ularning tahlili ko‘rsatilgan.

Omil	Tahlil Ko‘rsatkichi	Boshqa Omillarga Ta'sir	Samaradorlikni Oshirish Yo‘llari
Jismoniy Tayyorlik	- Sportdagi yutuqlar (musobaqalar natijalari)	- Psixologik holat: Jismoniy tayyorgarlik yaxshi bo‘lsa, psixologik holat ham yuqori bo‘ladi.	- Treninglarda individual yondashuvni kuchaytirish.
	- Jismoniy mashqlarni bajara olish darajasi	- Pedagogik metodlar: Sportchilarni muntazam ravishda rag‘batlantirish.	- Sportchilar uchun murakkab va yuqori intensiv mashqlarni qo‘llash.
	- Jismoniy ko‘nikmalarni rivojlantirish	- Jismoniy ko‘nikmalarni yangilab borish va rivojlantirish.	- Shaxsiy mashq rejalarini ishlab chiqish.
Psixologik Holat	- O‘quvchilarning stressga qarshi chidamliligi	- Jismoniy tayyorgarlik: Psixologik barqarorlik jismoniy tayyorgarlikni qo‘llab-quvvatlaydi.	- Psixologik treninglar va stressni boshqarish metodlarini qo‘llash.

	- Motivatsiya darajasi	- Pedagogik metodlar: O‘qituvchining motivatsiya yaratish qobiliyati.	- O‘quvchilarni maqsadga yo‘naltirish va rag‘batlantirish.
	- O‘ziga bo‘lgan ishonch va sportdagi muvaffaqiyatga erishish	- Jismoniy tayyorgarlik va pedagogik metodlar o‘rtasida integratsiya.	- Muvaffaqiyatga intilishni kuchaytirish va o‘z-o‘zini anglashni rivojlantirish.
Pedagogik Metodlar	- Darslarning samaradorligi	- Jismoniy tayyorgarlik: Trening metodlari sportchilarning jismoniy holatiga ta'sir qiladi.	- Innovatsion va interaktiv pedagogik usullarni qo‘llash.
	- O‘quvchilarning darsga qatnashish va faoliyat darajasi	- Psixologik holat: Pedagogik yondashuvlar o‘quvchilarning motivatsiyasiga ta'sir qiladi.	- O‘quvchilarni amaliy mashqlar bilan rag‘batlantirish.
	- O‘quvchilarning ijtimoiy faolligi	- Psixologik holat: Ijtimoiy muhit va pedagogik yondashuvlar o‘quvchilarning ruhiy holatiga ta'sir ko‘rsatadi.	- Ijtimoiy faoliyat va jamoaviy ishlarni rivojlantirish.

Tahlilning asosiy xulosalari:

1. **Jismoniy tayyorgarlik** sportchi o‘quvchilarning muvaffaqiyatiga ta'sir qiladigan eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Trening metodlarini va mashqlarni individualizatsiya qilish, sportchilarning jismoniy ko‘nikmalarini rivojlantirishni ta'minlaydi.

2. **Psixologik holat** va motivatsiya o‘quvchilarning sportdagi yutuqlariga bevosita ta'sir qiladi. Stressni boshqarish va o‘ziga bo‘lgan ishonchni rivojlantirish uchun psixologik tayyorgarlik zarur.

3. **Pedagogik metodlar** sport ta'limining samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Interaktiv yondashuvlar va o‘quvchilarga amaliy mashqlar berish, motivatsiya va ijtimoiy faoliyatni oshirishga yordam beradi.

Shu tarzda, sport bo‘yicha ixtisoslashgan sinflarning samaradorligini tahlil qilishda, har bir omilning o‘ziga xos ahamiyati va o‘quvchilarga ta'sirini hisobga olish lozim. Buning uchun o‘quvchilarning jismoniy va psixologik holatini doimiy ravishda baholab, pedagogik metodlarni moslashtirib borish muhimdir.

Xulosa. Sport bo‘yicha ixtisoslashgan sinflarning faoliyati samaradorligini o‘rganish jarayonida, jismoniy tayyorgarlik, psixologik holat va pedagogik metodlarning o‘zaro integratsiyalashgan ta'siri katta ahamiyatga ega. O‘quvchilarning sportdagi muvaffaqiyatlariga bevosita ta'sir etuvchi omillarni o‘rganish, ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga imkon beradi.

Jismoniy tayyorgarlik, o‘quvchilarning sport ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Sport sinflaridagi treninglar, shaxsiy yondashuvlar va yuqori intensiv mashqlar, o‘quvchilarning jismoniy rivojlanishiga yordam beradi. Psixologik holat esa sportchilarning stressni boshqarish, o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirish va maqsadga yo‘naltirishda muhim ahamiyatga ega. Motivatsiya, o‘ziga bo‘lgan ishonch va psixologik barqarorlikni rivojlantirish sportchilarni yanada

muvaffaqiyatli qilish imkoniyatlarini yaratadi. Pedagogik metodlar, o‘z navbatida, ta'limning samaradorligini oshiradi. Interaktiv va amaliy mashqlar, o‘quvchilarning faoliyatini oshirib, sportdagi muvaffaqiyatlarga erishishda yordam beradi.

Sport bo‘yicha ixtisoslashgan sinflarda ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish uchun, bu omillarni birgalikda hisobga olib, metodologik yondashuvlar va amaliy mashqlarni mukammallashtirish zarur. Bu boradagi izlanishlar, kelajakda yangi metodlarni ishlab chiqishga va sport ta'limining samaradorligini yanada oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. D'yakov, M. P. (2010). *Jismoniy tarbiya va sportda samaradorlik*. Moskva: Fizkultura i sport.

2. Ananyev, B. G. (2005). *Sportchilarni psixologik tayyorlash*. Leningrad: Akademiya.

3. Neumann, J. V. (2012). *Sport ta'limi metodlari*. Praha: Sportni kniga.

4. Shevchenko, G. V. (2008). *Sportda muvaffaqiyat va motivatsiya*. Kiev: Vyscha shkola.

5. Kolosova, L. N. (2011). *Sportda muvaffaqiyat va motivatsiya*. Sankt-Peterburg: Izd-vo Politekhnika.

6. Hattie, J. S. (2014). *Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement*. New York: Routledge.

7. Shishov, V. S. (2010). *O‘quvchilarning psixologik va jismoniy tayyorgarligini baholash usullari*. Tashkent: Yangi nashr.

II-SEKCIYA. XALÍQ DENSAWLÍǴÍN BEKKEMLEWDE DENE TÁRBIYA HÁM SPORTTÍ JAŃA BASQÍSHQA ALÍP SHÍǴÍWDÍŃ WAZÍYPALARÍ HÁM SHESHIMLERI

QORSHAǴAN ORATLÍQ FAKTORLARÍNÍŃ SPORT ISKERLIGINE TÁSIRI

Ramazanov Medetbay Baxitbaevich
Ózbekstan mámleketlik dene tárbiyası hám sport universiteti Nókis filialı bilimlendiriw sapasın qadaǵalaw bólimi baslıǵı b.i.b.f.d. (PhD), docent

Tayanısh sózler: *qorshaǵan ortalıq, ekologiya, tábiyiy faktorlar, organizm, háreket iskerligi, salamtlıq, fizikalıq iskerlik.*

Aktuallıǵı. Ózbekstan Respublikası Prezidentiniń "Ózbekstan - 2030" strategiyasın "Qorshaǵan ortalıqtı qorǵaw saqlaw hám "jasıl ekonomika" jılında ámelge asırıwǵa baylanıslı mámleketlik baǵdarlama haqqında" 2025-jıl 30-yanvardaǵı PF-16-sanlı Pármanında máhállelerdiń ekologiyalıq kórinisin jaqsılaw, kóshelerde jasıllıq dárejesin arttırıw, ekologiyalıq jaqtan qolaylı hám abadan jasaw ortalıǵın qáliplestiriw, xalıqtıń salamatlıǵın jaqsılaw, ekologiyalıq turmıs tárizin qáliplestiriw hám insan potencialın júzege shıǵarıw ushın sharayatlardı jaratıw, tábiyiy resurslardı únemlew hám olardan aqılǵa sáykes paydalanıw, ekologiyalıq turaqlılıqtı támiyinlew hámde ósimlik hám haywanat dúnyasın saqlaw, kóbeytiw hám keyingi áwladqa jetkeriw hám biologiyalıq kóp túrlilikti saqlaw sıyaqlı wazıypalar belgilep alınǵan. Sonıń menen birge sońǵı jıllarda mámleketimizde kókelemzarlastırıw, terek hám putalardı qorǵaw hám de jasıl maydanlardı keńeytiw boyınsha sistemalı ilajlar kórilmekte.

Elimizde ekologiyalıq qáwiplerdiń unamsız tásirinen qorǵaw maqsetinde barlıq aymaqlarda “Jasıl mákan” ulıwma milliy joybarı ilajları úzliksiz shólkemlestirilip atır.

Izertlewdıń tiykarǵı maqseti - dene tárbiyası, sport hám turizmdi ekologiyalıq tiykarda shólkemlestiriwdiń áhmiyetin talqılaw.

Metodları. Ekologiyalıq indikatorlar boyınsha statistikalıq tallaw, fiziologiyalıq, faktorlıq hám salıstırmalı tallaw metodlarınan paydalanıldı.

Nátiyjeler hám olardı talqılaw. Ulıwma alǵanda "ekologiya" túsinigi organizmniń qorshaǵan ortalıq penen óz ara tásiri hám ortalıqtıń hár qıylı qolaylı hám qolaysız patogen faktorlarınıń organizmniń tirishilik iskerligine, tirishilikti támiyinlew processlerin hám gomeostaz sistemaları hám ulıwma organizmniń iskerligin saqlaw yamasa buzılıwına tásiri sıpatında qaralıwı qabıl etilgen. Ekologiya ilim tarawı retinde organizmler hám qorshaǵan ortalıq penen óz-ara tásir qılıw nızamlıqların belgileydi. Qorshaǵan oralıqtıń organizm jaǵdayına, onıń organları hám sistemalarınıń iskerligine, maslasıw qábiletine, aktivligine, háreketsheńligine, shıdamlılıǵına, islew qabiliyetine keri tásiri qorshaǵan ortalıq pataslanıwınıń fizikalıq-ximiyalıq hám biologiyalıq faktorların, sonıń menen birge neyropsixogen tásirlerin óz ishine aladı.

Ekologiyalıq unamsız tásirler júdá kóp, biraq olardıń tiykarǵıları qorshaǵan ortalıqtıń pataslanıwınıń fizikalıq-ximiyalıq hám biologiyalıq faktorları, sonday-aq, neyropsixogen tásirler hám olardıń organizmniń fizikalıq jaǵdayına, onıń ayırım organları hám sistemalarınıń iskerligine, onıń adaptaciyalıq imkaniyatlarına, aktivligine, háreketsheńligine, shıdamlılıǵına, jumısqa uqıplılıǵına h.t.b. tásir etedi.

Sport penen shuǵıllanıwda joqarı nátiyjelerge erisiw ushın organizmniń fizikalıq jaǵdayı, shınıǵıwlar dárejesi, ulıwma hám arnawlı fizikalıq tayarlıq, beyimlesiw imkaniyatları, iskerlik qábileti hám sportshınıń issheńlik dárejesi ayrıqsha áhmietke iye boladı. Sport hám dene mádeniyatı ekologiyasi organizmdi shuǵıllandırıw sharayatında hám insan ortalıǵınıń ózgeriwsheń sharayatlarında insannıń qorshaǵan ortalıq penen qarım-qatnasın úyretedi. Dene tarbiyası tarawındaǵı qánigeler ushın dene tárbiyası hám sport ekologiyasın úyreniwdıń áhimiyeti sportshıǵa hár túrli ekologiyalıq (endo hám ekzogen) faktorlardıń turaqlı tásiri astında trenirovka procesin shólkemlestiriwdiń zamanagóy talapların túsindiredi.

Dene tárbiyası hám sport penen shuǵıllanıwda zárúrli faktorlardan biri sociallıq sharayatlar (trenirovka jıyınlarında, úyde, jumısta, oqıwda h.t.b.) bolıp esaplanadı. Jaqsı psixologiyalıq ortalıq hám joqarı motivaciya jarıslarǵa joqarı dárejede tayarlanıwǵa, ádep-ikramlılıq hám shıdamlılıq pazıyletlerdi rawajlandırıwǵa, nevrozlardıń aldın alıwǵa (artıqsha júkleme, artıqsha trenirovka qılıw) hám nátiyjede zárúrli jarıslarda tabıslı qatnasıwǵa járdem beredi. Qolaysız social-xojalıq sharayatlar, jámááttegi jaǵday, motivaciyanıń joq ekenligi (yamasa jámáát basshıları tárepinen itibarsız qalıwı), salamatlıq hám jarısta qantasıw sapasına unamsız tásir etedi.

Sportshılardıń oqıw-shınıǵıw jıyınlarınan biri jarıs ótkeriletuǵın zona menen birdey klimat hám geografiyalıq zonada ótkeriliwi kerek hám de usı jıyın juwmaǵında bir waqıttıń ózinde jarısqa saralawdı ótkeriw maqsetke muwapıq bolıp tabıladı. N.A.Agadjanyan, A.I.Turxanov, B.A.Shepderovlardıń maǵlıwmatlarına qaraǵanda 7-8 saatlıq waqıt poyaslardıń almasıwında shamalaw kórsetkishi hám jumıs qábileti 2-3 kún ishinde tez túsip ketedi. [6.136]. Keyin áste-aqırın tiklenip 7-13 kún ishinde tolıq tiklenedi. Sonıń ushında joqarı kategoriyalı sportshılar olimpiya yaki dúnya chempionatlarında qatnasıw ushın jarıs ótkeriletuǵın jerge aldınnan keledi. Kópshilik sportshılar tiykarǵı startlardan aldın jarıs rejimin jarıs ótkeriletuǵın jerdiń waqtına qarap ózgertedi. Hawa rayı sharayatı da trenirovka hám jarıs iskerligine sportshılardı tayarlaw hám shólkemlestiriwge, jarıslardı ótkeriwge úlken tásir kórsetedi. Trenirovka procesin dúziw hám jaris iskerligin maqsetke muwapıq ámelge asırıw ushın hawa rayı baqlawlarınan paydalanıw zárúr. Qısqa waqıt ushın beriletuǵın baqlawlar 80-90 % ti, ortasha 70-75% hám uzaq waqıtqa qılınǵan baqlawlar 60-65% maǵlıwmatlardı anıq bere aladı [4.125].

Qorshaǵan-ortalıqtıń xalıq salamatlıǵına tásirin bahalaw zárúrli áhmiyetke iye. Sanaatı rawajlanǵan mámleketlerde, ekologiyalıq sharayatı qolaysız (quyash radiaciyası, shań dúbeleyleri, smog hám basqalar) qalalarda dene tárbiyası hám sport penen shuǵıllanatuǵın adamlarǵa hawa pataslanıwınıń tásirin biliw ásirese zárúrli bolıp tabıladı. Suw hám azıq-awqat tutınıwı normalarınan ayrıqsha, kislorod

tutınıwı norması júdá zárúrli bolıp esaplanıp, onı qısqa waqıt ishinde de kemeytiw múmkin emes.

Juwmaq. Belgili bolǵanınday, nátiyjeli professional dene tárbiyası hám sport iskerligi ushın:

2. Azizxo‘jayeva N.N. O‘qituvchi mutaxssislari tayyorlash texnologiyasi. – T.: «Nizomiy TGPU». 2000.

3. Sariboyev Sh., Komilov J. Jismoniy rivojlanish darajasi turlicha bo‘lgan o‘g‘il bolalar bilan mashg‘ulot o‘tkazish. Xalq ta’limi jurnali. 2002 y.

IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALAR HAYOTIDA ADAPTIV JISMONIY TARBIYANING O’RNI

Eshbaev Ali Jienbaevich

Nukus davlat pedagogika instituti, Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi kafedrasi mudiri, dotsent

***Kalit so’zlar**: sifatlar, adptiv jismoniy tarbiya, imkoniyati cheklangan bolalar, tartib, mutaxassis, usullar.*

***Ключевые слова**: качества, адаптивная физическая культура, дети с ограниченными возможностями, заказ, специалист, методика.*

***Key words**: qualities, adaptive physical culture, children with disabilities, order, specialist, methodology.*

Zamonaviy dunyoda ko’plab maxsus bolalar (nogiron bolalar - nogironlar) mavjud. Oddiy bolalar kabi, ular jismoniy tarbiya bilan shug’ullanishlari kerak. Nogiron bolalarning jismoniy tarbiya rivojlanishiga tizimli yondashuv bolaning to’g’ri tabiiy rivojlanishiga yordam beradi (aql, jismoniy tayyorgarlik, his-tuyg’ular va boshqalar). Tabiiyki, “tizimli yondashuv” aynan adptiv jismoniy tarbiya uchun ma’lum bir tartibni qurishni anglatadi. Bundan tashqari, individual yondashuv - bu tartib uchun zaruriy va muhimdir! Har bir nogiron bola o’ziga xos xususiyatlarga ega individualdir. Aynan shu xususiyatlar ostida adptiv jismoniy tarbiya orqali nogiron bolalar bilan ishlash bo’yicha mutaxassis moslashishi kerak.

Adptiv jismoniy tarbiya nafaqat oddiy bolalarda, balki nogiron bolalarda ham unga mos keladigan bilim, ko’nikma va malakalarni rivojlantirishga qaratilgan. Bunday bolalar bilan ishlashda mutaxassislar vaqt o’tishi bilan bolalar qanday qilib tajriba va bilim orttira boshlaganini payqashadi. imkoniyati cheklangan bolalarda adptiv jismoniy tarbiya rivojlantiriladigan sifatlar qatoriga quyidagilar kiradi:

Chidamlilik, kuch, egiluvchanlik, tezlik, chaqqonlik.

Shuni ta’kidlash kerakki, bu sifatlarlarning rivojlanishi bir xil ko’nikmalarning rivojlanishiga teng emas, bu sifatlar sog’lom bolalarda allaqachon shakillanib ulgurgan. Bu ma’lumotlarning barchasi nogiron bolalarning rivojlanish darajasi va jismoniy tayyorgarligiga mos keladi. Ularning ma’lumotlari oddiy bolalarga nisbatan pastroq (zaifroq). Va, albatta, nogiron bolalarda vaqt o’tishi bilan rivojlanadigan qobilyatlar ni eslatib o’tish kerak:

-iroda kuchi;

-o’z qobiliyatlariga ishonch;

-o’zini nazorat qilish qobiliyati.

Nogiron bolalarning hammasi ham jismoniy tarbiya mutaxassisi bilan ishlashga tayyor emas. Ular bajarishi kerak bo'lgan mashqlar va mashg'ulotlarni yoqtirmasligi, qiziqmasligi mumkin va shuning uchun ular murabbiylarining ko'rsatmalariga amal qilmaydilar. Bunday hollarda murabbiy muammoning asl mohiyatini topa olishi va uni bartaraf etishga harakat qilishi kerak. Bola uchun nafaqat bolaga nima qilishni va qanday qilishni aytadigan murabbiy bo'lishi, balki uning do'sti bo'lishi, u yolg'iz emasligiga va hamma narsaga bardosh berishiga va yanada yaxshi bo'lishiga ishonishi uchun juda muhimdir. undan ko'ra. Biz bolaning motivatsiyasi haqida gapiramiz - bu bolaning va u bilan ishlaydigan mutaxassisning o'zaro munosabatlarida eng ko'p qo'llaniladigan usul. Ko'pincha siz murabbiy hamma narsani misol bilan ko'rsatishiga duch kelishingiz mumkin. Masalan, qo'lida biror predmetni ushlab turishda qiynalayotganini ko'rsatishi mumkin, lekin u buni qilishga harakat qilmoqda. Bola o'xshash xususiyatlarga ega bo'lgan odam biror narsa qilishni xohlayotganiga ishonchni uyg'otadi (bu holda qo'lida ob'ektni ushlab turing). Shuning uchun u ham xuddi shunday qilishga harakat qiladi. Qo'llab-quvvatlash jismoniy madaniyatdagi oddiy usul emas, bu har doim va hamma joyda, ayniqsa nogiron bolalar uchun zarur bo'lgan narsadir.

Shuningdek, eng faol qo'llaniladigan usullardan biri bu raqobatli, o'yinli va intervalli (ma'lum bir oraliq uchun mashg'ulot; takroriy / almashinadigan mashg'ulotlar). Maxsus bolalar bilan shug'ullanadigan har bir o'qituvchi "o'z tilida" gapiradi, unga faqat tajriba bilan keladi. O'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan metodika uning "tili" dir. Nogiron bolalar bilan jismoniy tarbiya bilan ishlash jarayonini diversifikatsiya qilish uchun muayyan vositalardan foydalanish kerak. Biz ulardan ba'zilarini sanab o'tamiz:

-amaliy faoliyat vosita faoliyati bilan birlashtirilishi kerak;

-topshiriqlar katta hajmda emas, balki bolalar bilan ishlashda haddan tashqari oshirib yubormaslik uchun butun hajmning kichik qismlarida berilishi kerak;

-bolalarni faollashtirish uchun ishlash uchun yorqin va jozibali ko'rgazmali vositalardan foydalanish;

-jismoniy mashqlar;

-tuzatish vazifalari;

-tuzatish uchun ochiq o'yinlar (sport elementlari bilan);

-sport anjomlari (nogiron bolalar uchun maxsus).

Nogiron bolalarni jismoniy tarbiyalash bo'yicha ishlarning muhim, ajralmas qismi ularning ota-onalari bilan tegishli ishlarni amalga oshirishdir. Ta'limda bo'lgan bolalarning ota-onalari bilan to'g'ri munosabatda bo'lish uchun mutaxassis nima qilishi kerak? Biz ushbu ishda asos bo'lishi kerak bo'lgan asosiy narsalarni sanab o'tamiz:

- maslahatlashuvlar (ota-onalar har doim o’z farzandlarining muvaffaqiyati, yaxshi tomonga o’zgarishlar bor yoki yo’qligini bilishdan manfaatdordirlar - murabbiy ularga maslahat berishi kerak);

- ota-onalarni bolaning individual rivojlanish rejasini tayyorlashga jalb qilish;

- murabbiy bolaning oilasiga tashrif buyurish, uning mashg’ulotdan tashqari erishgan muvaffaqiyatlaridan xabardor bo’lish imkoniyatiga ega bo’lishi uchun o’zaro ishonchga asoslangan munosabatlarni o’rnatish;

- ota-onalarni bolalarning jismoniy rivojlanish darajasini mustaqil ravishda ushlab turish qobiliyati, sabr-toqati va mas’uliyati uchun rag’batlantirish;

- ota-onalar va ularning farzandlari ishtirok etishi mumkin bo’lgan guruh mashg’ulotlarini o’tkazish talab etiladi Biroq, yuqorida aytilganlarning barchasini amalga oshirishning o’zi etarli emas imkoniyati cheklangan bolalarni jismoniy tarbiya ishlariga ixtisoslashgan.

Biroq, yuqorida aytilganlarning barchasini amalga oshirishning o’zi etarli emas imkoniyati cheklangan bolalarni jismoniy tarbiya ishlariga ixtisoslashgan. Bu murabbiy ega bo’lishi kerak bo’lgan eng muhim narsa – murabbiyuchun zarur bo’lgan fazilatlar bular quyidagilar:

- sabr;
- bolalarga muhabbat;
- insonparvarlik;
- do’stona va xushmuomalalik;
- o’ziga ishonch;
- empatiya qilish qobiliyati;
- va boshqa fazilatlar ega bo’lishi. Bunday fazilatlarga ega bo’lgan va nogiron bolalar bilan ishlashga ixtisoslashgan kishi ushbu soha uchun mukammaldir. U yo’lda katta muvaffaqiyatlarga erisha oladi va yaxshi mutaxassisga muhtoj bo’lgan ko’plab bolalarga jismoniy tayyorgarligini yanada rivojlantirishga yordam beradi. Adptiv jismoniy tarbiya O’zbekistonda ham, butun dunyoda ham juda dolzarbdir. Imkoniyati cheklangan bolalar bilan katta ishlar olib borilmoqda. Bunday bolalar hayotida adptiv jismoniy tarbiyaning o’rni nihoyatda katta.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR

1.Dilshod Baxtiyorovich Baxtiyorov AMPUNTANT FUTBOLCHILARNI JISMONIY TARBIYA VOSITALARI VA USLUBIYATI // Scientific progress. 2022. №2. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/ampuntant-futbolchilarni-jismoniy-tarbiya-vositalariva-uslubiyati (дата обращения: 15.11.2022).

2. Sherali Hoshimovich G’Ofurov, Dilshod Baxtiyor O’G’Li Baxtiyorov, Umid Abdugaforovich Saidov MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI YENGIL ATLETIKA MASHQLARI ORQALI MASHG’ULOTLARINI

TASHKIL ETISH // Scientific progress. 2022. №1. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/maktabgachayoshdagi-bolalarni-yengil-atletika-mashqlari-orqali-mashg-ulotlarini-tashkil-etish (дата обращения: 15.11.2022)

3. M. X.Mirjamolov, R. F.Odilov, N. Y.Valiyeva, D. B.Baxtiyorov KO'RISH QOBILYATIDA NUQSONI BO'LGAN TALABALARDA HARAKAT KOORDINATSIYASINI RIVOJLANTIRISH USLUBIYATI // Academic research in educational sciences. 2021. №12. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/ko-rishqobilyatida-nuqsoni-bo-lgan-talabalarda-harakat-koordinatsiyasini-rivojlantirishuslubiyati (дата обращения: 12.12.2022)

4. М. Х. Миржамолов, Р. Ф. Одилов, Н. Ю. Валиева, Д. Б. Бахтиёров МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ КООРДИНАЦИИ ДВИЖЕНИЙ У СТУДЕНТОВ С НАРУШЕНИЯМИ ЗРЕНИЯ // Scientific progress. 2022. №1. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/metodika-razvitiya-koordinatsii-dvizheniy-u-studentovs-narusheniyami-zreniya (дата обращения: 12.12.2022).

I–IV SINFLARDA JISMONIY TARBIYA DARSLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI VA TA'LIM USLUBLARINI TAKOMILLASHTIRISH

O'zbekiston davlat sport akademiyasi huzuridagi Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Nukus filiali direktori, dotsent

Mamutov Quanishbay Tolibaevich

Kalt so'zlari: Jismoniy tarbiya, sog'lom, «sport gimnastikasi», «badiiy gimnastika», «trampolin», «akrobatika», sinf, jismoniy qobiliyat, ilg'or, sport, zaxira.

Ключевые слова: Физкультминутка, здоровая, «спортивная Гимнастика», «художественная гимнастика», «батут», «акробатика», класс, физические способности, продвинутые, спортивные, резервные.

Keywords: Physical activity, healthy, "Sports Gymnastics," "Artistic Gymnastics," "Batut," "Acrobatics," class, physical abilities, advanced, sports, reserve.

Dolzarbligi. So'nggi yillarda mamlakatimizda sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash hamda ularning jismoniy va ma'naviy kamolotini ta'minlashga qaratilgan turli pedagogik yondashuvlar keng qo'llanilmoqda. Jumladan, «sport gimnastikasi», «badiiy gimnastika», «trampolin» va «akrobatika» kabi sport turlarining ommaviyligini oshirish hamda iqtidorli yosh sportchilarni saralash tizimini takomillashtirish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ushbu yo'nalishlar jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining asosiy pedagogik vazifalaridan biri sifatida belgilangan.

Shu o'rinda, umumiy o'rta ta'lim maktablarida jismoniy tarbiya fanining amaldagi mazmunini tizimli tahlil qilish va uni gimnastikaning

sog‘lomlashtiruvchi elementlari bilan boyitish imkoniyatlari haqida batafsil to‘xtalib o‘tishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Tadqiqot maqsadi. So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash hamda ularning jismoniy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha turli innovatsion yondashuvlar keng qo‘llanilmoqda. Xususan, sport gimnastikasi, badiiy gimnastika, trampolin va akrobatika kabi sport turlarining ommaviyligini oshirish hamda iqtidorli yosh sportchilarni saralash tizimini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, mazkur yo‘nalishlarda mavjud muammolarni hal etish jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilarining ustuvor vazifalaridan biri sifatida e’tirof etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-dekabrdagi PQ-449-sonli «Gimnastika sport turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» qarorida umumiy o‘rta ta’lim maktablarida gimnastika mashg‘ulotlarini bosqichma-bosqich kengaytirish va mazkur sport yo‘nalishidagi to‘garaklar faoliyatini tizimli ravishda yo‘lga qo‘yish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan. Shu sababli, gimnastika sport turlarining o‘quv jarayonidagi o‘rni va samaradorligini ilmiy jihatdan chuqur o‘rganish zarurati yuzaga kelmoqda.

Hozirda amaliyotda mavjud bo‘lgan o‘qitish metodlaridan «O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi» hamda «Besh tashabbus olimpiadasi va paralimpiadasi»[3] mazmuniga, ya’ni ularning asosiy maqsadlari va rivojlanish yo‘nalishlariga mos keladiganlarini saralash uchun, avvalo, barcha ilg‘or va (yoki) intensiv o‘qitish metodlari hamda ularning klassifikatsiyasini tizimli tahlil qilish zarur. Buning sababi mazkur o‘qitish metodlari jismoniy tarbiya o‘qituvchisi va o‘quvchi-yoshlar o‘rtasida hamkorlikda amalga oshiriladigan o‘quv jarayonini samarali tashkil etish, ularni rag‘batlantirish hamda ta’limiy monitoringni olib borish zaruratini yuzaga keltiradi.

«QOMUS.INFO» onlayn ensiklopediyasida qayd etilishicha, «Gimnastika (yunoncha “gymnastike” – mashq qilaman) – bu jismoniy mashqlar tizimi, jismoniy tarbiyaning muhim turi bo‘lib, kishilarning jismoniy jihatdan har tomonlama o‘sishi, salomatligini mustahkamlash, epchil, chaqqon va harakatchan bo‘lishiga yordam beradi»[3]. Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, gimnastika qadimgi Yunonistonda shakllangan bo‘lib, yunonlar jismoniy tarbiya va jismoniy madaniyat tushunchalarini gimnastika atamasi bilan ifodalashgan. Ularning tasavvurida gimnastika «kurash», «atletika», «ot minish», «tosh ko‘tarish», «yugurish» va «suzish» kabi sport turlarini o‘z ichiga olgan kompleks jismoniy mashg‘ulotlar tizimi sifatida e’tirof etilgan. Zamonaviy gimnastikaning rivojlanish markazi esa Germaniya bo‘lib, XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida **Fridrix Lyudvig Yan** tomonidan «jismoniy milliy rivojlanish tizimi» ishlab chiqilishi bilan bog‘liq.

Ochiq ensiklopedik manbalar ma’lumotlariga ko‘ra, Markaziy Osiyo, xususan O‘zbekiston hududida gimnastika qadimdan davolash, sog‘lomlashtirish

va amaliy jismoniy tarbiya vositasi sifatida ilmiy asoslangan tarixiy an’analar bilan bog‘liq. Tarixiy manbalarga ko‘ra, aholi turli jismoniy mashqlar va harakatli o‘yinlardan marosimlar, bayramlar va to‘ylar doirasida keng foydalanib kelgan. Navro‘z, Hosil bayrami kabi tantanalarda otda poyga, yugurish musobaqalari, olomon-poygalar, chovgon o‘yinlari va dorbozlarning chiqishlari kabi ko‘ngilochar tadbirlar muntazam o‘tkazilgan.

Abu Ali ibn Sino o‘zining «Tib qonunlari» asarida «jismoniy tarbiya»ga katta e’tibor qaratgan. Buyuk mutafakkir salomatlikni muhofaza qilish qoidalarini tahlil qilar ekan, jismoniy mashqlarning sog‘liqni mustahkamlash va davolash tizimidagi o‘rniga alohida urg‘u bergan. Ibn Sino jismoniy mashqlarning organizmga foydali ta’sirini ilmiy nuqtayi nazardan birinchi bo‘lib izohlab, ularni inson salomatligining ajralmas qismi sifatida baholagan. Uning fikricha, «uzluksiz va chuqur nafas olish jarayonini faollashtiruvchi erkin harakat jismoniy mashq sanaladi».

N.A.Pirimova o‘z tadqiqotida ta’kidlaganidek, boshlang‘ich sinf yoshidagi bolalar bilan gimnastika mashg‘ulotlarini o‘tkazishda zamonaviy metodlardan foydalanish va asosiy gimnastika vositalari yordamida o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish jarayonida ularning yosh xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, gimnastik mashqlar elementlari va harakatlar majmuasi qanchalik murakkablashsa, ularni jismoniy va koordinatsion jihatdan to‘g‘ri ijro etish ham shunchalik qiyinlashadi, natijada mutaxassis-o‘qituvchilar va ilmiy xodimlar oldida bu boradagi masalalarni hal etish zaruriyati ortib boradi.

«Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun 2024/2025-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv rejani tasdiqlash to‘g‘risida» buyruqqa ko‘ra, 2024/2025-o‘quv yilida umumiy o‘rta ta’lim maktablarining I-XI sinflarida 5 ta fan yo‘nalishida jami 18 ta fandan dars mashg‘ulotlari o‘tkaziladi. Ularning haftalik umumiy o‘quv yuklamasi 314 soatni tashkil etadi. Jismoniy tarbiya fani «Amaliy fanlar» yo‘nalishiga mansub bo‘lib, I-XI sinflar kesimida haftasiga jami 21 soatlik o‘quv yuklama ajratilgan. Faqat I sinflar uchun haftasiga 1 soat, qolgan barcha (II-XI) sinflar uchun esa haftasiga 2 soatdan dars o‘tilishi belgilangan.

Aniqlanishicha, taqsimotda eng ko‘p soat «Ona tili va adabiyoti» faniga – haftasiga 64 soat, 2-o‘rinda «Matematika» faniga – haftasiga 55 soat, 3-o‘rinda esa «Chet tili» faniga - haftasiga 29 soat ajratilgan. Nihoyat, 4-o‘rin «Jismoniy tarbiya» faniga tegishli bo‘lib, yuqorida ta’kidlanganidek, haftasiga 21 soatni tashkil etadi.

Ilmiy-uslubiy manbalar asosida o‘tkazilgan nazariy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida jismoniy tarbiya darslari mazmunini shakllantirishda gimnastika sport turiga qiziqish uyg‘otish orqali o‘quvchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirishga yo‘naltirilgan amaliy yondashuvlar tobora keng qo‘llanilmoqda. Bundan tashqari, jismoniy tarbiya fani bo‘yicha ishlab chiqilgan yillik taqvim-ish rejani tizimli tahlil qilishda «hujjatlarni o‘rganish» metodologik asos sifatida qo‘llanilib, dars jarayonining samaradorligini baholash va takomillashtirish imkoniyatini beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-dekabrdagi PQ-449-sonli qarorida 2023/2024-o‘quv yilidan boshlab umumiy o‘rta ta’lim maktablarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun gimnastika sport turlariga oid maxsus dastur joriy etilishi belgilangan. Ushbu qarorga binoan, «Bolalar uchun gimnastika» nomli dastur ishlab chiqilib, uni tatbiq etish doirasida quyidagi jihatlarga e’tibor qaratish belgilangan: gimnastika bilan shug‘ullanishga yuqori qiziqish bildirgan o‘quvchilarga ega hamda yetarli sport infratuzilmasiga ega bo‘lgan umumiy o‘rta ta’lim maktablarini saralash; tanlangan maktablarda gimnastika mashg‘ulotlarini darsdan tashqari alohida sport seksiyalari shaklida tashkil etish; mazkur mashg‘ulotlarni maktab joylashgan hududdagi sport maktablaridan jalb qilingan trenerlar ishtirokida o‘tkazish va bu jarayonni samarali tashkil etishga qaratilgan tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Mazkur muammoning yechimiga qaratilgan tadqiqot ishimiz doirasida «I-XI sinflar uchun jismoniy tarbiya fani bo‘yicha tuzilgan yillik taqvim ish reja» batafsil o‘rganildi va mazkur fan mazmunini gimnastikaning sog‘lomlashtiruvchi elementlari bilan boyitish imkoniyatlari aniqlab chiqildi.

Xususan, yillik taqvim ish rejasiga muvofiq, umumta’lim maktablarining **I sinf**larida jismoniy tarbiya darslari uchun 66 soatlik o‘quv yuklama belgilangan. Darslar to‘rt chorakka mo‘ljallangan bo‘lib, olti bo‘limdan iborat ish rejaga asoslangan. Gimnastika mashg‘ulotlari uchun sentyabr oyida 4 soat, yanvar va fevral oylarida esa har biri 6 soatdan, jami 16 soat ajratilgan.

«Jismoniy tarbiya» darslarining mashg‘ulot taqsimoti:

1-chorak: gimnastika (4 soat) → harakatli o‘yinlar (4 soat) → yengil atletika (7 soat) → harakatli o‘yinlar (3 soat);

2-chorak: harakatli o‘yinlar (14 soat);

3-chorak: gimnastika (12 soat) → harakatli o‘yinlar (6 soat);

4-chorak: yengil atletika (7 soat) → harakatli o‘yinlar (7 soat) → shashka (2 soat).

Mazkur rejada gimnastikaga ajratilgan vaqtning taqsimoti, shuningdek, harakatli o‘yinlar va boshqa mashg‘ulotlarning ketma-ketligi I sinf o‘quvchilari jismoniy rivojlanishini ta’minlashga yo‘naltirilgan.

Bizningcha, I sinf o‘quvchilari uchun jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari, asosan, bolalarning tabiiy harakat ehtiyojlarini qondirish va ularni faol jismoniy mashg‘ulotlarga jalb qilishga yo‘naltirilgan. Ushbu bosqichda asosiy e’tibor o‘quvchilarning muvozanat, muvofiqlashtirish, asosiy motorik qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilgan. Harakatli o‘yinlar orqali bolalar nafaqat jismoniy faollikni oshiradilar, balki o‘zaro muloqot qilish, jamoada ishlash va ijtimoiy moslashuv ko‘nikmalarini ham rivojlantiradilar. Gimnastika mashg‘ulotlari tanani boshqarish va moslashuvchanlikni oshirishga xizmat qiladi. Yengil atletika chidamlilikni shakllantirishga yordam beradi, shashka esa o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirib, ularning diqqatini jamlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

II sinfda jismoniy tarbiya darslari uchun 68 soatlik o‘quv yuklama belgilangan. Darslar to‘rt chorakka mo‘ljallangan bo‘lib, olti bo‘limdan iborat ish

reja doirasida gimnastika mashg‘ulotlariga sentyabr oyida 2 soat, yanvar oyida 6 soat va fevral oyida 8 soat ajratilgan bo‘lib, jami 16 soatni tashkil etadi.

«Jismoniy tarbiya» darslarining mashg‘ulot taqsimoti:

1-chorak: gimnastika (2 soat) → harakatli o‘yinlar (2 soat) → yengil atletika (6 soat) → harakatli o‘yinlar (8 soat);

2-chorak: gimnastika (14 soat);

3-chorak: gimnastika (14 soat) → harakatli o‘yinlar (6 soat);

4-chorak: yengil atletika (8 soat) → harakatli o‘yinlar (6 soat) → shashka (2 soat).

Yanvar va fevral oylarida gimnastika mashg‘ulotlariga ajratilgan vaqtning ko‘paytirilishi, shuningdek, harakatli o‘yinlar va yengil atletika mashg‘ulotlarining tizimli taqsimoti II sinf o‘quvchilarining jismoniy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash va ularning sportga bo‘lgan qiziqishini oshirishga qaratilgan.

Fikrimizcha, II sinf o‘quvchilari uchun jismoniy tarbiya darslari eng avvalo, ular uchun tabiiy bo‘lgan harakat ehtiyojlarini qondirishga, faol o‘yinlar orqali jismoniy faollikni oshirishga qaratilgan. Ushbu bosqichda asosiy e’tibor harakat muvozanatini saqlash, tanani boshqarish va chaqqonlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Harakatli o‘yinlar orqali o‘quvchilarning tezkorlik va muvofiqlashtirish qobiliyatlari mustahkamlanadi, gimnastika esa ularning moslashuvchanlik va jismoniy chidamliligini oshirishga xizmat qiladi. Yengil atletika esa jismoniy faollikni oshirib, chidamlilik va umumiy tayyorgarlik darajasini rivojlantirishga imkon yaratadi. Shashka o‘quvchilarning diqqatni jamlash, mantiqiy fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini shakllantirishga yordam beradi.

III sinflar uchun jismoniy tarbiya darsiga 68 soatlik o‘quv yuklama belgilangan. Dars 4 chorakka bo‘lingan bo‘lib, 7 qismdan iborat ish rejasiga asoslanadi. Ushbu reja bo‘yicha gimnastikaga dekabr oyida 2 soat, yanvar oyida 6 soat va fevral oyida 8 soat ajratilgan bo‘lib, jami 16 soatni tashkil etadi.

Jismoniy tarbiya» darsining mashg‘ulot taqsimoti:

1-chorak: harakatli o‘yinlar (4 soat) → yengil atletika (7 soat) → futbol (3 soat) → harakatli o‘yinlar (4 soat);

2-chorak: harakatli o‘yinlar (12 soat) → gimnastika (2 soat);

3-chorak: gimnastika (14 soat) → harakatli o‘yinlar (6 soat);

4-chorak: harakatli o‘yinlar (4 soat) → yengil atletika (7 soat) → futbol (3 soat) → shashka (2 soat).

Mazkur mashg‘ulotlarning bosqichma-bosqich tashkil etilishi o‘quvchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish hamda ularni sog‘lom turmush tarziga yo‘naltirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Harakatli o‘yinlar, gimnastika va yengil atletika mashg‘ulotlari orqali o‘quvchilarning harakat ko‘nikmalari takomillashib, ularda sog‘lom raqobat muhiti hamda ijtimoiy moslashuv qobiliyatlari shakllanadi.

Fikrimizcha, III sinf o‘quvchilari uchun jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari ularning tabiiy harakat faoliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, o‘yin

metodlari asosida bilim va ko‘nikmalarni egallash imkonini yaratadi. Ushbu bosqichda asosiy e’tibor o‘quvchilarning koordinatsiya, chaqqonlik, muvozanatni saqlash hamda tezkor reaksiya qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Harakatli o‘yinlar nafaqat jismoniy faollikni oshirish, balki ijtimoiy moslashuv va jamoaviy hamkorlikni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Gimnastika va yengil atletika mashg‘ulotlari esa tanani boshqarish, chidamlilikni oshirish va tana muvozanatini saqlashni o‘rgatishga xizmat qiladi. Shashka orqali esa bolalar fikrlash qobiliyatini rivojlantirib, mantiqiy tahlil qilish va strategik qaror qabul qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.

IV sinfga mo‘ljallangan jismoniy tarbiya darsiga 68 soatlik o‘quv yuklama belgilangan. Dars 4 chorakka bo‘lingan bo‘lib, 7 qismdan iborat ish rejasiga asoslanadi. Ushbu reja bo‘yicha gimnastikaga dekabr oyida 2 soat, yanvar oyida 6 soat va fevral oyida 8 soat ajratilgan bo‘lib, jami 16 soatni tashkil etadi.

«Jismoniy tarbiya» darsining mashg‘ulot taqsimoti:

1-chorak: yengil atletika (8 soat) → futbol (4 soat) → sport elementlari bilan harakatli o‘yinlar (6 soat);

2-chorak: sport elementlari bilan harakatli o‘yinlar (12 soat) → gimnastika (2 soat);

3-chorak: gimnastika (14 soat) → sport elementlari bilan harakatli o‘yinlar (6 soat);

4-chorak: sport elementlari bilan harakatli o‘yinlar (2 soat) → yengil atletika (8 soat) → futbol (4 soat) → shashka (2 soat).

Mazkur mashg‘ulotlarning taqsimlanishi o‘quvchilarning jismoniy faolligini oshirish, harakat malakalari shakllanishi va rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi. O‘quv dasturi doirasida harakatli o‘yinlar hamda sport elementlari asosida boyitilgan mashg‘ulotlar nafaqat o‘quvchilarning jismoniy rivojlanishiga xizmat qiladi, balki ularning sog‘lom turmush tarziga bo‘lgan qiziqishini oshirishga ham yo‘naltirilgan.

Hulosa. Nazarimizda, IV sinf o‘quvchilari uchun jismoniy tarbiya darslari ularning tabiiy harakat ehtiyojlarini qondirish, faollik va chaqqonlikni rivojlantirish hamda sportga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishga yo‘naltirilgan. Ushbu yosh bosqichida o‘quvchilarning asosiy maqsadi – harakat koordinatsiyasini yaxshilash, tezkorlik va moslashuvchanlik kabi muhim jismoniy xususiyatlarni shakllantirishdir. Harakatli o‘yinlar va sport mashg‘ulotlari o‘quvchilarning jismoniy rivojlanishiga ko‘maklashadi, gimnastika esa egiluvchanlik va tana nazoratini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yixati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-dekabrdagi PQ–449-son «Gimnastika sport turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» qarori // https://lex.uz/uz/docs/-6325917.

2. O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi // https://lex.uz/docs/4711327#4712426

3. Sayidahmedov N.S. Pedagogikada yangicha fikrlash. – Toshkent:

«Istiqbol», 2002. – 62 b.

4. Xolbayeva, Sh.T. (2021). Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati fani taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlari. Academic Research in Educational Sciences, 2(1), 850-858-betlar.

ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ В РАБОТЕ ШКОЛЬНЫХ СЕКЦИЙ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА

Мамутов Полатбай Жумамуратович

Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза

Турганбаев Женисбай Конысбай улы

Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза

Ключевые слова: школьные секции, физическая культура, мотивация, оздоровительный подход, цифровизация, управление спортом.

Kalit so‘zlar: maktab to‘garaklari, jismoniy tarbiya, motivatsiya, sog‘lomlashtirish, raqamlashtirish, sport boshqaruvi.

Key words: school sports sections, physical education, motivation, health-oriented approach, digitalization, sports management.

Актуальность темы: В условиях современного общества, характеризующегося снижением уровня физической активности среди молодежи, проблема организации эффективной работы школьных секций физической культуры и спорта приобретает особую значимость. Формирование устойчивой мотивации к занятиям физической культурой и ведению здорового образа жизни начинается именно в школьные годы. Однако, несмотря на наличие секционной работы в образовательных учреждениях, эффективность её функционирования часто оставляет желать лучшего, что связано с рядом организационных, методических и мотивационных проблем.

Изучаемая тема: Данная работа посвящена анализу актуальных проблем, с которыми сталкиваются школьные секции физической культуры и спорта, а также поиску возможных решений, направленных на повышение эффективности их деятельности.

Цель исследования: Целью настоящего исследования является выявление основных проблем в работе школьных секций физической культуры и спорта и обоснование возможных направлений их решения с учетом современных требований к физическому воспитанию.

Задачи исследования:

1. Изучить научные подходы к организации физкультурно-спортивной работы в образовательных учреждениях.
2. Проанализировать факторы, влияющие на мотивацию школьников к участию в секциях.
3. Рассмотреть существующие модели управления и развития секционной деятельности.

4. Выявить успешные практики организации физической культуры в школах и предложить рекомендации по их внедрению.

Методы исследования:

В процессе исследования были использованы следующие методы:

- анализ научной литературы по теме;
- сравнительный анализ организационных моделей;
- систематизация теоретических положений;
- обобщение практического опыта организации физкультурной деятельности.

Анализ результатов:

Как отмечает Челнокова Е. А. и соавт. (2018), одной из ключевых проблем в развитии школьных секций является недостаточная мотивация учащихся к занятиям физической культурой. Причины этого кроются в однообразии занятий, отсутствии индивидуального подхода, а также в нехватке квалифицированных кадров. Авторы подчеркивают важность формирования устойчивой внутренней мотивации, что требует педагогической гибкости и креативности.

Ревякина В. И. (2014) делает акцент на оздоровительном подходе в школьной физической культуре, который должен быть основой всей секционной работы. Однако реализация этого подхода сталкивается с такими трудностями, как перегруженность учебных программ, недостаточная оснащенность спортивным инвентарем, а также слабая вовлеченность родителей и педагогов в процесс формирования культуры здоровья.

Болтабаев М. Р. и соавт. (2020) предлагают многоуровневый системный подход к организации массовой спортивно-оздоровительной деятельности, который может быть адаптирован для школьных условий. Такой подход предполагает тесное взаимодействие между школой, местными органами управления и спортивными организациями, что позволяет создавать устойчивую инфраструктуру и координировать усилия на всех уровнях.

Особое значение имеет цифровизация физической культуры, о которой говорит Тангриев А. Т. (2021). Создание единой информационной системы "Физическая культура и спорт" позволяет повысить прозрачность, контролируемость и эффективность деятельности секций, а также обеспечивает мониторинг физической активности учащихся в режиме реального времени.

Заключение. Эффективная работа школьных секций физической культуры и спорта требует комплексного подхода, включающего как методическое обновление содержания занятий, так и совершенствование организационно-управленческих механизмов. Важно не только обеспечить доступность и разнообразие секционных занятий, но и развивать мотивацию школьников через индивидуальный подход, цифровые инструменты и активное вовлечение всех участников образовательного процесса. Интеграция передового опыта и современных технологий позволит вывести школьную физическую культуру на новый уровень.

Список использованной литературы:

1. Челнокова Е. А., Агаев Н. Ф. О., Тюмасева З. И. Формирование мотивации студентов к занятиям физической культурой и спортом в высшей школе // *Вестник Мининского университета*. – 2018. – Т. 6. – № 1 (22). – С. 6.
2. Ревякина В. И. Оздоровительный подход к организации физической культуры в школе // *Вестник Томского государственного педагогического университета*. – 2014. – № 1 (142). – С. 127-130.
3. Болтабаев М. Р., Ахматов М. С., Султонов Ш. Ф. Многоуровневый системный подход к организации массовой спортивно-оздоровительной деятельности в Узбекистане // *Fan-Sportga*. – 2020. – № 4. – С. 2-6.
4. Тангриев А. Т. Создание единой информационной системы "Физическая культура и спорт" в Узбекистане // *Проблемы педагогики*. – 2021. – № 7 (58). – С. 37-40.

ORTIQCHA TANA VAZNI BO‘LGAN MAKTAB O‘QUVCHILARINING JISMONIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA JISMONIY MASHQLARNI KOMPLEKS QO‘LLASH METODOLOGIYASI

Yuldashev Bobirjon Noibjon o‘g‘li

Andijon davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi

Kalit so‘zlar*: ortiqcha tana vazni, maktab o‘quvchilari, jismoniy faollik, kompleks mashqlar, sog‘liq*.

Ключевые слова*: избыточный вес, школьники, физическая активность, комплексные упражнения, здоровье.*

Key words*: excess body weight, schoolchildren, physical activity, complex exercises, health*

Kirish. So‘nggi yillarda maktab yoshidagi bolalarda ortiqcha tana vazni muammosi global miqyosda, shu jumladan O‘zbekistonda ham jiddiy xavotirlarga sabab bo‘lmoqda. Dunyo Sog‘liqni Saqlash Tashkilotining (WHO) ma’lumotlariga ko‘ra, semizlik bolalarda yurak-qon tomir kasalliklari, diabet va psixologik muammolar xavfini oshiradi. O‘zbekiston maktablarida jismoniy tarbiya darslari ko‘pincha standart dasturlarga asoslanadi, bu esa ortiqcha vaznli o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini qondirmaydi. Ushbu tadqiqot maktab o‘quvchilarining jismoniy faolligini oshirishda kompleks jismoniy mashqlar dasturining samaradorligini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, bu yondashuv sog‘liqni yaxshilash va semizlikni kamaytirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot maqsadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi ortiqcha tana vazniga ega maktab o‘quvchilarining jismoniy faolligini oshirish uchun kompleks jismoniy mashqlar metodologiyasini ishlab chiqish va uning samaradorligini eksperimental ravishda baholashdan iborat. Ushbu metodologiya maktab jismoniy tarbiya dasturlariga integratsiyalashish imkonini beradi.

Tadqiqotni tashkil qilish uslublari. Tadqiqot sifat va miqdoriy usullarni qo‘llash orqali amalga oshirildi:

Tadqiqot ortiqcha tana vazniga ega maktab o‘quvchilarining jismoniy faolligini oshirish uchun kompleks jismoniy mashqlar dasturining samaradorligini baholashga qaratilgan bo‘lib, sifat va miqdoriy tadqiqot usullarini qo‘llash orqali amalga oshirildi. Ushbu jarayonda bir nechta metodlar integratsiyalashdi, bu esa natijalarning ishonchliligini ta’minladi. Quyida asosiy usullar va ularning qo‘llanilishi batafsil yoritiladi.

1. Anketalashtirish. Tadqiqotning dastlabki bosqichida o‘quvchilarning jismoniy faollik darajasini aniqlash maqsadida anketalar tarqatildi. Anketalar 12–16 yoshdagi o‘quvchilarning haftalik jismoniy faollik muddati, afzal ko‘rgan mashq turlari va jismoniy tarbiya darslariga munosabatini aniqlashga xizmat qildi. Anketalar 100 nafar o‘quvchidan iborat namunada o‘tkazildi, bu esa umumiy holatni tahlil qilish uchun yetarli ma’lumot berdi.

2. Antropometrik o‘lchovlar. O‘quvchilarning tana vazni, bo‘y uzunligi va tana massasi indeksi (BMI) maxsus o‘lchov asboblari yordamida aniqlandi. Ushbu ko‘rsatkichlar tadqiqotning boshida va oxirida qayd etilib, dastur samaradorligini baholashda asosiy mezon sifatida ishlatildi. O‘lchovlar professional mutaxassislar tomonidan standartlashtirilgan sharoitlarda amalga oshirildi.

3. Eksperimental usul. Tadqiqotning asosiy qismi sifatida kompleks jismoniy mashqlar dasturi ishlab chiqildi va 3 oy davomida sinovdan o‘tkazildi. Dastur haftada 3 marta 60 daqiqalik mashg‘ulotlarni o‘z ichiga oldi, ularda kardio (yugurish, velosiped), kuch (vaznli mashqlar) va moslashuvchanlik (yoga, stretching) mashqlari muvozanatlashtirildi. Eksperimentda 50 nafar o‘quvchi ishtirok etdi, ular eksperimental (dastur ishtirokchilari) va nazorat (oddiy jismoniy tarbiya darslari) guruhlariga bo‘lindi.

4. Statistik tahlil. Tadqiqot natijalari SPSS dasturiy ta’minoti yordamida tahlil qilindi. T-test va ANOVA usullari orqali eksperimental va nazorat guruhlari o‘rtasidagi farqlar aniqlandi. BMI, chidamlilik va faollik darajasidagi o‘zgarishlar foizlarda hisoblab chiqildi.

1-jadval

Quyidagi jadval tadqiqot usullari

Usul	Maqsad	Namuna hajmi	Davomiyligi
Anketalashtirish	Jismoniy faollik darajasini aniqlash	100 o‘quvchi	1 hafta
Antropometrik o‘lchovlar	Tana vazni va BMI ni baholash	50 o‘quvchi	Boshida va oxirida
Eksperimental usul	Kompleks mashqlar dasturini sinovdan o‘tkazish	50 o‘quvchi	3 oy (12 hafta)
Statistik tahlil	Natijalarni solishtirish va xulosalar chiqarish	50 o‘quvchi	2 hafta

Tadqiqot natijalari va muhokamasi. Eksperiment natijalariga ko‘ra, kompleks mashqlar dasturi eksperimental guruhda BMI ni o‘rtacha 5–7% ga

kamaytirdi, chidamlilik darajasi 10% ga oshdi. Nazorat guruhida esa sezilarli o‘zgarishlar kuzatilmadi. Kardio mashqlar yurak-qon tomir tizimini mustahkamladi, kuch mashqlari mushak massasini oshirdi, moslashuvchanlik mashqlari esa harakatchanlikni yaxshiladi. O‘quvchilarning o‘ziga ishonchi va darslarga qiziqishi ortdi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, kompleks yondashuv individual va guruh mashg‘ulotlarini muvozanatlashtirish orqali yuqori samara beradi.

Xulosa. Kompleks jismoniy mashqlar metodologiyasi ortiqcha tana vazniga ega maktab o‘quvchilarining jismoniy faolligini oshirishda samarali yechim sifatida o‘zini ko‘rsatdi. Ushbu dastur maktab jismoniy tarbiya darslariga kiritilishi va kengroq miqyosda sinovdan o‘tkazilishi tavsiya etiladi. Tadqiqot natijalari sog‘liqni saqlash va semizlikni oldini olishda muhim qadam bo‘la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Norkulov D.R, Jahbarov A.S, Nematov M.,O.F. Qambrov “Lider-Trener” dasturi 2024-yil.
2. Аулик, И.В. Определение физической работоспособности в клинике спорта / И.В. Аулик. - М.: Медицина, 1990. - 192 с.
3. Ашмарин, Б.А. Педагогика физической культуры : учеб. пособие / Б.А. Ашмарин, Л.К. Завьялов, Ю.Ф. Курамшин ; Ленингр. гос. обл. ун-т. - СПб., 1999. - 352 с.
4. Баранов, В.А. Физическая культура: ценностно - гуманистическая основа качества жизни современного общества.: автореф. дис. ... доктора филос. наук : 09.00.11 / В.А. Баранов. - М., 2010. - 44 с.
5. Барановский, Ю.А. Диетология. Руководство. - 3-е издание. - СПб. : Питер, 2008. - 1024 с.

ФЕХТОВАНИЕ В РЕСПУБЛИКЕ КАРАКАЛПАКСТАН ЗДОРОВОЕ ПОКОЛЕНИЕ ПУТЕМ РАЗВИТИЯ СПОРТА НАУЧНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ

Уразбаева Нафиса

студентка Нукуского филиала Узбекского государственного университета физической культуры и спорта

Ключевые слова: *физическая подготовка, виды спорта, тренинговые программы, современные методы, мастерство тренеров.*

Введение: Высокая интенсивность тренировок по современному фехтованию и конкурентная деятельность, предъявляющая специфические требования к организму спортсмена отличается. Современная спортивная теория-специальная работа спортсменов способности и конкурентоспособности функциональных систем их организмов эффективность рациональной физической подготовки в ходе деятельности. Планируемая и организованная система. Физическая подготовка спортсменов по фехтованию. Проблема повышения эффективности развития навыков не

нова, хотя он и не потерял своей актуальности, но был опубликован последними исследованиями. подтверждено. Комплекс по организации физической подготовки фехтовальщиков. Эти подходы широко представлены в работах Тюшлера и Рыжковой. Авторы о физической подготовке спортсменов в фехтовании развивать психофизиологические качества, проявляющиеся при Тем не менее, простой и латентное время сложной реакции руки и глаза скорость среди фехтовальщиков является наиболее заметным компонентом проявления способности. А.Сорель и др. в процессе физической подготовки фехтовальщиков внимание к различным компонентам взрывной силы, координации и скоростной способности, которые должны быть сосредоточены на развитии ее частей.

Результаты наших предыдущих исследований показали, что спортсмены, специализирующиеся на фехтовании также показывает важность развития навыков между. Это образование и простой и сложный под влиянием дополнительно-заготовительного экспериментального комплекса скорость визуального ответа означает, что были обнаружены более заметные изменения означает. рассматриваются как совокупность многомерных инструментов и методов. Для изучения различных аспектов конкурентной деятельности в фехтовании было проведено множество исследований. Широкий круг авторов на элитном уровне непосредственное влияние на характеризующую спортсмена и эффективность конкурентной деятельности.

Одно из самых заметных качеств фехтовальщика - это его скорость. Они пришли к выводу, что это соответствует их способностям. Также экспериментальные занятия и дополнительные применение тренировочных средств для заметного улучшения скоростных способностей спортсменов, а также положительная конкуренция отражает эффективность его деятельности. Сила, выносливость среди спортсменов, специализирующихся на фехтовании, развитие координационных способностей и гибкости и научные исследования, посвященные особенностям совершенствования очень мало.

Ди Кагно изучал воздействие эксцентрических рабочих нагрузок на нижние конечности сила квалифицированных спортсменов, специализирующихся на фехтовании и их показатели [3]. Результаты исследования показали, что применение дополнительной рабочей нагрузки с помощью механических устройств, атака во время продвижения, достигнутого за счет увеличения силы флексоро помогли увеличить интервал их движений. В их исследованиях Дж. Редондо 12-недельная программа силовых упражнений. Описано влияние на показатели взрывной силы. Специальные авторы экспериментальная программа, представленная вместе с средствами обучения фехтованию в свою очередь, положительная скорость фехтовальщиков (скорость единичного движения) [4] проявление способностей влияние показало совершенствование силовых способностей.

Физическая подготовка спортсменов, специализирующихся в фехтовании посвященный особенностям развития соответствующих навыков анализ исследований показал, что исследователи и тренеры средства и методы, улучшающие процесс изготовления ищут. Вместе с тем, проведенный анализ показал, что квалифицированных спортсменов по фехтованию в системе подготовки научно-обоснованный, направленный на развитие координационных способностей. Подходов нет. Это подтверждает актуальность следующего исследования. формирует.

Приложение Специально разработанные комплекты учебных упражнений для фехтования повышение координационных способностей квалифицированных спортсменов по возможно. Целью исследования является изучение фехтования в Республике Каракалпакстан повышение координационных способностей квалифицированных спортсменов по изучение эффективности направленных и предназначенных учебных комплексов.

Исследование включало несколько этапов. На первом этапе особенности физической подготовки в фехтовании, в частности, средства последние научные исследования по подходам к развитию навыков. Мы изучили данные. квалификационных спортсменов по фехтованию экспериментальное обучение, направленное на развитие координационных способностей по фехтованию для определения содержания и направленности комплексов проведен опрос тренеров (n=20). Последующее исследование последовательные педагогические этапы, позволяющие проверить рабочую гипотезу эксперимент. Выбор последовательного педагогического эксперимента это, конечно, связано с справедливостью.

Участники исследования являются квалифицированными спортсменами, и это нам удалось достичь получение более информативных выборок для анализа результатов дал. Координационные способности спортсменов на втором этапе (n=22) предварительное испытание. Следующие тесты во время предварительного тестирования применено:

1. Линейные лошади (см)

Условия задания: участник стоит на ящике для прыжков высотой 90 см. В сигнале "Идите!" участник направляется к линии на полу в 1 м от ящика для прыжков прыгает. Участник должен приземлиться пяткой как можно ближе к линии. Расстояние от каблуков участников до линии с измерительной лентой измеряется. Отмечается наилучший результат двух испытаний.

2. Гоночный бег 4х9 (с).

Условия задания: участники должны как можно быстрее провести две параллельные линии. Они бегают вперёд и назад между. В качестве символов используются две линии, за одной из линий устанавливаются два деревянных блока. Начальный позиции на линии на противоположных сторонах блоков. В будильнике " готово? Есть!," участники бегут на другую линию и берут блок, затем его возвращаются для размещения за исходной линией. После

этого, спортсмены возвращаются, чтобы получить второй блок, после чего они выбирают линию. Они бегут назад вдоль. Секундомер при пересечении участником линии будет остановлено. Отмечается самая быстрая из двух дорог.

3. Т-проба (ы).

Условия задания: участник начинается со стартовой/финишной линии. В будильнике "готово? Есть!," участники бегут к конусу a и правой рукой касаются дна конуса. Затем они поворачивают налево и бегут к конусу b. Также, на этот раз они касаются его подошвы левой рукой. Затем они C и прикасаются левой рукой к подставке. Потом они Вернувшись к конусу, они касаются его правой рукой, а затем бегут к стартовой/финишной линии. Когда участник пересекает финишную черту, секундомер останавливается. Из двух путей Зарегистрирована самая быстрая. При выполнении упражнений основное внимание правильную последовательность движений и различные элементы данного упражнения должны быть направлены на развитие отношений между. Динамика и необходимо сформировать представление о параметрах кинематического движения. Обратить внимание спортсменов на рациональное перемещение элементов тела, последовательность и количество движений, а также напряжение и Расслабление.

Элементы специальных упражнений фехтование для второго комплекса и партнера включает упражнения, выполняемые с. Этот комплекс моторики рук развитие, скорость перехода от одного движения к другому и между спортсменами направленный на улучшение произвольной концентрации. Данный комплекс представляет собой включает в себя: 1. Спортсмен, держа теннисный мяч в ведущей руке, начинается с позиции "гарде" на боковой стороне фехтовальной стрелы. Развитие и совершенствование координационных способностей квалифицированный играет важную роль в системе физической подготовки фехтовальщиков. Уровень координационных способностей Развитие инструментальных навыков, технических и играет важную роль в процессе освоения тактики. Постоянно меняющиеся действия и их конкурентная деятельность осуществляется в условиях. Координационные способности спортсменов несмотря на то, что проблема развития квалифицированных фехтовальщиков не нова, различные методические подходы, которые могут быть применены в системе подготовки есть потребность искать. Развитие координации в фехтовании отсутствуют только последние исследования, охватывающие вопрос. Этот особую актуальность вопросов, а также координационную способность различные виды проявления связаны со специфичностью спорта. Это координация правды квалифицированными спортсменами по фехтованию разработку специализированных учебных комплексов, направленных на повышение необходимо учитывать при выходе.

Исследования, представленные в этой статье, показали, что фехтование Большинство тренеров по различным видам координационных способностей

Наиболее важными для фехтовальщиков являются временные, пространственные и способности управлять физическими параметрами и общей подвижностью согласование. Мы думаем, что эти тренеры - фехтовальщики. в связи с особенностями конкурентоспособной деятельности по считаем, что действия в соответствии с нечеткими условиями этой фехтовальной игры требует постоянных изменений.

Заключение. Здоровье подрастающего поколения в Каракалпакстане фехтование как средство укрепления и всестороннего развития с акцентом на научно-педагогические основы развития показывает преимущества спорта. Фехтование - это не только физическое усиливают подготовку, а также когнитивное развитие и жизненно важные также способствует развитию навыков. В Каракалпакстане Стремясь обеспечить инклюзивность и гендерное равенство усилия по развитию направленный на воспитание здорового поколения отражает целостный подход. Использованная литература:

Литература

1. М. Айтымбетов, Р. Реймбаева, М. Рамазанов, Қ. Кеңесбаев “Дене тәрбиясы ҳәм спортты ғалабалық раўажландырыў арқалы зыянлы әдетлерге қарсы иммунитетти қәлиплестириў тийкарлары”, Нөкис - 2020

2. Ильичева О. В. Безопасность жизнедеятельности. Современные системы реабилитации после чрезвычайных ситуаций / О. В. Ильичева, М. В. Петровская, О. М. Холодов. — Воронеж: ВГИФК, 2012. — 114 с.

3. Яшин В. Н. ОБЖ. Здоровый образ жизни / В. Н. Яшин. — М.: Наука, 2011. — 128 с.

BASKETBOL SPORT TURI YORDAMIDA BOLALARNING JISMONIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH

Nazirov Murodjon Odiljon o‘g‘li

Farg‘ona davlat universiteti “Jismoniy tarbiya va sport” kafedrasi o‘qituvchisi

Kalit so‘zlar: *jismoniy tayyorgarlik, jismoniy tayyorgarlik darajasi, sport sinovlari, yugurish, uzunlikka sakrash, uloqtirish, tortilish, matematik–statistik usullar.*

Kirish. Mamlakatimizda aholi, ayniqsa, bolalar va o‘quvchi yoshlarning sport bilan ommaviy shug‘ullanishlari, faol dam olish shakllaridan foydalanishni ta’minlovchi amaliy chora-tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish, sog‘lom avlodni tarbiyalash respublikamiz davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan, «... butun ta’lim tizimining eng muhim vazifasi – yosh avlodga puxta ta’lim berish, ularni jismoniy va ma’naviy yetuk insonlar etib tarbiyalashdan iboratdir». Shu bois 2017-2021 yillarda mo‘ljallangan “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi”ning “Ijtimoiy sohani rivojlantirish”ga yo‘naltirilgan to‘rtinchi ustuvor yo‘nalishida ta’lim ilm-fan, tarbiya, adabiyot,

san’at va sport sohalarini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilgani bejiz emas.

Mazkur masalalarni amaliy jihatlarini hayotga tadbiq etish uchun mamlakatimizdagi barcha jabhalariga jismoniy tarbiya va sportni kirib kelmoqda, shu jumladan ta’lim tizimining asosiy bo‘g‘inlaridan biri bo‘lmish o‘rta ta’lim tizimida ham sport va jismoniy tarbiyaga kata ahamiyat berilmoqda. Chunki yoshlarning jismoniy tayyorgarligini yaxshilashning asosiy samarrador vositasidan biri bu sport bilan doimiy shug‘ullanish hisoblanadi.

Jeńil atletika shınıǵıwların turaqlı túrde orınlaw insan denesiniń barlıq aǵzaları hám sistemalarınıń rawajlanıwına unamlı tásir kórsetedi (olardı ámelge asırıwdıń optimal metodologiyasına bola). Kópshilik ilimpazlardıń pikirinshe, jeńil atletika shınıǵıwları járdeminde, eger olar sistemalı túrde ámelge asırılsa, barlıq toparlardaǵı sportshılardıń úylesimli fizikalıq rawajlanıwı mashqalası sheshiledi. Jeńil atletika ámeliy sport túri sıpatında úlken áhmiyetke iye, onıń járdeminde tiykarǵı fizikalıq sıpatlar: kúsh, tezlik, shıdamlılıq, shaqqanlıq, beyimlesiwsheńlik rawajlandırıladı, olar kúndelikli turmısta hám kásiplik xızmette keń kórinedi. Jeńil atletika shınıǵıwları waqtında háreketlerdi muwapıqlastırıw, keńislikte tez háreket etiw hám hár qıylı túrdegi fizikalıq shınıǵıwlardı optimal orınlaw kónlikpeleri hám uqıpları qáliplesedi. Jeńil atletika menen shuǵıllanıwshılar fizikalıq shınıǵıwlardı orınlaw texnikası, shınıǵıwlardı shólkemlestiriw tiykarları, jeke gigiena, awqatlanıw, miynet hám dem alıw boyınsha bilimlerge iye boladı.

Jeńil atletikada fizikalıq shınıǵıwlar birneshe toparlarǵa bólinedi. Olardan biri ulıwma rawajlandırıwshı shınıǵıwlar esaplanadı. Ulıwma rawajlandırıwshı shınıǵıwlar - ulıwma fizikalıq rawajlanıw ushın qollanılatuǵın basqa sport túrlerinen shınıǵıwlar esaplanadı. Sonıń menen birge, uzaq aralıqqa juwırıwshılar awırlıq shınıǵıwlarına az itibar beredi. Biraq, ulıwma shıdamlılıqtı rawajlandırıw hám salamatlıqtı jaqsılaw ushın barlıq jeńil atletikashılar ushın ayırım shınıǵıwlar májbúriy. Jarıs shınıǵıwları elementlerin óz ishine alǵan hár qanday shınıǵıwlardı arnawlı tayarlıq shınıǵıwları dep esaplaw múmkin.

Nátiyjeler. Jarıs shınıǵıwların orınlaw sheberligin arttırıwda ulıwmalıq abzallıqlar bar:

1. Háreketler texnikasın ózlestiriwde olar ańsatıraq.
2. Hár qıylı orınlaw shártleri keń qollanılıwı múmkin.
3. Ayırım bulshıq et toparlarına tańlap tásir etiw.
4. Siz dárhal unamlı aqıbetler járdeminde arnawlı shınıǵıwlardı básekige shıdamlı shınıǵıwlar menen birlestire alasız.

Arnawlı shınıǵıwlardı orınlawdıń metodikalıq principleri maksimal tásir menen fizikalıq sapalardı rawajlandırıwǵa járdem beredi.

I princip - hár qanday shınıǵıwdı tákirarlaw sanınıń kóbeyiwi menen olardı orınlaw múddeti artadı, ulıwma shıdamlılıq artadı hám orınlaw dawamlılıǵınıń artıwı menen shıdamlılıq qáliplesedi.

II princip - bulshıq et tosıqların jeńip ótiwde bulshıq etlerdiń kúsh sapaları qáliplesedi.

III princip - hár qanday shınıǵıwlardı eń úlken háreket aralıǵı menen orınlaw beyimlesiwsheńlikti hám oǵan joldas bolǵan jeńillikti rawajlandıradı.

IV princip - kóp sanlı bulshıq et toparların óz ishine algan shınıǵıwlardı orınlaw.

V princip - bulshıq et seziwlerin turaqlı túrde baqlap barıw, olardı erisilgen nátiyjeler menen salıstırıw, jumısta qatnaspaytuǵın bulshıq etlerdi bosastırıwda qadaǵalawdı ózlestiriwge járdem beredi.

Jeńil atletika shınıǵıwların orınlaw aralas dinamikalıq rejimlerde júz beredi. Tezlik hám kúsh shınıǵıwlarınıń anıq mashqalaların sheshiw ushın tómendegi shınıǵıwlar qollanıladı:

- óz dene salmaǵın jeńiw;
- juwırıw, sekiriw hám ilaqtırıwda hár túrli qosımsha awırlıqlar;
- sırtqı ortalıq tásirin qollanıw;
- eń tez háreketlerde sırtqı tayanıshlardı jeńiw.

Kórsetiw waqtı hám kúsh muǵdarı jarıs shınıǵıwlarınıń arnawlı formalarınıń baǵdarın hám nátiyjede nátiyjeliligin belgileydi.

Pikirlesiw. Atletshi ilaqtırıwshılardıń kúsh sapaların rawajlandırıw ushın arnawlı shınıǵıwlar, olardıń ayırım háreket birliklerine ústin tásiriniń tómendegi ózgesheliklerine qaray bólinedi:

I. uluwma tásir.

II. Jergilikli tásir.

II. (a) qol hám iyin bulshıq etlerin rawajlandırıw ushın;

II. (b) magistral bulshıq etlerdiń rawajlanıwı ushın;

II. (c). ayaq bulshıq etleri hám jambas boslıǵınıń rawajlanıwı ushın.

III. ilaqtırıwshılardıń qolların tákirarlaw.

I topardıń arnawlı shınıǵıwları bir waqıttıń ózinde háreket bólimleriniń kópshiliginde isleydi. Tańlangan hárekettiń II toparınıń arnawlı tayarlıq shınıǵıwları ılaqtırıwshılardıń kúsh shınıǵıwlarınıń tiykarǵı bólegin quraydı.

III topar shınıǵıwları jarıs shınıǵıwlarınıń óz aldına elementleri bolǵan barlıq hár qıylı háreketlerdi óz ishine aladı. Olar túrli qánigelik hám jastaǵı sportshılardıń, ásirese, hayal-qızlardıń tezlik hám kúsh sapaları boyınsha tańlap háreket etiw

esabına tezlik-kúsh tayarlıǵın asıradı. Birinshi topar (I) 60 tan 80% ke shekem bolǵan salmaqlardı óz ishine aladı, bir qatnasıwda úsh-bes márte kóteriledi. Shınıǵıwlardıń ekinshi toparı (II) 30-50% shtanga awırlıǵı menen orınlanadı. Bir toplamda segizden on eki mártege shekem bolǵan bul shınıǵıwlar bulshıq et kúshin salıstırmalı az sırtqı qarsılıq penen arttırıw imkaniyatın beredi.

Juwmaq. Juwmaqlap aytqanda, bir qatnasta bes kóteriliw múmkin. Ekinshisi, sportshılardı tayarlaw - shınıǵıw variantı - 50% - altı kóteriw - sportshılar túrli ózgerislerdi qollanıw, 40% - segiz kóteriw hám 30% - kúsh shınıǵıwlarınıń kóteriliwi bir jaqınlasıwda kóteriliwlerge alıp keledi. Rawajlanıw dárejesindegi sezilerli ózgerisler hám úshinshi variant júkti birlestiredi hám hár qanday dárejedegi jarıslarda úlken tabıslarǵa erisiwge imkaniyat beredi.

Paydalanılǵan ádebiyatlar dizimi:

1. Головко Н.Г. Реализация правила «рычага» в спортивных упражнениях легкоатлета / Н.Г. Головко // Бюллетень научных работ Белгородской государственной сельскохозяйственной академии им. В.Я. Горина. - 2013. - №35. - С. 130-137.
2. Кузнецов Г.В. Основы применения упражнений на силовые качества в тренировочном процессе бегунов-легкоатлетов / Г.В. Кузнецов, Б.Ф. Прокудин // Человек, здоровье, физическая культура и спорт в изменяющемся мире. - 2015. - С. 623-630.
3. Лалаева Г.С. Комплекс прыжковых упражнений для легкоатлетов на начальном этапе подготовки / Г.С. Лалаева, Е.Ю. Дьякова // Современные тенденции в образовании и науке. - 2013. - С. 88-90.

«КЛУБ – САЙЛАНДЫ КОМАНДА» СИСТЕМАСЫН БАСҚАРЫЎДАҒЫ ИННОВАЦИЯЛАР

Султамуратов Джумамурат

Өзбекстан мәмлекетлик дене тәрбия ҳәм спорт университети Нөкис филиалы "Жеке гүрес ҳәм тәбийий пәнлер" кафедрасы доцент у.у.а.

Сапаргелдиева Сарвиназ

Өзбекстан мәмлекетлик дене тәрбия ҳәм спорт университети Нөкис филиалы 2-курс студенти

Абдуллаева Умида

Өзбекстан мәмлекетлик дене тәрбия ҳәм спорт университети Нөкис филиалы 2-курс студенти

Таяныш сөзлер: Федерация, клуб, сайланды команда, жарыс, Олимпия, спорт, денетәрбия, шығыў.

Ключевые слова: Федерация, клуб, сборная команда, соревнование, Олимпиада, спорт, физкультура, тренировка.

Keywords: Federation, club, national team, competition, Olympics, sports, physical education, training.

Кирисиў.Заманагөй жоқары жетискенликлер спорты ҳәм профессионал спортта табысқа денетәрбия ҳәм ғалаба спорт деп аталатуғын нәрселерден парқлы түрде, улыўма ҳәм арнаўлы шынығыўлардың үлкен көлеми ҳәм жоқары интенсивлиги менен турақлы шынығыўлар фонында үлкен физикалық ҳәм психикалық кескинлик арқалы ерисиледи.

Ҳәзир жоқары жетискенликлер спорты ҳәм професстнал спорт таярлық қураллары ҳәм усыллари ҳәм де жарыс искерлигиниң улыўма нызамлылықлары ҳаққында сөз болғанда өз-ара тәсир ҳәм өз-ара енисиў менен характерленеди. Кемирек дәрежеде, бул мәселениң коммерциялық тәрепине тийисли, себеби, профессионал спорт спецификалық технологияға ийе қуўатлы заманагөй индустрияға айланды, бул көп көрсеткишлери бойынша жоқары жетискенликлер спорты ушын имкансыз.

Изертлеw мақсети. Жоқары жетискенликлер спортын басқарыў – бул спортты раўажландырыў стратегиясын, спорт нәтийжелери ҳәм халықаралық аренадағы жетискенликлердиң өсиўин белгилейтуғын шөлкемлескен системалар функциясы.

Федерацияның инновациялық сиясатын қәлиплестириў ҳәм әмелге асырыў жаңа структуралық бөлимлерди жаратыў ямаса жетилистириў, федерация искерлигиниң шөлкемлестириў жойбарын жетилистириў, кадрларды басқарыў, «клуб – сайланды команда» системасын жетилистириў арқалы толық шынығыў ҳәм жарыс процесин шөлкемлестириў ҳәм әмелге асырыў бойынша зәрүр ис-илажлар комплексин өткериўге тийкарланады.

Инновациялық жантасыўлар төмендеги бағдарларда әмелге асырылды: искерликти шөлкемлестирип жойбарластырыў, кадрларды басқарыў, мәлимлеме-реклама искерлиги.

«Күшли клублар – күшли сайланды команда» факти ҳәммеге мәлим. Бул аксиоматик-гүмансыз көринген тастыйық, егер ол олимпия таярлығының жақсы дүзилген киши системалары – «клуб – сайланды команда киши системасы»нга тийкарланған болса, биз ушын жүдә туўры, логикалық ҳәм әмелде тийкарлы болып түйиледи.

«Клуб – сайланды команда» системасының тийкарғы позициясы – бул мақсет ҳәм ҳәрекетлердиң улыўмалығы. Олимпия мақсетлери ҳаққындағы улыўма көринис ҳәм оларға ерисиў ушын улыўма жуўапкершилик сезими базасында оның биринши компоненти (клуб) ҳәм екинши компонети (сайланды команда) ушын актуал, стратегиялық машқалаларды шешиўге жәрдем берсе, реал мәниске ийе болады.

«Клуб – сайланды команда» системасын клуб позициясынан көрип шығамыз. Клублар мәмлекет сайланды командасы ушын спортшыларды тийкарғы жеткерип бериўшилер болып, бул клуб ҳәм сайланды команда арасындағы өз-ара ҳәрекетлер ҳәм мүнәсибетлерди тәртипке салыўда федерацияның айрықша әҳмийети ҳәм ролин асырады.

Жуwмақ. Сайланды ҳәм клуб командаларындағы жумыс процесиниң қарама-қарсылығыф төмендеги айрмашылықларда конкретлестириледи:

- жарысты қурыўдың стратегиялық ҳәм тактикалық концепцияларында, ҳүжим ҳәм қорғаныс кесиминдеги звенолардағы өз-ара тәсирлер ҳәм индивидуал ҳәрекетлерде;

- спортшы өзиниң таярлығы дәрежесине ҳәм индивидуал-жарыс искерлиги усылына сәйкес келмейтуғын функцияларды орынлаўында;

- бир жағынан, ойыншы организминиң физикалық ҳәм психикалық ҳәдден тысқары жүклениўи менен байланыслы оптимал болмаған жарыс режимлеринде, басқа тәрепинен, аўысық ойыншылар скамейкасында узақ ўақыт (жийи ақланбаған) қалыўында;

- қолланылатуғын шынығыўлар жүклемеси, атлетикалық ҳәм функционал таярлық дәрежесинде;

- қарсыласлардың салыстырмалы күши ҳәм таярлық сапасында;

- сайланды командада болыў ҳәм ислеўдиң климатлық, ўақытша ҳәм басқа да шараятларда.

Пайдаланылған әдебиятлар

1. Кусякова Р.Ф. Особенности преподавания физкультуры в вузе / Р.Ф. Кусякова, А.Б. Лопатина // Успехи современной науки и образования, 2016. Т. 1. № 12. С. 38- 40.

2. Акишин Б.А. Особенности реализации учебного процесса по физической культуре как элективной дисциплины / Б.А. Акишин, Р.А. Юсупов, Э.В. Галимова // Актуальные проблемы физической культуры, спорта и туризма, 2018. С. 50-53.

3. Пащенко А.Ю. Особенности организации учебного процесса по физической культуре в вузе в условиях самостоятельного выбора студентами физкультурноспортивной специализации / А.Ю. Пащенко, Н.А. Самоловов, Н.В. Самоловова // Мир науки. Педагогика и психология, 2016. Т.

4. Кутепов М.М. Информационные технологии обучения физической культуре в вузе / М.М. Кутепов, Н.В. Ямбаева, К.А. Елыгина // Азимут научных исследований: педагогика и психология, 2016. Т. 5. № 2 (15).

TALABA KURASHCHILARNING JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK NAZORAT QILISH USULLARINI RIVOJLANTIRISH

Xudayorov Doniyor Davlatyor o‘g‘li

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filialining o‘qituvchisi

Kalit so‘zlar: *Jismoniy sifatlar, kurash, pedagogik nazorat, sportchilarning tayyorgarligi, yosh sportchilar, motivatsiya, jismoniy tarbiya, samarali usullar.*

Kirish: Jismoniy sifatlar — sportchilarning umumiy jismoniy tayyorgarligi va maxsus ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim omildir. Xususan, kurash sporti talab qiladigan texnik va taktik ko‘nikmalarni samarali egallash uchun sportchining jismoniy tayyorgarligi yuqori bo‘lishi lozim. Talaba kurashchilarining jismoniy sifatlarini rivojlantirish jarayonida pedagogik nazorat qilish usullari asosiy rol o‘ynaydi. To‘g‘ri pedagogik nazorat yordamida jismoniy tayyorgarlik darajasi

yaxshilanadi, shuningdek, sportchining motivatsiyasi va o‘zgarishlarga bo‘lgan munosabati ham o‘zgaradi.Shu bois, ushbu tezisda talaba kurashchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishda pedagogik nazorat qilish usullarini o‘rganish va ularni yanada takomillashtirish yo‘llari tahlil qilinadi.

Tadqiqot maqsadi: Bugungi kunda jismoniy tarbiya va sport sohasida talabalar o‘rtasida kurash sportini rivojlantirish, ayniqsa ularning jismoniy sifatlarini oshirish, yoshlarning sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning eng muhim yo‘nalishlaridan biridir.

Talaba kurashchilarining jismoniy sifatlari (kuch, tezlik, chidamlilik, koordinatsiya va moslashuvchanlik) sportdagi muvaffaqiyatni belgilovchi asosiy omil bo‘lib, ularga pedagogik nazorat qilish orqali tizimli yondashuv zarurdir.Pedagogik nazorat qilish usullarini rivojlantirish va samarali boshqarish metodlari orqali talaba sportchilarining jismoniy tayyorgarligini yuqori darajaga ko‘tarish mumkin. Bunday nazorat nafaqat jismoniy ko‘rsatkichlarni oshirishga, balki sportchilarning psixologik holatini va motivatsiyasini ham mustahkamlashga xizmat qiladi. Shuningdek, kurash sportida yuqori natijalarga erishish uchun zamonaviy pedagogik yondashuvlar va metodikalarni joriy qilish dolzarb masala hisoblanadi.

Talaba kurashchilarining jismoniy sifatlari tushuncha va ahamiyati: Jismoniy sifatlar — bu sportchining kurashga tayyorligini belgilovchi asosiy omillar bo‘lib, ularga kuch, tezlik, chidamlilik, moslashuvchanlik, koordinatsiya va reaksiya tezligi kiradi. Kurashda bu sifatlarning o‘zaro uyg‘unligi va rivojlanishi sportchining muvaffaqiyatini belgilaydi. Talaba kurashchilari uchun bu sifatlarni rivojlantirish nafaqat sportdagi yutuqlarni oshirish, balki ularning umumiy jismoniy va ruhiy salomatligini ta’minlash uchun ham zarur.

Jismoniy sifatlarni rivojlantirish jarayonida pedagogik nazorat qilish o‘quv jarayonining tarkibiy qismi sifatida faol ishtirok etadi. Bu jarayonda murabbiylarning pedagogik nazorati orqali talabaning jismoniy tayyorgarligi, bilimlari va ko‘nikmalari doimiy ravishda baholanadi va takomillashtiriladi.

Pedagogik nazorat qilishning asosiy usullari: Pedagogik nazorat qilish jarayoni o‘quvchi sportchilarning jismoniy tayyorgarligini nazorat qilish va uni yaxshilashga qaratilgan bir qator metodlarni o‘z ichiga oladi. Bu usullar quyidagilardan iborat:

Amaliy mashg‘ulotlar asosida baholash. Talaba kurashchilarining mashg‘ulotlarida qatnashishi va ularning ko‘rsatkichlari (yengillik, chidamlilik, kuch) doimiy ravishda tekshiriladi. Har bir mashg‘ulotdan keyin olingan natijalar tahlil qilinadi va keyingi mashg‘ulotlar rejalashtiriladi.

Test va sinovlar yordamida nazorat qilish. Jismoniy tayyorgarlikni baholashda maxsus testlar (kuch, tezlik, chidamlilik) yordamida o‘lchovlar olib boriladi. Bu testlar sportchilarning jismoniy holatini kuzatib borish va uning o‘zgarishlarini baholash imkonini beradi.

Individual yondashuv-Har bir talabaga individual yondashuvni qo‘llash, uning jismoniy xususiyatlarini hisobga olib, mashg‘ulotlar davomida pedagogik

nazoratni amalga oshirish zarur. Bu usul talabaga o‘z kuchini va zaif tomonlarini yaxshiroq anglashga yordam beradi va uning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Psixologik yondashuv-Jismoniy sifatlarni rivojlantirishda psixologik yondashuv ham muhimdir. Talabalar sportdagi muvaffaqiyatsizliklarga qarshi psixologik bardoshli bo‘lishi kerak. Shuning uchun pedagogik nazoratda psixologik tahlil va motivatsiya metodlari ham qo‘llaniladi.

Har bir talabaning jismoniy tayyorgarligi uchun maxsus reja tuziladi, unda har bir mashg‘ulotning maqsadi, vazifasi va vaqt chegaralari belgilab qo‘yiladi.Boshqaruv va o‘z-o‘zini nazorat qilishKurashchilarga o‘zlarining jismoniy va texnik ko‘rsatkichlarini nazorat qilishni o‘rgatish, ularning o‘z-o‘zini baholash qobiliyatini oshirish.Periodik testlar va o‘qituvchining tahlil qilish funksiyasi, Testlar va sinovlar yordamida talabalar jismoniy holatini baholash va nazorat qilish. Bu esa o‘qituvchiga to‘g‘ri tahlil va maslahatlar berish imkonini yaratadi.

Xulosa va takliflar: Pedagogik nazorat qilish talaba kurashchilarining jismoniy sifatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. U orqali sportchilarning jismoniy tayyorgarligi doimiy ravishda yaxshilanib boradi va ularning o‘zgarishlariga tezkor javob berish mumkin bo‘ladi. Natijada, talaba kurashchilari nafaqat kurashda, balki boshqa sport turlarida ham muvaffaqiyatlarga erishadilar.

1. Har bir talaba uchun individual tayyorgarlik rejalarini ishlab chiqish;
2. Jismoniy tayyorgarlikni baholash uchun ko‘proq testlar va metodik yondashuvlar joriy etish;
3. Talabalarning psixologik holatini ham hisobga olish, motivatsiya tizimini mustahkamlash.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–5110-son qarori, 2021-yil 5-may.

2.“O‘zbekiston Respublikasi sportni rivojlantirish konsepsiyasi”, 2019-yil.

3.Mahallalarda sportni rivojlantirish bo‘yicha metodik tavsiyalar. Toshkent, 2022.

MAKTABGACHA TA’LIM MUASSASALARINING KICHIK VA O‘RTA GURUHLARIDA JISMONIY TARBIYA MASHG‘ULOTLARINI O‘TKAZISH USLUBLARI

Berdimuratova Janigul Jaqsımurat qizi

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali o‘qituvchisi

Kalit so‘zlar: *Jismoniy rivojlanish, jismoniy kamolot, jismoniy mashq, sport, jismoniy madaniyat, sog’lomlashtirish, jismoniy holat, nazorat qilish, to’garak.*

Ключевые слова: *Физическое развитие, физическая зрелость, упражнения, спорт, физическая культура, фитнес, физическое состояние, контроль, кружок.*

Keywords: *Physical development, physical maturity, exercise, sports, physical culture, fitness, physical condition, control, circle.*

Kirish. Amaliy mashg'ulotlarda o'quvchilar maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni jismoniy mashqlarga o'rgatish metodikasini o'rganadilar. Bolalar bog'chasida jismoniy tarbiya vazifalarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim va amaliy ko'nikmalar hosil qiladilar. Amaliy mashg'ulotlar o'quv uslubiy xarakterdagi mashg'ulotlar, namunali mashg'ulotlar va o'quv gruppalaridagi o'quv amaliyoti tarzida o'tkaziladi.

Tadqiqot maqsadi. Kichik va o'rta guruhlarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini o'tkazish uslublari.

Tadqiqotni tashkil qilish uslublari.O'quv uslubiyati mashg'ulotlarida o'quvchilar maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni jismoniy mashqlarga o'rgatishning usul va uslublarini ertalabki badan tarbiya, jismoniy tarbiya mashg'ulotlari, harakatli o'yinlarni o'tkazish yo'llarini o'rganadilar. Hamda jismoniy qo'llanmalar tayyorlash usullari bilan tanishadilar. Bu mashg'ulotlar nazariy qoidalarini bayon qilish bilan birga jismoniy mashqlarga o'rgatishning usullarini amalda ko'rsatish, o'quvchilarni o'qituvchi topshiriqlarini bajarish yo'li bilan o'tiladi. Namunali mashg'ulotlar bog'chada o'tkazilib pedagogik amaliyotning tarkibiy qismi bo'lib, kursni o'qish bilan parallel olib boriladi. O'quv amaliyoti o'quvchilarni quyidagi malaka va ko'nikmalar hosil qilishga qaratgan bo'lishi kerak.

• Farmoyish va buyruq berish;

• Mashqlarni ko'rsatish, tushuntirish uchun to'g'ri joy tanlash.

• Terminalogiyani bilish;

• Jismoniy mashqlarga o'rgatishda xilma-xil va uslublardan foydalanish;

• Mashqlarni tushuntirishni, ularni bajarib ko'rsatish bilan birga qo'shib olib boorish;

• Jismoniy mashqlarni bajarish sifatini baholash, xatolarni aniqlash ularni bartaraf qilish usullarini topish; Ertalabki badantarbiya mashqlarini tashkil etish. Ertalabki badantarbiya mashqlarining sog‘lomlashtiruvchi turlari. Maktabgacha ta'lim muassasalar tarbiyalanuvchilari ertalabki badan tarbiya mashqlarini o‘z ichiga oladi. Ertalabki badantarbiya mashqlarining bu turlari shug‘ullanuvchilarni har tomonlama jismoniy kamolotga yetkazish, salomatligini mustahkamlash va harakat funksiyalarini takomillashtirish maqsadida qo‘llaniladi. Ertalabki badantarbiya mashqlarida sport turlari. Bu guruhga sport ertalabki badantarbiya mashqlari, badiiy ertalabki badantarbiya mashqlari kiradi. Bu turlar sport yo‘nalishiga ega bo‘lib, sport turlari sifatida targ‘ib etiladi. Bulardan maqsad, mashqlarni ijro etish texnikasida yuksak kamolotga erishish, yuksak sport mahoratini ko‘rsatish, hamda har yoqlama yuksak jismoniy tayyorgarlik asosida ertalabki badantarbiya mashqlari ko‘p murakkab mashqlarini bajara bilishga erishishdan iborat.

Ertalabki badan tarbiya mashqlarining amaliy turlari. Ertalabki badantarbiya - amaliy mashqlarning bir ko‘rinishidir, ertalabki badantarbiya yanada tezroq va to‘la ravishda bolaning sog‘lig‘ini tiklash uchun qo‘llaniladi, yana jismoniy

sifatlarni rivojlantirishda chidamlilikda qo‘llaniladi. Ertalabki mashqlarning vositalari - saflanish mashqlari, harakatlanishning va raqs qadamlarining xillari; umumiy ritmik mashqlarning buyumlarsiz va buyumlar bilan bajarilish turlari (tayoqlar, gantellar, arg‘imchoqlar, to‘plar va boshqa), mashqiy devordagi mashg‘ulotlar halqlarda va amaldagi mashqlar (yugurish, sakrash, o‘rmalash, oshib o‘tish). Maktabgacha ta’lim muassasalarda ertalabki badantarbiya mashqlarining asosiy shakllari: 45 Ertalabki badantarbiya mashg‘ulotdan oldin o‘tkaziladi. Uning ahamyati: organizmni chiniqish jarayoniga tayyorlash. Ertalabki badantarbiya 7-15 dakika davom etadi.

Badantarbiya mashqlari 5-7 ta mashg‘ulotlardai iborat. Eng kup og‘irlik mashg‘ulotlarning o‘rtasida o‘tkaziladi. Bolalar bog‘chalari guruhlarida ertalabki mashqlar sog‘lomlashtirish va tarbiyaviy vazifalarni bajaradi. Kun tartibining ajralmas qismi bo‘lgan holda u har bir bola uchun majburiydir. Har kuni uyg‘ongach (5-7 daqiqadan so‘ng) maxsus tanlangan 7-12 jismoniy mashqlar 10-15 daqiqa davomida organizm faoliyatini faollashtiradi, tananing to‘g‘ri o‘sishidagi ko‘nikmalarga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, yassi oyoqlikdan ogohlantiradi. Ertalabki mashqlarda ishtirok etish bolalarda foydali bo‘lgan har kuni bajariladigan estalabki jismoniy mashqlarni bajarishni ta’minlaydi. Aqliy va jismoniy mehnatning ishlab chiqaruvchanlik darajasi birmuncha pasaygan bo‘ladi. Ertalabki jismoniy mashg‘ulotlarning ahamyati markaziy nerv sistemasiga kuchli analizatorlarnnng retseptorlarining signallari oqimi kelib tushadi, ayniksa proporsiya retseptorlardan, bu markaziy nerv tizimining tez ko‘zg‘alishiga va mehnatga yarokliligi me’yorini qayta tiklaydi. Ertalabki mashqlar teri retseptorlarining sovuqqa va suv bilan bo‘ladigan ta’sirlari birgalikda o‘tkazilsa, nerv sistemasining qo‘zg‘alish jarayoni tezroq yo`lga qo‘yiladi. Tashqi muhitdagi ayrim kuzatuvchilarni ta’sirlari (suv jarayonlari, toza havo va quyoshning ta’siri) nerv tizimining ko‘zg‘alishi bilan bir qatorda organizmning chiniqishiga yordam beradi. Badantarbiya mashqlarning harakteristikasi. Safda turib bajariladigan mashqlar bu qiyin bo‘lmagan harakatlantiruvchi mashqlardir. Umumrivojlantiruvchi mashq (ertalabki badanarbiya mashqlari xamma turlarida keng foydalaniladi. Bu unchalik qiyin bo‘lmagan harakatiga keltiruvchi mashq), ya’ni har xil muskullar guruxini jismoniy layoqatini yanada chuqurlashtirish, elementlar, harakatga keltiruvchi ko‘nikmani qo‘lga kiritish, predmetlar bilan ishlash, umumiy jismoniy tayyorgarlikii rivojlantirish maqsadida bajariladi. Qo‘shimcha mashqni va ko‘nikmani atrof- muxit bilan bir-biriga aktiv ta’sir etuvchi badantarbiya vositadir. Erkin mashq bu ertalabki badantarbiya mashqlarining bir turi bo‘lib chidamlilikni oshirishga rivojlantirishga yunaltirish.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Maktabgacha ta’lim tizimini takomillashtirish, ta’lim tarbiya jarayonini tarbiyachilar tomonidan to’g’ri tashkil etilishi ma’sul shaxslar tomonidan uni nazorat qilishning afzalligini ta’minlydi, maktabgacha yoshdagi bolalar ota-onalarining oilada bola tarbiyasi bilan shug’ullanishlari uchun qulaylik yaratish maqsadida “Bolajon” tayanch dasturi “Ta’lim to’g’risidagi” qonun maktabgacha ta’lim konseptsiyasi hamda maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo’yiladigan Davlat talablari

asosida ishlar olib boriladi. Shuningdek maktabgacha tarbiya muassasalarida o'quv jarayonini samarali olib borishda olimlarning o'rni alohida ekanligini qayd qilish joiz Nuraddinova M.M.dotsent, K.M. Mahkamjonov professor, dotsent M.SH.Rasulova, TDPU dotsentlari Sh.Toshpo'latova, Sh.Xasanova, G.Sharinova, p.f.n. M.Tajiyevalarning hissalarini alohida qayd etishga arziydi.

Natijalar. Jismoniy mashqlarni bajarishda ehtiyot choralarini ta'minlash va jarohat olishning oldini olish.Yilning turli fasllarida jismoniy mashg'ulotlarni o'tkazish uslubi. Ilk yoshdagi bolalar bilan va yosh jihatdan aralash gruppalarda jismoniy mashg'ulotlarni o'tkazish uslubi. Tarbiyachining jismoniy mashg'ulotlarini baholash. Bilimlarini o'zlashtirib olishi, jismoniy mashqlarni to'g'ri va tez bajarishi ustidan nazorat qilish. Bolalarning mashg'ulotgacha va 46 mashg'ulotdan keyingi ahvoli va hatti-harakatini kuzatish. Jismoniy mashg'ulotlarini o'tkazishni tahlil qilishga doir savollar. Turli yosh guruhlarda jismoniy tarbiya ish formalaridan jismoniy tarbiya mashg'ulotini va kundalik hayotda olib boriladigan jismoniy mashqlarni mustaqil olib borishni talab qilish. Amaliyotda jismoniy tarbiya mashg'ulotini mustaqil bajarish va tahlil qilish. O'quvchilarga dastur bo'yicha turli yosh guruhlarga mashg'ulot konspektini berish. Sport elementi o'yinlari harakatli o'yin turkumiga kirishi, bolalarni har tomonlama tarbiyalashdagi ahamiyati. Sport elementi o'yinlari tarkibiga asosiy harakat mashqlarini kirishi va bu o'yinni o'ynash orqali fazoda mo'ljal olishga,ko'z bilan chamalash malakalarini rivojlantirish uslubidan foydalaniladi. Sport mashqlariga bolalarni uyushtirish, tayyorlov mashqlari, o'rgatish usullari, xatolarni oldini olish va tuzatish, jarohatlanish va sovuq olishini oldini olish. Sport mashqlariga bolalarni uyushtirish, tayyorlov mashqlari, o'rgatish usullari, xatolarni oldini olish va tuzatish, jarohatlanish va issiq olishini oldini olish. Kichik guruhlarda asosiy harakatlar yurish, oyoq uchida yurish, tavonda yurish, qo'l ushlab yurish, ikki chiziq orasida yurish, bosmasdan yurish. Skameykadan sakrash, uni ustida muvozanat saqlab yurib sakrash, irg`itish va emaklash, bu mashg`ulotlar oyma-oy taqsimlanib estafeta o'yinlar, harakatli o'yinlar bilan birgalikda olib borilishi zarur. Ertalabki badantarbiya tuzilishi. Jismoniy mashqlarni tanlash.

Jismoniy qo'llanmalari (bayram, tayoqcha, halqacha boshqalar…)dan foydalanish. Komplekslar tuzish . komplekslar o'tkazish davomiyligi va ularni almashtirib turish. O'quvchilarni ertalabki badan-tarbiyani to'g'ri tashkil qilishini, uning tuzilishi, jismoniy mashqlarni to'g'ri tanlash, jismoniy qo'llanmalardan foydalanish. Komplekslar o'kazish davomiyligi ularni almashtirib turish. Bolalarni charchash holatini yo'qotish va ularning ishchanlik qobiliyatini oshirish maqsadida rasm , loy va plastilindan buyumlar yasash, sanoq, nutqni o'stirish va boshqa mashg'ulotlar prosessida jismoniy daqiqalarni o'tkazish zarurligi.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi. Kichik va o'rta guruhlarda ertalabki badantarbiyani ahamiyati va o'tkazish uslubi. Bolalar organizmiga ertalabki badan-tarbiyani ahamiyati. Bolalar bog'chasida ertalabki badan-tarbiyani o'rni va o'tkazish uslubi. Kichik va o'rta guruhlarda adabiyotlar va dasturdan foydalanib, ertalabki badantarbiya plan-konspektini tuzish va o'tkazish yo'llarini tahlil qilish.Bolalar organizmiga ertalabki badan-tarbiyani ahamiyati. Bolalar

bog’chasida ertalabki badan-tarbiyani o’rni va o’tkazish uslubi. Kichik va o‘rta guruhlarda adabiyotlar va dasturdan foydalanib, ertalabki badantarbiya plan-konspektini tuzish va o’tkazish yo’llarini tahlil qilish. Kichik va o‘rta guruhlarda ertalabki badan tarbiyani dastur asosida plan konspektini tuzish va o’tkazishga o’rgatish. O’quvchilar o’tkazgan ertalabki badan tarbiyani kuzatish va tahlil qilish. Jismoniy tarbiyaga doir istiqbol reja va oylik rejalarni ma’lum bir davrga mo’ljallangan jismoniy qo’llanmalarini tanlash va taqsimlash. Bolalarni kun mobaynida jismoniy mashqlarni bajarishini kuzatish va bolalarni bog’chaga qatnashini hisobga olish.

Xulosa. Bolalarning o’sishi va rivojlanishi uzluksiz davom etadigan jarayondir. Bolaning shaxs sifatida shakllanishi ilk bor olamni atrofdagi ashy ova buyumlar orqali anglab, undan o’zicha ma’no topishga intilishi, qiziqish va xissiyotlari rivojlanishi kuzatiladi. Hayotning har bir davri , rivojlanish xususiyatlari va ehtiyojlariga ko’ra o’ziga xos bosqichlarga ega. Kichik va o’rta guruh bolalarga harakatlarning shakllanishiga yordam berish, gavdani tik tutishga o’rgatish. Bolalarni mustaqil o’ynayotgan paytlarida harakatlari faolligini barqarorlashuviga yordam berish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo’yiladigan talablar. Davlat talablari T.2011y. -9b.

2. K.M.Mahkamjonov Maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya jarayonni rejalashtirish.T.2011y. -118b.

3. D.Sharipova va bosh. “Agar bolam sog’lom bo’lsin desanggiz” ilm ziyo 2006y. -58b.

HAR BIR FUQARONI SALOMATLIGINI SAQLASH VA MUSTAHKAMLASH VA U ORQALI MILLAT GENOFONDINI YAXSHILASHDA JISMONIY MADANIYAT VA SPORTNING O‘RNI

Genjemuratov Alisher Kenesbay uli

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali o‘qituvchisi

Kalit so‘zlar: *Salomatlik, jismoniy kamolatining, marfo-funkcional, koordinaciya, qánige, salomatlik, aqliy mehnat, kam harakatlilik, travma.*

Ключевые слова: *Здоровье, физическое развитие, морфо-функциональный, координация, специализация, здоровье, умственный труд, малоподвижность, травма.*

Keywords: *Health, physical development, morpho-functional, coordination, specialist, health, mental work, physical inactivity, trauma.*

Dolzarbligi. Salomatlik va qaddi rasolik inson jismoniy kamolatining asosiy ko‘rsatkichi hisoblanadi va u organizm hamda uning a’zolarini aniq sharoitlarda hayotiy funksiyalarini to‘laqonli ishlashini ta’minlaydi. Vatanimizni mustaqillikka erishishi milliy jismoniy madaniyatimizning tarixiy mazmunini bilib olishimizga yo‘l ochib berdi. Badan tarbiya dori-darmonsiz inson tanasining sog‘lomlashtiruvchi mexanizmini safarbar qilishga imkon yaratadi. Xalqimiz

salomatligini mustahkamlash yo‘lida jismoniy tarbiyadan milliy an’analar asosida foydalanish uchun keng yo‘l ochildi. Nasl haqida g‘amxo‘rlik qilish xalqimiz va mamlakatimiz ertangi kuni haqidagi muqaddas burch ekanligini xalqimiz juda yaxshi tushunadi. Mustaqillik yillarida aholi salomatligini saqlash va mustahkamlashga mamlakatimiz miqyosida katta e’tibor berildi. Jumladan 2005 yil “Sihat-salomatlik yili “,- deb e’lon qilingan va shu bo‘yicha Davlat dasturi ishlab chiqilgan edi. Dasturga ko‘ra Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimiov “Sog‘lom xalq, sog‘lom millatgina buyuk ishlarga qodir bo‘lishi” ni har tomonlama asoslab berdi. Yana, Birinchi Prezidentimiz “Bu dunyoda hayot bor ekan, odamzod tinch va farovon, baxtli saodatli umr kechirishni orzu qiladi.13 Shu ma’noda odamlarga munosib turmush sharoitini yaratib berish, aholi sog‘lig‘ini saqlash masalasi davlatimiz va jamiyatimizning doimiy diqqat markazida bo‘lib kelmoqda”,-deb ko‘rsatib o‘tadi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov hozirda o‘rtacha uzoq umr ko‘rish bo‘yicha dunyoda oldingi o‘rinlarni egallab kelayotgan yapon xalqining uzoq umr ko‘rishiga sabab bo‘layotgan asosiy omillar quyidagilarda,- deb ta’kidlaydi:

Izertlew maqseti. Jismoniy madaniyat va sport talaba-yoshlar va ishchilarning, aqliy mehnat kishilarining salomatligini saqlash va mustahkamlashda ham keng foydalaniladi.

Jismoniy madaniyat va sportning sog‘lomlashtiruvchi yo‘nalishi, uni rivojlantirishning qonuniy asosi bo‘lib xizmat qiladi. Bu asos aholi keng qatlamlari orasida uchraydigan kam harakatlilikka (gipodinamiya) qarshi kurash tamoyili bilan ifodalanadi. Sababi, hozirgi ishlab chiqarishning zamonaviy xususiyatlari ko‘pgina mutaxassisliklarda kishilarni o‘tirib, kam harakat qilib ishlashini talab etadi. Kam harakatlilik o‘z navbatida turli xil kasalliklarni, jumladan kasb kasalliklarini keltirib chiqaradi, organizmning asosiy hayotiy tizimlari faoliyatini buzadi. Bunday salbiy oqibatlarga qarshi kurashishda, ularni oldini olishda va davolashda jismoniy madaniyat va sport-sog‘lomlashtirish tadbirlarining o‘rni beqiyosdir. Jismoniy madaniyat mashg‘ulotlari organizmning qarishi bilan bog‘liq jarayonlarni 10-15 yilgacha kechiktiradi, uzoq va sermazmun hamda ijodiy umr ko‘rishga yordam beradi. Jismoniy madaniyat mashg‘ulotlarining sport mashqi, ishlab chiqarish gimnastikasi, kasb-amaliy jismoniy tayyorgarlik va boshqalarda salomatlik samaradorligiga erishishni muhim zaruriy qoida sifatida belgilab qo‘yish kerak. Jismoniy madaniyat vositalarini, shakllarini tanlashda jismoniy yuklamalarni salomatlik nuqtai-nazaridan boshqarib, muvofiqlashtirib borish tamoyiliga asoslanish kerak. Buning uchun o‘tkaziladigan va har bir odamga tavsiya qilinadigan jismoniy mashqlarni bajarishga va mashg‘ulotlarga kirishishdan oldin, albatta salomatlikni tekshirib ko‘rish o‘qituvchi va murabbiylarning, tibbiyot xodimlarining majburiy vazifalaridan biridir. Aksari hollarda vrach va murabbiylarning xatolari tufayli tuzatib bo‘lmaydigan holatlar yuzaga kelishi mumkin. Jismoniy madaniyat bilan ongli, ilmiy asoslangan, amaliy sinab ko‘rilgan tavsiyalarga asosan shug‘ulllanilgandagina ijobiy natijalarga erishish mumkin.

Xulosa. Har bir fuqaroni salomatligini saqlashda jismoni tarbiya va ertalap bantarbiya bilan muntazam shigillanish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Korneva M.A., Makhov A.S., Stepanova O.N. Osobennosti motivatsii sportsmenov-invalidov s porazheniem oporno-dvigatelnogo apparata k uchastiyu v trenirovochnom protsesse po russkomu zhimu.

2. The Peculiarities of Motivation of Handicapped Athletes with Spinal Cord Injuries to Participation in Russian Press Work-Out Sessions].

3.Teoriya i praktika fiz. Kultury, 2014, no. 6, pp. 37–43.

JISMONIY TARBIYA VA SOG‘LOM TURMUSH TARZI

Atashov Marat Tenelbayevich

O‘zbekiston davlat sport akademiyasi huzuridagi Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Nukus filiali, dotsent v.v.b.

Kalit sozlar: *Jismoniy tarbiya, sport, ta’lim, mashg‘ulot, jismoniy sifatlar, jismoniy rivojlanish.*

Ключевые слова: *Физическое воспитание, спорт, образование, тренировка, физические качества, физическое развитие.*

Keywords: *Physical education, sports, education, training, physical qualities, physical development.*

Kirish. Hozirgi davrda eng muhim masala aholi sogligini muhofaza qilish va mustaxkamlashdir. Mustaqil O‘zbekiston Respublikasi bu masalani keng miqiyosda sotsial nuqtai nazarda ko‘rib chiqib, bunda muhim o‘rinni sog‘lom turmushni tashkil etishga qaratilmoqda. O‘tish davrining murakkabligi, iqtisodiy muammolar, atrof muhitni musaffoligini saqlash, epidemiyalar, turli voqea va hodisalar demografik qarama-qarshiliklar va boshqalar inson salomatligini yomonlashuviga sabab bo‘lmoqda.

Faqatgina soglom, uzini yaxshi xis etadigan, optimist, psixik jixatdan chidamli aqliy va jismoniy ish qobiliyatiga ega, faol yashaydigan odam kasbiy va turmush qiyinchiliklarini yenga oladi. Sog‘lom turmush tarzini tashkil etish faqatgina iqtisodiy ta’minlanish jixatidan emas, balki sog‘liqni saqlash insonlarni ma’naviy, ma’rifiy madaniy saviyasini oshirishni ham taqozo etadi.

Olimlarning ta’kidlashicha “donolik, komillik va jamiyatning taraqqiyoti ko‘p hollarda intellektual va ahloqiy potensial bilan belgilanadi”.

Asosiy qism. Mamlakatimiz kelajagi va ravnaqi hozirgi davr bolalari, yoshlari salomatligi, bilimlari, ilmu-salohiyati, iqtidori va e’tiqodlariga ko‘p jihatdan bog‘liqdir. Yosh avlod tarbiyasi faqat oila uchungina emas, balki millat oldida turgan muhim vazifa hisoblanadi. Sog‘lom bola va barkamol avlodni tarbiyalashda jismoniy tarbiya va sportni o‘rni ham beqiyosdir. Shuning uchun ham Respublikamizda jismoniy tarbiya va sport davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan ustivor masalalar qatoriga qo‘yilib, unga doir bir necha o‘nlab direktiv hujjatlar qabul qilindi. Ularni ijrosi borasida avvalo jismoniy tarbiya va sportni

moddiy bazasi shakllantirilib, ommaviyligi ortib bormoqda. Shu bilan birgalikda yosh avlodni sport bilan shug‘ullanishi uchun qulay sharoitlar va imkoniyatlar yaratilmoqda. Bular iqtidorli yoshlarni sport turlariga saralash imkoniyatini toboro kengaytirmoqda. Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek: - “Tabiyki, barcha ezgu niyatlarimiz markazida farzandlarimizni ham jismoniy, ham ma’naviy jihatdan sog‘lom qilib o‘stirish, ularning baxti saodati, farovon kelajagini ko‘rish, dunyoda hech kimdan kam bo‘lmaydigan avlodni tarbiyalash orzusi turadi”.

Jismoniy tarbiya aniq bir tizimga tayansagina, oldindan ko‘zlangan natijaga erishiladi.

Jismoniy tarbiya tizimi deganda, jismoniy tarbiyaning printsiplari, vositalari, metodlari va uni tashkillash shakllarining shunday umumiyligi tushuniladiki, u jamiyat a’zosini manan boy va har tomonlama garmonik rivojlantirishning maqsad va vazifalariga mos bo‘lsin (A.D. Novikov 1967).

Vatanimiz mudofasi masalasi ham jamiyatimizda yo‘lga qo‘yilgan jismoniy tarbiya jarayoniga qator talablar qo‘yadiki, bu talabalarni amalga oshirish natijasida jismoniy tarbiya tizimining obyektiv xususiyatlari namoyon bo‘ladi. Mamlakatimiz xalqlarining har tomonlama jismoniy tayyorgarligi, jismoniy sifatlarini yaxshi rivojlanganligi Vatan mudofasiga tayyorgarligining ko‘rsatkichi bo‘lib xizmat qiladi.

Shunday qilib, O‘zbekistonda jismoniy tarbiyaning maqsadi O‘zbekiston xalqini jismonan kamolotga erishgan, huquqiy davlatning aktiv quruvchilari, ijodiy mehnatga va Vatan mudofasiga tayyor qilib tarbiyalashdir. Bu maqsad mamlakatda jismoniy tarbiyani amalga oshirayotgan barcha tashkilot va muassasalar uchun umumiydir.

Jismoniy madaniyatni klassifikatsiyalash katta ahamiyaga egadir. U jamiyatda jismoniy madaniyatdan maqsadga muvofiq foydalanishni, uning qaysi yo‘ldan ketayotganligi, yo‘nalishini, fizkultura amaliyoti, vazifalarini hal qilish uchun tavsiya etilgan uning xilma-xil turlari imkoniyatlarini anglashga yordam beradi. Agarda maktabda jismoniy bilim (ma’lumot), umumiy jismoniy tayyorgarlik berish vazifalari hal qilinsa, uning hayoti davomida foydalanadigan jismoniy madaniyatning bazasi yaratiladi. Madaniyatning boshqa barcha turlari qayd qilingan vazifalarni yechishi mumkin bo‘lsada, inson jismi madaniyati uchun o‘rnini almashtira olmaydi.

Jamiyatda jismoniy madaniyatning rivojlanganlik darajasi quyidagi ko‘rsatkichlar bilan baholanadi:

-jamiyat a’zolarining kundalik turmushga jismoniy madaniyatning singdirilganligi darajasi bilan;

- jamiyat a’zolarining salomatligi va jismoniy tayyorgarligi bilan;

-jismi madaniyatining mashg‘ulotlarining moddiy-texnik ta’minlanganligi va ularni sifati bilan;

-jismoniy madaniyatga rahbarlik qilayotgan xodimlarning doimiy tarkibi (shtati), kvalifikatsiya va faolligi va iqtidori bilan;

-jamiyat a’zolarining sportdagi natijalari bilan baholanadi.

Mamlakatimiz mustaqilligi, jamiyatimizdagi kechayotgan ijtimoiy, iqtisodiy islohotlar yurtimiz farzandlarining jisman kamolotga erishgan bo‘lishi kerakligi talabini qo‘ymoqda. Har bir millat, elat o‘zining paxlavonlari, jismonan barkamol o‘g‘lonlari bilan faxrlanishgan. O‘z farzandlarini xalk og‘zaki ijodidagi Alpomish, Rustam, Go‘ro‘g‘li, Barchinoy kabi jisman va manan shakllangan bo‘lishlarini orzu qilganlar.

O‘rta asrning o‘rtalarida jismoniy tarbiya usuliyatlarining xillari ortdi. Gimnastika, suzish, o‘yinlar, kamon otish, otda chopish, qilichbozlik bo‘yicha dastlabki qo‘llanmalar paydo bo‘ldi. Ajdodlarimiz Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniylarning tan tarbiyasiga oid ilmiy dunyoqarashlari vujudga keldi (Usmonxo’jaev T.N. 1995).

Jumladan, shvetsariyalik demokrat pedagog I.G.Pestalotsii tomonidan (1746-1827) bolalar harakat qobiliyatini rivojlantirish uchun tuzilgan jismoniy mashqlar tizimida bo‘g‘inlar (sustavnaya) gimnastika umumiy pedagogika nazariyasi ichida alohida o‘rinni egallaydi. XVIII-asrda anatomlar tomonidan jismoniy mashqlar «biomexanika»si bo‘yicha izlanishlar olib borildi, 19-asrda esa jismoniy tarbiya haqida ilmiy- nazariy ishlar vujudga keldi.

Aynan shu davrda jismoniy tarbiya nazariyasiga asos solindi deb hisobga olinib, shu soha bo‘yicha ilmiy farazlar va bilimlar to‘planishi orqali mustaqil fan sifatida ajralib chiqdi.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, sport jismoniy madaniyat tarkibiga kiradi va mavjud jamiyat madaniyatining umumiy mulki, sport tayyorgarligi esa jismoniy tarbiyaning mutaxassislashtirilgan bo‘lagi sifatida tarbiya tizimining manfaatiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Q.Sodiqov Sog‘lom turmush tarzini shakllantirish. O‘quv qo‘llanma. Toshkent 2007.

2. Arabboyev Q.T. // Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi. Darslik Toshkent-2023.

3. Abdullaev.A. Xongeldiev.Sh.X Jismoniy tarbiya va usuliyati. Toshkent: /darslik -2005.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TARBIYALASH TA’LIM TIZIMI VA HAR TARAFLAMA O‘QITISH METODLARI

Utepbergenov Amangeldi Qutlimuratovich

Nukus davlat pedagogika instituti, Jismoniy madaniyat fakulteti dekani, b.f.n. professor

Jastlekova Madina Amirovna

Berdaq nomidagi QQDU 1-bosqich magistranti

Kalit so‘zlar: *maktabgacha ta’lim, bolalar, og’zaki metod, amaliy metod, o’yin metod, musobaqaviy metod, individual metod, farmon, komponentlar, mashg’ulotlar.*

Maktabgacha yosh – bu bolaning jismoniy, ruhiy va aqliy jihatdan shakllanishida asosiy poydevor qo‘yiladigan bosqichdir. Jismoniy tarbiya sog’lom, faol va ijtimoiy moslashgan shaxsni shakllantirishda muhim ro’l o’ynaydi. Ushbu jarayonning samaradorligi to’g’ri tanlangan va qo’llanilgan tarbiyaviy usullarga bog’liq. Shu bois, jismoniy tarbiya sohasi davlat miqyosida muhim yo‘nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan maktabgacha ta’lim tizimini modernizatsiya qilish va sog‘lom avlodni shakllantirishga oid qator huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Bunga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-maydagi PF–133-sonli Farmoni misol bo’la oladi. "Sog‘lom avlod – barqaror taraqqiyot kafolati" konsepsiyasi doirasida maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarning sog‘lig‘ini mustahkamlash va jismoniy tarbiyani yangi bosqichga olib chiqish haqida" Ushbu farmon asosida quyidagi muhim vazifalar belgilandi:

-Maktabgacha ta’limda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga qaratilgan dasturlarni joriy etish.

-Har bir MTTda sport va harakatli o‘yinlar uchun sharoitlar yaratish.

-Tarbiyachilar va jismoniy tarbiya instruktorlari uchun zamonaviy o‘quv-modul tizimini ishlab chiqish.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya tizimi, ayrim asosiy komponentlar orqali bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu komponentlar quyidagi asosiy yo’nalishlar orqali amalga oshiriladi:

Ertalabki badantarbiya mashqlari: bolalarni kun davomida faol bo'lishga tayyorlaydi. Rejalashtirilgan jismoniy mashg'ulotlar: bolalarning harakat ko'nikmalarini rivojlantiradi. Harakatli o'yinlar: bolalarning ijtimoiy ko'nikmalarini va jamoaviy ishlash qobiliyatini oshiradi. Chiniqtirish tadbirlari: bolalarning sog'lig'ini mustahkamlashga xizmat qiladi. Madaniy-gigiyenik ko‘nikmalarni shakllantirish: shaxsiy gigiyena va sog'lom turmush tarzini o'rgatadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun yuqorida atab o'tilgan komponentlar, ularning har tomonlama rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, bolalarning sog'lig'ini mustahkamlash, harakat ko'nikmalarini rivojlantirish, aqliy va emotsional barqarorlikni ta'minlash, ijtimoiy va axloqiy fazilatlarni shakllantirish hamda sportga bo'lgan qiziqishni oshirishga xizmat qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni o‘qitishda turli metodlardan foydalanish ularning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi. O‘yin asosidagi, interfaol, vizual, amaliy va hikoya metodlari bolalarning aqliy, jismoniy va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Pedagoglar ushbu metodlarni bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda tanlashlari va qo'llashlari zarur.

1. Og’zaki metod.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitishda og'zaki uslubiy yondashuv ularning nutqiy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Quyida ushbu metodning asosiy jihatlari va ta'siri haqida batafsil ma'lumot beriladi:

1. Og'zaki uslubiy yondashuvning mohiyati

Og'zaki uslubiy yondashuv - bu bolalarga bilim va ko'nikmalarni og'zaki muloqot orqali yetkazish usulidir. Bu metod orqali tarbiyachi bolalarga hikoya qilish, tushuntirish, savol-javob, suhbat kabi usullar bilan ta'lim beradi. Bu yondashuv bolalarning eshitish, tushunish va ifoda etish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

2. Maktabgacha yoshdagi bolalarga qo'llanilishi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun og'zaki uslubiy yondashuv quyidagi shakllarda qo'llaniladi:

Hikoya qilish: bolalarga ertaklar, qiziqarli voqealar aytib berish orqali ularning tasavvuri va eshitish qobiliyatini rivojlantirish.

Savol-javob: bolalarga savollar berish va ularning javoblarini tinglash orqali muloqot ko'nikmalarini oshirish.

Suhbatlar: muayyan mavzular bo'yicha bolalar bilan suhbatlashish orqali ularning fikrlash va ifoda etish qobiliyatlarini rivojlantirish.

Topishmoq va tez aytishlar: bolalarning eshitish va diqqatini oshirishga xizmat qiladi.

3. Og'zaki uslubiy yondashuvning ta'siri. Ushbu metodning bolalar rivojlanishiga ta'siri quyidagicha:

Nutqiy rivojlanish: bolalarning so'z boyligi oshadi, grammatik tuzilmalardan to'g'ri foydalanish ko'nikmalari shakllanadi.

Aqliy rivojlanish: bolalarning fikrlash, tushunish va eslab qolish qobiliyatlari rivojlanadi.

Ijtimoiy rivojlanish: bolalar o'z fikrlarini erkin ifoda eta boshlaydilar, muloqot madaniyati shakllanadi.

Axloqiy tarbiya: hikoya va suhbatlar orqali bolalarga axloqiy qadriyatlar singdiriladi.

4. Pedagogik tavsiyalar

Og'zaki uslubiy yondashuvni samarali qo'llash uchun quyidagi tavsiyalarni inobatga olish lozim:

Bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish.

Og'zaki materiallarni bolalarning qiziqishlariga mos ravishda tanlash.

Muloqot jarayonida bolalarning faol ishtirokini ta'minlash.

Og'zaki yondashuvni boshqa metodlar bilan uyg'unlashtirish.

Og'zaki uslubiy yondashuv maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqiy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Ushbu metod orqali bolalar o'z fikrlarini erkin ifoda eta boshlaydilar, muloqot madaniyati shakllanadi va axloqiy qadriyatlar singdiriladi. Pedagoglar og'zaki uslubiy yondashuvni samarali qo'llash orqali bolalarning har tomonlama rivojlanishiga erishadilar.

2. Amaliy (praktik) metod.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitishda amaliy metod - ya'ni, faoliyat orqali o'rgatish - ularning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Ushbu metod bolalarning mustaqil fikrlashi, harakatlari va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Amaliy metodning mohiyati. Amaliy metod - bu bolalarni real hayotiy vaziyatlar va faoliyatlar orqali o'rgatish usulidir. Bu yondashuvda bolalar o'zlari

ishtirok etadigan mashg'ulotlar orqali yangi bilimlarni o'zlashtiradilar. Masalan, rasm chizish, qurilish bloklari bilan o'ynash, bog'da o'simlik ekish kabi faoliyatlar orqali bolalar nafaqat yangi ma'lumotlarni o'rganadilar, balki ularni amalda qo'llashni ham o'rganadilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga qo'llanilishi. Amaliy metod maktabgacha yoshdagi bolalar uchun quyidagi shakllarda qo'llaniladi:

Didaktik o'yinlar: bolalarning bilim va ko'nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Ijodiy mashg'ulotlar: rasm chizish, haykaltaroshlik, qo'l mehnati orqali bolalarning tasavvuri va ijodiy fikrlashini rivojlantiradi. Tabiat bilan tanishish: bog'da ishlash, hayvonlarga g'amxo'rlik qilish orqali bolalarning atrof-muhitga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Amaliy topshiriqlar: kiyim kiyish, ovqat tayyorlash kabi kundalik hayotiy faoliyatlar orqali bolalarning mustaqilligini rivojlantiradi.

Amaliy metodning ta'siri. Amaliy metodning bolalar rivojlanishiga ta'siri quyidagicha:

Aqliy rivojlanish: bolalar muammolarni hal qilish, sabab-oqibat aloqalarini tushunish kabi ko'nikmalarni o'zlashtiradilar.

Jismoniy rivojlanish: mayda va yirik motorika harakatlari orqali bolalarning jismoniy salohiyati oshadi.

Ijtimoiy rivojlanish: jamoaviy faoliyatlar orqali bolalar muloqot qilish, hamkorlikda ishlash kabi ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantiradilar.

Emotsional rivojlanish: muvaffaqiyatli faoliyatlar orqali bolalarning o'ziga bo'lgan ishonchi va ijobiy emotsiyalari kuchayadi.

3. O’yin metod.

O'yin metodi maktabgacha ta'limda bolalarning rivojlanishiga katta hissa qo'shadi. Ushbu metod bolalarning qiziqishini uyg'otish, bilimlarni mustahkamlash va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishda samarali vositadir.

O'yin metodining mohiyati. O'yin metodi - bu ta'lim jarayonini o'yin shaklida tashkil etish orqali bolalarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish usulidir. Bu yondashuv bolalarning yoshiga mos ravishda ularning qiziqishini oshirib, o'rganish jarayonini qiziqarli va samarali holda uyg’unlashtirib beradi.

O'yin metodining maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'siri:

1. Aqliy rivojlanish: O'yinlar orqali bolalar muammolarni hal qilish, mantiqiy fikrlash va xotirani rivojlantiradilar.

2. Ijtimoiy ko'nikmalar: Jamoaviy o'yinlar bolalarda hamkorlik, muloqot va boshqalar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi.

3. Ijodiy fikrlash: Rolli va syujetli o'yinlar bolalarning tasavvuri va ijodiy fikrlashini rivojlantiradi.

4. Jismoniy rivojlanish: Harakatli o'yinlar bolalarning motorika ko'nikmalarini mustahkamlashga yordam beradi.

O'yin metodining turlari:

Didaktik o'yinlar: Bilim va ko'nikmalarni mustahkamlashga qaratilgan o'yinlar.

Rolli o'yinlar: Bolalar turli rollarni bajarib, ijtimoiy vaziyatlarni o'rganadilar.

Harakatli o'yinlar: Jismoniy faollikni oshiradigan o'yinlar.

Ijodiy o'yinlar: Tasavvur va ijodiy fikrlashni rivojlantiradigan o'yinlar.

4. Musobaqaviy metod.

Musobaqaviy yondashuv metodi maktabgacha yoshdagi bolalar ta'limida muhim o'rin tutadi. Ushbu metod bolalarning tabiiy raqobatga bo'lgan qiziqishini rag'batlantirib, ularni faol ishtirok etishga undaydi.

Musobaqaviy yondashuv metodining mohiyati

Musobaqaviy yondashuv metodi - bu bolalarni o'zaro raqobatlashishga undovchi ta'lim usulidir. Bu metod orqali bolalar o'z imkoniyatlarini sinab ko'radilar, muvaffaqiyatga erishish uchun harakat qiladilar va o'zlarining kuchli tomonlarini aniqlaydilar.

Musobaqaviy yondashuv metodining maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'siri

1. Motivatsiyani oshiradi: Raqobat bolalarda o'z maqsadlariga erishish istagini kuchaytiradi.

2. Ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantiradi: Bolalar o'zaro muloqot qilish, hamkorlikda ishlash va boshqalarni hurmat qilishni o'rganadilar.

3. Muammolarni hal qilish qobiliyatini oshiradi: Raqobatli vaziyatlarda bolalar tez va samarali qarorlar qabul qilishni o'rganadilar.

4. O'z-o'zini baholashni rivojlantiradi: Bolalar o'z yutuq va kamchiliklarini tahlil qilib, o'z ustida ishlashga intiladilar.

Musobaqaviy yondashuv metodining qo'llanilishi

Musobaqaviy yondashuv metodi maktabgacha ta'limda quyidagi shakllarda qo'llaniladi:

Didaktik o'yinlar: Bilim va ko'nikmalarni mustahkamlashga qaratilgan raqobatli o'yinlar.

Sport musobaqalari: Jismoniy faollikni oshiradigan va sog'lom raqobatni rag'batlantiradigan tadbirlar.

Ijodiy tanlovlar: Rasm chizish, qo'l mehnati kabi ijodiy faoliyatlar orqali bolalarning tasavvuri va ijodiy fikrlashini rivojlantiradi.

5. Vizual (ko’rgazmali) metod.

Ko'rgazmali metodning mohiyati. Ko'rgazmali metod - bu o'quv materiallarini vizual vositalar orqali taqdim etish usulidir. Bu metod bolalarning diqqatini jalb qilish, tushunchalarni aniqroq anglash va eslab qolishlariga yordam beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'siri

1. Tushunchalarning aniq shakllanishi: Ko'rgazmali vositalar orqali bolalar mavzuni yaxshiroq tushunadilar.

2. Qiziqishning oshishi: Rangli va jonli tasvirlar bolalarning o'rganishga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi.

3. Ijodiy fikrlashni rivojlantirish: Ko'rgazmali materiallar bolalarning tasavvurini kengaytiradi.

4. Mustaqil o'rganish ko'nikmalarini shakllantirish: Bolalar ko'rgazmali vositalar ordamida mustaqil ravishda bilim olishni o'rganadilar.

Qo'llaniladigan vositalar. Ko'rgazmali metodda quyidagi vositalardan foydalaniladi:

Rasmlar va suratlar: Mavzuga oid tasvirlar orqali tushunchalarni mustahkamlash.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maktabgacha ta’lim sohasini rivojlantirishga doir farmonlari maktabgacha yoshdagi bolalar sog‘lig‘ini mustahkamlash, harakat faolligini oshirish va barkamol shaxs tarbiyalashni asosiy strategik yo‘nalish etib belgilaganligi sababli jismoniy tarbiya sohasida turli tarbiyaviy usullardan uyg‘un va maqsadli foydalanish orqali sog‘lom, harakatchan va ma’naviy yetuk avlodni shakllantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. O’ylaymizki bunday amalga oshirilayotgan ishlar kelajagimiz yoshlarini har tomonlama yetuk, barkamol qilib tarbiyalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-maydagi PF–133-sonli Farmoni misol bo’la oladi. "Sog‘lom avlod – barqaror taraqqiyot kafolati" konsepsiyasi doirasida maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarning sog‘lig‘ini mustahkamlash va jismoniy tarbiyani yangi bosqichga olib chiqish haqida"
2. Maktabgacha ta’lim jurnali. 2022 y.
3. Bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash tayanch-sinov dasturi. Toshkent-2019 y.

OLIMPIYA HÁM PARALIMPIYA SPORT TÚRLERINE TAYARLAW ORAYLARÍ 12-15 JASLÍ VOLEYBOLSHÍ SPORTSHÍLARÍNDA HÁREKET TEZLIGIN RAWAJLANDÍRÍWDÍŃ NÁTIYJELILIGI

Allanazarov Ikram Genjeyevich

Ózbekstan mámleketlik dene tárbiyası hám sport universiteti Nókis filialı assistent oqıtıwshısı

Kochanov Abat Erejepovich

Qaraqalpaq Mámleketlık Universiteti fakultetler aralıq dene mádeniyatı kafedrası aǵa oqıtıwshısı

Tayanısh sózler: *12-15 jaslı sportshılar, kúshti rawajlandırıw, tezlik, epshillik hámde iyiliwsheńlikti rawajlandırıw.*

Ключевые слова: *Спортсмены 12-15 лет, развивающие силу, скорость, ловкость и гибкость.*

Key words: *12-15 years old athletes, developing strength, increasing speed, agility and flexibility.*

Kirisiw. 12-15 jaslı balalar hám óspirimler olimpiya hám paralimpiya sport túrlerine tayarlaw orayı dáslepki tayarlıq basqıshı voleybolshı oqıwshılarında háreket tezligin rawajlandırıw olardı tayarlawdıń eń áhmiyetli wazıypalarınan biri esaplanadı.

12-15 jaslı balalar hám óspirimler olimpiya hám paralimpiya sport túrlerine tayarlaw orayı dáslepki tayarlıq basqıshı voleybolshı oqıwshılarında olardıń somatotipların esapqa alǵan jaǵdayda háreket tezligin rawajlandırıw zárúrligin belgilewshi baǵdarlar bar. Buǵan tómendegiler kiredi:

- oqıwshılarda háreket tezligin rawajlandırıwǵa qoyılatuǵın joqarı talablar;

- antropometrik maǵlıwmatlardıń genetik jaqtan anıqlanǵan ayırmaları;
- jas sportshılardıń komandadaǵı roliniń ózine tán qásiyetleri;
- oqıwshılardıń fizikalıq rawajlanıwındaǵı ayırmalar;
- háreket tezligin rawajlandırıwǵa individual jantasıwdan paydalanıw zárúrligi;
- háreket tezligin rawajlandırıw xarakterindegi fizikalıq iskerligin rawajlandırıwda hár qıylı tayarlıq dárejesi.

Ádebiyatlar analizinen belgili bolǵanınday, "házirgi waqıtta dáslepki tayarlıq basqıshı oqıwshıları arasında háreket tezligin rawajlandırıw zárúrligi máselesi áhmiyetli bolıp turıptı" [1; 32-b.]. Ótkerilgen izerlewler sonı kórsetedi, dáslepki tayarlıq basqıshı voleybolshı oqıwshılarınıń háreket tezligin kúsheytiw boyınsha shınıǵıwlar dawamında olarda tezlikti kúsheytiw boyınsha shınıǵıwlardı individualizaciyalawdıń hár túrli formaların qollanıw zárúr. Sol tiykarda oqıw processine oqıwshılardıń tezlik-kúsh tayarlıǵın asırıwǵa qaratılǵan innovacion usıllar hám texnologiyalardı kiritiw kerek.

Ádebiyatlar analizine qarasaq, 12-15 jaslı dáslepki tayarlıq basqıshı voleybolshı oqıwshıların tezlik penen shuǵıllanıw waqtında tipologik toparlarǵa ajıratıwda tómendegi qásiyetlerdi esapqa alıw kerek [2; 4-b.]:

- fizikalıq rawajlanıw dárejesi hám fizikalıq tayarlıǵı;
-Hár túrli sapa qásiyetleri rawajlanıwınıń kórinerli dáwirleri;
- fizikalıq kórsetkishler hám basqa somatotipik belgiler.

Alınǵan nátiyjelerden sonı aytıwımız múmkin, 12-15 jaslı dáslepki tayarlıq basqıshında voleybolshı oqıwshılardı háreket tezligine úyretiw processinde hár túrli somatotipli oqıwshılar ushın tezlik - kúshke baǵdarlanǵan hár túrli shınıǵıwlardan paydalanıw kerek.

Izertlew dawamında anıqlanǵanınday, 12-15 jaslı dáslepki tayarlıq basqıshı voleybolshı oqıwshıları ushın háreket tezligine baǵdarlanǵan shınıǵıwlardı ayırıw hár túrli somatotipli oqıwshılardıń shınıǵıwlarında individual-tipologik jantasıwdı qollanıw maqsetke muwapıqlıǵın kórsetedi.

Ótkerilgen izerlewler nátiyjeleri 12-15 jaslı dáslepki tayarlıq basqıshı voleybolshı oqıwshılarda háreket tezligin rawajlandırıwǵa qaratılǵan shınıǵıwlardıń eń nátiyjeli formaları, metod hám usılların izlew maqsetke muwapıqlıǵın kórsetpekte.

Izertlew dawamında 12-15 jaslı dáslepki tayarlıq basqıshı voleybolshı oqıwshılardıń shınıǵıw processine básekiles rejimde ámelge asırılatuǵın shınıǵıwları kiritildi. Shınıǵıwlar processinde, ilajı bolǵansha básekiles momentlerge jaqın bolǵan shınıǵıwlardan paydalanıw, oqıwshılardıń tezlik-kúsh shınıǵıwların hár túrli hám qızıqlı etiwge imkan berdi.

Orayda "dáslepki tayarlıq basqıshındaǵı balalar qısqa múddetli tezlik-kúsh júklemelerine jaqsı shıdaydı. Olar menen shınıǵıw ótkerilgeninde, sekiriw, akrobatika shınıǵıwları, gimnastika, snaryadlardaǵı dinamik shınıǵıwlar keń túrde qollanıladı" [3; 45-b.]. Sonıń menen birge, balalar dem alıwın qatań qadaǵalaǵan jaǵdayda turaqlı momentlerdi saqlap turıwdı biliwi kerek. Shınıǵıwlardı orınlawda tuwrı jaǵdaydı uslap turıw mútájligi sebepli turaqlı shınıǵıwlardı qollanıw zárúrligi

júzege keledi. Bul jasta qáddi-qáwmetti qáliplestiriw ushın turaqlı shınıǵıwlardıń ózine tán ornı bar. Qáddi-qáwmetti saqlawda arqadaǵı bulshıq etlerdiń turaqlı shıdamlılıǵı menen tıǵız baylanıslı. Sonıń ushın onı rawajlandırıw qáwmet buzılıwınıń aldın alatuǵın usıl esaplanadı. “Izertlewde 12-13 jaslı balalarda tezlik-kúsh sapalarınıń jedellikli ósiwi gúzetiledi. Tezlik-kúsh sapaların rawajlandırıwda partlaw qásiyetine iye bolǵan dinamik shınıǵıwlarǵa ústinlik beriledi. Shuqırǵa sekiriwdan soń joqarıǵa sekirip shıǵiwdiń nátiyjeliligi júdá joqarı boladı. 14-15 jaslar arasında tiykarınan tezlik-kúsh sapalarınıń rawajlanıwı esabına háreketleniw tezligi ham jedel pátler menen ósip baradı. Sonıń ushın tezlik-kúsh shınıǵıwlarınan keń túrde paydalanıw usı sapanıń kúsheyiwine qolaylı sharayat jaratadı” [1; 26-b.].

Óspirimlik dáwirinde tez juwırıw texnologiyasın úyreniw ushın fiziologiyalıq imkaniyatlar payda boladı. Tezlikti rawajlandırıw usıllarına:

- imkan shegarasındaǵı yamasa shegara aldı tezligi menen 20 m den 60 m ge shekem juwırıw,
- mayda qádemlep juwırıp, keyin tezlesiw,
- bulshıq etlerdiń zorıǵıwına góre bir-birine qarsı shınıǵıwlar kiredi.

Jas sportshılarda “13-14 jaslarǵa barıp, tezlik tiykarındaǵı jas penen baylanıslı funkcional hám morfologik qayta qurıwlardıń pátleri ástelesedi. Sol sebepli tezlik hám tezlik-kúsh shınıǵıwlarınıń nátiyjeliligi de tómenleydi. 15 jastan keyin tek shınıǵıwlar járdeminde ǵana tezlik-kúsh sapalarınıń unamlı ózgerislerine erisiw múmkin” [4; 24-b.].

Jas sportshı jigerliliginiń maksimal dárejede sáwleleniwi talap etiletuǵın jarıs momentleri maksimal kúshtiń rawajlanıwında úlken nátiyje beredi, biraq bul júdá keskir quraldan onıń tayarlıǵın qatań individuallastırıp bahalawda paydalanıw kerek. Kishi salmaqlar (maksimal salmaqtıń 10% ten kem) kúshti rawajlandırıw da maqsetke muwapıq emes. Olar bulshıq et kúshin arttırıw ushın zárúrli sharayat jaratpaydı, bul jaǵdayda normadan artıq tikleniwh tásiri (effekti) júdá kishi boladı.

“Kúshti rawajlandırıw ushın qolaylı morfologik hámde funkcional sharayat 9-10 jaslarda júzege keledi” [3; 37-b.]. Er balalarda dinamik kúsh shınıǵıwlarına joqarı sezgirlik 2 dáwirden ibarat boladı:

1) 9 jastan 10-12 jasqa shekem

2)14 jastan 17 jasqa shekem

“Qız balalarda 11-12 jasqa kelip kúsh shıdamlılıǵı joqarılawın baslaydı” [67; 49-b.]. 7-10 jaslı oqıwshılarda turaqlı kúsheniwler sharshawdıń tez rawajlanıwı menen boladı. Mekteplerde 5-8 klasslardıń dene tárbiya sabaqlarında kishi júkler (12 kg) menen dinamik kúsh shınıǵıwları, arqanǵa shıǵıw, júk tasıw, shoyın top ılaqtırıw sıyaqlılardan nátiyje menen paydalanılmaqta. 15-16 jasta kúsh shıdamlılıǵınıń artı múnásebeti menen 23 kg lı júkler menen ótkeriletuǵın shınıǵıwlar sanı kóbeyedi, arqanǵa waqıtqa qarap shıǵıw, gúres elementleri qollanıladı. Bul jastaǵı qızlarda kúsh shınıǵıwları salıstırmalı dárejede bulshıq et kúshınıń kemeyiwi sebepli shegaralanadı. Óspirimler menen alıp barılatuǵın shınıǵıwlarda turaqlı momentlerdi, dáslepki jaǵdaylardı, asılıp, tayanıp turıwlardı talap etiwshi shınıǵıwlardan paydalanıwı kerek. Balalarda maksimal kúshtiń

sáwleleniwi menen baylanıslı bolǵan sport túrlerine erte qamtıp alıw ózin aqlamaydı.

11-12 jaslarda tezlik, epshillik hámde iyiliwsheńlikti rawajlandırıw maqsetke muwapıq boladı. 14-15 jaslı óspirimlerde kúsh rawajlanıp, tezlik-kúsh shınıǵıwların orınlaw qábiletleri payda bola baslaydı. 16-18 jaslarda kúsh hám tezlikti talap etiwshi shınıǵıwlardı ózlestiriwi ańsat boladı. Bunsa shıdamlılıqtı jetilistiriw ushın sharayat payda boladı. Shıdamlılıqtı basqa fizikalıq sapalar menen bir waqıttıń ózinde rawajlandırıw kerek. Professor V.P.Filinniń atap ótiwinshe "Bul jasta shıdamlılıqqa qaratılǵan uzaq múddetli hám bir tárepleme shınıǵıwlarda jaslarǵa tán bolǵan tezlik júklemelerine maslasıwshılıq dárejesi tómenleydi", – dep esletip ótken". 12-15 jaslarda kúshti rawajlandırıw, tiykarlanǵan, shuǵıllanıwshınıń óz dene massası, toltırma toplar, ganteller, gimnastika snaryadlarında ámelge asırılatuǵın shınıǵıwlar járdeminde ámelge asırıladı. Júkler sıpatında hár qıylı salmaqdaǵı taslar hámde shtanga qollanıladı. Professor V.P.Filinniń izertlewleri sonı kórsetedi, 13 jastan baslap buwınlardaǵı háreketsheńlikte ósiw baslanadı, 15 jasta ol eń joqarı dárejege erisedi, 16-17 jaslarda kórsetkishler tómenleydi. Soǵan góre, óspirinlik dáwirinde iyiliwsheńlik hám buwınlardaǵı háreketsheńlikti asıratuǵın shınıǵıwlardı qollanıw shárt. Sonday-aq, úlkenlerge qaraǵanda qáwmetti kóbirek qáliplestiriwshi shınıǵıwlar qollanıladı. Solay etip, hár túrli usıllar hár tárepleme fizikalıq tayarlıqtı támiyinleydi.

Juwmaq. Juwmaqlap aytqanımızda 12-15 jaslı balalar hám óspirimler olimpiya hám paralimpiya sport túrlerine tayarlaw orayı dáslepki tayarlıq basqıshı voleybolshı oqıwshılarında háreket tezligin rawajlandırıw olardı tayarlawdıń eń áhmiyetli wazıypalarınan biri esaplanadı.

Paydalanılǵan ádebiyatlar

1. Сергиенко Л.П. Спортивный отбор: теория и практика. Монография. – М: Советский спорт, 2013. - 1048 с.
2. Тимакова Т.С. Факторы спортивного отбора или Кто становиться олимпийским чемпионом: монография. –М.: Спорт, 2018. – 288 с.
3. Скворцова М.Ю., Букреева Н.А. Подготовка высокорослых игроков в баскетболе. Кемерово: КузГТУ, 2012. -112 с.

BOSQON ULOQTIRISHDA JISMONIY TAYYORGARLIK

Arzibekov Tolibay Kalenderovich

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali

Kalit so‘zlar: *jismoniy tayyorgarlik, maxsus tayyorgarlik, metall shar, tezlik, kuch, chaqqonlik, epchillik.*

Kirish. Yengil atletika uloqtirishlari yuqori jismoniy tayyorgarlik va mukammal texnikani talab qiladi, shu sababli uloqtiruvchi yaxshi jismoniy tayyorgarlikka va yuqori darajada tezlik-kuch sifatlariga ega bo‘lishi darkor. Biroq snaryadning uchish uzoqligi ko‘p jihatdan sportchining oqilona uloqtirish texnikasini qay darajada o‘zlashtirganligiga ham bogliq.Bosqon metall shardan iborat bo‘lib, po‘lat sim orqali dastaga biriktirilgandir. Shar temir, po‘lat, cho‘yan

yoki lutundan yasaladi. U yaxlit qo‘yilgan yoki ichiga ancha og‘ir metall (qo‘rg‘oshin, simob) to‘ldirilgan bo‘lishi mumkin. Uloqtirish uchun sportchining yoshiga qarab, bosqon turli xil og‘irlikda bo‘ladi: erkaklar uchun 7 kg dan 265 grgacha, katta o‘smirlar uchun 6 kg, kichik o‘smirlar uchun 5 kg, ayollar uchun 4 kg qilib belgilangan. Barcha asboblarning uzunligi bir xil (118-122 sm). Bosqon uloqtirish musobaqasi 2,135 m diametrga ega bo‘lgan stement yoki asfalt doiradan turib, 34,92° sektorda o‘tkaziladi. Uloqtirish doirasi balandligi kamida 3,5 m bo‘lgan ehtiyot to‘ri bilan to‘silgan bolishi kerak.

Ixtisoslikka qaratilgan jismoniy mashqlardan ko‘proq foydalanish, ayniqsa, maxsus jismoniy tayyorgarlik mashg‘ulotlari uchun qo‘l keladi. Biroq umumiy jismoniy tayyorgarlik mashg‘ulotlarida ham jismoniy o‘sishdagi ayrim kamchiliklarni bartaraf etish, kuch yoki tezlik sohasida tayyorgarlik yetarli bo‘lmagan vaqtlarda va boshqa shunga o‘xshash kamchiliklarni yo‘qotish uchun ham bunday aniq maqsadga yo‘nlatirilgan mashqlarga foydalanish mumkin. Kuch, tezlik, chidamlilik va boshqa sifatlarni rivojlantirish uchun mo‘ljallangan mashqlar umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlikda asosiy rol o‘ynaydi. Umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlikda ayni mana shu jihatlar rivojlanishning har tamonlama bo‘lishini va yuksak yutuqlarga erishishi imkoniyatini ma'lum darajada belgilab beradi. Shunday bo‘lishi tabiiydir, chunki ko‘rsatib o‘tilgan jismoniy sifatlar sportchining ayrim a'zolari va sistemalari hamda, umuman, butun organizmning yuksak darajadagi ish qobiliyatiga asoslangan harakat imkoniyatlarining namoyon etilishi hisoblanadi. Umumiy jismoniy tayyorgarlik sportchi butun gavdasini, umuman, uyg‘un tarzda rivojlantirishga, barcha harakat, mushaklarini rivojlantirishga, organizm a'zolari va tizimlarini mustahkamlashga hamda ularning funksional imkoniyatlarining oshirishga, harakatlarni muvofiqlashtira olish qobiliyatini, kuch-quvvatni, tezkorlikni, chidamlilikni, chaqqonlik va epchillikni oshirishga, gavda tuzilishidagi va gavda defektlarini tuzatishga qaratilgan bo‘ladi. Mazkur masalalarlarning hal etilishi kishining har tomonlama jismoniy takomillashuviga ko‘proq ta’sir etib, sportchining uyg‘un rivojlanishini ta’minlaydi. Umumiy jismoniy tayyorgarlikning muayyan darajasini ta’minlash sportchining funksional imkoniyatlarini uning ixtisosligi uchun zarur yo‘nalishda rivojlantirish asosi hisoblanadi. Umumiy jismoniy tayyorgarlik uchun ta'sir doirasi keng bo‘lgan mashqlardan foydalaniladi. Ma’lumki, har bir jismoniy mashq sportchi organizmiga turli ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa, ko‘pincha, sport trenirovkasida bir vaqtning o‘zida bir necha masalani hal qilish imkonini beradi. Masalan, krosslar yordamida chidamlilik sifatlari rivojlanadi, qat'iyatli bo‘lish xususiyati tarbiyalanadi, qiyinchiliklarni yengib o‘tish uchun zarur bo‘lgan iroda mustahkamlanadi. Maxsus jismoniy tayyorgarlik sportchi barcha a’zolari va tizimlarining yuksak darajada rivojlanishiga favqulodda yuqori ta’sir ko‘rsatishga qaratilgan bo‘lib, sportchi organizmining barcha funksional imkoniyatlarini ishga soladi. Lekin bunda basketbol o‘yinida talab qilinadigan sifatlarni rivojlantirishga alohida e’tibor beriladi. Tabiiyki, tanlanadigan mashqlar ham ana shu maqsadga xizmat qiladi. Bu qoida yengil atletikaning barcha turlari uchun juda muhim sanaladi. Bunga erishish uchun jismoniy mashqlar organizmining barcha a’zolari

va tizimlariga kuchli ta’sir ko‘rsatish ta’minlanishi, u gavdada a’zolarning barcha qismiga, har xil harakat faoliyatida ishtirok etadigan a’zolariga keng miqiyosda ta’sir ko‘rsatish ta’minlanishi kerak.

Bosqon uloqtirish. Umumiy jismoniy tayyorgarlik (UJT-2) haftasi Umumiy jismoniy tayyorgarlik (UJT-2) haftasining birinchi kunida sherik bilan egiluvchanlikni rivojlantiruvchi badan qizdirish mashqlari amalga oshiriladi. Shtanga bilan bajariladigan mashqlarga quyidagilar kiradi: shtangani yelkaga olib burilishlar, egilishlar; dast ko‘tarish, ustunchalardan va ularsiz dast ko‘tarib tortishlar, yelkada va ko‘krakdagi shtanga bilan o‘tirib-turishlar 6-10 martadan takrorlash, jami 20-25 yondashuvni (65-80%) o‘z ichiga oladi. Mashg‘ulotning ikkinchi kunida gimnastika snaryadlarida mashq bajarish kerak. Undan so‘ng to‘ldirma to‘plar bilan badantarbiya mashqlari, shuningdek qadoqtoshlarni aylantirish (16-22 kg) - ikki qo‘llab har ikkala tomonga 8-10 martadan, jami 10 marta yondashuv bilan qilinadi. Yadro, qadoqtoshlar yoki og‘irlikni (16 kg) joyidan turib va bir bor burilish bilan uloqtirish, jami 60-80 marta takrorlash zarur. Joyida va oldinga siljib sakrashlar 15 martadan, har bir oyoqda 4-5 marta takrorlash talab etiladi. Startdan yugurish 6-8 marta va 100 m tezlanishlar soni esa 2 marta. Yuqoridagi mashqalar qilinib bo‘lingandan so‘ng uchunchi kun mashqlari, ya’ni badan qizdirish mashqlari qilinadi. Bularga gimnastika devori va yakkacho‘pda qorin, orqa va yelka kamari mushaklarini rivojlantiruvchi kabi mashqlar kiradi. Bundan tashqari akrobatika, basketbol, voleybol o‘ynash (45 daqiqa) tavsiya etiladi. 4-kun. Dam olish. 5-kun. 1-kun dasturi bo‘yicha. 6-kun. 2-kun dasturi bo‘yicha. Sust sur’atda yugurish 15-20 daqiqa. 7-kun. Dam olish. Jami: qadoqtoshni aylantirish 160-200 marta, qadoqtosh, og‘irlikni uloqtirish 120-160 marta, shtanga bilan bajariladigan 158 mashqlar, jami 40-50 yondashuv, takrorlar 300-500, sakrashlar 240- 300 martagacha qilinishi talab etiladi.

Maxsus jismoniy tayyorgarlik (M JT) haftasining birinchi kunida sherik bilan egiluvchanlikni rivojlantiruvchi badan qizdirish mashqlari va shtangani yelkaga olib burilish va egilishlar qilinadi. Shtanga bilan bajariladigan mashqlar quyidagilar kiradi: cho‘nqayib o‘tirmay, tor va keng ushlagan holda dast ko‘tarib ustunchaga qo‘yish, dast ko‘tarib tortishlar, shtanga bilan o‘tirib-turishlar 6-8 martadan, jami 20 yondashuvgacha (70-85%). 16-32 kg qadoqtoshni bir yoki ikki qo‘l bilan (bosqonni ushlagandek) ikkala tomonga 8-10 martadan aylantirish, jami 8-10 yondashuv. Tayyorgarlikning ikkinchi kuni to‘ldirma to‘plar bilan badan qizdirish mashqlari qilinadi. Bosqonni burilishlar bilan dastlabki aylantirish 30 daqiqa. Turgan joyda va bir marta burilish bilan yadro, to‘ldirma to‘plar, qadoqtoshlar yoki og‘irlikni uloqtirish 100-120 marta. Bir oyoqdan ikkinchisiga va bir oyoqda o‘n karra sakrash, jami 10 marta, tezlanib yugurib kelishdan 2-4 yugurish qadamida amalga oshiriladi. Startdan yugurish esa 6-8 marta, 60-80 m tezlanishlar 3-4 marta. 3-kun. Egiluvchanlikni rivojlantiruvchi mashqlardan foydalanib badan qizdirish. Shtanga bilan burilish va egilishlar; qaychisimon usulda ko‘krakka yoki ustunchaga ko‘tarish, tagliklardan yoki ularsiz tortib ko‘tarish, yarim cho‘nqayib va cho‘nqayib o‘tirib turishlar 5-6 martadan, jami 25 yondashuv (70-90%). Gimnastika devori va halqalarda bajariladigan mashqlar. 4-

kun. Dam olish. 5-kun. Sherik bilan egiluvchanlikni rivojlantiruvchi badan qizdirish mashqlari. Bosqonni bir va uch burilishdan uloqtirish 25-30 marta (yaxshisi ochiq havoda). Basketbol o‘ynash yoki sust sur’atda yugurish 15-20 daqiqa. Mashg‘ulotning oltinchi kunida to‘ldirma to‘plar bilan badan qizdirish mashqlari qilinadi. Undan so‘ng qadoqtosh bilan mashqlar: bir va ikki qo‘l bilan aylantirish, jonglyorlik qilish, siltab ko‘tarishlar, jami 8-10 yondashuv. Shtangani yelkaga ko‘krakka olib cho‘nqayib va yarim cho‘nqayib o‘tirib-turishlar 5-8 martadan, jami 20 martagacha yondashuv (70- 85%). Har xil usulda sakrashlar 100-159 120 bor itarilishgacha. Gimnastika snaryadlarida bajariladigan mashqlar. Yettinchi kun dam olish kunidir. Jami: bosqon uloqtirish 25-30 marta, qadoqtoshni aylantirish 130-200 marta, qadoqtosh, og‘irlikni uloqtirish 100-120 marta, shtanga bilan bajariladigan mashqlar 55-65 yondashuv, takrorlar 345-455, 200-220 marta sakrashni o‘z ichiga oladi. Bajarilganda mashg‘ulot samarador bo‘lib to‘liq jismoniy tayyorgarlik amalga ishiriladi. Jismoniy tayyorgarlik samarali bo‘lsa, sportchining kuch quvvati, chaqqonligi va tezligi oshadi.

Xulosa. Umuman olganda bosqon uloqtirishda jismoniy tayyorgarlik sportchi butun gavdasini, umuman, uyg‘un tarzda rivojlantirishga, barcha harakat, mushaklarini rivojlantirishga, organizm a’zolari va tizimlarini mustahkamlashga hamda ularning funksional imkoniyatlarining oshirishga, harakatlarni muvofiqlashtira olish qobiliyatini, kuch-quvvatni, tezkorlikni, chidamlilikni, chaqqonlik va epchillikni oshirishga, gavda tuzilishidagi va gavda defektlarini tuzatishga qaratilgan bo‘ladi. Mazkur masalalarlarning hal etilishi kishining har tomonlama jismoniy takomillashuviga ko‘proq ta’sir etib, sportchining uyg‘un rivojlanishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Sport pedagogik mahoratini oshirish (yengil atletika), M.S. Olimov, I.R. Soliyev, B.Sh. Haydarov, Toshkent 2017
2. https://usport.uz/uz/kinds
3. Yu. Yu. Aripov, Q. I. M. Sharapova , Sportchilarni tayyorlashda texnik-taktik mahoratlarini shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlari, Central asian research journal for interdisciplinary studies (carjis)

TALABALARDA CHIDAMKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI

Nurmedov Nurmuxammed Axmed o‘g‘li

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali o‘qituvchisi

Esemuratova Gulmira

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali talabasi

Kalit so‘zlar: *Tarbiya, chidamlilik, umumiy, maxsus, sport, vaqt, mashq, jismoniy sifat, harakat, energiya, faol.*

KIRISH. Tarbiyalash - jismoniy harakat sifatida organizmning charchoqni yenga olish qobiliyatidir. Bu markaziy asab tarmog„i xususiyatlariga va energetik

almashinuvga bog„liq. Chidamlilik shunday fazilatki, u qiyinchilik bilan tarbiyalanadi, yo„qotish esa oson. Chidamlilikni tarbiyalayotgan organizmda o„tayotgan bir necha jarayonni ajratish mumkin: Chidamlilik jismoniy harakat sifati bo„lib, odam organizmining uzoq vaqt davomida mushaklar ishini faol bajarilishida toliqishni yengish qobiliyatidir. Chidamlilik sifati ikki xil bo‟ladi, umumiy va maxsus. Umumiy chidamliliik - organizmning uzoq vaqt davomida har qanday mushaklarning ish bajarganida charchoqni yengish qobiliyatiga aytiladi. Maxsus chidamlilik - jismoniy mashqlar yoki sport turlarining biriga xos bo„lgan mushaklar ishi uzoq vaqt davomida bajarilganda charchoqni yengish bilan belgilanadi. Maxsus chidamlilik umumiy chidamlilik asosida rivojlanib, tezkorlik, kuch va chidamlilik mashqlarini aniq va puxta bajarish jarayonidan kelib chiqadi. Chidamlilikni tarbiyalash darajasi avvalambor yurak tomirlari, nafas olish, mushak va asab tarmoqlari, buyrakda qonning glikogenni tez va foydali parchalanishi, funksional imkoniyatining oshishi biläh ifodalanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI. Organizmning yaxshi funksional holatga yetishishi uchun chidamlilikni rivojlantirishga qaratilgan mashqlarning hammasini ishlatish lozim. Energiya almashinuvi ko„rsatkichlari sportchining berilgan jismoniy tayyorgarlik hajmi va me‟yorida uning funksional holatini baholash uchun zarurdir. Buni aniqlashda asosiy va qo„shimcba ko„rsatkichlar ishlatiladi;

g) aerob bardoshlilikning asosiy ko'rsatkichlari quyidagilardir; o„pkaning maksimal havo almashinishi qonning kislorod bilan to'yinish hajmi, qonning minutli hajmi, kislorod bo„yicha arteriavinoz farqiga teng:

d) anaerob chidamlilikning asosiy ko'rsatkichi - bu organizmni maksimal kislorodga to„yintirish vazifasidir, ya‟ni organizmda og'ir jismoniy mashqlardan so„ng yig„ilib qoladigan moddalar almashinuvining hamma mahsulining oksidlanishiga va ularni zarur bo„Igan yuqori darajali miqdorida organizmdan chiqarib yuborish. Maksimal darajada kislorodga to'yintirish vazifasining bir qismi, ya‟ni anaerob glikogenning asosiy mahsuli sut kislotasi oksidlanishiga ketadigan qismi “laktat fraksiyaning maksimal kislorod vazifasi” deb ataladi. Anaerob chidamlilikning qo„shimcha ko„rsatkichi sifatiga muvofiq fermentatin tizimining faollik darajasi, adenazatrifosfatning anaerob resitezi uchun ishlatiladigan moddalarning umumiy zaxirasi, shuningdek, turli to„qima va organlardagi moslashuv va kompensasion o„zgaruvchanlikning ko„rsatkichi bo„lib xizmat qilishi mumkin;

e) jismoniy tayyorgarlikning turlari o„z parametrlari bo„yicha bir-biridan farq qiladi (mushak sonining hajmi, mushak kuchlanishining turi, bajarilayotgan mashqning rejasi, quvvati). Tayyorgarlikning har bir asosiy parametnga, ish bajarishda mushakning alohida bir ish turi muvofiq keladi. Masalan, shunday bir jismoniy mashq tanlash mumkinki, unda mushak ishi o „z faoliyati bo„yicha mahalliy, ushlab qoluvchiga teng, maksimal bo„lishi mumkin. Aerob va anaerob rejimda chidamlilikning rivojlanishi aniq bir mushak ish tun bajarilishi yordamida amalga oshiriladi. Bunda orgamzmda fiziologik va biokimyoviy almashinuvlar rivoilanadi. Bu o‟zgaruvchanlilarning hajmi jismoniy mashqlarning organizm

ayyorgarhgi darajasiga mosligini nazorat qilishga imkon beradi. undan tashqan, odam organizmidagi o„zgaruvchanlik masalalarining qanday hal qilinishi, u sohadagi muvaffaqiyat va bardoshlilikni oshishi baholanadi. Chidamlilikni tarbiyalashda uning tarbiya uslublarini to„g„ri tanlash katta ahamiyatga ega. Bir tekis yoki bir xil tezlikdagi uslub kichik va o„rta quvvatdagi bir tekis ish bilan ta‟riflanadi. Anaerob jarayonlarni tarbiyalashda va takomillashtirishda katta rol oynaydi. Bu usulni qo„llash boshlang„ich davrda va tayyorgarhk bosqichlarida tavsiya etiladi, eng oson va foydali uslub sifatida boshlovchi sportchilar uchun shartdir. Qaytarish uslubi - yuklanishlarning asosiy uch parametri bilan ifodalanadi: davomiylik, tezlik (shiddat), takrorlash muddatining qisqaligi va dam olishning 2 ta parametri davomiylik va tezlik Masalan, Sprinter 100 m ga yugurishni tezlik bilan 10 marotaba yugurib o„tadi: dam olish oralig„i 10 daqiqa, dam olish - sust. Bu uslub asosan yuqon malakali sportchilar tomonidan qo„llaniladi, ya‟ni asosiy musobaqa oldidan yakuniy tayyorgarliklarda qo„llaniladi. Almashinuv uslubi - u ham zo„riqishning uch bosqichi bilan (davomiylik, shiddat, takrorlash oralig„ining qisqaligi) va bir dam olish parametri davomiylik bilan ifodalanadi. Masalan: 2000 m masofaga almashinuv uslubi bilan yuguriladi, undan 50 m tez, 50 m sekin. Bu usulda har bir masofaning keyingi tez yugurish qismining qaytarilishi opkaning to„liq tiklanmagan holida bo„ladi. Bu usul yosh shug„ullanuvchilardan to razryadli sportchilargacha bo„lgan sportchilar tomonidan qo'llaniladi. Tez yugurish qismining, shuningdek sekin yugurish qismining uzunligini o„zgartirish. Bu usul erishilgan natijani saqlashda kerak bo'ladi va uni takomillashtirishda samarali qo„llanishi mumkin.Interval qaytarish murakkablashtirish uslubining 4 ta parametri bilan ifodalanadi: davomiylik (seriyalarning qaytarilish soni, seriyalar 134 soni) va 4 ta dam olish parametri (seriya ichidagi dam olish intervali, seriyalar orasidagi dam olish intervali va bu dam olish intervalining xarakteri bilan ifodalanadi). Masalan: 4 seriya yugurish 50x60 m, kuchni 3/4iga, seriya orasida dam olish oraliq 1 daqiqa, seriyalar orasida 5 daqiqa, seriya orasidagi dam olish oraliq ifodasi sust, seriyalar orasida aralash (birinchi daqiqada sust, Keyingi 3 daqiqa - tez-sekin yuguriladi oxirgi daqiqa - sust). Interval qaytarish usulda mashqlarni ko„p variant bilan bajarish mumkin, shuning uchun uning qo„llanilishi juda keng, buni chidamlilikni tarbiyalashda asosiy uslub deb hisoblash mumkin:

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Chidamlilik belgilari va sifatlari juda ko'p mashqlarni takrorlash, uzoq vaqtlar mashq bo'lishini talab etadi. Chidamlilikda nafas olish, nafasni ichda saqlab turish, mushaklar va barcha bo'g‟inlarning og‟ir-yengil harakatlarni bajarishga odatlanishi ustuvor turadi. Chidamlilik belgilari va sifatlar ko'proq quyidagi faol harakatlarda uchraydi va belgilanadi. 1 Yengil atletikaning qisqa, o'rta va ayniqsa uzoq masofalarga (10-20 km. va undan ortiq) yugurish jarayonlarida nafas olishning qiyinlashishi, oyoqlar va qo'llarning charchashi, holsizlanishi sodir bo'ladi. Ayniqsa, qo'llar, elka, bel va natijasida yuqoridagi faoliyatlar yengil o'tishini yoki ularga chidash imkoniyatlari yaratiladi. 2. Suvda suzish, futbol o'yini (90 daqiqa davomida yugurish, to'p surish) va boshqa sport turlarida ham u yoki bu darajada toliqishi tabiiydir. Ularni yengish

va bardosh berish uchun har bir shug‟ullanuvchi ko'proq mashq bo'lishini talab etiladi. O'quvchi yoshlar va talabalar jismoniy tarbiya darslarida (yengil atletika, gimnastika, kurash va h.k.) charchashi, toliqishi tabiiydir. Chunki ko'pchilik yoshlarda jismoniy tayyorgarlik va maxsus tayyorgarlik jihatlari to'la yetishmaydi. Shu sababdan eng avvalo, jismoniy rivojlanish va maxsus jismoniy tayyorgarliklarga ega bo'lishi lozimdir. Ijtimoiy-madaniy turmush sharoitlar, jismoniy mehnat va sportda jismoniy sifatlar tushunchasi bir-biri bilan bevosita bog‟langan. Ya'ni har kungi yurish-turish, o'quv jarayoni va jismoniy mehnatda “chaqqon”, “yengil”, “abjir”, “zo'r”, “kuchli”, “botir-jasur”, “bardoshli-chidamli” kabi xalq iboralari ko'p uchraydi. Ularning mazmunida fanda qo'llaniladigan “chidamlilik”, “kuchlilik”, “egiluvchanlik”, “chaqqonlik” kabi iboralar jismoniy sifatlar deb tushuniladi. Bular o'z navbatida “jismoniy tayyorgarlik”, “jismoniy rivojlanish”, “maxsus jismoniy tayyorgarlik”, “sport mahorati”, “sport shakli” kabi iboralar va tushunchalar bilan mujassamlashgan. Ularning eng muhim belgilari haqida ba'zi fikr-mulohazalar yuritish mumkin bo'ladi. Kuchlilik-jismoniy sifatlarning asosi (otasi) hisoblanadi. Chunki uning qo'llanilish va bajarilish xususiyatlar, turlari barcha amaliy harakat faoliyatlarda, shuningdek, barcha sport turlarida o'ziga xos yo'l bilan qo'llaniladi va zaruriyati, ehtiyoji tug‟iladi.

XULOSA. Turnikda qo'llarga osilib tortilishda kuch va bajarish usuli (texnik) o'zaro bog‟liqdir. Ya'ni elka, bo'yin va boshini yuqoriga ko'tarishda tezlik, oyoqlarni to‟g‟ri tutgan holda oldinga ozroq ko'tarish qo'llarda tortilishiga qulaylik tuqdiradi. Demak, kuchli bo'lish uchun tezlik sifatlarni ham egallash lozim bo'ladi.Ijtimoiy-madaniy turmush sharoitimizda kuch ko'p ishlatiladi, to'la qopni (50-70 kg) ulovlarga (ot, eshak, mashina) ko'tarib ortish yoki uni tushirish. Bundan qo'llar, bel, oyoqlarda kuch bo'lishi lozim. Bu faoliyatni bajarish texnikasi ham turli xil bo'lishi mumkin. Ya'ni ikki qo'lda ko'tarish yoki quchoqlab olib ko'tarish; qishloq sharoitlarda kurash va ko'pkari (uloq) o'yinlarida “polvon” (kuchli) va chovondoz-polvon (yengil-kuchli) iboralari qadimdan buyon ishlatilib kelinadi. Bu fazilat va jismoniy sifatga (kuchli) ega bo'lish uchun ular ko'p yillar davomida mashqlar qiladi. Unda turli xil vositalar va usullardan foydalaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Венера Айтековна Бабажанова, Аман Кутлымуратович Утепбергенов, Гулбахар Аймуратовна Баймуратова, Гулзар Джумабаевна Ережепова ИССЛЕДОВАНИЕ КРЕПОСТИ ТЕЛОСЛОЖЕНИЯ (ИНДЕКС ПИНЬЕ) У ЮНОШЕЙ, ПРОЖИВАЮЩИХ В РАЗЛИЧНЫХ РАЙОНАХ ПРИАРАЛЬЯ. 1 13 Инновационные технологии в образовании и науке, 2017

2. Kutlimurotovich, U. A. (2020). GENERAL PHYSIOLOGICAL PRINCIPLES OF PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS. European Journal of Molecular & Clinical Medicine, 7(9), 2366-2371.

3. Бабажанова, В. А., Утепбергенов, А. К., Баймуратова, Г. А., & Ережепова, Г. Д. (2017). Исследование крепости телосложения (индекс Пинье) у юношей, проживающих в различных районах Приаралья. In Инновационные технологии в образовании и науке (pp. 11-14)..

JISMONIY TARBIYA VA SPORT MASHĠULOTLARINING YOSHLAR HAYOTIDAGI AMALIY AHAMIYATI

Darmenbaeva Klara Azatbay qizi

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali “Yakka kurash va tabiiy fanlar” kafedrasining stajyor-o’qituvchisi

Tayanch so‘zlar: jismoniy tarbiya, mashqlar, harakat, ta’lim, tarbiya, estetika, metod, jarayon, vosita, o‘quvchi, dars, emotsiya, sport, o‘yin.

Ключевые слова: физическое воспитание, упражнения, движение, образование, воспитание, эстетика, метод, процесс, средство, ученик, урок, эмоция, спорт, игра.

Key words: physical education, exercises, movement, education, upbringing, aesthetics, method, process, means, student, lesson, emotion, sport, game.

Kirisiw. Jismoniy tarbiya darslarida jismoniy mashqlar, sport o‘yinlari, yengil atletika, gimnastika va harakatli o‘yinlardan foydalanishda ularni bajarib ko‘rsatish mashg‘ulotning bir-biri bilan o‘zaro bog‘liqligi, harakat faoliyati haqidagi birlamchi tushuncha o‘quvchilarda harakatlarning natural shaklda bajarilishini ko‘rgandan so‘ng hosil bo‘ladi. Ko‘rgazmali qurollar, suratlar, chizmalar, maketlar, ayniqsa sekinlashtirib olingan kinolar, hujjatli, o‘quv filmlari, video, multvideo va hokazo vositalarda namoyon bo‘ladi. Ulardan foydalanish, taqlid qilib bajarish mashg‘ulotlarning estetik mazmunini anglash jarayonining ta’limiy va tarbiyaviy imkoniyatlarini orttiradi. Shuning uchun jismoniy tarbiya darslarida turli metodlardan keng qo‘llaniladi. Bu esa o‘quvchilarning estetik xususiyatlarini takomillashishiga olib keladi.

Tadqiqot maqsadi: Jismoniy tarbiya va sport yordamida inson harakatini rivojlantirish.

Harakat faoliyati jarayonida estetik tarbiya vositalariga quyidagilar kiradi:

-o‘qituvchi o‘quvchilarga go‘zallik daqiqalarini ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan jismoniy tarbiyaning har xil (jismoniy tarbiya bo‘limlari) turlari.

-bayramlar, tomoshalar;

-tabiiy va gigiyenik sharoitlar;

-musiqa va san’at asarlaridan foydalangan holda darslarni tashkl etish.

Tadqiqotni tashkil qilish usullari: Yuqori sinf o‘quvchilarini jismoniy trbiya darslarida estetik tarbiyalashni amalga oshirish maqsad qilib qo‘yilgan darsga quyidagi didaktik talablar qo‘yildi:

- jismoniy tarbiya jarayonida yengil atletika, gimnastika, sport o‘yinlari, shaxmat va harakatli o‘yinlarning vazifalari, o‘quv materiallari mazmuni bilan o‘quvchilarning bilish faoliyatlari hamda mashg‘ulotlarni tashkil etishning metodlari va usullarining o‘zaro uyg‘unligi;

- mashg‘ulotdagi vazifalarni aniq qo‘yish hamda ularning asosiy harakatlaridagi estetik jihatlarga alohida e’tibor berish;

- o‘quvchilarda bajariladigan harakat elementlarining estetik go‘zalligini anglash ko‘nikmasini faollashtirish;

- mavjud didaktik imkoniyalardan unumli foydalanish;

- darsning mazmuni va metodlarining qulay bo‘lishini ta’minlash;

- materiallarni o‘zlashtirish jarayoni qulayligini ta’minlashda mashg‘ulotlarning optimal darajasiga erishish (9-11-sinflar bo‘yicha);

- yuqori sinf o‘quvchilarning yosh va jinsiy xususiyatlarini hisobga olish;

- o‘quvchilarga individual va tabaqalashtirilgan yondashuv

Misol tariqasida biz biron bir muammoning yechimi borasida kunlab oylab bosh qotiramiz va uni yechimini topganimizda o‘zimizning ichki olamimiz defferensial tartibda uzimizga bo‘y sinmagan holda kulishimiz, yig‘lashimiz, ko‘tarinki ruhga ega bo‘lishimiz, o‘zgalar bilan o‘rtoqlashishimiz, yechilgan masalani ko‘rib undn baxra olish kabi estetik zavqlanish xislari bizni qamrab oladi. Bu esa bizning ma’naviy olamimizda estetik xususiyatning nechog‘lik muhim ekanligini anglatdi.

Yuqori sinflarda o‘qitiladigan jismoniy tarbiya o‘quv fanidan tayyorlangan davlat ta’lim standarti (DTS) o‘zining tuzilishi va mazmuniga ko‘ra jismoniy tarbiyani o‘qitish jarayonida o‘quvchi shaxsi, uning jismoniy rivojlanishi, intilishlari, qobiliyati va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqadi. Ammo amaldagi dasturlar bo‘yicha ishlab chiqilgan o‘quv qo‘llanmalarida taqdim qilinayotgan topshiriqlar har doim ham o‘quvchilarning estetik tarbiyalanganlik darajasini o‘stirishga mo‘ljallangan emas. Shu maqsadda amaldagi dasturning tuzilishi, mazmuniga putur yetkazmagan holda unga o‘quvchilar bilimi, ko‘nikma va malakasiga qo‘yiladigan asosiy talablarni hisobga olib, dars mazmuniga emotsional yuklama, o‘zining estetik mazmuniga ega bo‘lgan jismoniy mashqlar va harakat elementlariga oid materiallar kiritildi. Ular yuqori sinf o‘quvchilarining mashg‘ulotlar mazmunidagi nafosatni anglashga bo‘lgan qiziqish va ehtiyojlarni faollashtirishga hizmat qiladi.

O‘quvchilar jisoniy tarbiyaga bo‘lgan qiziqishlari, turli sport o‘yinda qatnashib, undagi zarur harakatlarni bajarish jarayonlari estetik jihatdan yo‘naltirilgan bo‘lishi ishimizda tadqiq etilayotgan muammoni hal etishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, o‘qituvchilarni zarur bo‘ladigan talablar, tavsiyalar, eslatmalar, jismoniy tarbiya nazariyasi va amaliyotining estetikaga bog‘liq bo‘lgan jihatlaridan foydalanish bo‘yicha metodik ishlanmalar bilan ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq mashg‘ulotlarga qiziqish muammosi asosiy maqsadni chetlab o‘tmasligi kerak.

Jismoniy tarbiya darslarida o‘quvchilarni estetik tarbiyalash jarayonini takomillashtirish modeli va uni amalga oshirish shartlarida belgilangan bosqichlar asosida quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- **1-bosqich.** O‘quv mashg‘ulotlarida shaxsiy va jamoa gigenasi talablarini o‘quvchilar ongida shakllantirish. Yani, kun tartibi, shaxsiy va jamoat gigiyena qoidalariga rioya qilish, turli asbob-uskunalardan foydalanishda xavfsizlik texnikasi qoidalari va sanitariya-gigiyena talablariga rioya qilish, gigiyena qoidalariga rioya qilish kerakligi haqida tushunchaga ega bo‘lish, ikki tomomonlama o‘yinda o‘yin qoidasi va jamoa gigiyenasi qoidalariga qat’iy rioya qilgan holda mashg‘ulotda ishtirok etish. Buning zamirida o‘quvchilarning shaxsiy kiyimlarining go‘zalligi, harakatlar nafisligi va boshqa o‘ziga bo‘lgan ichki go‘zallikning shakllanib borishi;

- **2-bosqich.** Dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning estetik sifatlarini tarkib topishida jarayonga ongli ravishda yondashishga o‘rgatish. Ushbu bosqichda yuqori sinf o‘quvchilari asosan sport to‘garaklarida ko‘proq ishtirok etishi hammaga ma’lum, buning natijasida o‘quvchilarda mashg‘ulotlar jarayonida o‘rganilgan harakat elementlari va uning mazmanidagi estetik jihatlarni o‘zi shug‘ullanayotgan sport turi mazmunida ham xis etishi;

- **3-bosqich.** Egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini o‘zgalarga tushuntira olish qobiliyatiga ega bo‘lishi. Jismoniy tarbiya darslarida o‘rganilgan mashg‘ulotlarning oilada, mahallada, o‘rtoqlar bilan surli sport o‘yinlarida, musobaqalarda o‘z jamoasiga tushuntirish va o‘rgatish nazarda tutiladi. Natijada o‘quvchi tomomnidan jismoniy faoliyatdan baxra olish ko‘nikmalari keng jamiyat mazmuniga singib boradi.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi: Tajriba-sinov ishlarini tashkil etishda izchillik, uzviylik, xususan jismoniy harakatlarning bir-biriga aloqadorligiga alohida e’tibor qaratildi. Shuning uchun ham eksperiment doirasida tadqiq etilayotgan mashg‘ulotlarning turlari o‘quvchilar yoshiga hamda fiziologik imkoniyatlariga mosligi ta’minlandi. Shuningdek, o‘quvchilarda harakat texnikalari mazmunidagi estetik jihatlarni o‘zlashtirganlik darajalari o‘quvchilarining yoshiga va fiziologik imkoniyatlariga muvofiq tarzda aniqlandi. Unda tadqiqot maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan mezonlarga asoslanindi.

Tajriba-sinov ishlari to‘rt bosqichda, ya’ni ta’kidlovchi, izlanuvchi, shakllantiruvchi hamda yakunlovchi bosqichlarda amalga oshirildi.

Tadqiqot muammosiga oid manbalarni o‘rganish natijasida shakllantirilgan nazariy xulosalar, amaliyotni kuzatish natijalari, tadqiqotda ilgari surilgan ilmiy g‘oyalarni samaradorlik darajasini eksperimental sinab ko‘rish maqsadida tajriba-sinov ishlari o‘ztkazildi. Tajriba-sinovda qo‘yidagi masalalarga amaliy yechim topish asosiy vazifalar sifatida belgilandi, ya’ni o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari yuqori sinf o‘quvchilarining jismoniy tarbiya darslari jarayonini kuzatish; ular bilan savol-javob, so‘rovnomalar, suhbat o‘tkazish; ilg‘or pedagogik tajribalarni amaliyotga tatbiq etish; tajriba-sinov materiallarini amaliy darslarda sinovdan o‘tkazish kabi metodik yondashuvlardan foydalanildi.

Xulosa. Jismoniy tarbiya darslarida yuqori sinf o‘quvchilarini estetik tarbiyalashning didaktik imkoniyatlaridan optimal tarzda foydalanish asosida o‘yinlarning asoslarini anglash ko‘nikmasini shakllantirsh tanlangan hamda ilmiy asoslangan o‘quv materiallar bo‘yicha maxsus ishlab chiqilgan metodika doirasida amalga oshirildi.

Adabiyotlar:

1. Lixachev.B.T. Teoriya esteticheskogo vospitaniya. – M.: Prosvesheniye, 1995. – 175 s.

2. Makhmudov B.A. Methodology for improving the training mechanism of physical culture specialists. OVATEUR PUBLICATIONS JournaINX - A Multidisciplinary Peer ReviewedJournal ISSN No: 2581 - 4230 VOLUME 9, ISSUE 5, May -2023 Impact Factor (2022): 8.155.

3.Холодов, Ж.К. - Теория и методика физического воспитания и спорта [Текст] / Ж. К. Холодов, В. С. Кузнецов. – М.: Академия, 2000. – 480 с.

TALABA YOSHLARNING JISMONIY TARBIYA TIZIMIDA YENGIL ATLETIKANING ORNI

Balmuratov Kayirjan Konisbaevich

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya universiteti Nukus filiali o'qituvchisi

Nurabullaev Janibek Mambetulla uli

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya universiteti Nukus filiali 2-bosqich talabasi

***Tayanch so'zlar**: Jismoniy tarbiya, yengil atletika, talaba yoshlar, sport, o'rgatish metodikasi, ilmiy-tadqiqot.*

***Ключевые слова:** Физическое воспитание, легкая атлетика, студенческая молодежь, спорт, методика преподавания, научные исследования.*

***Key words:** Physical education, athletics, student youth, sports, teaching methods, scientific research.*

Dolzarbligi. Oliy o‘quv yurtida jismoniy tarbiya jarayoni ta’limning ajralmas qismi bo‘lib, turli jismoniy tarbiya, sport va turizm vositalaridan foydalanishni o‘z ichiga oladi [3]. Talabalar jismoniy tarbiyasi uchun asosiy sport turlari ro'yxatiga yengil atletika ham kiradi. Yengil atletika o'quv fani sifatida jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini tayyorlash jarayonida yetakchi o'rinlardan birini egallaydi.

U sportdan tashqari bo'limlar talabalari uchun jismoniy tarbiya tizimida bir xil o'rin egallaydi, jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirishga, zarur vosita ko'nikmalarini egallashga yordam beradi va jismoniy faoliyat etishmasligining salbiy ta'sirini kamaytiradi. Shu munosabat bilan ushbu maqolaning mavzusi ayniqsa dolzarb bo'lib qoladi. Shuni ta'kidlash kerakki, "Yengil atletika" kursining mazmuni engil atletika musobaqalarini o'tkazish texnikasini o'rganish, mashg'ulot va jismoniy sifatlarni rivojlantirish uchun ishlatiladigan maxsus mashqlarni o'z ichiga oladi. Yengil atletika mashqlari texnikasini o'rgatish metodikasi batafsil ko'rib chiqiladi. Bolalar va turli malakali sportchilar bilan sport mashg‘ulotlarini o‘tkazish bo‘yicha nazariy va amaliy ishlanmalar o‘rganiladi. Yengil atletika turlarining rivojlanish tarixini va mashq qilish texnikasining shakllanish tarixini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Jismoniy rivojlanishning barcha jihatlarini, jismoniy tayyorgarligini, jismoniy sifatlar dinamikasini, turli xil o'qitish va tarbiyalash usullarining samaradorligini baholashga imkon beradigan turli testlarni o'rganish va amaliy foydalanish. Ilmiy-tadqiqot faoliyatini amalga oshirish yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi [1].

Yengil atletika sport turi sifatida hech kimdan kam emas. Jismoniy sifatlar: chidamlilik, kuch, tezlik, chaqqonlik, moslashuvchanlik, shuningdek, amaliy ko'nikmalar: yugurish, sakrash, uloqtirish mehnatda juda keng qo'llaniladi. Yengil atletika mashg‘ulotlari insonning xarakterini shakllantiradi, irodasini mustahkamlaydi, qiyinchiliklardan qo‘rqmaslikka va ularni mardona yengishga

o‘rgatadi. Jamoada yengil atletika, jamoaviy musobaqalarda qatnashish olingan ish uchun mas'uliyatni tarbiyalaydi.

Yengil atletikaning maqsadi yaxlit shaxsni rivojlantirish, uning ma'naviy va jismoniy kuchlarini uyg'unlashtirish, sog'lom va samarali turmush tarzida, kasbiy faoliyatda, zarur ijtimoiy-madaniy qulay muhitni o'z-o'zini qurishda uning muhim kuchlarini to'liq ro'yobga chiqarishga tayyorlikni faollashtirishdir. universitet ta’lim maydonining ajralmas elementi hisoblanadi. Ushbu sport shaxsning jamiyat madaniyati bilan birlikda rivojlanishi, bilim va ijodiy harakat, his-tuyg'ular va muloqot, jismoniy va ma'naviy uyg'unlikka erishish, tabiat va ishlab chiqarish, mehnat va mehnat munosabatlari o'rtasidagi ziddiyatlarni hal qilishga imkon beradigan shunday xususiyat va yo'nalishlarni qamrab oladi. dam olish, jismoniy va ma'naviy. Inson tomonidan bunday uyg'unlikka erishish uning ijtimoiy barqarorligini, hayot va mehnatda samarali ishtirokini ta'minlaydi va unga ruhiy qulaylik yaratadi.

Yengil atletika - bu odamlar uchun tabiiy jismoniy mashqlarni birlashtirgan sport turi: yurish, yugurish, sakrash, uloqtirish. Yengil atletika mashqlarining xilma-xilligi va yurish, yugurish, sakrash, uloqtirishdagi yukni o'zgartirish uchun keng imkoniyatlar turli yoshdagi va turli darajadagi jismoniy tayyorgarlikka ega bo'lgan talabalar uchun ushbu mashqlardan muvaffaqiyatli foydalanish imkonini beradi. Yengil atletika mashqlarini bajarishda inson mushaklarining ko'p qismi ishda ishtirok etadi, yurak-qon tomir, nafas olish va boshqa tana tizimlarining faolligi kuchayadi. Yengil atletika mashg'ulotlari jarayonida konditsionerlik (tezlik, kuch, chidamlilik, moslashuvchanlik) va muvofiqlashtirish qobiliyatlari rivojlanadi. Yengil atletika natijalari qat'iy miqdoriy o'lchovga ega bo'lib, bu ularning ob'ektivligini va ulardan o'quvchilarning jismoniy rivojlanish darajasi uchun mezon sifatida foydalanish imkoniyatini ta'minlaydi.

Bundan tashqari, ko'plab mashqlar maxsus qimmatbaho jihozlarni talab qilmasligi va oddiy platformalarda bajarilishi mumkinligi ham muhimdir. Shunday qilib, yengil atletika eng qulay sport turlaridan biri bo'lib, u bilan shug'ullanuvchilarning maqsadli jismoniy tayyorgarligi uchun eng keng vositalar arsenaliga ega [2].

Atletik yurish odatdagi yurishga qaraganda ko'proq ish intensivligini talab qiladi va natijada energiya sarfini oshiradi. Shu nuqtai nazardan, poygada yurish mashqlari o‘quvchilar tanasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi, uning ichki a’zolari va tizimlarini mustahkamlaydi, ish faoliyatini yaxshilaydi, kuch va ayniqsa chidamlilikni rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, irodali fazilatlarni tarbiyalaydi.

Yugurish mashqlarning eng keng tarqalgan shakli bo'lib, o'quv dasturining boshqa yo'nalishlariga kiritilgan. Yugurish paytida, yurishdan ko'ra ko'proq darajada, butun tananing ishlashiga yuqori talablar qo'yiladi, chunki ishda tananing deyarli barcha mushak guruhlari ishtirok etadi, yurak-qon tomir, nafas olish va boshqa tizimlarning faoliyati kuchayadi, va metabolizm sezilarli darajada oshadi. Masofa uzunligini va yugurish tezligini o'zgartirish orqali siz yukni dozalash, chidamlilik, tezlik va boshqa fazilatlarni rivojlantirishga ta'sir qilishingiz mumkin.

Yuqori tezlikda yugurish o‘quvchilarga, ayniqsa ularning yurak-qon tomir va nafas olish tizimlariga katta talablar qo‘yadi va chidamlilikni rivojlantirishning ajoyib vositasi hisoblanadi. Juda yuqori tezlikda yugurish kuch va tezlikni rivojlantirish uchun ishlatiladi. Yugurish jarayonida kuchli irodali fazilatlar rivojlanadi, o'z kuchini hisoblash, to'siqlarni engib o'tish va er yuzida harakat qilish qobiliyatiga ega bo'ladi.

Otish yengil atletika turlaridan biri bo'lib, ular nafaqat qo'l mushaklari, elkama-kamar, torso, balki oyoqlarning qisqa muddatli, ammo maksimal harakatlari bilan tavsiflanadi. Yengil atletika jihozlarini uzoqqa uloqtirish uchun sizga yuqori darajadagi kuch, tezlik, chaqqonlik va kuchingizni jamlash qobiliyati kerak. Otish mashg'ulotlari nafaqat ushbu muhim fazilatlarni rivojlantirishga, balki butun tananing mushaklarining uyg'un rivojlanishiga ham hissa qo'shadi.

Yengil atletika oliy ta’lim muassasasida jismoniy tarbiyaning asosiy shakli hisoblanadi. U uch qismdan iborat: tayyorgarlik, asosiy va yakuniy [1].

Tayyorgarlik qismining maqsadi minimal vaqt sarflagan holda samarali jismoniy mashqlar orqali talaba tanasining barcha funktsional tizimlarini ishga kiritishdir. Darsning tayyorgarlik qismidagi mashqlar topshiriqlarga mos kelishi kerak. Yengil atletika darsida bu poygada yurish, sekin yugurish, yugurish mashqlari, turli sakrashlar, tezlashuvlar bo'lishi mumkin. Tayyorgarlik mashqlari darsning asosiy qismida o’quvchilar shug’ullanadigan yengil atletika turi uchun qo’llaniladi.

Asosiy qismda darsning maqsadlaridan biri yangi materialni o'rganishdir. Birinchidan, atletika texnikasining ma'lum bir turining yangi harakatlari (elementlari) o'rganiladi. Ilgari olingan ko'nikmalarni mustahkamlash va takomillashtirish darsning asosiy qismining o'rtalarida va oxirida amalga oshiriladi. Darsning asosiy qismi boshida tezlik, tezlik-kuch sifatlari, nozik koordinatsiya va chaqqonlik namoyon bo`lishini talab qiluvchi mashqlar, oxirida esa kuch va chidamlilikka oid mashqlar bajariladi. Darsning asosiy qismidagi barcha mashqlarning tarkibi shunday bo'lishi kerakki, ular turli xil ta'sir ko'rsatadi.

Darsning yakuniy qismi tananing funktsional holatini normal faoliyatga olib borishga qaratilgan. Yurak-qon tomir, nafas olish va asab tizimlarining qo'zg'alishini kamaytirish va mushaklarning kuchlanishini engillashtirish uchun sekin yugurish, turli xil yurish turlari, bo'shashish mashqlari, to'g'ri holat va e'tibor qo'llaniladi.

Xulosa. Shunday qilib, yengil atletika jismoniy tarbiya tizimining ajralmas qismi hisoblanadi. U nafaqat insonni hayotga tayyorlash, unga tabiyatan xos bo'lgan jismoniy va aqliy qobiliyatlarni o'zlashtirishning ko'p asrlik qimmatli tajribasini, balki bundan ham muhimi, bu jarayonda namoyon bo'ladigan shaxsning axloqiy fazilatlarini rivojlantirish tajribasini ham o'zlashtiradi. shakllari va usullarining xilma-xilligi tufayli jismoniy tarbiya. Ular o'rtasida shunchaki ajralmas bog'liqlik mavjud emas, bu ikki tushuncha shu qadar chambarchas bog'liqki, endi boshqacha bo'lishi mumkin emas. Shunday bo'lishi kerak, inson o'zining rivojlanish jarayonida tabiiy ravishda egallagan fazilatlari eng muhimi hisoblanadi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Легкая атлетика: учеб. пособие / А.И. Жилкин, В.С. Кузьмин, Е.В. Сидорчук. – М.: Академия, 2003. – 464 с.

2. Шуняева Е.А. Физическое воспитание студентов с низким уровнем развития скоростно-силовых качеств и выносливости средствами легкой атлетики: автореф. дис. канд. пед. наук / Е.А. Шуняева. – М., 2007. – С. 11-13.

3. Шуняева Е.А., Четайкина О.В., Шиндина И.В. Эффективность воздействия средств фитнеса на развитие физических качеств студенток педагогического вуза 18-20 лет // Гуманитарные, социально-экономические и общественные науки. – 2014. – №10 (2). – С. 83-85.

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA VELOSIPED SPORTINI OMMALASHTIRISHNING TARIXIY MASALALARI

Serimbetov Qarlibay Orazimbetovich

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali "Yakka kurash va tabiiy" fanlar kafedrasi o'qituvchisi

Kuanıshbaev A.B.

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali talabasi

***Kalit so'zilar**: velosport, sport ustasi, velosiped federatciyasi, shosse yo'nalishi, musobaqalar tashkil etish.*

***Ключевые слова:** велоспорт, мастер спорта, федерация велоспорта, шоссейное направление, проведение соревнований.*

Kirish. Bilamizkiy O'zbekistonda velosiped sportining rivojlanishini 4 davrga ajratish mumkin: Oktabr qo'zg'olonidan oldingi davr, I jahon urushidan keyingi davr, Ulug' Vatan urushidan keyin va hozirgi zamonaviy davrlardir. Turkistonda velosiped XIX asring 90-yillarida paydo bo'ldi. 1894 yilning iyul oylaridayoq mahalliy velosipedda uchish havaskorlari tashabbusi bilan Turkistonda birinchi Toshkent havaskor-velosipedchilar jamiyati tashkil topgan. O'zbekistonda eng birinchi 1895 yili 16 aprel kuni velosipedchilar jamiyatining yig'inida trek qurilishi to'g'risidagi qaror qabul qilindi va 1896-yil 4 avgust kuni uni foydalanish uchun topshirildi. 1894 yildan 1903 yilgacha Turkistonda, ayniqsa Toshkent shahri velosiped sportining eng rivojlanish davri deb hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi. O'zbekiston va Qoraqalpog'istonda velosiped sportining rivojlanish tarixini o'rganishdan va uni rivojlanishini kengaytirishdan iborat.

Urushdan keyingi birinchi yillardan 1951 yilga qadar o'tkazilgan musobaqalarda velosipedchilar ko'pincha velosiped sportining shosse yo'nalishi boyicha ishtirok etar edilar, chunki maxsus poyga velosipedlari bu vaqt keng ommali tarzda chiqarilmagan. 1951 yil oktabr oyida birinchi bor yosh poygachilar ishtirokida sport jamoalarining Respublika Spartakiadasi bo'lib o'tdi. 100 km poygaga uch qatnashchi sport ustasi unvonidan baland natija ko'rsatishdi. Musobaqa g'olibi 2.39,8 soniya natija bilan "Burevestnik" jamoasining a 'zosi Umar Muqimov bo'ldi, II o'rinni 2,39,40 soniya natija bilan "Nauka" jamoasining a'zosi V.Karpenko, III o'rinni 2.39,54 sonya natija bilan "Nauka" jamoasining

yana bir vakili V.Bochar egalladi. Bu sportchilar O‘zbekistonda sport ustasi degan oliy unvonni egallagan birinchi sportchilar bo‘lishdi.

Tadqiqotni tashkil qilish uslublari. Tadkiqotda ilmiy adabiyotlardagi ma‘lumotlarni nazariy tahlil qilish va umumlashtirish kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi. 1991 yilda mustaqillikni qo‘lga kiritgandan keyin O‘zbekistonda velosiped sportining rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan velosipedchimiz Jamolddin Abdujaparov. Jamoliddin Abdujaparov “Tour de Frans” musobaqasida ishtirok etib, yashil mayka sovrindori (1991 yildan 94 yilgacha) va 9 marotaba guruh sprint bahslarida g‘oliblikni qolga kiritgan. Shuningdek shu qatorda 1997-yil O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan murabbiy B.T.Muminov qol ostida shug‘illangan jahon chempionatining “B” guruhida nufuzli birinchi o‘rini egallagan Fatima Galiulina.

2002-2006-2010 yillarda o‘tkazilgan Osiyo o‘yinlari, Italiya va Frantsiya xalqaro musoboqalari g‘oliblari va sovrindorlari Sergey Krushevskiyni, Rafaelg‘ Nurutdinovlarni xamda O‘zbekiston Respublikasi chempionatining shosse bo‘yicha guruh poygasining 5 marotaba chempioni va U-23 klassifikatsiyasi bo‘yicha 2003 yil Kanadaning Gamelg‘ton shahrida o‘tkazilgan jahon chempionati g‘olibi Sergey Lagutinn.

O‘zbekiston velosport federatsiyasi 1991-yil tashkil topib uning Birinchi prezidenti deb L.A. Kostin saylangan, bosh kotibi esa V.SH. Ravilov bo‘lishgan. O‘zbekistonning velosipedchilari birinchi marotaba Olimpiyada o‘yinlarida ishtirok etishi 1980 yil Rossiyaning Moskva shahrida boshlanib. 1994-yildan boshlab bizning poygachilarimiz Osiyo o‘yinlarida muntazam ravishda qatnashib kelmoqdalar va shu kunga qadar ikkita oltin, bitta kumush va bitta bronza medallarini qolga kirishgan.

2011-2016 yillarda boshlab O‘zbekiston velosiped sporti federatsiyasi Raisi lavozimida Narbaeva Tanzila Kamalovna, rais o‘rinbosari Chernikova Yelena Nikolaevna va federatsiya bosh kotibi Karimov Ismoiljon Ibrohimjonovichlar ishlab kelmoqdalar. O‘zbekistonning velosipedchilari birinchi marotaba Olimpiyada o‘yinlarida ishtirok etishi 1980-yil Rossiyaning Moskva shahrida boshlanib. 1994-yildan boshlab bizning poygachilarimiz Osiyo o‘yinlarida muntazam ravishda qatnashib kelmoqdalar. 2017-yildan O‘zbekiston velosiped sporti federatsiyasi Raisi lavozimida Narbayeva Tanzila Kamolovna, rais o‘rinbosari O‘rinboyxo‘jaev Kosimxo‘ja Baxtiyorxo‘jaevich tayinlandi.

Qoraqalpog‘istonga velosiped sporti 1937-yillarda kirib kelgan. 1972-yil Nukus shaxrida Bolalar va o‘smirlar sport maktabi da Samarqand viloyatidan kelgan trener Singabullina Alisa Rashidovna ish yuritgan. Eng birinchi Qoraqalpog’iston chempionati 1975-yil bo’lip o’tgan. Qoraqalpog‘istonda velosiped sporti bo'yicha birinchi sport ustasi Kudaybergenov Kuuanishbay Mambetmuratovich.

Kudaybergenov Kuwanishbay Mambetmuratovich - Qoraqalpog‘iston Respublikasi da velosiped sporti bo'yicha birinchi sport ustasi (1978). Kudaybergenov K. M. 1975 yilda trener Aleksandr Shchuchkin rahbarligida

velosport bilan shug‘ullanishni boshlagan. Sportdagi muvaffaqiyatlari tezda unga yetib keldi: 1977 yilda sport ustasi bo‘ldi. Keyinchalik u ikki murabbiy A. Shchuchkin va xalqaro klassdagi sport ustasi Aleksandr Jarkov rahbarligida mashq qilgan. Kudaybergenov K. M. Leningrad shahridagi ko‘plab ko'p kunlik "oq tunlar" velosiped poygasi (1981), Nukus shahridagi velosiped yulduzlari umumittifoq turnirida (1980) va boshqa ko'plab musobaqalarda ishtirok etgan.Velosport bo'yicha murabbiy bo‘lib ishlaganida u sport ustasiga besh nomzod tayyorlagan: Tukayeva Yunus, Usenova Serbek, Aryslanbayev Fazila, Gulmurzayeva Gulyu, Ibrohimova Raushan (1982-1992) G.

Moliyaviy qiyinchiliklar tufayli 1995 yilda Nukus shahridagi velosport bo‘limi yopilgan. 2015-yilda esa, oradan 20 yil o‘tib, Arislanbaev Fazilbek Mangitbaevich Qoraqalpog‘iston Respublikasi velosiped sporti federatsiyasining Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘limi yana qayta ochilgan. Shu paytdan e‘tiboran velosport yana rivojlana boshladi va shu tariqa maktab o‘quvchilarimizni Qoraqalpog‘iston Respublikasida velosportni rivojlantirishga jalb qila boshladi. 20 yillik tanaffusdan keyin velosport rivojlana boshladi.

Xulosa. Velosiped sport turi hozirgi vaqtda eng omma bob va rivojlangan sport turi hisoblanadi. Velosport oldingi davrda shosse yonalishi boyicha kop yutuqlarga erishgan bolsa, ho‘zirgi vaqtda trek yonalishi bo‘yicha ham kop lab yutuqlarga erishmoqda. Zamonaviy shart-sharayotlar va prezidentimizning sportga degan e‘tibori bilan sportchilarimiz Osiyo va Olimpiya musobaqalarida yaxshi natiyjalarga erishmoqda. Va biz sportchilar velosiped sportining rivojlanishiga o’z hissamizni qoshishga harakat qilamiz.

Adabiyotlar:

1. Chernikova Ye.N, Karimov I.I, Xolmuratov O.Yu Velosport nazariyasi va uslubiyati (darslik) Toshkent 2018-y, 171-177 b

2. Анатомия велосипедиста Совндаль Ш. 2011 г

3. Y.N.Chernikova, I.I.Karimov, O.Yu.Holmurotov, Sport pedagogik mahoratini oshirish Velosport (darslik) Toshkent 2017 yil

O‘ZBEKISTONDA MILLIY KURASHNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Nurekeev Bayrambay Temirbaevich

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali assistent-o‘qituvchisi

Kalit so‘zlar: *kurash,tarix, rivojlanish, musoboqa qoidalari, yonbosh, bazri, dzyudo, sport.*

Kirish. Zamonaviy sport kurashining asosiy qoidalari XVIII asr oxiri -XIX asr boshlarida Yevropaning bir necha mamlakatlarida ishlab chiqildi. 1912-yil Xalqaro havaskorlar kurash federatsiyasi (FILA) tuzildi (hozir unga 144 mamlakat, O‘zbekiston 1993-yildan a’zo). Xalqaro maydonda sport kurashining yunonrum kurashi, erkin kurash, dzyudo, sambo va boshqa turlari keng tarqalgan. Keyingi

yillarda o‘zbek kurashi ham alohida kurash turi sifatida dunyo miqyosida tan olina boshlandi. Kurash insonni kuchli, epchil, chidamli va irodali qilib tarbiyalash vositalaridan biri hisoblanadi. Shifokorlar nazorati ostida 12 yoshdan kurash bilan shugullanishga ruxsat etiladi. Kurash azaldan o‘zbek turmush tarzining uzviy qismi bo‘lganligini arxeologik topilmalar, tarixiy qo‘lyozmalar tasdiqlaydi. Qadimgi Baqtriya (O‘zbekiston janubi) hududidan topilgan jez davriga oid silindrsimon sopol idishda ikki polvon va ulardan biri ikkinchisini chalayotgani tasvirlangan. Shu davrga mansub boshqa arxeologik topilmada esa polvonlarning Kurash usullarini namoyish qilayotgani aks ettirilgan.

Tadqiqotning maqsadi: dastlabki o‘qitish bosqichida yosh bokschilarni maxsus jismoniy tayyorgarliklarining holatini o‘rganish.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Bu noyob topilmalar miloddan 1,5 ming yil ilgari ham kurash ajdodlarimiz turmush tarzining bir qismi bo‘lganidan dalolat beradi. Yunon yozuvchisi Klavdiy Elian (II-III asr) va boshqa tarixiy shaxslarning yozishicha, shu hududda umr kechirgan sak qabilasi qizlari o‘zlariga kuyovni yigitlar bilan kurashib tanlaganlar. Keyinchalik qizlar kuyovni shart ko‘yish yo‘li bilan aniqlashgan va bu shartda kurash musobaqasi bo‘lgan. Bunga o‘zbek xalq qahramonlik dostoni — “Alpomish”dagi Barchin shartlarini misol qilib ko‘rsatish mumkin. Ulardan biri ikki kurashuvchining biri o‘z raqibining belbog‘idan ushlab o‘ziga tortadi, shu bilan birga o‘z raqibidan qutulishning chorasini qiladi. Bu ta’rif zamonaviy Kurash qoidalariga yaqindir. Shuningdek, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk”, Alisher Navoiyning “Hamsa”, “Holoti Pahlavon Muhammad”, Zayniddin Vosifiyning “Badoye’ ul- vaqoye’”, Husayn Voiz Koshifiyning “Futuvvatnomai sultoniy”, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida kurash haqida qimmatli ma’lumotlar bor. IX-XVI asrlarda kurash xalqo‘rtasida keng ommalashgan. Shudavrda Pahlavon Mahmud, Sodiq polvon qabilar kurash dovrug‘ini oshirishgan. O‘zbek xalqining an’anaviy sport turlaridan biri bo‘lmish kurash uch yarim ming yillik tarixga ega. Kurash o‘zbekcha so‘z bo‘lib, u qator qadimiy sharq adabiy manbalarida yakkama- yakka olishuv va ijtimoiy ko‘ngilochar sport turi sifatida tilga olingan.

Bundan ming yil muqaddam paydo bo‘lgan afsonaviy Alpomish eposida kurash olis o‘tmishda O‘zbekiston zaminida ommaviy tus olgan eng sevimli va nufuzli sport turi bo‘lganligi qayd etiladi.

Qadimda va o‘rta asrlarda yashab ijod etgan qator faylasuf va tarixchilar o‘z asarlarida kurashni alohida ehtirom ila tilga olganlar.

Natijalar. Sharqning buyuk mutafakkirlaridan biri bo‘lmish Abu Ali Ibn Sino kurash bilan shug‘ullanmoq jon va tan sog‘ligini ta’minlashning eng yaxshi vositasidir, deya e’tirof etgan. Shunga qaramasdan hali-hanuz kurash aynan qachon va qaerda paydo bo‘lganligi xususida aniq ma’lumotlar mavjud emas. O‘z navbatida bunday mavhumlik qator olimlar tomonidan kurashni qadimiy sport turlaridan biri sifatida e’tirof etilishi uchun to‘siq bo‘la olmadi.

Eramizning IX asrida kurash rivoji yangi bosqichga ko‘tarildi. O‘sha kezlarda zamonaviy O‘zbekiston hududida istiqomat qiluvchi aholi an’anaviy bayramlar, to‘y- hashamlar va yirik jamoatchilik tadbirlari davomida kurashdan ko‘ngil ochish

va dam olish vositasi sifatida foydalanganlar. Keyinroq kurash ko‘ngil ochish vositasidan mustaqil sport turi va jismoniy chiniqish usuliga aylandi. Eng kuchli kurashchilar xalq orasida ma’lumu-mashhur bo‘lib, ular haqida afsonalar to‘qila boshlandi.

XII asrda yashab o‘tgan Pahlavon Mahmud buning yaqqol namunasidir. Hali-hanuz uning qabri ziyoratchilarning sevimli maskani va muqaddas qadamjolardan biri hisoblanadi.

XIV asrda insoniyat tarixida yorqin iz qoldirgan tengi yo‘q sarkarda va davlat arbobi Amir Temur o‘z askarlarini chiniqtirish va jismoniy tayyorgarligini oshirish maqsadida kurashdan foydalangan. Ma’lumki, Amir Temur armiyasi zamonasining eng qudratli va yengilmas qo‘shini hisoblangan.

Vaqt o‘tishi bilan kurash zamonaviy O‘zbekiston hududida istiqomat qiluvchi aholining eng sevimli va ardoqli an’analaridan biriga aylandi. Shu ma’noda kurash o‘zbeklarning qon-qoniga singib ketgan, deb aytish mubolag‘a bo‘lmaydi. Ushbu sport turiga bo‘lgan muhabbat otalardan bolalarga meros sifatida o‘tib keladi. Bugungi kunga kelib birgina O‘zbekistonda kurash bilan muntazam shug‘ullanuvchilarning soni ikki millionga yetgan. Ushbu sport ishqibozlari va havaskorlarning soni esa behisobdir.

Muhokama.1980 yillarning boshida mashhur o‘zbek kurashi ustasi, dyuzdochi va sambochi Komil Yusupov o‘zbek kurashining boy merosini tadqiq etish ishlarini boshlab yubordi. Ushbu sport turining qayta tiklanishining faollaridan biri bo‘lgan mazkur zotning asosiy maqsadi kurashning xalqaro me’yorlarga mos bo‘lgan yangicha qoidalarini ishlab chiqishdan iborat bo‘ldi. To‘qsoninchi yillarning boshlariga kelib u ushbu sharafli vazifani muvaffaqiyatli ado etib o‘zbek kurashini xalqaro arenaga olib chiqishni o‘z oldiga maqsad qildi. Avvaliga u o‘zi ishlab chiqqan kurash qoidalarini jamoatchilik, mutaxassislar va ishqibozlar e’tiboriga havola etdi.

Yangi qoidalar o‘zbek kurashining eng ardoqli an’analari va maxsus kiyim bosh, musobaqalarni o‘tkazish joyi va bellashuvning davom etish muddati kabi xalqaro sport me’yorlarini o‘zida mujassam etdi. Sport mutaxassislari Komil Yusupov tomonidan ishlab chiqilgan kurash qoidalari to‘laligicha xalqaro sport talablariga javob berishini e’tirof etdilar. Kurash qoidalarining asosiy afzalliklaridan biri shundaki, ular yotgan holda bellashuvni davom ettirilishiga yo‘l qo‘ymaydi. Sportchilardan birining tizzasi gilamga tegishi bilanoq hakam bellashuvni to‘xtatadi va kurashchilar turgan holda musobaqani davom ettirishadi. Bu hol kurashni tez sur’atlarda olib borilishi va muxlislar uchun qiziqarli va maroqli bo‘lishini ta’minlaydi. Bundan tashqari kurash qoidalari belbog‘dan pastki qismni ushlovchi yoki og‘riq qo‘zg‘atuvchi va bo‘g‘uvchi uslublarni ishlatishni ta’qiqlaydi. Shu tariqa kurash sportchilarga tan jarohati yetkazilishining oldi olingan eng xavfsiz sport turlaridan biriga aylandi. 1991-yilda O‘zbekiston o‘z mustaqilligini e’lon qilishi kurashga yangicha hayot baxsh etdi.

Respublika hukumati 70-yil totalitar tuzum davrida oyoq-osti qilingan o‘zbek xalqining milliy qadriyatlari va an’analarini qayta tiklashni o‘z oldiga maqsad qilib

qo‘ydi. Milliy sport turi hisoblanmish kurashni qayta tiklash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilandi.

1992-yilda K.Yusupov O‘zbekiston Respublikasi prezidenti qabulida bo‘ldi. Bo‘lib o‘tgan suhbat chog‘ida o‘zbek kurashini nafaqat ona diyorimizda, balki chet ellarda ham rivojlantirish masalalari muhokama etildi. Kurashni haqiqiy xalqaro sport turiga aylantirish, keyinchalik esa olimpiada o‘yinlari dasturiga kiritish eng asosiy maqsad bo‘lib qolmoqda.

O‘sha uchrashuvdan so‘ng, K.Yusupov boshchiligidagi faollar gruhi o‘zbek kurashini xalqaro miqyosda rivojlantirishga qaritilgan faoliyatni boshlab yubordilar. Ular tomonidan O‘zbekistonning turli hududlarida uyushtirilgan qator yirik musobaqalar muvaffaqiyati haqiqatdan ham barchani hayratga soldi. Mamlakatning turli chekkalaridan kelgan minglab kurashchilar musobaqalarda ishtirok etish istagini bildirgan bo‘lsa, millionlab kurash ishqibozlari ushbu jozibali musobaqalardan bahra olish ishtiyoqida respublika bo‘ylab stadionlarni to‘ldirdilar.

Kurash faollarining sa’y-harakatlari O‘zbekiston bilan chegaralanib qolmadi. Ular 1992-yildan boshlab Janubiy Koreya, Kanada, Yaponiya, Hindiston, AQSh, Monako va Rossiyada o‘tkazilgan qator nufuzli sport anjumanlarida o‘zbek kurashini tanitishga qaratilgan tadbirlarga bosh qosh bo‘ldilar.

Xulosa.Ushbu sa’y-harakatlar natijasida O‘zbekiston poytaxti Toshkentda bo‘lib o‘tgan kurash bo‘yicha birinchi xalqaro musobaqalarda dunyoning 30 ga yaqin mamlakati vakillari ishtirok etdilar. Toshkent markazida 30 ming kishiga mo‘ljallangan stadion tomoshabinlarga to‘lib ketdi. O‘zbekiston va uning tashqarisidagi millionlab teletomashabinlar televizorda batafsil olib ko‘rsatilgan musobaqalarni yaqindan kuzatib bordilar. Kurash eng qadimiy bellashuv turlaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga jahon sahnasida u eng yosh sport turi hamdir. O‘zining uzoq o‘tmishiga qaramasdan kurash faqatgina 1998-yilda jahon sport sahnasida shahdam odim tashladi. Ushbu odimlar na yengil va na qisqadir. Avval boshidanoq kurashning porloq odimlari va undan kutilgan maqsad aniq belgilangan edi. U ham bo‘lsa O‘zbek kurashini xalqaro sport turiga aylantirishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jismoniy tarbiya va sport to’g’risida‖gi O’zbekiston Respublikasi qonuni (yangi taxrir). ―Xalq so’zi‖ gazetasi 174(6357)-sonida e’lon qilingan 2015yil 5 sentyabr.
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining ―Jismoniy tarbiya va ommoviy sportni yanada rivojlantirish chora tadbirlari to’grisida‖gi PQ-3031 sonli Qarori – 2017 yil 3-iyun **.**
3. Mirziyoyev Sh.M. ―Milliy taraqqiyot yo’limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko’taramiz‖ Toshkent 2017 yil.

FUTBOL KOMANDALARÍNDA QARÍM-QATNAS MÚNÁSIBETLERDIŃ AYÍRÍM ÓZGESHELIKLERI

Bekmuratov Manas Jamalatdinovich

Ózbekstan mámleketlik dene tárbiyası hám sport universiteti Nókis filialı oqıtıwshısı

Tayanısh sózler: *futbol klubları, selekcioner (skaut), analizshi, tóreshi, marketolog, sport psixologiyası, sportshılardıń psixologiyalıq tayarlıǵı, psixik jaǵday.*

Ключевые слова: *футбольные клубы, селекционер (скаут), аналитик, арбитр, маркетолог, спортивная психология, психологическая подготовка спортсменов, психическое состояние.*

Keywords: *football clubs, scout, analyst, referee, marketer, sports psychology, psychological preparation of athletes, mental state.*

Házirgi waqıtta dúnyada sport insan iskerliginiń eń keń tarqalǵan túrlerinen biri esaplanadı. Áyne payıtta sport tek ǵana salamatlandırıw funkciyasın atqarıp qalmastan, kúshli social-psixologiyalıq hádiysege de aylanıp úlgerdi.

Mámleketimizde jámiyet turmısında sporttıń rolin arttırıwǵa úlken itibar qaratılmaqta. Ásirese, millionlar oyını bolǵan hám mámleketimizde ayrıqsha orınǵa iye sporttıń futbol túrine xalıqtı, ásirese jaslardı keńnen qamtıw boyınsha bir qatar ilajlar ámelge asırılıp kiyatır. Sonıń menen birge, búgin mámleketimizde joqarı qábiletke iye bolǵan jas futbolshilardı tańlaw, saralap alıw (selekciya) sisteması hám futbol infrastrukturasın jáne de rawajlandırıw, futbol boyınsha sport mektepleri iskerligin jańa basqıshqa kóteriw, taraw qánigelerin tayarlaw hám olardı materiallıq xoshametlew sistemasın jaqsılaw, ótkerilip atırǵan jarıslar dárejesin kóteriw sıyaqlı máseleler aktual wazıypalardan biri bolıp qalmaqta.

Sońǵı jıllarda Prezidentimiz tárepinen futboldı ele de rawajlandırıwǵa baylanıslı bir qatar qarar hám pármanlar qabıl etildi. Atap aytqanda, Ózbekstan Respublikası Prezidentiniń 2018-jıl 16-marttaǵı «Futboldı jáne de rawajlandırıw ilajları haqqında»ǵı PQ-3610-sanlı Qararı, 2019-jıl 4-dekabrdegi «Ózbekstanda futboldı rawajlandırıwdı ulıwma jańa basqıshqa alıp shıǵıw ilajları haqqında»ǵı PF-5887-sanlı Pármanı sheńberinde mámleketimizde 2030-jılǵa shekem futboldı rawajland ırıw koncepciyasınıń tastıyıqlanıwı mámleketimizde ǵalabalıq sport túri bolǵan futboldı rawajlandırıw, usı tarawda futbol klubları, sport tálim mákemeleri ushın sport shıpakeri, sport psixologı, sport farmakologi, sport yuristi hám sport dietologı baǵdar ları boyınsha maman qánigeler tayarlawdı shólkemlestiriw, sonday-aq, zamanagóy ilimiy jetiskenlikler hám innovaciyalıq texnologiyalardan paydalanǵan halda trener, selekcioner (skaut), analizshi, tóreshi, marketolog hám futbol menejeri baǵdarları boyınsha joqarı maǵlıwmatlı futbol qánigelerin tayarlaw, qayta tayarlaw hám mamanlıǵın asırıw maqsetinde jergilikli hám de shet el qánigelerin keńnen tartıw arqalı

Ózbekstan futbol associaciyası janında futbol qánigelerin tayarlaw orayın shólkemlestiriw wazıypaları belgilep berildi. Usı wazıypalardı ámelge asırıw ushın ilim jetiskenliklerinen paydalanıw, bul tarawda keń kólemli izertlewler ótkeriliwin talap etedi.

Sport psixologiyasida sportshılardıń psixologiyalıq tayarlıǵı hám psixik jaǵdayların basqarıw, sport komandalarındaǵı óz-ara múnásibetler teması júdá aktual bolıp, bir qatar alımlar tárepinen izertlew jumıslarında ilimiy tiykarlap beriwge háreket etkenler. Biraq, milionlar oyını hám kópshiliktiń súyikli sport túri bolıwına qaramay sporttıń futbol túri psixologiyalıq izertlewlerdiń keń kólemli obyekti bolıp úyrenilmegen. Sport iskerliginiń Zamanagóy sharayatta dene tárbiyası hám sport tarawı boyınsha joqarı maǵlıwmatlí qánigeler tayarlaw teoriyası hám ámeliyatı shaxs qáliplesiwine tásiri máseleleri kóbirek individual sport túrlerinde hám ayırım komandalıq sport túrleri sheńberinde kórip shıǵılǵan. Degen menen, elimizde bul temaǵa baylanıslıǵı ilimiy jumsılar jeterli emes.

Zamanagóy sportta sportshılardıń trenerler, pedagoglar hám komandalasları menen óz-ara múnásibetlerin durıs shólkemlestiriw, nátiyjeli baylanıs kónlikpelerinen paydala biliw, sheriklikke tiykarlanǵan iskerlikti nátiyjeli shólkemlestiriw zárúrli máselelerden esaplanadı. Múnásibetlerdi durıs jolǵa qoya alıw, birinshi náwbette, komandadaǵı socialpsixologiyalıq ortalıqtıń salamat bolıwında, birdemlik sapalarınıń qáliplesiwinde, komandalıq ruwxıyat ústin bolıwında sheshiwshi rol oynaydı. Usı processte sportshılarda nátiyjeli baylanıs kónlikpelerin qáliplestiriwde xoshametlew eń alı menen trener menen sportshılar jáne sportshılardıń bir-birin durıs túsine alıwın támiyinlep beredi.

Futbol milionlar oyını sıpatında bársheniń kewlinen orın alǵan ǵalabalıq sport túri esaplanadı. Usı sport túrinde shaxstıń idividual jetiskenligi komanda jetiskenligi menen baylanıslı tárzde keship, sportshınıń tek ǵana idividual qáliplesiwine emes, bálkim komanda sharayatında topar sheńberinde social tájiriybelerdi, sporttıń fizikalıq hám ruwxıy jetiskenlikleri ózlestiriwine alıp keledi.

Komandalıq oyın sıpatında futbol shaxstıń tek ǵana fizikalıq rawajlanıw kórsetkishleri jetilisiwine emes, al individual qábiletlerdiń rawajlanıwına, shıdamlılıq sapalardıń qáliplesiwine, komanda aǵzaları menen múnásibetleri tiykarında zárúrli sociallıq tájiriybelerdi iyelewinde, jámiyetlik sana rawajlanıwında, basqalar aldında juwapkershilik seziminiń qáliplesiwine, bir sóz benen aytqanda, shaxs qáliplesiwi hám rawajlanıwında áhmiyetlik orın tutadı.

Komandalıq sport túrlerinde óz-ara múnásibetler kóp tárepten trener shaxsınıń kásiplik jetikligi hám onıń social-psixologik bilimine baylanıslı boladı. Bunda trenerdiń jeke hám social sapaları komandalıq ortalıqtıń hám sol ortalıqtaǵı ústin ruwhıyattıń tiykarın belgilep beredi.

Trener qol astındaǵılarda kúshli shıdamlılıq hám joqarı etikalıq normalarǵa iye bolǵan shaxs sapaların kórsete alsa, sportshılarda da sonday motivaciya oyatıp bir-birin durıs túsiniw jáne social perceptivlikning ónimli

usılı jaratıladı. Bul bolsa trener hám sportshı múnásibetleri vertikal bolıwında social-psixologiyalıq hám pedagogikalıq ónimliliktiń asıwında zárúrli faktor bolıp esaplanadı.

Jarıstıń túrli basqıshlarında sportshınıń psixologiyalıq háreketi hám iskerligin támiyinlewde tiykarǵı roldi onıń treneri atqaradı. Trenerdiń wazıypası tek ǵana sportshınıń sport jetiskenlikleri emes, al hár tárepleme rawajlanǵan, bilimli hám óz-ózin rawajlandırıwǵa ılayıq bolǵan shaxstı tárbiyalaw da bolıp tabıladı.

Solay eken, komandadaǵı óz-ara múnásibetler trenerdiń social-psixologiyalıq hám kásiplik jetikligi menen tikkeley baylanıslı. Sonday-aq, trenerlik jumısındaǵı tabıs kóp tárepten, trenerdiń bilimine, sportshılar hám komanda menen múnásibetlerin durıs ornata Zamanagóy sharayatta dene tárbiyası hám sport tarawı boyınsha joqarı maǵlıwmatlí qánigeler tayarlaw teoriyası hám ámeliyatı alıwına hám de óz bilimlerin shákirtlerine jetkere alıwdaǵı uqıpına baylanıslı boladı.

Trenerdiń sportshılar hám sportshılardıń trener haqqında jeterli maǵlıwmatlarǵa iye bolıwı óz-ara túsiniw hám isenimge, maqsetler birligin ańlawǵa alıp keledi.

Ádebiyatlar:

1. Ózbekstan Respublikası Prezidentiniń 2018-jıl 16-marttaǵı «Futboldı jáne de rawajlandırıw ilajları haqqında»ǵı PQ-3610-sanlı Qararı.
2. Ózbekstan Respublikası Prezidentiniń 2019-jıl 4-dekabrdegi «Ózbekstanda

futboldı rawajlandırıwdı ulıwma jańa basqıshqa alıp shıǵıw ilajları haqqında»ǵı PF-5887-sanlı Pármanı.

3. А.Сидоров ва бошқ. Педагогика спорта. – М. 2000.

16-17 YOSHLI ESHKAK-ESHUVCHILARDA KUCH VA CHIDAMLILIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Utepbergenov Amangeldi Qutlimuratovich

Nukus davlat pedagogika instituti, Jismoniy madaniyat fakulteti dekani, b.f.n., professor

Begmuratov Umid Hamid o‘g‘li

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti magistranti

Tayanch so‘zlar: *Akademik eshkak eshish, chidamlilik, kuch, mashg‘ulot, sportchi, musobaqa.*

Ключевые слова: *Академическая гребля, выносливость, сила, тренировка, спортсмен, соревнование.*

Keywords: *academic rowing, endurance, strength, training, athlete, competition.*

Kirish. Akademik eshkak eshish - bu akademik qayiqlarda orqaga qarab suzish sporti. Bu sport turi G‘arbiy Yevropa mamlakatlari, Rossiya, AQSH,

Avstraliya, Yangi Zelandiya va Ruminiyada keng tarqalgan va mashhur. Akademik eshkak eshish Olimpiya sport turiga kiradi. Musobaqalar maxsus eshkak eshish kanallarida o‘tkaziladi. Bu sport turi jamoaviy yoki yakka tartibda bo‘lishi mumkin.

Akademik eshkak eshish 1896-yildan beri Olimpiya o‘yinlari dasturiga kiritilgan (ayollar uchun 1976-yildan). Olimpiya o‘yinlaridan tashqari, har yili jahon chempionatlari, jahon kuboklari, millatlar kuboklari, talabalarning jahon chempionatlari va o‘smirlarning jahon chempionatlari o‘tkaziladi. Bundan tashqari, qo‘sh eshkakli eshkak eshish ham mavjud bo‘lib, bunda sportchi ikkita eshkak bilan suzadi, yoki yakka eshkakli, bunda sportchi bitta eshkak bilan suzadi. Olimpiada masofasi 2000 metrni tashkil etgani uchun, mashg‘ulotlar asosan chidamlilikni oshirishga qaratilgan. Bu sport turi o‘ziga xos deb hisoblanadi: eshkak eshuvchi mashg‘ulotlar davomida o‘z mushaklarining 95 foizini ishga soladi. Shu bilan birga, bu eng xavfsiz sport turlaridan biri hisoblanadi: bu yerda jiddiy jarohatlar deyarli uchramaydi.

Tadqiqotning asosiy qismi. Eshkak eshishda sport natijalariga erishishning ustuvor yo‘nalishi umumiy va maxsus chidamlilikni rivojlantirishdir. Eshkak eshuvchi tanasining aerob tizimini rivojlantirish muvaffaqiyatli mashg‘ulot uchun poydevor bo‘ladi.

Chidamlilik - organizmning charchoqqa qarshi tura olish qobiliyatidir. Odatda maxsus, musobaqa, tezlik, umumiy va kuch chidamliligi farqlanadi. Maxsus chidamlilik musobaqa mashqlariga o‘xshash mashqlarni bajarishda namoyon bo‘ladi. Bunda ish anaerob metabolizmning chegara darajasidan past bo‘lmagan holatda amalga oshiriladi va aerob energiya ishlab chiqarish bilan ta’minlanadi. Musobaqa chidamliligi musobaqa yuklamalarini taqlid qiluvchi mashqlarni bajarishda yoki musobaqa masofalarida namoyon bo‘ladi. Tezlik chidamliligi mashqlarni raqibga nisbatan yuqori tezlikda bajarishda ko‘rinadi. Eshkak eshishdagi umumiy chidamlilik uzoq muddatli nospetsifik mashqlar paytida namoyon bo‘ladi. Kuch chidamliligi kuch qobiliyatlarining ajralmas qismi hisoblanib, O‘zgaruvchan usul o‘zgaruvchan shiddat bilan uzluksiz mashq qilish va yurak urish tezligining daqiqasiga 180 martagacha ko‘tarilishi bilan tavsiflanadi. Amaliy mashg‘ulotlarga tezlikni vaqti-vaqti bilan o‘zgartirib eshkak eshish, sport o‘yinlari, hamda belgilangan vaqt yoki masofada vazifani bajarish uchun yugurish kiradi.

- Muqobil usul mashg‘ulot davrining yakunida umumiy chidamlilikni va musobaqalar paytida maxsus chidamlilikni rivojlantirish uchun qo‘llaniladi.

- Takroriy usul sportchilarni mashg‘ulot yuklamalarining ma’lum hajmi va shiddatini bajarishga tayyorlash maqsadida ishlatiladi.

- Interval usuli bir xil mashqlarni takrorlash, biroq ma’lum dam olish oralig‘i bilan amalga oshirish orqali xarakterlanadi.

Musobaqa usuli yordamida sportchi yurakka tushadigan yukni kamaytiruvchi ruhiy zo‘riqish holatiga moslashadi [3, 74-bet]. Maxsus chidamlilik harakat xususiyatlariga ko‘ra, vazifani bajarish usullariga ko‘ra va harakat muammolarini muvaffaqiyatli hal qilish uchun zarur bo‘lgan boshqa jismoniy fazilatlar bilan

o‘zaro ta’sirga ko‘ra tasniflanadi. Maxsus chidamlilikning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

Musobaqa mashqlarida chidamlilik; Turli xil musobaqa mashqlarida chidamlilik; Fiziologik va biokimyoviy imkoniyatlarni, ish ko‘rsatkichlarini, shuningdek asosiy a’zolar va tizimlar funksiyalarini tiklash; Tez va sekin mushak tolalarining nisbati; Mushaklarning elastikligi va kuchi. Bularning barchasi, odatda, "vazifani samarali bajarish" uchun amalga oshiriladi: ya’ni, samaradorlikni pasaytirmasdan raqibni mag‘lub etish uchun texnik harakatlarni bajarish. Amaliyotda bu maxsus chidamlilikning yakuniy namoyon bo‘lishiga erishish eng qiyin, chunki teng yoki kuchliroq raqib ustidan g‘alaba sportchi unga erishish uchun taktik kurashni, chidamlilikni namoyish etish uchun musobaqa mashqlarini, tobora ko‘proq qo‘shimcha harakatlarni - tezlanish, harakat va boshqalarni ko‘rsatishni talab qiladigan qo‘shimcha harakatlarni ko‘rsatgandagina keladi.

Chidamlilik inson organizmining ko‘p funksiyali xususiyati bo‘lib, turli darajalarda: hujayradan butun organizmga qadar sodir bo‘ladigan ko‘plab jarayonlarni birlashtiradi. Biroq, zamonaviy ilmiy tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, ko‘p hollarda chidamlilikning namoyon bo‘lishida yetakchi rol energiya almashinuvi omillari va uni qo‘llab-quvvatlovchi vegetativ tizimlar - yurak-qon tomir va nafas olish tizimlari, markaziy asab tizimiga tegishli. Chidamlilikni rivojlantirishning asosiy vazifasi harakat faoliyatining har xil turlari asosida umumiy aerob chidamlilikning barqaror o‘sishi uchun sharoit yaratishdir. Shuningdek, s ni ishlab chiqish uchun vazifalar ham mavjud.

Kuch tayyorgarligi 16-17 yoshli akademik eshkak eshuvchilarning mashg‘ulot jarayonining ajralmas qismi hisoblanib, umumiy tayyorgarlik vaqtining 10-20 foizini tashkil etadi.

16-17 yoshli akademik eshkak eshuvchilar uchun yillik tayyorgarlik siklini rejalashtirish jarayonida kuch tayyorgarligi bloki quyidagicha taqsimlangan:

1. O‘tish davri.

a) Jalb qiluvchi bosqich (oktyabr-noyabr) - maksimal kuch va kuch chidamliligi sinovlari, shuningdek, kuch sifatlarini rivojlantirish bloki. Asosiy vazifa mushak korsetini mustahkamlash va tezkorlik-kuch sifatlarini rivojlantirishdan iborat.

b) 1-tayyorgarlik bosqichi (noyabr-dekabr). Asosiy vazifa - maksimal kuchni rivojlantirish. Asosiy nazorat choralari maksimal kuch darajasini tekshirishdan iborat.

c) 2-tayyorgarlik bosqichi (yanvar-fevral). Asosiy vazifa - kuch chidamliligini rivojlantirish. Asosiy nazorat choralari maksimal kuchni sinashdan iborat.

2. Musobaqa davri.

a) 1-musobaqa bosqichi (fevral-aprel). Asosiy vazifa - maxsus kuchlarni rivojlantirish.

b) 2-musobaqa bosqichi (aprel-may). Asosiy vazifa

Sinov tariqasida quyidagilar tanlab olindi: 3000 m ga yugurish; og‘irligi 45 kg bo‘lgan shtangani tortish (erkaklar), 5 daqiqa davomida taxta ustida yotish; 1 daqiqada 60 sm balandlikdagi turnikka sakrash; shtangani yelkaga qo‘yib o‘tirish

(maks); 5 daqiqada 24 kg tosh bilan o‘tiring. Ushbu testlar sportchilarni kuch, tezlik, kuch chidamliligi va umumiy chidamlilik bo‘yicha baholash imkonini berdi. Maxsus chidamlilik va barcha sportchilarning (istisnolardan tashqari) reytingi 2 (bo‘shashish); 1 ta (issiqxona) poyga baholandi.

Xulosa. Ilmiy-uslubiy adabiyotlarni o‘rganib chiqib, tadqiqot mavzusini nazariy jihatdan asoslashga muvaffaq bo‘ldik. Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyati ma’lumotlari asosida maxsus chidamlilik va kuch sifatlarini rivojlantirish usullari ko‘rib chiqildi. Xulosa qilish mumkinki, mashg‘ulot jarayonida sportchining maxsus chidamliligi va kuchini rivojlantirishga qaratilgan uslubiyatni o‘z ichiga olishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Барчуков И.С. Физическая культура : учебник для студ. учреждений высш. проф. образования / И. С. Барчуков. – 7-2 изд., стер. – М.: Издательский центр «Академия», 2013. – 528с. – ISBN: 978-5-4468-0198-5. – Текст: непосредственный.

2. Теоретические обоснования применения биологически обоснованной системы спортивной тренировки (БОССТ) в подготовке студентов ПовГУФКСИТ / А. Г. Скалозуб, В. А. Гоголин. - Текст : непосредственный // Актуальные проблемы и современные тенденции спортивной подготовки в циклических видах спорта в россии и в мире : материалы Всероссийской научно-практической конференции с международным участием, посвященной памяти профессора Г.В. Цыганова. – Казань, 2021. – С. 358-361.

3. Холодов Ж.К. Теория и методика физического воспитания и спорта: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. / Ж. К. Холодов, В. С. Кузнецов. - 11-е изд., стер. – М. : Издательский центр «Академия», 2013. – 480 с. – ISBN: 978-5-7695-9526-4. – Текст: непосредственный.

KATTA YOSHDAGI BOLALAR UCHUN JISMONIY TARBIYANING AHAMIYATI

Suleymanov Ergashboy

Farg‘ona davlat texnika universiteti ijtimoiy fanlar va sport kafedrasi o‘qituvchisi

Kalit so‘zlar: *Jismoniy tarbiya, Bolalar salomatligi, Kognitiv rivojlanish, Xotira va diqqat, Jismoniy faollik, Akademik muvaffaqiyat, Ijtimoiy ko‘nikmalar, Intizom, O‘zini boshqarish, Stress va tashvish, Endorfinlar, Jamoaviy o‘yinlar, Jismoniy madaniyat, Harmonik rivojlanish, Ruhiy sog‘liq, Duruş, Motivatsiya, Stressga chidamlilik, Shaxsiy rivojlanish, Sinfda faoliyat, Guruh aloqasi.*

Jismoniy tarbiya orqali bolalarning jismoniy salomatligini yaxshilash

Bolalar salomatligini mustahkamlash, ularning barkamol jismoniy rivojlanishiga ko‘maklashish, ko‘plab kasalliklarning oldini olishda jismoniy tarbiya muhim o‘rin tutadi. Jismoniy mashqlar tufayli yurak-qon tomir va nafas olish tizimlarining ishi yaxshilanadi, bu ayniqsa o'sayotgan tana uchun muhimdir. Ushbu mashqlar qondagi kislorod miqdorini oshirishga, qon aylanishini

yaxshilashga va yurak mushaklarini mustahkamlashga yordam beradi, bu esa kelajakda yurak-qon tomir kasalliklari xavfini kamaytiradi.

Bundan tashqari, muntazam jismoniy faoliyat mushaklarning kuchini, moslashuvchanligini va muvofiqlashtirishni rivojlantiradi. Bu fazilatlar bolalik davrida ayniqsa muhimdir, chunki ular mushak-skelet tizimining to'g'ri shakllanishini ta'minlaydi, bu ko'pincha maktabda va uyda uzoq vaqt o'tirish tufayli paydo bo'ladigan holat bilan bog'liq muammolardan qochishga yordam beradi. Jismoniy faollik tufayli bolalar yanada chidamli bo'lib, ularning jismoniy ko'rsatkichlari yaxshilanadi, bu umumiy ish faoliyatini oshiradi va charchoqni kamaytiradi.

Jismoniy tarbiya shuningdek, semizlikning oldini olishga yordam beradi, bu ko'plab bolalar harakatsiz turmush tarzi tufayli duch keladigan muammodir. Muntazam jismoniy mashqlar sog'lom vaznni saqlashga yordam beradi, metabolizmni yaxshilaydi va ortiqcha vazn bilan bog'liq surunkali kasalliklar, masalan, diabet va gipertenziya rivojlanishining oldini oladi. Jismoniy faollik sog'lom turmush tarzi uchun asos yaratadi, bolalarda butun umri davomida ularga hamroh bo'lishi mumkin bo'lgan barqaror odatlarni yaratadi.

Jismoniy faollik orqali bolalarning ruhiy salomatligini rivojlantirish

Jismoniy tarbiya nafaqat jismoniy salomatligini mustahkamlashda, balki bolalarning ruhiy holatini yaxshilashda ham muhim rol o'ynaydi. Muntazam jismoniy faollik bolalarga stressni engishga yordam beradi va ularning hissiy holatini yaxshilaydi. Mashq qilish "baxtli gormonlar" deb nomlanuvchi endorfinlarni chiqaradi, ular tabiiy ravishda kayfiyatni yaxshilaydi va tashvishlarni kamaytiradi.

Sport bilan shug'ullanayotganda, bolalar o'zlarining his-tuyg'ularini ifodalash va akademik stress va kundalik tashvishlar tufayli to'planishi mumkin bo'lgan stressni bartaraf etish imkoniyatiga ega. Bu stressni kamaytirish va dam olishga yordam beradi, bu ayniqsa maktab yoshida, psixo-emotsional stress asta-sekin kuchayganda muhimdir.

Jismoniy faollik, shuningdek, o'ziga bo'lgan ishonchni va o'zini o'zi qadrlashni rivojlantirishga yordam beradi. Bolalar o'zlarining muvaffaqiyatlarini ko'rishadi, ularning natijalari har safar qanday yaxshilanishini payqashadi va bu ularning o'z qobiliyatlariga bo'lgan ishonchini kuchaytiradi. Qiyinchiliklarni yengib, maqsadlariga erisha olishlarini tushunish bolalarning muvaffaqiyatsizlikka chidamli bo‘lishiga va hayot qiyinchiliklariga dosh bera olishiga yordam beradi.

Jismoniy tarbiya orqali bolalarda ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish

Jismoniy tarbiya darslari, ayniqsa, guruh shaklida, bolalarda ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga sezilarli hissa qo'shadi. Sport o'yinlari va ijtimoiy tadbirlar muloqot, o'zaro ta'sir va hamkorlik uchun imkoniyatlar yaratadi, bolalarga jamoa bo'lib ishlashga va birgalikda maqsadlarga erishishga yordam beradi. Sport mashg'ulotlari orqali bolalar qo'llab-quvvatlash va o'zaro yordamning muhimligini o'rganadilar, bu ijobiy ijtimoiy aloqalarni shakllantirishga yordam beradi va ularda jamoaga tegishlilik hissini kuchaytiradi.

Guruh o'yinlari davomida bolalar raqiblarni hurmat qilishni, o'yin natijalarini qabul qilishni va belgilangan qoidalarga rioya qilishni o'rganadilar. Bu ko'nikmalar sog'lom o'zaro munosabatlarning asoslari bo'lib, ular nafaqat bolalarda boshqalar bilan uyg'un munosabatlarni o'rnatishga yordam beradi, balki mas'uliyat va adolat kabi fazilatlarni rivojlantirishga yordam beradi. O'yin qoidalarini qabul qilish bolalarni boshqalarning huquqlarini hurmat qilishga o'rgatadi va chegaralarni belgilaydi, bu ularning ijtimoiylashuvi va psixologik etukligi uchun muhimdir.

Jismoniy tarbiya nizolarni hal qilish ko'nikmalarini ham rivojlantiradi, chunki sport o'yinlari paytida ko'pincha murosaga kelish va tushunishni talab qiladigan vaziyatlar yuzaga keladi. Shunday qilib, bolalar empatiya ko'rsatishni, yechim topishni va nizolardan qochishni o'rganadilar. Bu fazilatlar maktab muhitida muvaffaqiyatli moslashishga va kelajakda jamoada o'zaro munosabatlarga tayyorgarlik ko'rishga yordam beradi.

Jismoniy tarbiya orqali bolalarda intizom va o‘zini o‘zi boshqarishni shakllantirish

Jismoniy tarbiya bolalarda intizom va o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Muntazam mashg'ulotlar bolalardan mas'uliyatli bo'lishni, rejimga diqqat bilan rioya qilishni va doimiy ravishda g'ayratli bo'lishni talab qiladi, bu esa tashkilotning rivojlanishi uchun asos yaratadi. Jismoniy mashqlar o'z-o'zini tarbiyalash va sabr-toqatni talab qiladi, chunki u natijalarga erishish uchun muntazam va yo'naltirilgan ishni talab qiladi.

Sport mashg'ulotlari bolalarga belgilangan vazifalarni rejalashtirish va bajarishga o'rgatadi. Masalan, ma'lum ko'rsatkichlarga erishish yoki yangi sport ko'nikmalarini egallash uchun bolada o'zini o'zi boshqarish ko'nikmalari, o'z vaqtini va kuchini boshqarish qobiliyatini rivojlantirish kerak. Bu bolaga muvaffaqiyat faqat tizimli mehnat va qiyinchiliklarni engishga tayyorlik orqali kelishini tushunishga yordam beradi, bu esa, o'z navbatida, uning motivatsiyasi va o'zini o'zi nazorat qilishni kuchaytiradi.

Bu ko'nikmalar nafaqat sport mashg'ulotlarida, balki maktabda va kundalik hayotda ham muhimdir. Qoidalarga rioya qilish, tashkilotchilik va mas'uliyat bolalarga o'quv vazifalarini yaxshiroq bajarishga yordam beradi, shuningdek, o'qish va dam olishni birlashtiradigan kundalik tartibni yaratishga yordam beradi. Shunday qilib, jismoniy tarbiya bolada intizom va o'zini o'zi boshqarishni singdiradi, bu esa unga yanada muvaffaqiyatli va ishonchli shaxs bo'lishga yordam beradi.

Jismoniy faollik orqali bolalarning akademik samaradorligini (o‘quv faoliyatini yaxshilash) oshirish

Jismoniy faollik bolalarning xotira, diqqat va konsentratsiya kabi kognitiv funktsiyalariga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, muntazam jismoniy mashqlar miya faoliyatini faollashtiradi, miyani qon bilan ta'minlashni yaxshilaydi va uni kislorod bilan to'yintiradi. Bu o'rganish va xotira jarayonlari uchun muhim bo'lgan neyron faolligini oshirishga yordam beradi.

Faol jismoniy mashqlar bolalarga yuqori energiya darajasini saqlab qolishga va ko'pincha akademik bosim tufayli paydo bo'ladigan charchoqni kamaytirishga

yordam beradi. Jismoniy faollikdan so'ng bolalar o'zlarini hushyor his qilishadi, bu ularning ma'lumotni idrok etish qobiliyatini yaxshilaydi va sinfda diqqatni saqlashga yordam beradi. Bu, ayniqsa, bolalar o'z e'tiborini nazorat qilishni va diqqatni jamlash qobiliyatini rivojlantirishni o'rganayotgan dastlabki sinflarda ayniqsa muhimdir.

Jismoniy tarbiya shuningdek, stress va tashvishlarni kamaytirish orqali kayfiyatni yaxshilaydi, bu esa bolalarga topshiriqlar va akademik qiyinchiliklarni engishda yordam beradi. Natijada, bolalar o'z qobiliyatlariga ishonchlari ko'proq bo'ladi, bu ularning motivatsiyasi va o'quv samaradorligini oshiradi.

Xulosa. Jismoniy tarbiya maktab o'quvchilarining barkamol rivojlanishining ajralmas qismidir. Bu salomatlik, aqliy va ijtimoiy fazilatlarni rivojlantirish, shuningdek, intizomni o'rnatish va bolalarga maktabda ham, hayotda ham muvaffaqiyatga erishishga yordam beradi. Shu bois ota-onalar va o‘qituvchilarning jismoniy tarbiyaga alohida e’tibor qaratishi, bolalarning muntazam va xavfsiz jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanishi uchun shart-sharoit yaratishi zarur.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Matveev, L.P. "Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi". - M.: Jismoniy tarbiya va sport, 2004.
2. Krutsevich, T.Yu. "Yoshga bog'liq fiziologiya va maktab gigienasi". - Kiev: Olimpiya adabiyoti, 2005 yil.
3. Balsevich, V.K. "Bolalarni jismoniy tarbiya va tarbiyalash". - Moskva: Sovet sporti, 2001 yil.

ORGANIZMNING O‘SISHI VA RIVOJLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR

Kazakov Baxram Allayarovich

Qoraqalpoq davlat universiteti fakultetlararo jismoniy madaniyat kafedrasi katta-oqituvchisi

Allayarov Dilshod Bahramjanovich

Olimpiya va milliy sport turlari bo‘yicha Nukus oliy sport mahorati maktabi volleybol sport turi bo‘yicha murrabiy

Калит сўзлар: *jismoniy ish qobilati, nerv, gimnastika mashqlari, ATF, KF, yosh davrlari, muskul lar, suyaklar, o‘pka, yurak qon-tomir tizimi.*

Ключевые слова: *физические возможности, нервы, гимнастические упражнения, АТФ, МВ, юный возраст, мышцы, кости, легкие, сердечно-сосудистая система.*

Key words: *physical abilities, nerves, gymnastic exercises, ATP, MV, age, muscles, bones, lungs, cardiovascular system.*

Dolzarbligi. Yosh organizm normal o‘sishi va rivojlanishida qad-qomatning shakllanishida gimnastik mashqlar, jismoniy ishlar, muhim rol o‘ynaydi. Mehnat va gimnastik mashqlar bilan muntazam shug‘ullanganda ishlab turgan muskul va

suyaklarga qon oqib kelishi kuchayadi. Natijada o‘sha muskul va suyaklar pishiq va yiriqroq bo‘lib qoladi, suyaklarning musqullar birikadigan joylari esa ancha sezilarli bo‘lib qoladi. Muskullarning ko‘ndalang qismi va hajmi kattalashadi, nafas organlarning rivojlanishi hamda yurak-qon tomirlari faoliyati ritmi roslanadi.

Gimnastik mashqlar bilan shug‘ullanish bolalarda yangi harakatlar kabi jismoniy rivojlanish bilan birga, aqliy rivojlanishiga ham yordam beradi. Aqliy va jismoniy ish qobiliyati ko‘tariladi. Nerv-psixik sohasining oliy darajada aktivlanishini talab etadigan ishni bajarishda odamning potensial qobiliyatini, aqliy ish qobiliyatini nerv muskul tizimini esa jismoniy ish qobiliyatini tashkil etadi. Yosh organizmda barcha fiziologik jarayonlar yagona sutkalik kecha-kunduzlik ritmiga bo‘ysunadi. Sutka mobaynida orga nizm bir xil holatda bo‘lmaydi. Sutkaning ayrim davrlarida uning aktivligi va ish qobiliyati yuqori, bosh qa davrlarda past bo‘ladi.(1)

Bunga ta’sir qiladigan asosiy omillar kun bilan tunning almashinuvi harorat, havo namligi, atmos fera bosimining sutka davomida o‘zgarish, shuningdek, kundalik rejim, ishning turi, vaqti va boshqalar kiradi. Ko‘pgina fiziologik jarayoning yuqori aktivlik fazalari yig‘indisi organizm harakatini uning ishqo biliyatini ifodalaydi. Ko‘p jarayonlar kunduz kuni aktiv kechgani tufayli butuno rganizm ham kunduzi ak tiv bo‘ladi.

Dars jarayonida harakatsiz o‘tirish natijasida aqliy ishdan keyin tolqish boshlanadi, shuning uchun qisqa vaqtichida ayrim gimnastik harakatlar qilish kerak.

Dolzarbligi. Bugungi kunda butun dunyoda sport inson faoliyatining eng ommalashgan turlaridan biri hisoblanadi. Ayni paytlarda sport faqatgina sog‘lomlashtirish funksiyasini bajarib qolmasdan, kuchli ijtimoiy hodisaga ham aylanib ulgurdi. Mamlakatimizda futbolni rivojlantirish borasida keng ko‘lamli islohatlar olib borilmoqda.Jumladan: 2019- yil 4-dekabrdagi PF-5887–sonli “O‘zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Farmoni doirasida mamlakatimizda 2030 yilgacha futbolni rivojlantirish konsepsiyasining tasdiqlanishi mamlakatimizda ommaviy sport turi bo‘lgan futbolni rivojlantirish, mazkur sohada futbol klublari, sport ta’lim muassasalari uchun sport shifokori, sport psixologi, sport farmakologi, sport huquqshunosi va sport dietologi yo‘nalishlari bo‘yicha malakali mutaxassislar tayyorlashni tashkil qilish. Shuningdek, zamonaviy ilmiy yutuqlar va innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda trener, seleksioner (skaut), tahlilchi, hakam, marketolog va futbol menejeri yo‘nalishlari bo‘yicha yuqori malakali futbol mutaxassislarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish maqsadida mahalliy hamda xorijiy mutaxassislarni keng jalb qilish orqali O‘zbekiston futbol assotsiatsiyasi huzurida futbol mutaxassislarini tayyorlash markazini tashkil etish vazifalari belgilab berildi [1]. Mazkur vazifalarni amalga oshirish uchun ilm-fan yutuqlaridan foydalanish ushbu sohada keng ko‘lamli tadqiqotlar o‘tkazilishini taqazo etadi. Mazkur jarayonda kichik guruh sifatida professional futbol jamoalarida o‘zaro munosabatlarni o‘rganish dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi.

Har bir insonning jamiyat bilan bo‘lgan o‘zaro aloqalari guruh orqali amalga oshadi. Kichik guruh-bu faqatgina jamiyat va katta guruhlarning insonga ta’sirining yo‘lboshlovchisigina emas, balki uning ijtimoiy hayotda o‘zini ijtimoiy shaxs sifatida namoyon qilish sohasi hamdir. Kichik guruhlarni o‘rganmay turib, jamiyat va shaxsning o‘zaro munosabatlari mehanizmlarining mohiyatini ochib bo‘lmaydi.Kichik guruhlarning asosiy belgilaridan biri uning a’zolari sonidir.Uning chegarasi haqida aniq fikr aytilmasa ham, a’zolar soni 30, ko‘pi bilan 40 ta odamgacha deb hisoblanadi.Ushbu chegarada (eng kichik 2-3 odam) barcha sport komandalari joylashadi. Sport komandasi real kichik guruh sifatida barcha a’zolar uchun bitta maqsad bilan birlashadi. Maqsad birligi kichik guruhlarning boshqa xarakteristikasi, xususan o‘zaro munosabatlarga olib keladi.Maqsadning bir xilligi esa, aksincha guruh a’zolarining o‘zaro qarama-qarshiligiga olib kelishi mumkin (masalan: g‘alaba uchun kurash).Maqsad birligi har xil a’zolarda turli qiziqishlar asosida kelib chiqishi mumkin: ba’zilar valeybol

o‘yinini ko‘ngilxushlik uchun, ba’zilar jismoniy rivojlanish, uchinchilar muayyan ijtimoiy statusga erishish uchun o‘ynaydilar.

Jamoa a’zolarining o‘zaro munosabatlari kichik guruhning yana bir tavsifidir. Katta maqsad, odatda barcha jamoa a’zolarining o‘zaro yordami bilan amalga oshiriladi. Jamoadagi o‘zaro munosabatlar yuzaga kelishining shart-sharoitlariga ko‘pincha sportchilarning intiladigan maqsadi deb qaraladi. SHuning uchun o‘zaro munosabatlar –kichik guruhlar va sport komandalarining effektiv xususiyati deb qaraladi. Yana bir asosiy belgilardan biri-har bir a’zoning o‘zining tegishliligini ayniqsa jamoada his qilish juda ham muhimdir [2].

Sport komandalarining maqsadlari, asosan jamoaviy (ya’ni, jamoa, shahar, mamlakat sharafini himoya qilish) bo‘lishiga qaramay, ular shu bilan birga shaxsiy tor guruhiy (musobaqada aynan shu sportchilar jamoasini yutishni xohlaydi).Ushbu bilan bog‘liq holda, sport guruhining yana bir belgisi uning atrofdagilardan ongli ravishda ajralib turishi va hayotdagi muayyan avtonomiya tashkil etadi. Avtonomiya esa o‘z navbatida doimiylikni talab qiladi, bu esa uzoq vaqt davomida maqsad birligi, qoida, an’analarning birligi tufayli guruh xususiyatini saqlab turadi. Kerakli natijalarga erisha olgan guruh o‘z tuzilishini va faoliyat doimiyligini saqlab qolsa, yutuqqa erisha olmagan guruh esa ichki nizolarga, tuzilishining buzilishi, ichki sportchilar almashuvi yoki yangilarga almashtirishgacha yetib keladi. Bundan kelib chiqadiki, jamoa a’zolari yoki jamoa va murabbiy o‘rtasida nizolar paydo bo‘ladi.Yana nizoga bir yoki bir nechta jamoa a’zolari o‘z qiziqishlarini guruhdan yuqori qo‘yishi va oldingi sharoitlarga ba’zi a’zolarning noroziligi ham sabab bo‘lishi mumkin.Bundan kelib chiqadiki, komanda hayotini doimiy nazorat qilib turish va kerak bo‘lganda boshqaruv choralarini qo‘llab turish kerak.

M.Argayl, R.Beylsning qarashlariga binoan, sotsial psixologiyada guruh deb shunday odamlarning umumiy birligiki, ularning birlashuvi asosida ba’zi bir belgilar (alomatlar) mavjud bo‘lib, ularning yordami bilan hamkorlik faoliyati, shuningdek, guruhiy muomala amalga oshishi ro‘y beradi [4].

AQSH olimlarining tadqiqotlarida kupincha “kichik guruh” terminidan foydalaniladi, xuddi shu boisdan, kichik guruh (small group), xatto xorijiy mamlakatlarning sotsial psixologiya tarmog‘ida yetakchi yo‘nalishiga aylandi. Shuning uchun jamoalarda shaxslararo munosabatlarning muhim mezonlari sifatida jamoadagi o‘zaro munosabatlar, murabbiy va sportchi munosabati, jipslik, moslik jamoatchilik va boshqalar tadqiq qilinmoqda. Buning natijasida “guruhiy dinamika”, “sotsial persepsiya”, “sotsial ekspektatsiya” (kutilma), “sotsial adaptatsiya” (moslashuv) tushunchalari vujudga kelib, sotsial psixologiyaning tadqiqot predmetiga kiritildi va bu kabi masalalar sport jamoalarini o‘rganishda ham qo‘llanila boshlandi.

Muayyan bir jamoadagi sportchilarning psixologik aloqasi, sportchilar o‘rtasidagi shaxslararo munosabatlarga doir masalalar ko‘plab olimlarni qiziqtirgan. I.Volkov, G.Gorbunov, V.Nekrasov, O.V. Petuxov, E.P.Ilin, N.P. Fetiskin, V.. Kozlov, Yu.A.Kolomeytsev, G.M. Manuilov va boshqa tadqiqotchilar bu muammoni atroflicha tadqiq etganlar. Olimlar tomonidan

olimpiya o‘yinlaridan so‘ng musobaqa ishtirokchilarining muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatsiz chiqishlari tahlil qilinadi.

Bizga ma’lumki, “jamoaviy” sport turlarida muvaffaqiyatga erishish ko‘plab psixologik ko‘rsatkichlarga bog‘liq. Bunday mezonlarga quyidagilarni kiritishimiz mumkin: o‘zaro tushunish, uyushqoqlik, jipslik, birdamlik, o‘zaro ko‘mak va boshqalar.Bularni qaror toptirishda shaxslararo munosabatlar alohida rol o‘ynaydi. Yagona jamoaning birdamligiga yagona maqsad – g‘alaba mavjudligi bilan erishiladi. Sportchilar ko‘p vaqtlarini mashg‘ulotlarda birga o‘tkazadilar, shuning uchun ham munosabatlar tizimi bunday jamoada bo‘lishdan qoniqish hissini keltirishi kerak. Murabbiyning faoliyati jamoada shaxslararo munosabatlarni shakllantirishga katta ta’sir ko‘rsatadi. Shuni yodda tutish kerakki, futbol jamoasida asosiy tarkibdagi o‘yinchilar ham, zahira futbolchilari ham bo‘ladi. Ushbu ishtirokchilar o‘rtasidagi munosabatlar, jamoaning psixologik iqlimi birinchi navbatda murabbiyga bog‘liq. Agar murabbiy rahbar sifatida asosiy o‘yinchilarga ishonch bildirsa va shu bilan birga “zahira” tarkibidagi sportchilar uchun musobaqalarda o‘zini namoyon qilish imkoniyatini beradigan bo‘lsa, unda jamoa ichidagi munosabatlar do‘stona, salbiy hissiy-emotsional holatlarsiz bo‘ladi. Murabbiy va jamoa o‘rtasidagi ish jamoada psixologik muhitni shakllantirishning alohida hamda o‘ta ahamiyatli bo‘lgan omilidir.

Jamoaning tegishli tanlovi va rahbarning nafaqat taktik va texnik mahoratni, balki jamoaning barcha ishtirokchilarida o‘zaro tushunishini o‘rgatish qobiliyati musobaqalarda g‘alaba va muvaffaqiyat garovidir.

Shunday qilib, “klub rahbariyati” ning eng muhim ko‘rsatkichlaridan biri - bu sportchilarning professional jamoasida mavjud bo‘lgan shaxslararo munosabatlarning tabiati va murabbiyning shaxsiyati yetakchi rol o‘ynaydi.

Murabbiyning shaxsiyati deganda avvalo uning rahbar sifatidagi shaxs xususiyatlari, qobiliyatlari tushuniladi.

Yu.A.Kolomeytsevning qarashiga binoan jamoadagi o‘zaro munosabatlarda murabbiy shaxsi asosiy o‘rinni egallaydi. Uning ta’kidlashicha “Murabbiy qo‘l ostidagilarda kuchli iroda va yuqori axloqiy me’yorlarga ega bo‘lgan jasur ritsar imijidagi shaxs sifatlarini namoyon eta olsa, sportchilarda ham shunday motivatsiya uyg‘otib bir-birini to‘g‘ri idrok etish va ijtimoiy perseptivlikning unumdor uslubi yaratiladi. Bu esa murabbiy va sportchi munosabatlari (vertikal) kechishida ijtimoiy-psixologik va pedagogik unumdorlikning oshishida muhim omil bo‘lib hisoblanadi.

Sport jamoasining mohiyati tashkilot va faoliyat shakllarini doimiy ravishda takomillashtirish, doimiy ravishda oldinga siljish, sportning izchil rivojlanishini ko‘rish, tobora ko‘proq yangi va yaxshi vazifalarni belgilash va hal qilish istagini o‘zida mujassam etadi.

Sport jamoasi yuzaga kelgan muammolarini hal qilishda barcha a’zolarini umumiy faol ishlarga jalb qilish bilan tavsiflanadi. Bu sport mahoratini oshirish, jamoa a’zolarini texnik va taktik jihatdan takomillashtirish, boshqa jamoalar orasida erishilgan mavqeni yuqori darajada ushlab turish kabi masalalar bo‘lishi

mumkin.Shu bilan birga, jamoa o‘z oldiga ma’lum bir sport turini umumiy rivojlantirishga qaratilgan maqsad va vazifalarni ham qo‘yadi: nafaqat keng tarqalgan o‘qitish vositalari va usullaridan foydalanish, balki ularni tajriba, rivojlanish va takomillashtirishda sinab ko‘rishni ham o‘z ichiga oladi.

Sport jamoasi tarkibiga nafaqat sportchilar, balki murabbiylar, shifokorlar, massaj terapevtlari, ilmiy va texnik xodimlar ham kiradi. Ularning umumiy ishda ishtirokisiz jamoa normal taraqqiy eta olmaydi.

Shunday qilib kichik guruh sifatida futbol jamoasidagi o‘zaro munosabatlarning kechishida nafaqat sportchilar, murabbiylar va sport jamoasining boshqa a’zolari ishtirok etadi.Ushbu jarayonda murabbiyning shaxs sifatidagi pedagogik-psixologik bilimdonligi, texnik-taktik tayyorgarligi va kasbiy kompitensiyasi muhum rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Farmoni.4-dekabr 2019- yil- http//lex.uz/m/acts/4631208

2. Ильин. Е.П. «Психология спорта»: Питер; Спб.; 2008. 352 с. 211-223 с.

3. Ханин Ю.Л. Психология общения в спорте, М. 1980 г.208 с.

4.Gazieva Z.E. Sportda guruhiy jipslik shakllanishi va rivojlanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari (futbol komandalari misolida) psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyasi.Toshkent.,2019

SPIRTLI ISHIMLIKLER HÁM DOPING ZATLARÍNÍŃ SPORTSHÍLAR ORGANIZMINE TÁSIRI

Kadirov Raxat Sovet uli

Ózbekstan mámleketlik dene tárbiya hám sport universiteti Nókis filialı “Jeke gúres hám tabiyiy pánler” kafedrası docent w.w.a.

Tayanısh sózler: *spirtli ishimlikler, doping, sportshı, fiziologiyalıq tásir salamatlıq, garmon, júrek-qan tamır sisteması, sport etikası.*

Kirisiw. Sport - bul tek ǵana deneniń fizikalıq imkaniyatların sınaw emes, al, sonday-aq, insan ruwxınıń shıdamlılıǵı hám umtılısların úyreniwdiń ájayıp maydanı bolıp esaplanadı. Sportshılar óz miynetleri hám qábiletlerin maksimal dárejede kórsetiwi ushın olar turaqlı shınıǵıwlar, puqta rejeler hám ózgertilgen turmıs tárizine ámel etedi. Biraq, ayırım sportshılar ózleriniń fizikalıq imkaniyatların kúsheytiw maqsetinde doping zatların yamasa spirtli ishimliklerdi paydalanadı. Bul bolsa kóplegen biologiyalıq, psixologiyalıq hám sociallıq aqıbetlerge alıp keledi.

Spirtli ishimlikler hám doping dárilik zatlardıń sportshılardıń organizmlerine tásiri júdá awır hám quramalı biologiyalıq proceslerdi keltirip shıǵaradı. Alkogol ishimlikler kóbinese psixologiyalıq jaǵdaydı ózgertip, oraylıq nerv sistemasın depressiyaǵa alıp keledi, bul bolsa sportshınıń sporttaǵı nátiyjelerine unamsız tásir kórsetedi. Doping zatlarınan paydalanıw bolsa qısqa múddette sportshılardıń fizikalıq kórsetkishlerin arttırıwǵa járdem beredi, biraq uzaq múddette bul zatlardıń

unamsız biologiyalıq tásirleri anıǵıraq kórinedi. Bul dárilik zatlardıń keri tásirleri, ásirese bawır hám búyreklerdiń xızmetine, júrek-qan tamır sistemasına hám uluwma organizmniń metabolizm proceslerine úlken tásir kórsetedi.

Doping hám spirtli ishimlikler sportshılar ushın óz nátiyjelerin arttırıwǵa qaratılǵan háreket sıpatında kórilse de, olar sport salamatlıǵına hám básekige shıdamlılıǵına tásir etiwshi tiykarǵı faktorlarǵa aylandı. Doping zatlarınan paydalanıw sporttıń ádil, durıs hám salamat tiykarlarda rawajlanıwın buzıp, sporttıń áhmiyetin azaytadı, sonday-aq, sportshılardı awır densawlıq mashqalaların keltirip shıǵaradı. Bunday jaǵdaylar ásirese básekige shıdamlı sport túrlerinde sezilerli dárejede payda boladı.

Sonıń ushın, spirtli ishimlikler hám doping dárilik zatlardıń sportshılarǵa tásirin túsiniw hám analiz etiw, olardıń unamsız aqıbetlerin aldın alıw ushın zárúr. Bulardı úyreniw arqalı sportshılardı qorǵaw hám sporttıń durıs erisiw múmkin. Maqalada spirtli ishimlikler hám doping zatlarınıń sportshılar organizmine biologiyalıq tásirin keńnen talıqlanıp, olardıń densawlıqqa qanday zıyan keltiriwi hám sporttıń ulıwma rawajlanıwına qanday tásir etiwi haqqında sóz kórsetip ótilgen.

Spirtli ishimlikler sportshılar ushın zıyanlı, sebebi olar fizikalıq hám psixologiyalıq jaǵdaydı keskin ózgertedi. Alkogol ishimlikler organizmde oraylıq nerv sistemasınıń depressiyası, bawır hám búyrek xızmetiniń tómenlewi, gormonal ózgerisler, júrek-qan tamır sistemasınıń hálsizleniwi sıyaqlı biologiyalıq proceslerdi keltirip shıǵaradı. Oraylıq nerv sistemasınıń xızmetin tómenletip, bul bolsa sportshınıń reakciya tezligin hám koordinaciyasın tómenletedi. Búyrekler hám bawırdı zorıqtıradı, nátiyjede toksinler organizmnen nátiyjeli shıǵarılmaydı. Bul bolsa tikleniw procesin páseytedi hám bulshıq etlerdiń tikleniwine unamsız tásir etedi. Gormonal sistemaǵa tásir etip, testosteron dárejesin tómenletedi, bul bolsa kúsh hám shıdamlılıqtıń azayıwına alıp keledi. Júrek-qan tamır sistemasına unamsız tásir etedi, júrektiń qan pompası iskerligin tómenletedi, bul bolsa fizikalıq júklemeler hám sport shınıǵıwlarında zıyanlı tásir kórsetedi.

Doping dárilik zatlarınıń tiykarǵı maqseti sportshınıń fizikalıq kórsetkishlerin ózgertiw, biraq bul dárilik zatlardıń keri biologiyalıq tásiri keń tarqalǵan. Eń kóp qollanılatuǵın doping dárilik zatları arasında anabolik steroidlar, eritropoetin (EPO), diuretik hám basqa dárilik zatlar bar. Olardıń tásiri tómendegishe boladı:

Anabolik steroidlar – Bu moddalar mushaklarning o‘sishini tezlashtiradi, lekin uzoq muddatda foydalanish ularning og‘ir zararlariga olib keladi. Mushaklar va to‘qimalarning o‘sishi tezlashadi, ammo jigar va yurakning faoliyati sezilarli darajada yomonlashadi.

Eritropoetin (EPO) - EPO qollanılıwı qannıń qızıl kletkaların kóbeytedi, bul bolsa kislorod tasıw potencialın asıradı. Biraq EPO uzaq múddet dawamında qollanılsa, qannıń qoyıwlanıwı hám qan uyıwınıń artıwı múmkin, bul bolsa júrek pristupları hám qan tamır mashqalalarına alıp keledi.

Diuretika - Diuretik zatlardı qollanıw arqalı sportshılar tez salmaq joǵaltadı, biraq bul zatlar organizmde suyıqlıqtıń tez shıǵıp ketiwine alıp keledi, bul bolsa suwsızlanıw hám elektrolitler balansınıń buzılıwına sebep boladı.

Dárilik zatlar sportshınıń fizikalıq hám psixologiyalıq jaǵdayına sezilerli dárejede tásir kórsetedi, biraq bul tásirler óz tábiyatlarına qaray bir-birinen parıqlanadi. Máselen, Z.Gaziyevanıń «Sport medicinası» (2019) atamasındaǵı oqıwlıǵında, doping dárilik zatlarınıń tiykarǵı tásiri bulshıq et xızmeti, júrek-qan tamır sisteması hám metabolizm proceslerine qaratılǵan bolıp, bul dárilik zatlar waqtınsha sport nátiyjelerin asırıwı múmkin, biraq uzaq múddetli tásiri salamatlıq ushın qáwip tuwdıradı. Sonıń menen birge, oqıwlıqta spirtli ishimliklerdi qabıllaw sportshılar arasında reakciya tezliginiń páseyiwine, bulshıq etlerde koordinaciyanıń buzılıwına hám uluwma psixikalıq jaǵdaydıń jamanlasıwına alıp keletuǵınlıǵı atap ótilgen.

Jáne bir áhmiyetli derek - O.T. Alyaviyanıń "Fiziologiya" (2019) oqıwlıǵında atap ótiliwinshe, spirtli ishimlikler oraylıq nerv sistemasın páseytedi, bul bolsa sportshınıń pikirlewi, háreket muwapıqlıǵı hám stresske shıdamlılıǵın tómenletedi. Kerisinshe, doping dárilik zatlarınıń ayırımları, ásirese anabolik steroidlar bulshıq et toqımaların ósirip, kúsh-quwattı asıradı, biraq bul jaǵday júrek hám búyreklerge artıqsha awırlıq beredi.

Sonday-aq, Y.M.Koctıń " Спортивная физиология " (1986) kitabında doping preparatlarınıń qısqa múddetli nátiyjeli tásiri menen birge, olardıń nerv sisteması hám ishki teńsalmaqlıqqa keri tásiri de bayan yetilgen. Avtor spirtli ishimlikler tiykarınan psixologiyalıq jaǵdaydı jamanlastırıwı, sporchılar arasında sharshaw hám erinsheklikti kúsheytiwi kórsetilgen [3].

Ulıwmalastırıp aytqanda, spirtli ishimlikler tiykarınan oraylıq nerv sisteması hám psixologiyalıq jaǵdayǵa tásir etse, dopingke baylanıslı zatlar bolsa bulshıq etler, júrek hám endokrin sistemaǵa baǵdarlanǵan. Spirtli ishimlikler geyde waqtınsha ziyansız sıyaqlı kórinisi múmkin, biraq turaqlı paydalanılsa, densawlıqqa úlken zıyan jetkeredi. Doping bolsa qısqa múddette nátiyjelilikti arttıradı, biraq uzaq múddette sporchınıń ulıwma densawlıǵına unamsız tásir kórsetedi.

Juwmaqlap aytqanda, spirtli ishimlikler hám dopinge baylanıslı elementler sportshılar ushın úlken biologiyalıq qáwip tuwdıradı. Olardıń uzaq múddetli tásiri densawlıqtı buzıwı hám sport nátiyjelerin tómenletiwi múmkin. Sonıń ushın sportshılarǵa bul elementlerdi qabıl etiwden tıyılıw, durıs awqatlanıw, turaqlı tikleniw hám fizikalıq shınıǵıwlar menen shuǵıllanıw áhmietli esaplanadı. Sonday-aq, dopinge qarsı gúresiw, sportta ádillik hám salamat básekini támiyinlew ushın qatań ilajlar kóriliwi zárúr.

Paydalanılǵan ádebiyatlar:

1. Z. Gaziyeva, M.Ismailova, R.Islamova, Sh.Xudaykulov // Sport tibbiyoti Toshken 2019 y.

2. O.T.Alyaviya,Sh.K.Qodirov,A.A.Nishanova//Fiziologiya “Navro’z” nashriyoti Toshkent 2019 y.

3. Спортивная физиология [Учеб. для ин-тов физ. культуры / Я.М. Коц, Н.В. Зимкин, О.П. Панфилов, В.М. Волков]; Под общ. ред. Я.М. Коца. — М. : Физкультура и спорт, 1986. — 239, [1] с. ил.; 23.

ADAPTIV JISMONIY TARBIYA VA SPORT IXTISOSLIGI TALABALARI MUVOZANAT SAQLASH QOBILIYATINI OSHIRISH USLUBIYATI

Reymbaeva Roza Saparbaevna
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali katta o‘qituvchisi, b.f.n

Ernazarova Raya Allanazarovna
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali o‘qituvchisi

Eshniyazova Umida Dauıtbay qızı
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali talabasi

Kalit so‘zlar. *Adaptiv jismoniy tarbiya va sport, jismoniy imkoniyati cheklangan, nogironlar nazologiyasi, parasport turlari, integratsiya, moslashtirish, korreksion vosita va usullar, ijtimoyilashuv, mashg’ulot jarayoni.*

Dolzarbligi. Bugungi kunda Dunyoda adaptiv sport turlari bilan muntazam shug’ullanish uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratish, jismoniy imkoniyati cheklangan talabalarni maxsus harakat imkoniyatlarini oshirish uslubiyatini takomillashtirish hamda para sport turlari orqali yoshlarda o’z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo’lgan ishonchni mustahkamlash talabini qo’ymoqda [2; 3-4-b]. Imkoniyati cheklangan talabalarni nogironlik nazologiyalaridan kelib chiqib muvozanat saqlash qobiliyatini oshirishni tizimli tashkillashtirish hamda sport mashg’ulotlarini tashkil qilishda qo’llaniladigan vosita va usullarni tayanch-harakat apparatida shikastlangan va jismoniy imkoniyati cheklangan talabalar harakat faolligini oshirishga va koordinatsion qobiliyatini instrumental metodlar orqali rivojlantirib borish dolzarb masalalardan biri hisoblanmoqda.

Tadqiqotning maqsadi. Adaptiv jismoniy tarbiya va sport ixtisosligi talabalari muvozanat saqlash qobiliyatini oshirish uslubiyati bo’yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari. 1. Jismoniy imkoniyati cheklangan talabalar mashg’ulotlarini o’rganish va tahlil qilish. 2. Adaptive jismoniy tarbiya va sport ixtisoosligi talabalari mashg’ulotni integratsiyasi ishlab chiqish.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi. Respublikamizda bir qator mualliflarimiz nogironlikni ma’lum turida sport mashg’ulotlariga moslashish nazariyasi hamda jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslarni nozologik guruhlari asosida OTMlarga qabul qilish mezonlari bo’yicha Mirjamalov M.X., R.M.Matkarimov, jismoniy imkoniyati cheklangan talabalar mashg’ulotlarini optimallashtirish bo‘yicha L.B.Sobirova, R.F.Odilov, S.D.Berdiyev, Ch.A.Berdiyeva va maktabgacha yoshdagi tiflo, surdo va oligofren bolalarga tabaqalashtirilgan oxista qadam dasturini qo’llash bo’yicha F.M.Muradov, paralimpiya sport turlarida yuqori natijalarni qayd etish bo’yicha E.A.O‘rinboyev va boshqa mutaxassislar tomonidan sohaga oid turli konseptual izlanishlar olib borilgan.

Jismoniy imkoniyati cheklangan talabalarni moslashtirishda adaptiv jismoniy faoliyatning jahon amaliyotida, nogironligi bor shaxslarni jamiyat

makrotuzilmasidagi sabab-ta’sir munosabatlar muhim hsoblanadi. Jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslarni moslashtirish uchun umumlashtirilgan yondoshuvchlar mavjud, jumladan, nogiron va salomatligi bilan bog’liq muammolar bo’lgan odamlarning ehtiyojlarini qondirish hamda ularga tashqi muhitni moslashtirish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Bundan tashqari iqtisod, ijtimoiy soha, fan va texnika, ta’lim, madaniyat va san’atda jamiyat va davlat tuzilmalari va institutlarini rivojlantirish hamda takomillashtirishga qo’shgan hissasi shunchalik sifatli bo’lishi muhim omillardan hisoblanadi.

Adaptiv jismoniy tarbiya (salomatligida muammolar bo’lgan shaxslarning jismoniy tarbiyadir) sog’lom turmush tarzi orqali shaxsiy ehtiyojlarning amalga oshirilishini ta’minlaydigan salomatlik darajasini saqlash hamda oshirishning markaziy bo’g’ini hisoblanadi. Jismoniy imkoniyati cheklangan talabalarda jismoniy faollik, bo’sh vaqt, faol dam olish va muloqotni oqilona tashkil etish, axloqiy rivojlanish hamda irodaviy fazilatlarni rivojlantirish muhim omillardan hisoblanadi. Jismoniy imkoniyati cheklangan insonga o’z shaxsiyatini jismoniy-ma’naviy birlikda rivojlantirish imkoniyatini beradi. Bundan tashqari aqliy va jismoniy nuqsonlari bo’lgan odamlarni moslashtirish hamda reabilitatsiya qilishda katta ahamiyatga ega ekanlii tadqiqotimiz davomida aniqlandi.

Tadqiqotimiz metodologiyasi bilimning mohiyati sanaladi. Tadqiqot mavzusining mazmuni va mantiqiy-tashkiliy tarkibiy qismlari va ilmiy bilimlarni shakllantirish usulini o’z ichiga oladi. Jismoniy imkoniyati cheklangan talabalarni mashg’ulot tizimini qurish tamoyillari, algoritmlari hamda amalga oshirish shakllarini qo’llash mexanizmini ishlab chiqishgan.

Adaptiv jismoniy tarbiya va adaptiv reablitatsiya tizimi va adaptiv sportni amalga oshirishning muhim omili reabilitatsiyaning asosiy ko’p funktsiyali modellarini shakllantirishdan iborat.

Xulosa. Biz tomonimizdan adaptiv jismoniy tarbiya va sport ixtisosligi talabalarni mashg’ulotlarini integratsiya qilish modelini qo’llash orqali jismoniy imkoniyati cheklangan talabalarni nozologik guruhlari asosida parasport musobaqalarida ishtirok etish imkoniyati kengaytirildi. Shu bilan birga jismoniy imkoniyati cheklangan talabalarning jismoniy tayyorgarlik ko’rsatkichlari yaxshilanishga erishilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 18-maydagi PQ-5114-son “Paralimpiya harakatini rivojlantirish”ga doir qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarori

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-oktabrdagi PQ-599-son “O‘zbekiston Milliy paralimpiya qo‘mitasi huzuridagi Paralimpiya sport turlari bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlash instituti faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘risida”gi qarori

3. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-iyuldagi PQ-302-son “Nodavlat sport-ta’lim muassasalarida olimpiya va paralimpiya sport turlari bo’yicha sportchilarni tayyorlash va ularni davlat tomonidan qo’llab-quvvatlash chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori

PARALIMPIYA SPORT TURLARINI TASNIFLASH TIZIMI

Shilmanov Aydos Erimbetovich

O‘zbekiston davlat sport akademiyasi huzuridagi Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Nukus filiali, dotsent

Kalit so‘zlar: *paralimpiya o‘yinlari, tog‘ chang‘isi, biatlon, chang‘i poygasi, xokkey, para-snoubord, o'qituvchi, jismoniy tarbiya, ko'rsatkichlar, so‘rovnoma.*

Ключевые слова: *Паралимпийские игры, горные лыжи, биатлон, лыжные гонки, хоккей, парасноуборд, педагог, физическое воспитание, показатели, анкета.*

Key words: *Paralympic games, alpine skiing, biathlon, cross-country skiing, hockey, pair snowboarding, teacher, physical education, indicators, questionnaire.*

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Paralimpiya harakatini rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora tadbirlari to‘g‘risida”gi 2021-yil 18-maydagi PQ-5114-sonli qarorilariga muvofiq Paralimpiya sportining asosiy tushunchalaridan biri bu tasniflash tizimi bo‘lib hisoblanadi. Tasniflash o‘xshash nogironlik yoki jismoniy rivojlanish darajasi o‘xshash sportchilar o‘rtasida raqobatni tashkil qilish imkonini beruvchi raqobat tuzilmasini ta’minlaydi.

Sportchilar nogironligi va ishtirok etishni rejalashtirgan sport turiga qarab tasniflanadi. Tasniflash jarayoni jismoniy yoki tibbiy ko‘rikdan o‘tishni, sportchining muayyan sport bilan bog‘liq mashg‘ulotlarni qanday bajarishini texnik baholashni va sportchini musobaqa paytida va undan tashqari kuzatishni o‘z ichiga oladi. Har bir sport turining o‘ziga xos tasniflash tizimi mavjud bo‘lib, u ushbu sport turi qoidalarida belgilanadi.

Tadqiqot maqsadi. Tasniflash tizimi sportchi tegishli bo‘lgan nogironlik toifasini va shunga mos ravishda sportchining musobaqalashadigan chegaralari va usullarini belgilaydi. XOQ yozgi va qishki Paralimpiya o‘yinlari uchun oltita nogironlik toifasini belgiladi. Ushbu nogironlardan biriga ega bo‘lgan sportchilar Paralimpiya o‘yinlarida qatnasha oladilar, garchi barcha nogironlik toifalari har bir sport turida mavjud emas. Ular nogironlik turiga qarab o‘nta asosiy toifaga bo‘lingan:

1. Jismoniy nuqsonlar (Harakatlanishida jismoniy nuqsonlar mavjud sakkiz xil gurux tan olingan):

a. Mushaklarning noto‘g‘ri oziqlanishi - bu toifadagi buzilishlar bilan mushaklar tomonidan ishlab chiqariladigan kuch, masalan, bir oyoq-qo‘l, tananing bir tomoni yoki tananing pastki yarmi mushaklari, masalan, orqa miya shikastlanishi, o‘mirtqa sinishi yoki poliomielit tufayli kamayadi;

b. Harakatlanishning passiv diapazoni - bir yoki bir nechta bo‘g‘inlardagi diapazon muntazam ravishda kamayadi. Artrit kabi o‘tkir kasalliklar ushbu toifaga kiritilmagan;

c. Qo‘l-oyoqlarning yo‘qligi yoki yetishmovchiligi — shikastlanish yoki tug‘ma oyoq-qo‘l yetishmovchiligi (masalan, dismeliya) tufayli qisman yoki to‘liq yo‘qolishi natijasida suyak yoki bo‘g‘imlarning to‘liq yoki qisman yo‘qligi;

d. Oyoq uzunligi farqi - etishmovchilik yoki shikastlanish tufayli bir oyoq suyagining sezilarli darajada qisqarishi;

e. Past bo‘y - tayanch-harakat apparati nuqsonligi yoki to‘qimalarning qisqarishi tufayli qisqargan oyoqlar;

f. Gipertoniya - Gipertoniya mushaklar kuchlanishining g‘ayritabiiy o‘sishi va mushaklarning cho‘zilish qobiliyatining pasayishi bilan tavsiflanadi. Gipertoniya shikastlanish, kasallik yoki markaziy asab tizimining shikastlanishi (masalan, miya yarim palsi) bilan bog‘liq bo‘lgan holatlar natijasida yuzaga kelishi mumkin;

g. Ataksiya – Ataksiya mushaklar harakatining muvofiqlashtirilmasligiga olib keladigan buzilishdir (masalan, miya yarim palsi, Fridreyx ataksiyasi);

h. Atetoz - atetoz odatda beixtiyor harakatlar va nosimmetrik holatni saqlab qolish qiyinligi (masalan, miya yarim palsi, xoreoatetoz) bilan tavsiflanadi.

2. Ko‘rish qobiliyatining buzilishi – ko‘rish qobiliyatini qisman yo‘qotgan, tibbiy sabablarga ko‘ra ko‘r deb hisoblash uchun etarli bo‘lgan va butunlay ko‘r bo‘lgan sportchilar deb tan olinadi. Bu vizual tizimning bir yoki bir nechta tarkibiy qismlarining (ko‘z tuzilishi, retseptorlari, optik asab o‘tkazuvchanligi, vizual korteks) yomonlashishini o‘z ichiga oladi. Ko‘rish qobiliyati zaif sportchilar uchun ko‘rish qobiliyatiga ega bo‘lgan etakchilar musobaqaning muhim qismidir, shuning uchun sportchi va uning etakchisi bir jamoa hisoblanadi. 2012-yildan buyon ushbu yetakchilar futbol-5 da ko‘r-ko‘rona darvozabonlar bilan birga o‘z medallarini olish huquqiga ega bo‘lishdi.

3. Intellektual buzilish - bu toifaga aqliy faolligi sezilarli darajada yomonlashgan va adaptiv xatti-harakatlarda bog‘liq cheklovlar mavjud bo‘lgan sportchilar kiradi. Xalqaro Paralimpiya qo‘mitasi birinchi navbatda jismoniy nuqsoni bo‘lgan sportchilarni qo‘llab-quvvatlaydi, biroq ba’zi Paralimpiya sport turlariga intellektual nogironlik toifasi qo‘shilgan. Ularga faqat 18 yoshdan oldin tashxis qo‘yilgan intellektual nogironligi bo‘lgan elita sportchilar kiradi. Biroq, XOQ tomonidan belgilab qo‘yilganidek, Maxsus Olimpiada o‘yinlarida aqliy nuqsoni bo‘lgan barcha odamlar qatnashishi mumkin.

Nogironlik toifasi unda qaysi sportchilar ishtirok etishi va qaysi musobaqalarda qatnashishi mumkinligini belgilaydi. Ushbu nogironlik toifalari doirasida nogironlik darajasiga qarab boshqa bo‘linish amalga oshiriladi. Tasniflash tizimlari har bir sport turida farqlanadi. Ushbu tizimlar Paralimpiya sportlarini imkon qadar ko‘proq sportchilarga ochib berish uchun mo‘ljallangan, ular o‘xshash qobiliyat darajasidagi sportchilar bilan adolatli raqobatlasha oladilar. Muntazam sport turlari bo‘yicha shunga o‘xshash toifalar, masalan, o‘smirlar musobaqalarida yosh tasnifi va kurash, boks yoki og‘ir atletika bo‘yicha vazn toifalari. Tasniflar sport bilan shug‘ullanish uchun zarur bo‘lgan turli ko‘nikmalarga qarab farqlanadi. Tasniflash tizimidagi eng katta muammo - bu nogironlikning keng doirasi va og‘irligini qanday hisobga olishdir. Natijada, tasniflashda har doim ba’zi qoida buzarliklar mavjud.

Keling, qishki Paralimpiya sport turlari ro‘yxatini va ularning tasniflarining umumiy tavsifini ko‘rib chiqaylik.

1. Tog‘ chang‘isi: Tog‘ chang‘isi musobaqalari quyidagi jismoniy cheklovlarga ega bo‘lgan sportchilar uchun ochiq: umurtqa pog‘onasi jarohatlari, miya falajlari, amputatsiyalar, Les Autres va ko‘rlik (ko‘rish buzilishi). 13 ta tasnif mavjud: tik turgan sportchilar uchun 7 ta, o‘tirgan sportchilar uchun 3 ta va ko‘rish qobiliyati zaif sportchilar uchun 3 ta. Bo‘linish sportchilarning jismoniy nuqsonlari darajasi, shuningdek, qo‘llab-quvvatlovchi uskunalarga bo‘lgan ehtiyoj bilan belgilanadi.

2. Biatlon: Biatlon – chang‘i uchish va nishonga otishning kombinatsiyasi. Bu jismoniy chidamlilik va otish aniqligini talab qiladi. Musobaqalar jismoniy imkoniyati cheklangan va ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan sportchilar o‘rtasida o‘tkaziladi. 15 ta tasnif mavjud bo‘lib, ularda sportchilar zaiflik darajasiga qarab bo‘linadi. Jismoniy nuqsonlari bo‘lgan sportchilar uchun 12 ta tasnif va ko‘rish qobiliyati buzilgan sportchilar uchun 3 ta tasnif. Sportchilar bir-birlari bilan raqobatlashadilar va ularning yakuniy vaqti marra chizig‘idagi o‘rnini aniqlash uchun har bir nogironlik turi uchun alohida formuladan foydalanib hisoblanadi. Ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan sportchilar ovozli otishni o‘rganish tizimidan foydalangan holda musobaqalashadilar. Signal qanchalik baland bo‘lsa, sportchi shunchalik aniq nishonga oladi.

3. Chang‘i poygasi: chang‘i poygasi (silliq chang‘i)da miya falajiga chalingan sportchilar, amputatsiyalar, nogironlar aravachasi foydalanuvchilari, shuningdek, ko‘rish va aqliy rivojlanishida nuqsoni bo‘lganlar qatnashishi mumkin. 15 ta tasnif mavjud: ko‘rish qobiliyati zaif sportchilar uchun 3 ta, tik turgan sportchilar uchun 9 ta va harakatsiz sportchilar uchun 3 ta. Tog‘ chang‘isiga o‘xshash tarzda amalga oshiriladi, bunda sportchilarning bo‘linishi qobiliyatlari va yordamchi qurilmalarga bo‘lgan ehtiyojga alohida e’tibor beriladi.

4. Xokkey: Muz ustidagi xokkey faqat tana pastki qismi jarohatlari bo‘lgan erkaklar uchun. O‘yin xalqaro xokkey qoidalarida o‘ynaladi, ammo biroz o‘zgarishlar bilan. Sportchilar ikki pichoqli chanada o‘ynaydi, bu esa shaybaning chana o‘tishiga imkon beradi. Sportchilar ikkita tayoq bilan o‘ynaydi biri shaybaga berish uchun ikkinchisi esa uchi o‘tkirroq, muzni itarish uchun mo‘ljallangan. Sportchilar uch guruhga bo‘linadi: birinchisi – o‘tirgan holatda muazanatni saqlay olmaydigan yoki oyoq-qo‘llarining shikastlanishlari bo‘lgan sportchilar uchun; ikkinchisi – o‘tirgan vaqtda bir oz muazanatni saqlay olmaydigan va o‘yin-qo‘llarida o‘rtacha darajada jaroqati bo‘lgan sportchilar uchun; uchinchisi - muazanatni saqlay oladigan va engil jaroqat olgan sportchilar.

5. Nogironlar aravachasida kerling: nogironlar aravachasida kerling - bu kundalik hayotda nogironlar aravachasidan foydalanadigan oyoq-qo‘llarida nogironligi bo‘lgan sportchilarni o‘z ichiga olgan musobaqa. Agar nogironlar aravachasidan foydalansa, miya yarim shari yoki sklerozli sportchilar ham o‘yinda ishtirok etishlari mumkin. Tosh otish qo‘lda yoki ustun yordamida amalga oshirilishi mumkin. Ushbu musobaqalarda barcha ishtirokchi sportchilarning kundalik harakatchanligi uchun nogironlar aravachasida qatnashish talab qilinadi.

6. Para-snoubord: 2012-yil 2-may kuni Xalqaro Paralimpiya qo‘mitasi tog‘ chang‘isi dasturi doirasida para-snoubordni 2014-yilgi Qishki Paralimpiya

o‘yinlari uchun sport turi sifatida rasman tan oldi. Erkaklar va ayollar o‘rtasida snoubord musobaqalari o‘tkazildi. Xalqaro Paralimpiya qo‘mitasi hozirda ikkita tasnifni tan oladi: biri oyoq-qollarida nuqsoni bo‘lgan sportchilar uchun va ikkinchisi yuqori oyoq-qo‘llari nuqsoni sportchilar uchun.

Shu bois adolatli raqobat va teng kurashni ta’minlash uchun barcha Paralimpiya sport turlarida g‘alaba faqat sportchilarning mahorati, epchilligi, kuchi, chidamliligi, taktik va ruhiy konsentratsiyasi bilan belgilanishini ta’minlaydigan tasniflash tizimi mavjud. Ushbu tizim ob’ektiv natijalarga erishish uchun turli xil nogironligi bo‘lgan sportchilarni taqqoslaydi.

Xulosa. Tasniflashning asosiy maqsadi musobaqadagi jarohatlarning ta’sirini kamaytirishdir. Binobarin, qoidabuzarliklarning jiddiyligi sportchining g‘alabasida hal qiluvchi rol o‘ynamaydi. Har bir Paralimpiya sportida qoidabuzarliklarning sportchining natijalarni ko‘rsatish qobiliyatiga ta’siri ta’kidlangan va shuning uchun sportchilar deb atalmish guruhga birlashtirilgan ma’lum mezonlar aniqlanadi. "sport darslari". Tasniflash qaysi sportchilarning muayyan turdagi musobaqalarda ishtirok etishi mumkinligini va qaysi sportchilar birgalikda qatnashishini aniqlaydi. Bu ma’lum ma’noda professional sportdagi yosh, jins yoki vazn bo‘linmalariga o‘xshaydi. Paralimpiya sport turlari bo‘yicha sportchilarni tasniflash tizimi imkon qadar sportchilarning imkoniyatlarini hisobga olishga va ularga raqobat muhitini ta’minlashga harakat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Лубышева Л.И. Концепция физкультурного воспитания: методология развития и технология реализации / Л.И. Лубышева // Физическая культура: воспитание, образование, тренировка, 1996. - № 1. – С. 11 – 18.

2. Трофимова О.В. Совершенствование физического воспитания студенток вузов на основе углублённого изучения фитнес-аэробики: автореф. канд. дисс. – Чебоксары, 2010.

3. Давыдов В.Ю. Методика преподавания оздоровительной аэробики: учебн. пособие /В.Ю. Давыдов, Т.Г. Коваленко, Г.О. Краснова. – Волгоград: ВГУ, 2004. – 124 с.

SPORT PSIXOLOGIYASINING TADQIQOT USULLARI

Arzimbetov Tleubergen Tlepbergenovich

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
Nukus filialí “Jismoniy tarbiya nazariyasi va gumanitar fanlar”
kafedrasi ps.f.b.f.d. (PhD), dotsent v.b.

Kalit so‘zlar: *shaxs, tafakkur, motiv, motivatsiya, faoliyat, tasavvur, mantiq, sport, guruh*

Ключевые слова: *личность, мышление, мотив, мотивация, деятельность, воображение, логика, спорт, группа*

Key words: *personality, thinking, motive, motivation, activity, imagination, logic, sport, group.*

Dolzarbligi. Fan predmetini tashkil etishda turli hodisa va voqeliklarni

o‘rganishda qo‘llaniladigan ma’lum bir yondashuv yoki mexanizm “usul” deb ataladi. Har bir usulning to‘g‘ri qo‘llanilishi tadqiqot obyektining mohiyatini chuqurroq tushunish va anglash imkoniyatini yaratadi. Mazkur jarayon, voqea-hodisalarning ularga xos xususiyatlari va qonuniyatlarini inson tafakkurida aniq aks ettirishga xizmat qiladi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, ilmiy usullar faqatgina obyektni ko‘zdan kechirishda emas, balki hodisaning o‘ziga xos dinamikasini anglashga yordam beradigan vositalarni tanlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ilmiy tadqiqot usullari muvaffaqiyatli qo‘llanilishi uchun ular tabiat va jamiyatda amal qilayotgan obyektiv qonuniyatlarga mos kelishi lozim.

Tadqiqot usullarini ishlab chiqishda voqea-hodisalarning faqatgina rivojlanish darajasini e’tiborga olish bilan cheklanmaslik, balki ularning boshqa hodisalar va jarayonlar bilan aloqasini ham o‘rganish zarur. Ushbu yondashuv fan metodologiyasida qo‘pol xatolarni oldini olishga yordam beradi. Ayniqsa inson psixikasini tadqiq qilishda, psixik jarayonlarni tashqi omillardan ajratib o‘rganish yoki ular bilan bog‘liq faoliyatdan alohida tahlil qilish noto‘g‘ri bo‘ladi. Psixik jarayonlar har doim ularning tashuvchisi bo‘lgan shaxsning faoliyati bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganilishi zarur. Shunday qilib, ilmiy tadqiqot usullari voqea-hodisalarning rivojlanishidagi ichki va tashqi aloqadorlikni hisobga olgan holda, ular orasidagi uzviy bog‘liqlik va qonuniyatlarni chuqur ifodalay olishi bilan haqiqiy bilimlarni taqdim etadi. Bu esa ilm-fan taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga ega.

Sport psixologiyasining tadqiqot usullari umumiy psixologiya faniga xos bo‘lgan xususiyatlarga ega. Ularning ichida obyektiv kuzatish, suhbat, tajriba, turli testlar o‘tkazish, faoliyat natijalarini yig‘ish va tahlil qilish hamda statistik usullar alohida o‘rin egallaydi. Ushbu usullar sport psixologiyasining tadqiqot vazifalariga mos ravishda o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, sport faoliyatini va undagi psixologik jarayonlarni yanada chuqurroq tushunishga xizmat qiladi.

Kuzatish. Obyektiv kuzatish usulining asosiy vazifasi insonning tashqi harakatlarini, ichki psixologik holatlarini va shaxsga oid xususiyatlarni o‘rganishdir. Ushbu usul orqali tadqiqotchi faqatgina faktlarni qayd etish bilan cheklanmay, balki kuzatilayotgan hodisalarning psixologik asoslarini ochib beradi. Kuzatish usuliga quyidagi xususiyatlar xos:

- Tadqiqot tabiiy sharoitlarda olib borilib, kuzatish jarayonida hodisalarning tabiiy oqimi buzilmaydi.
- Ma’lumotlar oldindan tuzilgan reja yoki dastur asosida yig‘iladi, bu kuzatishni maqsadga yo‘naltirilgan qiladi.
- Kuzatish muntazam ravishda, bir martalik emas, balki turli sharoitlarda va ko‘p marta amalga oshirilishi kerak.
- Tashqi shart-sharoitlar (masalan, sport mashg‘ulotlarining joylashuvi, obhavo, ishtirokchilar tarkibi) kuzatish natijalariga ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi inobatga olinadi.
- Kuzatish natijalari aniq va batafsil qayd qilinadi, bunda obyektiv dalillar to‘liq hujjatlashtiriladi.

- Kuzatishlar davomida yangi gipotezalar ishlab chiqilib, ular keyingi kuzatuvlarda tekshiriladi.

- Kuzatuv natijalarini mustahkamlash uchun turli texnik vositalar (videokamera, diktofon)dan foydalaniladi. Ekspert baholash usuli va kuzatish natijalarini bir nechta tadqiqotchilar tomonidan solishtirish usuli kuzatish sifatini oshirishga yordam beradi.

Kuzatish usuli — sportchi yoki jamoaning harakatlari, ruhiy holati, his-tuyg`ulari va xulq-atvorini tabiiy sharoitda yoki maxsus tayyorlangan vaziyatda bevosita kuzatish orqali ma`lumot yig`ish usulidir. Bu usul orqali sportchining turli holatlarda qanday tutinishini, kayfiyatini va jamoa bilan munosabatini aniq bilish mumkin.

Kuzatish usulining maqsadlari: Sportchining psixologik holatini kuzatish, Mushkul vaziyatlarda xulq-atvorini baholash, Jamoadagi o`zaro munosabatlarni aniqlash, tayyorgarlik va musobaqa jarayonida sportchining o`zini tutishini o`rganish, psixologik muammolarni erta aniqlash

Kuzatish usuli turlari: Erkin kuzatish, Sportchining tabiiy holatdagi harakatlari va xulq-atvorini erkin kuzatish, Tuzilgan kuzatish Oldindan belgilangan belgilari va mezonlar asosida kuzatish, Tashqi kuzatish Sportchining xabari bo`lmagan holda kuzatish, Ichki kuzatish (o`zini kuzatish) Sportchining o`z his-tuyg`ulari va xulq-atvorini o`zi kuzatishi va qayd qilishi

Kuzatish orqali ko`ydagilarga erishamiz. Sportchining qaysi vaziyatda qanday tutinishini bilib olamiz, Musobaqa oldidan va keyingi psixologik holatini baholaymiz, Jamoadagi psixologik muhitni va munosabatlarni aniqlaymiz, sportchining stress, xursandchilik, tashvishli holatdagi harakatlarini kuzatamiz, sportchidagi mushkulliklar va muammolarni erta payqaymiz, jismoniy va ruhiy chidamlilikni baholaymiz

Kuzatish usulining afzalliklari: Tabiiy va real sharoitda ma`lumot olish imkoniyati, Sportchiga ta`sir qilmagan holda xolis ma`lumot yig`ish, Verbal (so`z orqali) bayon qilib bo`lmaydigan holatlarni kuzatish, Musobaqa va mashg`ulot paytida bevosita tahlil qilish

Sport psixologiyasida kuzatish usuli sportchining haqiqiy xulq-atvori, kayfiyati va jamoadagi munosabatlarini tabiiy sharoitda o`rganish imkonini beradi. Bu usul orqali aniqlangan ma`lumotlar asosida psixologik tayyorgarlik, muammolarni bartaraf etish va individual yondoshuv ishlab chiqish mumkin.

Eksperiment. *Eksperiment tadqiqot usuli sportchilar xatti-harakatlari va psixologik holatlarini o‘rganish uchun sun’iy sharoit yaratish imkonini beradi. Ushbu usulning asosiy xususiyatlari quyidagilardir:*

- Tadqiqotchi kerakli voqeaning yuzaga kelishi uchun shart-sharoitlarni sun’iy ravishda yaratadi.

Maxsus tajriba sharoiti tasodifiy omillarning ta’sirini kamaytirishga yordam beradi.

- Voqea bir necha bor takrorlanishi va har safar kuzatilishi mumkin.

- Hodisaning sharoitlari o‘zgarib borishi uning ichki qonuniyatlarini chuqurroq tushunish imkonini beradi.

- Eksperiment maxsus texnik vositalar bilan ta’minlanadi, bu esa natijalarni aniqroq o‘lchash va statistik tahlil qilish imkonini yaratadi. Eksperimentning laboratoriya va tabiiy turlari mavjud. Laboratoriya eksperimenti maxsus sharoitlarda, odatda o‘lchov vositalaridan foydalanib o‘tkaziladi. Tabiiy eksperiment esa inson faoliyatining kundalik sharoitlarida amalga oshiriladi, bu esa odatdagi faoliyat davomida psixologik jarayonlarni o‘rganishga imkon beradi.

Eksperiment usuli sport psixologiyasida sportchining ruhiy holati va psixologik jarayonlariga turli ta`sirlar o`tkazib, natijani o`lchash imkonini beradi. Bu esa: Psixologik tayyorgarlikning samarasini baholash, sportchidagi stress, motivatsiya, kayfiyat o`zgarishini kuzatish, turli psixologik usullarni solishtirib, eng samaralisini aniqlash, ilmiy xulosalar chiqarish va amaliy tavsiyalar berish imkonini yaratadi.

Suhbat. *Suhbat usuli sinovga jalb etilgan shaxsning ichki dunyosini (e’tiqod, intilishlar, munosabatlar) o‘rganishda qo‘llaniladi. Ushbu usul erkin va samimiy muloqotni tashkil etishni talab qiladi. Suhbat samarali bo‘lishi uchun quyidagilar zarur:*

- Suhbatdan avval tadqiqotchining ishtirokchilar bilan shaxsiy aloqasi bo‘lishi.

- Suhbat uchun aniq rejaning mavjudligi.

- Suhbat davomida mavzudan chet savollardan foydalanish va asosiy ma’lumotlarni bilvosita aniqlash.

- Suhbat tugagandan so‘ng darhol qaydlar yozib olinishi.

- Faoliyat mahsulotlarini tahlil qilish. *Bu usul orqali insonning mehnat natijalaridan kelib chiqib, uning psixologik xususiyatlari haqida xulosa chiqariladi. Olingan ma’lumotlarni tizimlashtirish va ular ustida tahlil o‘tkazish bu usulning samaradorligini oshiradi.*

Suhbat usuli – sport psixologiyasida sportchi, murabbiy yoki jamoa a`zosi bilan to`g`ridan-to`g`ri muloqot qilish orqali ma`lumot yig`ish, uning shaxsiy psixologik holati, kayfiyati, muammolari va munosabatlarini o`rganish usuli hisoblanadi.

Suhbat usulining maqsadlari: sportchining ruhiy holatini bilish, sportchining ichki kayfiyati, tashvishlari va muammolarini aniqlash, jamoadagi psixologik muhitni o`rganish, sportchining maqsadlari, intilishlari va motivatsiyasini bilish, mushkul yoki stressli vaziyatlarga munosabatini bilish

Suhbat usuli turlari: Erkin suhbat Erkin shaklda, sportchining xohishicha muloqot olib boriladi. Tuzilgan suhbat Oldindan tayyorlangan aniq savollar ro`yxati asosida o`tkaziladi. Yarim tuzilgan suhbat Qisman tayyorlangan, kerakli savollar va erkin so`rovlarni birgalikda qo`llash. Suhbat usuli orqali kuydagilarga erishamiz. Sportchining ichki his-tuyg`ulari va kayfiyatini bilish, Psixologik muammolarni erta aniqlash, Motivatsiya va maqsadlarga bo`lgan munosabatini bilish, Jamoadagi ruhiy muhit va munosabatlarni baholash, Sportchi qanday vaziyatda o`zini qanday tutishini chuqur tushunish, Ta`lim, tarbiya va psixologik tayyorgarlik uchun individual yondashuv tayyorlash.

Suhbat usulining afzalliklari: Tabiiy va erkin muloqot muhiti yaratadi, sportchining ichki dunyosiga kirish imkoni beradi, tez va ko`p ma`lumot olish mumkin, qo`shimcha savollar berish imkoni mavjud. Sport psixologiyasida suhbat usuli sportchi va jamoa a`zolarining psixologik holati, kayfiyati va ichki dunyosi haqida aniq va tabiiy ma`lumot olish imkonini beradi. Bu usul orqali individual yondoshuvlar, motivatsion chora-tadbirlar ishlab chiqish va muammolarni erta bartaraf etish mumkin.

So‘rovnoma. So‘rovnoma usuli tadqiqotda keng ko‘lamdagi ma’lumotlarni to‘plashda qo‘llaniladi. Savollar aniq va to‘g‘ri talqin qilinishi lozim, natijalar esa sinchkovlik bilan statistik qayta ishlanadi. Ushbu usul yirik miqdordagi ma’lumotlarni qisqa vaqt ichida olish imkoniyatini beradi. Mazkur usullarni birgalikda qo‘llash orqali sport psixologiyasi tadqiqotlari yuqori samaradorlikka erishadi va sportchilarning psixologik holatini chuqurroq tahlil qilish imkonini yaratadi.

So`rovnoma usuli sport psixologiyasida sportchilar, murabbiylar yoki jamoa a`zolarining shaxsiy psixologik holati, kayfiyati, motivatsiyasi, munosabatlari va ruhiy barqarorligini o`rganish uchun savolnoma shaklida o`tkaziladigan tadqiqot usuli hisoblanadi.

So`rovnoma usulining maqsadlari: Sportchining ichki hissiyoti va munosabatini aniqlash, Motivatsiya darajasini o`lchash, Stress, tashvish, kayfiyat va ruhiy holatni baholash, Jamoa muhiti va o`zaro munosabatlarni o`rganish,Psixologik muammolarni aniqlash

So`rovnoma usuli turlari: Yopiq so`rovnoma Tayyorlangan javob variantlaridan tanlash (ha/yo`q, 1-5 ball, "roziman — rozi emasman") Ochik so`rovnoma Sportchi o`z fikrini erkin bayon qiladi Aralash so`rovnoma Yopiq va ochiq savollar aralash bo`ladi

So`rovnoma orqali kuydagilarga erishamiz, Sportchining kayfiyati, motivatsiyasi, ichki his-tuyg`ulari haqida ma`lumot olamiz, Jamoadagi munosabatlar, ruhiy muhitni baholaymiz, Mushkul vaziyatlarga munosabatni aniqlaymiz, Sportchining stressga chidamliligini o`rganamiz, Motivatsiyani oshirish va psixologik tayyorgarlik dasturini yaratish imkoniyati paydo bo`ladi

So`rovnoma usulining afzalliklari: Ko`p sportchilardan tezda ma`lumot olish mumkin, Anonim shaklda o`tkazib, haqiqiy fikrlarni aniqlash imkoni, Tayyorlangan standart shakllar orqali natijalarni tez tahlil qilish, Sportchiga erkin fikr bildirish imkoni beradi.

Sport psixologiyasida so`rovnoma usuli sportchining ichki dunyosi, motivatsiyasi, kayfiyati va jamoadagi munosabatlarini o`rganishda samarali, qulay va tezkor usul hisoblanadi. U orqali jamoaviy va individual psixologik holatni baholash, muammolarni aniqlash va psixologik choralar ishlab chiqish mumkin.

Test usuli sport psixologiyasida sportchilarning shaxsiy psixologik xususiyatlarini, emotsional holatini, stressga chidamliligini, motivatsiya darajasini, diqqat, xotira va boshqa psixologik funktsiyalarini o`lchash va baholash uchun ishlatiladigan aniq va ilmiy metod.

Test usulining asosiy maqsadlari: Sportchining shaxsiy xususiyatlarini aniqlash, Emotsional barqarorlikni baholash, Motivatsiya darajasini o`lchash, Musobaqa oldidan va keyin ruhiy holatni baholash**,** Komandaning psixologik muvofiqligini o`rganish**,** Sportchining temperamenti, xarakterini, o`z-o`zini baholashini aniqlash uchun. Ayzenk temperament testi, Kettell shaxs testi Kognitiv testlar Diqqat, xotira, tafakkur, tezkorlikni aniqlash**.** Raven testlari (intellekt) test o`tkazish maqsadga muvofiq bo`ladi.

Test o`tkazish qoidalari: Sportchi tayyor holatda bo`lishi kerak (chidamli, sog`lom, tinch muhitda), Aniq yo`riqnoma va instruktsiya berish, Test natijalarini aniq hisoblash va tahlil qilish**,** Test natijalarini maxfiy saqlash va etik me`yorlarga rioya qilish.

Sport psixologiyasida test usuli – sportchilarning shaxsiy, emotsional va kognitiv xususiyatlarini aniqlashda eng ishonchli va ilmiy asoslangan tadqiqot usuli hisoblanadi. Ushbu usul orqali sportchining motivatsiya darajasi, stressga chidamliligi, kayfiyati, diqqati, xotirasi va temperamenti haqida aniq ma`lumot olish mumkin. Test usulining afzalligi shundaki, u tez, samarali va standartlashgan bo`lib, natijalarni ob`ektiv baholash imkonini beradi. Biroq, testni o`tkazishda etik me`yorlarga rioya qilish, sportchining holatini inobatga olish va test natijalarini to`g`ri tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Shu bois, sport psixologiyasi amaliyotida test usulini kuzatish, suhbat va boshqa usullar bilan birgalikda qo`llash orqali yanada ishonchli va to`liq xulosalar chiqarish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yixati

1. Z.G. Gapparov Sport psixologiyasi. Darslik /.-Toshkent.: "O'zkitobsavdonashriyoti", 2021-300 b.

2. J.M. Ishtayev Sport psixologiyasi. O'quv qo'llanma /.-Toshkent.: "O'zkitobsavdonashriyoti", 2020-232 b

3. Z.G.Gapparov, J.M.Ishtayev, O.X.Xasanov Sportda psixotexnologiyalar. Darslik// T:- "MAKON SAVDO PRINT" 2024 328b.

QANTLÍ DIABET KESELLIGI HÁM ONÍŃ BELGILERI

Reymbaeva Roza Saparbaevna

Ózbekstan mámleketlik Dene tárbiya hám sport universiteti Nókis filialı “Jeke gúres hám tábiyiy pánler” kafedrası úlken oqıtıwshısı, b.i.k.

Tayanısh sózler: *giperglikemiya, diabet, insulin, kesellik, glyukometr, endokrinologiya.*

Kirisiw. Qantlı diabet keselligin birinshi bolıp ullı jerlesimiz Abu Ali ibn Sino (980-1037) úyrengen. Ibn Sino óz miynetlerinde qantlı diabetti sidik arqalı qant ajıralıwı menen keshetuǵın (diabet) kesellik dep jazıp qaldırǵan. Qantlı diabet keselligi házirgi waqıtta rawajlanǵan mámleketlerde jasaytuǵın adamlar arasında keń tarqalǵan. Qantlı diabet keselligi asqazan astı beziniń endokrin bóliminen insulin gormonınıń organizm ushın jeterli muǵdarda ajıralmawı nátiyjesinde kelip shıǵadı.

Qantlı diabet keselligin úyrengende, biz yeń dáslep yeki jaǵdaydı biliwimiz shárt.

1 - násillik faktorlardıń, infekciyanıń, travmanıń hám taǵı basqalar aqibetinde insulyar apparat zıyanlanıp, funkcionallıq kletkalardıń sanı kemeyip ketedi nátiyjede insulin gormonı az muǵdarda islep shıǵıladı. Bunıń aqibetinde organizmge insulin jetispey qaladı, organizm insulinge zárúr boladı, sonıń ushında bul túrdegi qantlı diabetti emlewde insulinnen paydalanıladı.

I – tiptegi qantlı diabet balalarda, jaslarda. Ádette ilimde I–tiptegi qantlı diabet ushın 40 jasqa shekemgi dáwir belgilep qoyılǵan.

2 - insulyar apparattıń funkcionallıq kletkaları derlik saqlanǵan boladı hám organizm ushın jeterli muǵdarda insulin gormonın islep shıǵadı. Biraq qanǵa ajıralǵan insulin gormonı házirshe ilimge belgisiz sebeplerge baylanıslı denedegi kletkalarǵa jetip barmaydı yamasa kletka membranası insulindi qabıllamaydı. Bul túrdegi qantlı diabette organizmde insulinge mútájlik bolmaydı. Sonıń ushında bul túrdegi qantlı diabetke shalınǵan kesellerdi emlewde tiykarınan qandaǵı qanttıń muǵdarın páseytiwshi dárilerden paydalanıladı.

Qantlı diabettiń II–tipi 40 jastan keyin rawajlanadı. Usı jerde atap ótiw kerek qantlı diabet keselligi hár qiylı asqınıwları menen adamlardıń ólımshiligine sebepshi bolıwı jaǵınan birinshi orında turatuǵın kesellik dewge boladı.

Keselliktiń rawajlanıw mexanizmi bul organizm kletkaniń jıyındısınan turadı ilimiy maǵlıwmatlarǵa qaraǵanda adam organizmi 10 trillion kletkadan ibarat. Organizmdegi hár bir kletkaǵa qan-tamır barıp qan menen támiyinleydi. Sonıń ushında bir adamnıń qan tamırınıń uzınlıǵı 100,000 kilometrge teń. Adam uzaq jasawı ushın usı qan-tamırlardıń ishi taza, diywalı iyiliwsheń bolıwı hám qannıń reologiyalıq qásiyeti normada bolıwı shárt. Insulin garmonı qandaǵı qanttıń muǵdarın bir qálipte uslap turadı. Organizmde insulin garmonı jetispese qandaǵı qanttıń muǵdarı joqarılap ketedi (giperglikemiya). Normada adam qanında qanttıń muǵdarı 3,3-5,5 mmol/litrdi quraydı. Insulin garmonı jetispese denedegi kletkalar qandaǵı qanttı ózlestire almaydı yaǵnıy «kletka qantta júzip júredi» biraq paydalana almaydı. Sonıń menen birge qant ózine suyıqlıqtı tartıp qoyıp jibermeydi, yaǵnıy osmotikalıq basım payda etedi.

Organizmge qabıllanatuǵın awqatlıq zatlardı tiykarınan bes túrge ajratıwǵa boladı:

1. Beloklar (tiykarınan qurılıs materialı esaplanıp organizmniń strukturaların payda etedi, az muǵdarı okislenip energiya ajıratadı).

2. Maylar (belgili muǵdarı organizmniń strukturalarınıń payda bolıwında qatnasadı, oksıdleniwinen energiya payda etedi, zapas retinde jıynaladı).

3. Uglevodlar tiykarınan oksidleniw qubılısında qatnasıp energiya payda etedi yaǵnıy «organizmniń janar mayı esaplanadı».

4. Vitaminler aktiv zatlar esaplanıp zat almasıwdı retlestiredi.

5. Makro hám mikro elelementler kletkalardıń normal jumıs islewi ushın hám zat almasıwdıń normal keshiwi ushın kerekli material bolıp tabıladı. Qantlı diabette tiykarınan uglevodlar almasıwı buzıladı. Uglevodlar almasıwınıń buzılıwı nátiyjesinde patologiyalıq qubılıs shınjırma-shınjır dawam etip zat almasıwdıń

barlıq túrleri buzılıwına alıp keledi. «Sebepsiz aqıbet joq» degenindey nawqastıń organizminde keship atirǵan potogenetikalıq ózgerisler nawqasta qantlı diabetke tán tómendegi klinikalıq belgilerdi júzege keltiredi.

Klinikaliq belgileri:

1. Nawqas tez-tez shólleydi.

2. Birlemshi sidiktiń quramında qanttıń muǵdarı kөbeyiwi sebepli búyrektegi reabsorbciya tómenleydi, nátiyjede sidik kóbeyip ketedi (3–5 litrge shekem, normada 1,5–2,0 litr boladı).

3. Birlemshi sidiktiń reabsorbciyası tómenlewi sebepli vitaminlerdiń, makro-mikro elementlerdiń qayta sorılıwı qıyınlasadı. Nátiyjede olar sidik penen bólinip sırtqa shıǵadı. Bul jaǵday hár qıylı gipovitaminozlarǵa, makro hám mikroelementlerdiń jetispewshiligine alıp keledi hám taǵı basqalar.

Qantlı diabette júzege kelgen zat almasıwdıń buzılıwı aqibetinde nawqasta nerv sistemasına baylanıslı bolǵan tómendegi klinikalıq belgiler payda boladı.

- Nawqas sál nársege ashıwlanadı,
- uwayımshıl boladı,
- umıtshaq bolıp qaladı, bası awıradı, dińkesi bolmay uyqı tartıp jata beredi, tásirsheń bolǵanlıqtan áytewir nársege tartısadı, shawqım jaqpaydı, kópshilikke qosılsa qısıladı hám tám taǵı basqalar.

4. Energetikalıq jaqtan tiykarǵı awqatlıq zat bolǵan uglevodlardı kletkalar ózlestire almaǵanlıqtan bas miyde jaylasqan ash bolıwdı hám toyǵanlıqtı seziwdi retlestiriwshi oraylardıń xizmeti buzılıp nawqas kóp awqat jep baslaydı (ásirese mazalı zatlardı jegendi jaqsı kóredi).

5. Tiykarǵı energetikalıq material esaplanatuǵın uglevodlar oksidleniw bolmaǵanlıqtan beloklardıń hám maylardıń almasıwı buzıladı. Endi energetikalıq material retinde beloklar hám maylar oksidlenedi. Nátiyjede nawqas birden azıp ketedi, ayırım jaǵdaylarda qol hám ayaqlardıń teri astı may qatlamı joǵalıp barıwı aqıbetinde nawqastıń qol-ayaqları jińishkerip, qarnı qampayıp órmekshi kórinisine iye bolıp qaladı.

1 gramm uglevod oksidlengende 4,1 kkal, al 1gramm belok oksidlengende 4,1 kkal, al 1 gramm may oksidlengende 9 kkal energiya ajıraladı.

6. Qanda qanttıń muǵdarı joqarı bolǵanlıqtan teridegi bezlerdiń xizmeti buzıladı. Teri qurǵap ǵaǵırlap qaladı. Nawqastıń tabanı qurǵap jarılıp ketedi, teride jaylasqan reseptorlardiń xizmeti buzılıp qoltıq, moyın, arqa hám t.b terisi qıshıydı, ara-arasında teride jánlik júrıp baratırǵanday seziledi. Sonıń menen birge awız quwıslıǵına silekey bólınıp shıǵıwı tómenlep nawqastıń awzı tez-tezden kewip qala beredi, shirelenip turadı, qurǵaq awqatlardı jutıwı qıyınlasadı, tisleri bir-birine jabısıp kleylenip qalǵanday boladı.

7. Beloklardıń oksidleniwi kúsheyiwi aqıbetinde beloklar deficit halatı júzege keledi, immunokompotent kletkalardıń payda bolıwı tómenlep nawqastıń immunologiyalıq statusı páseyedi. Nátiyjede nawqastıń denesine hár qıylı jaralar shıǵıp jazılıp ketiwi qıyın boladı, juqpalı keselliklerge shalınǵısh boladı (tuberkulez hám.t.b).

8. Qannıń reologiyalıq qásiyetiniń buzılıwı mikrosirkulyatorlıq ruslo boylap qannıń háreketleniwin qıyınlastıradı, qan basımınıń kóteriliwine alıp keledi. Jurekke salmaq túsip gipertoniya hám júrek ishemiya kesellikleri rawajlanadı. Bul bolsa (taǵı basqada sebeplerge baylanıslı) ishki aǵzalardıń xizmetiniń buzılıwına alıp keledi, gepatit, bawır sirrozı rawajlanadı. Búyrek jetispewshiligi kelip shıǵadı. Qol ayaq qaqsap, ayaqtaǵı barmaqlarda gangrena rawajlanıp baslaydı. Kózdiń kóriwi tómenlep birden soqır bolıp qalıw dárejesine shekem alıp keledi. Jınısıy sistemaniń xizmeti buzıladı hám t.b.

Qantlı diabet keselliginiń aldın alıw ushın tómendegi salamat turmıs tárizi qaǵıydalarına boysınıp jasawımız kerek:

- Ata-analar (jas–jubaylar) salamat násil qaldırıwǵa itibarlı bolıwı kerek.
- Jámiyette hám shanaraqta psixogigiena talaplarına boysınıp jasawımız shárt.
- Kunlik rejimge qatań boysınıw oǵada áhmiyetli.
- Dem alıwdı tuwrı shólkemlestiriw kerek.
- Tuwrı awqatlanıw zárúr.
- Aktiv háreketli ómir súriw paydalı.
- Dene tárbiya hám sport penen turaqlı túrde shuǵıllanıp barıw kerek boladı.

Paydalanılǵan ádebiyatlar:

1. Вайнер Э.Н. Валеология. Учебник для вузов - М., Флинта, Наука, 2001.

2. Физическая культура и здоровый образ жизни студенческой молодежи: Учебное пособие. – М.: Изд-во МГСУ «Союз», 2000. – 250 с. 6.

4. Бутрова С.А. От эпидемии ожирения к эпидемии сахарного диабета // Междунар. эндокринол. журнал – 2013. № 2 (50)

GANDBOL SPORT TURIDA SPORTCHILARNING TAKTIK TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHDA PSIXOLOGIYANING AHAMIYATI

Daryabaeva Aynura

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali talabasi

Tórebaeva Jarqınay

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali talabasi

Tayanch so‘zlar. *Taktika, texnika, psixologiya, sportchilarning tayyorgarligi, dastlabki rejalashtirish, sportchi, jamoa, musobaqa bellashuvlari.*

Ключевые слова: *Тактика, техника, психология, подготовка спортсменов, первоначальное планирование, спортсмен, команда, соперники.*

Key words: *Tactics, technique, psychology, training of athletes, initial planning, athlete, team, competitors.*

Dolzarbligi. Sport - bu millatning o‘zligini anglashida, uning aniq maqsadlar asosida birlashuvida, o‘zidagi mavjud imkoniyatlarni hamda qudratini jahon maydonlarida ro‘yobga chiqarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, mamlakat sportini rivojlantirish dolzarb va eng zarur masala hisoblanadi.

Gandbol sport turida sportchilarning taktik tayyorgarligini rivojlantirishda psixologiyaning ahamiyatini alohida ajratib ko‘rsatib o‘tish mumkin.

Gandbol sport turidagi taktika - bu musobaqa vazifalariga muvofiq tarzda texnik usullarni qo‘llash yo‘llari majmuidan iborat. U jamoaning kuch va imkoniyatlarini maqsadli ravishda ro‘yobga chiqarish va bunda raqibning kamchiliklari, xatolaridan samarali foydalana olishga yo‘naltirilgan. Musobaqalardagi bellashuv jarayonida har bir sportchi o‘zining muayyan tarzda o‘zgaruvchan harakatlar tizimi yoki yo‘nalishiga ega bo‘ladi va bu yo‘nalishning asosiy maqsadi - o‘z niyatlarini iloji boricha sir saqlab, musobaqada qo‘yilgan vazifalarni samarali hal etish sharoitlarini yaratishdan iborat.

Taktikaning mazmuni musobaqalarda yanada yuqori natijalarni qo‘lga kiritish yoki raqib ustidan g‘alaba qozonish uchun gandbol sport turi uchun xos bo‘lgan harakatlar texnikasidan, sportchilarning jismoniy va ruhiy imkoniyatlaridan oqilona foydalanishdan iborat.

Taktik harakatlarning, shuningdek, musobaqa bellashuvlarini olib borishning ayrim jihatlari bevosita ketma-ketlikda o‘zgaruvchan taktik vazifalarni hal etishga qaratilgan harakatlar jarayonida amalga oshiriladi. Shuning uchun ham bu harakatlar taktik harakatlar deb ataladi. Taktik harakatlarni amalga oshirishda sportchi quyidagilarni bilishi zarur deb hisoblaymiz [1]:

- gandbol sport turiga xos taktika haqida maxsus nazariy bilimlarga ega bo‘lishi;

- gandbol sport turi uchun xos bo‘lgan texnikani to‘laqonli egallash malakasi hamda aniq taktik harakatlar kombinatsiyalarini o‘zlashtirishi;

- o‘z bilim va ko‘nikmalaridan umumiy taktik rejaga asosan va musobaqa bellashuvlarining doimiy o‘zgaruvchan sharoitlariga muvofiq tarzda foydalana olish; - taktik rejani tuzish chog‘ida kuchli zo‘riqish ostida o‘tadigan musobaqalar jarayonida ham o‘ylab ish tutish;

- o‘z ko‘lami, ishtirokchilar tarkibi va boshqa shart-sharoitlariga ko‘ra bir-biridan farq qiluvchi musobaqalarda o‘z bilim va ko‘nikmalaridan samarali foydalanish tajribasiga ega bo‘lishi kerak, deb hisoblaymiz.

Sportda taktik harakatlarni rejalashtirishning psixologik xususiyatlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, musobaqa bellashuvlari jarayonidagi spetsifik, obyektiv sharoitlar bilan bog‘liq bo‘ladi.

Qo‘l to‘pi o‘yinida ko‘plab hujumdan himoyaga va himoyadan hujumga o‘tishdan iborat bo‘lganligi uchun ham har bir jamoaning hujum va himoya harakatlari bir-biriga bog‘liq bo‘lishi kerak. Qo‘l to‘pi o‘yinida taktika bilan texnika bir-biriga mustahkam bog‘lanib ketgan bo‘ladi. To‘pni kimga va qanday uzatishni, raqibni hayratda qoldirish usuli to‘p bilan himoyani yorib o‘tishni qo‘llash kerakmi yoki to‘pni sherigiga uzatish ma’qulmi, darvozaga qaysi vaqtda to‘p otishni ma’qul ko‘rgan o‘yinchi taktik fikrlashidan foydalanadi, bajarmoqchi bo‘lgan harakatini amalga oshirayotganda esa u texnik mahoratini namoyish qilib beradi. Shunday ekan, texnika o‘yinchining taktik rejalarini amalga oshirish vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Musobaqa jarayonida yuzaga keladigan vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish uchun, oldindan taktik harakatlar rejasini tuzib olish zarur. Rejalashtirish musobaqa sharoiti va raqib haqidagi imkon qadar aniq va to‘liq ma’lumotlarni qo‘lga kiritishga asoslanadi. Rejalashtirish oldiga quyidagi talablar qo‘yiladi [4], ya’ni:

1. Ijodkor bo‘lishi;

2. Taktik usullar va harakatlarni tanlash nuqtai nazaridan boy bo‘lishi;

3. Yo‘naltiruvchi xarakterga ega bo‘lishi (ya’ni, musobaqa jarayonida u yoki bu o‘zgarishlarni kiritish mumkin bo‘lishi) kerak.

Taktik rejalashtirishning murakkablik darajasi sport turiga hamda musobaqalardagi kurashning xususiyatlariga bog‘liq bo‘ladi. Ayniqsa, gandbol sport turida taktik rejalarni ishlab chiqish juda murakkab. Chunki, bu sportdagi taktik rejani jamoaviy harakatlarni, aniq individual vazifalarni hisobga olgan holda ishlab chiqish kerak bo‘ladi.

Taktik harakatlarni rejalashtirishda quyidagi shartlarga rioya qilish lozim [5]:

1) musobaqaning maqsadi va vazifalarini belgilab olish;

2) raqibning taktik, psixologik, texnik va jismoniy tayyorgarligidagi kuchli va zaif tomonlarini tahlil qilish;

3) oldinda turgan musobaqaning barcha shart-sharoitlarini hisobga olish;

4) musobaqa jarayonida duch kelishi mumkin bo‘lgan qiyinchilik va to‘siqlarni ongli ravishda prognoz qilish;

5) muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo‘lgan vosita va usullarni o‘ylab topish;

6) musobaqalar jarayonida yuz berishi mumkin bo‘lgan o‘zgarishlarni hisobga olgan holda qo‘shimcha taktik harakatlar rejasini ishlab chiqish.

Xulosa qilib aytganda, taktik harakatlarni rejalashtirish doimo ehtimollik xarakterida bo‘ladi. Musobaqa jarayonida vaziyat tez o‘zgarib turadi va oldindan bashorat qilish mumkin bo‘lmagan ko‘plab holatlarni yuzaga keltiradi. Shuning uchun ham taktik harakatlar rejasini amalga oshirish muntazam ravishda yuzaga kelib turadigan kutilmagan vazifalarni hal etishdan iborat bo‘ladi. Taktik harakatlarni amalga oshirishda psixologiyaning o‘rni muhim deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Elmuratova A.U. Psixologiya hám sport psixologiyası. Oqıw qollanba Nókis 2023 jıl.

2. Pavlov Sh.K, Akramov J.A, Abduraxmonov F.A. “Qo’l to’pi” darslik 2005 jıl.

3. Железняк Й.Д., Портнов И.М. Спортивние игри. Техника, тактика обучения. Для студентов пед вузов. М.:Академия, 2001-518 с.

4. Елмуратова, А. (2022). Изучение морального самосознания студентов будущих спортивных педагогов. In Развитие отраслей АПК на основе формирования эффективного механизма хозяйствования (pp. 522-524).

YOSH DZUDOCHILARDA MUSOBAQA OLDI PSIXOLOGIK TAYYORGARLIK VA JISMONIY YUKLAMA MUVOZANATINI SHAKLLANTIRISH BO‘YICHA KOMPLEKS YONDASHUV

Alxamov Mansur Rustamovich

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali “Yakka kurash va tabiiy fanlar” kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi

Kalit so‘zlar: *dzudo, psixologik tayyorgarlik, jismoniy yuklama, yosh sportchilar, musobaqa, kompleks yondashuv.*

Ключевые слова: *дзюдо, психологическая подготовка, физическая нагрузка, молодые спортсмены, соревнования, комплексный подход.*

Keywords: *judo, psychological preparation, physical load, young athletes, competition, integrated approach.*

Kirish. Zamonaviy sportchilar muvaffaqiyatining asosi faqatgina texnika va jismoniy kuchda emas, balki psixologik barqarorlik, o‘zini tuta bilish, stress holatida to‘g‘ri qaror qabul qilish kabi ko‘nikmalar bilan chambarchas bog‘liq. Ayniqsa, jangovar sport turlarida, jumladan dzudo sportida, musobaqa oldi holati sportchining yakuniy natijasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. O‘z vaqtida me’yorida tayyorgarlik ko‘rmagan sportchilar yuqori texnik darajaga ega bo‘lishiga qaramasdan, musobaqada o‘z imkoniyatlarini to‘liq namoyon qila olmaydi.

O‘zbekiston sport tizimi bugungi kunda yoshlar salohiyatini maksimal darajada rivojlantirishga harakat qilmoqda. Shu maqsadda sport maktablarida intensiv mashg‘ulotlar, maxsus dasturlar va chet el tajribasidan foydalanish yo‘lga qo‘yilgan. Biroq ko‘plab sportchilarda musobaqa oldi davrida asabiylik, ishonchsizlik va charchoq kuzatilmoqda. Bu holat texnik va taktik ko‘nikmalarning samarali qo‘llanilishiga xalaqit beradi.

Jismoniy tayyorgarlik va psixologik barqarorlik bir butun tizim sifatida qaralishi kerak. Bu jihatlar alohida emas, balki integratsiyalashgan tarzda, kompleks mashg‘ulotlar orqali rivojlantirilishi lozim. Shu sababli ushbu tadqiqotda 16–18 yoshli dzudochilar misolida musobaqa oldi psixologik tayyorgarlik va jismoniy yuklamalarni muvozanatlashtirishning optimal modeli ishlab chiqiladi.

Metodologiya.Tadqiqot Qoraqalpog‘iston Respublikasi Nukus shahridagi sport maktabida(Sport komleks) mashg‘ulot olib borayotgan 16–18 yoshli 24 nafar o‘rta malakali dzudochilar misolida empirik va tajriba-sinovli uslubda olib borildi. 6 hafta davom etgan dastur doirasida sportchilar haftasiga 4 martadan mashg‘ulot olib bordilar. Dastur ikki asosiy moduldan iborat bo‘lib, birinchisi – psixologik tayyorgarlik (vizualizatsiya, o‘z-o‘zini ruhlantirish, diqqatni jamlash va musobaqa simulyatsiyasi), ikkinchisi esa – jismoniy yuklama (individual yuklama, anaerob mashqlar, tiklanish bosqichlari) komponentlaridan tashkil topdi.

Baholash mezonlari sifatida sportchilarning musobaqagacha bo‘lgan psixologik holati (STAI testi asosida), jismoniy tayyorgarlik darajasi (Cooper testi, kuch mashqlari, laktat darajasi) hamda musobaqa natijalari (g‘alaba ko‘rsatkichlari, texnik baholar) asos qilib olindi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, sportchilarning psixologik holatida ijobiy o‘zgarishlar qayd etildi: xavotir darajasi 26% ga kamaydi, 79% sportchi o‘zini ishonchliroq his qilganini bildirgan, diqqatni jamlash testlarida 12% yaxshilanish kuzatildi. Jismoniy tayyorgarlik borasida Cooper testida o‘rtacha 8.4%, kuch mashqlarida 14% o‘sish, laktat darajasida esa pasayish kuzatildi. Musobaqa natijalariga ko‘ra, dastlab 40% bo‘lgan g‘alaba ko‘rsatkichlari 67% ga yetgan. Raqib hujumlariga tez va to‘g‘ri javob berish, tana harakati va texnika aniqligida ham sezilarli o‘sish qayd etilgan(1-rasm).



1-rasm. Tajriba oldi va so‘ngidagi asosiy ko‘rsatkichlar taqqoslanmasi

Munozara. Ushbu natijalar shuni ko‘rsatadiki, psixologik tayyorgarlik va jismoniy yuklamalarni muvozanatlash orqali yosh dzudochilarning umumiy samaradorligi, motivatsiyasi va raqobatbardoshligi ancha oshadi. An’anaviy mashg‘ulotlarda psixologik tayyorgarlik yetarli darajada qamrab olinmaydi, bu esa sportchilarning stressga bardosh bera olishiga salbiy ta’sir qiladi. Shu bois, murabbiylar mashg‘ulot jarayonida qisqa psixologik mashqlarni ham joriy etishlari lozim. Bundan tashqari, jismoniy yuklamalarning individual nazorati sportchilarda charchoq, asabiylik va ortiqcha zo‘riqishni kamaytirishga xizmat qiladi. Bu esa musobaqa vaqtida maksimal natijani ta’minlovchi muhim omildir. Kompleks yondashuv asosida olib borilgan ushbu tadqiqot shuni isbotladiki, 16–18 yoshli dzudochilarning texnik, taktik, jismoniy va psixologik salohiyati bir vaqtning o‘zida rivojlanishi natijani keskin yaxshilaydi. Bunday integratsiyalashgan tizim O‘zbekiston sport maktablari va akademiyalarida keng qo‘llansa, xalqaro musobaqalarda yuqori natijalar kafolatlanadi.

Xulosa.Ushbu tadqiqot orqali aniqlanganki, psixologik va jismoniy tayyorgarlikning integratsiyalashgan yondashuvi 16–18 yoshli dzudochilarning samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Kompleks mashg‘ulot dasturi sportchilarning musobaqa oldi holatini yaxshilaydi, ularni o‘ziga ishonchli, chaqqon va barqaror qiladi.

Asosiy tavsiyalar:

-har bir mashg‘ulotda qisqa psixologik blok (vizualizatsiya yoki nafas mashqi) kiritilishi lozim;

-jismoniy yuklama individual holatga qarab moslashtirilsin;

musobaqadan 1–2 kun oldin stressni kamaytiruvchi, yengil mashg‘ulotlar afzal;

-murabbiylar uchun sportchilar psixologiyasi bo‘yicha qisqa o‘quv kurslari tashkil etilishi kerak.

Tadqiqot natijalari amaliyotga joriy etilsa, yosh dzudochilarning raqobatbardoshligi, musobaqa natijalari va umumiy sport motivatsiyasi barqaror oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Исмаилов, Б. Ш. (2019). *Юношеский спорт и психология победы*. Ташкент: Олимпия нашриёти.

2. Saidov, A. (2021). *Jangovar sport turlarida musobaqa oldi psixologik tayyorgarlikni tashkil etish*. Sport va fan jurnal, 3(2), 44–49.

3. Узбеков, Р. А. (2020). *Совершенствование физической подготовки дзюдоистов подросткового возраста*. Ташкент: ВУЗ нашриёти.

4. O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi (2022). *Yosh sportchilarni tayyorlash bo‘yicha metodik qo‘llanma*. Toshkent.

5. Мирзаев, А. Х. (2021). *Интеграция физической и психологической подготовки в тренировочном процессе дзюдоистов*. Научно-практический журнал "Физическая культура и здоровье", 4(10), 65–70.

GIPODINAMIYA VA SEMIRISH

Reymbaeva Roza Saparbaevna

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali “Yakka kurash va tabiiy fanlar” kafedrasi katta o‘qituvchisi, b.f.n.

Kalit so‘zlar. *Gipodinamiya, ateroskleroz, diabet, qon, varikoz, bosim, parhez.*

Kirish. Kam harakatligimiz bu bizga haq xil kasalliklarni olib kelishi mumkin. Shu sababli har birimiz o‘z sog‘lig‘imiz uchun, doimo sog‘lom hayot kechirishimiz uchun - doimo harakatimiz faol bo‘lishi va yoshimiz, jinsimizga qaramasdan sport bilan shug‘ullanishimiz kerak bo‘ladi.

Qanchalik yoshimiz kattalashgan sari semizlikka moyil bo‘lib boramiz, buning oqibatida kasallik darajasi ortib boradi. Ortiqcha vaznga ega bo‘lgan inson 40 yoshga to‘lgandan keyin uning organizmida modda almashinuvi jarayonlarining buzilishi bilan kechadigan bir qator og‘ir kasalliklar paydo bo‘lishi mumkini. Semirish kasalligiga mubtalo bo‘lganlarda qon tomirlari aterosklerozi 2 marta, qon bosimi oshuvi 3 marta, qandli diabet kasalligi 4 marta, o‘t-tosh kasalligi 6 marta, poliosteoartroz 4 marta, podagra 3 marta, venalarning varikoz kengayishi 2-3 marta ko‘p uchrashi aniqlangan.

Semirishga sabab bo‘luvchi omillar orasida organizmdagi modda almashinuvi jarayonlari tezligini tartibga solishda ishtirok etuvchi asab va gumoral mexanizmlari o‘z navbatida irsiy omillarning ta’siri ostida boshqariladi. Bir qator holatlarda semirishning kelib chiqishida irsiy omillarning yetakchi ahamiyati ko‘pchilikda shubha tug‘dirmaydi.

Tana vaznining ortiqligiga qarab:

1-daraja semirish –bunda tana vazni me’yoriy (ideal) talablardan 30% gacha,

2-daraja semirish –tana vaznining me’yoriy talabdan 50% gacha,

3-daraja – tana vaznining 50-100% gacha,

4- darajada tana vaznining 100% va undan ortiq bo‘lishi farqlanadi.

Shunga mos ravishda, tana vaznining indeksi tushunchasi kiritilgan bo‘lib, uni aniqlash uchun tana vazni ko‘rsatkichini (kg) tana uzunligi (bo‘yi)ning ildiz osti ko‘rsatkichiga (metr) bo‘lish lozim. Bu ko‘rsatkichning me’yori 20-24,9 bo‘lib,

- 25-30 gacha oshishi 1-daraja semirish,
- 30-40 gacha oshuvi 2-daraja,
- 40 dan ziyod bo‘lsa 3-daraja semirish deb baholanishi kerak.

Semirishni davolash uchun tarkibida yog‘lar va uglevodlar miqdori kamaytirilgan parhez taomlarni iste’mol qilish tavsiya etiladi. Bunday ovqatlar tarkibida oqsil va vitaminlar yetarli bo‘lishi va kaloriyaligi jihatidan bir kunda 1600-1800 kaloriyani, shifoxona sharoitida esa 1000-1400 kkaldan oshmasligi lozim. Semirishning 3-4 darajasida bunga qo‘shimcha, haftasiga 2 marta yengillashtiruvchi parhez kunlari o‘tkazilishi lozim. Bunday parhez taomning quvvati bir kecha-kunduzda 700-800 kkaldan oshmasligi va tvorog, qatiq, qaynatib pishirilgan yog‘siz go‘sht kabi taomlarda iborat bo‘lishi lozim.

Taom tarkibi asosan meva-sabzavotlar ya’ni: karam, sabzi, lavlagi, oshqovoq, sholg‘om kabilardan iborat bo‘lishi lozim. Shu bilan bir qatorda jismoniy jihatdan faol bo‘lish, yoshiga va jinsiga mos gimnastika mashg‘ulotlari bilan shug‘ullanish tavsiya etiladi. Semirishni ochlik bilan davolash asosan shifoxona sharoitida o‘tkazilgani ma’qul.

Gipodinamiya – jismoniy kam harakat holati, ilmiy texnika taraqqiyoti oqibati bo‘lib, odamlarning jismoniy harakatga bo‘lgan ehtiyojini kamaytirishga olib keldi. Buning oqibatida jamiyatda kishilar o‘rtasida yurak-qon tomir kasalligidan o‘lim oshib, birinchi o‘ringa chiqib oldi.

Gipodinamiya, o‘tirib ishlash tarzi shuningdek, bug‘im va bog‘lamalar, umurtqa pog‘onasi osteoxondrozlari, radikulitlar va boshqa turli xil mushak kasalliklarning o‘sishiga olib kelyapti. Vaziyatdan chiqishning yo‘lini, albatta, jismoniy faol bo‘lishdan, sport mashg‘ulotlari, gigienik gimnastikadan izlash kerak. Xalq ichida yuruvchi “uzoq umr ko‘ray desang ko‘proq harakat qil ”degan maqol bejiz aytilmagan. Ortiqcha ovqat iste’mol qilish, sarflanayotgan energiya miqdori bilan organizmga tushayotgan ovqat miqdori o‘rtasidagi salbiy tafovut tana vaznining ortishiga – semirishga olib keladi.

Semirish – bu kasallik holati bo‘libgina qolmasdan, ayni paytda ko‘plab boshqa kasalliklarni tug‘diruvchi xavf omili hamdir. Semirish keng tarqalgan kasallik bo‘lib, aholining 25-30% - unga mubtalodir. Ayniqsa shaharda yashovchi ayollar o‘rtasida semirish keng tarqalgan bo‘lib, 35-65 % ni tashkil qiladi. Semirishning sabablarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, aksariyat hollarda uning asosida insonlarning o‘z organizmi jismoniy ehtiyojlari talabiga qaraganda ko‘proq ovqat iste’mol qilishdek zararli odatlari yotadi. Ilmiy-texnika taraqqiyoti asrida og‘ir jismoniy ish sezilarli ravishda kamaydi. Bu tabiiy ravishda iste’mol qilinayotgan ovqat miqdorining kamayishiga olib kelishi kerak edi. Organizmning fiziologik ehtiyojlariga ko‘ra shunday bo‘lishi lozim edi, afsuski, amalda bunday bo‘lmaydi. Oqibatda tananing ortiqcha vaznga ega bo‘lishi va semirish modda almashinishning murakkab jarayonlari orqali ateroskleroz, yurak-qon tomiri

kasalliklari, arterial qon bosimining oshuvi, endokrin tizimi kasalliklari-qandli diabet, immunologik va ruhiy holat kasalliklari va boshqalarning avj olishiga sabab bo‘ladi. Demak, ko‘rsatib o‘tilgan qator kasalliklarning kelib chiqish tabiati bir xil ekanligi, ularning odini olish imkoniyatlari ham bir xil ekanligidan dalolat beradi. Shu sababdan ham bularning “Sivilizatsiya kasalliklari” yoki “XX asr kasalliklari”deb aytilishi bejiz emas.

Organizmni jismoniy sog‘lomlashtirish usullari turli tuman bo‘lib, har bir shaxs o‘z imkoniyatidan va intilishidan kelib chiqqan holda, o‘zi uchun qulay bo‘lgan turlarini tanlab olishi va muntazam ravishda shug‘ullanishi talab qilinadi.

Jismoniy sog‘lomlashtirish usullariga qo‘yiladigan talablar qatoriga:

•ularni har bir kishi o‘z yoshiga,bajaradigan ishiga, salomatligi, holatiga qarab tanlashi lozimligi;

•mashqlarni bajarishda oddiydan murakkabga qarab, pog‘onami –pog‘ona amalga oshirish;

•organizmidagi barcha tizimlar, mushaklarning mutanosib ishtirok etishini ta’minlash;

•mashqlarni muntazam ravishda bajarib borish;

•ayrim tizimlar va tana a’zolarining zo‘riqishiga yo‘l qo‘ymaslik;

•mashqlarni iloji boricha ochiq havoda bajarish.

Jismoniy sog‘lomlashtirish usullari orasida qulayligi va ommaviyligi sababli keng qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan turi - bu ertalabki gigienik gimnastika mashqlaridir.

Buning uchun zarur bo‘lgan shartlar qatoriga har kuni ertalab belgilangan rejim asosida o‘rnidan turish, uy havosini almashtirish, mashqlarni bajarishda chuqur va to‘g‘ri nafas olishni nazorat qilish zarur.

Ertalabki gimnastika mashqlari majmuasini tuzishda uning tarkibiga:

•tananing tortilish bilan bog‘liq mashqlari;

•yurish (joyida turib va harakatda)mashqlari;

•bo‘yin, yelka va ko‘l mushaklari uchun mashqlar;

•tana va qorin mushaklari uchun mashqlar;

•oyoq mushaklari uchun mashqlar (o‘tirib turish va sakrash);

•oyoq, qo‘l va boshqa guruh mushaklar uchun mashqlar (oldinga, orqaga, yonga egilish, tebranish va h.k);

•zo‘riqib ishlashga majbur qiluvchi mashqlar;

•bo‘shashtiruvchi mashqlar;

•nafas mashqlarining kiritilishiga e’tibor berishi lozim.

Ertalabki gimnastika mashqlari samaradorligini oshirish maqsadida: gantel, gimnastika tayoqchasi, sakratuvchi ip, to‘p va boshqalardan keng foydalanish tavsiya etiladi. Katta yoshdagilarda mashg‘ulotlardan so‘ng yurak urishi har daqiqada 90-100, bolalarda esa 100-110 bo‘lishi me’yoriy holat hisoblanadi. Davomiyligi 15-20 daqiqadan oshmaydigan mashg‘ulotlarni tugatgach, suv muolajalarini qabul qilish tavsiya etiladi.

Ertalabki soatlarda o‘tkaziladigan gigienik gimnastika, uyqudan bedorlikka, tetik holatga o‘tish va faol mehnatga kirishib ketishning hamda kuch-g‘ayratga ega

bo‘lishning eng yaxshi usulidir. Ertalabki gimnastika mashg‘ulotlarini tanlashdan har kim o‘z salomatligi holatidan kelib chiqishi, yoshini hisobga olishi lozim. Odatda ertalabki gimnastika mashg‘ulotlari 10-30 daqiqagacha davom etib, 9-6 xil mashg‘ulot turlarini o‘z ichiga olishi kerak. Gimnastika mashg‘ulotlarining tarkibida tana va qorin mushaklarini mustahkamlovchi, bo‘shashtiruvchi mashg‘ulotlar bo‘lishi kerak. Bunday mashg‘ulotlar qon tomir tizimini, ko‘krak qafasi harakatini, nafas olishni yaxshilaydi. 50 yoshdan oshgandan so‘ng ertalabki gimnastika mashg‘ulotlarini bajarishdagi zarur bo‘lgan tezlik, ritm talablarini to‘liq bajarishga harakat qilmaslik lozim. Bu yoshdagi kishilar nafas olish ritmini buzish, kuchanish, boshni pastga tushirish, oldinga va yonga engashish hamda oyoqlarni bukish nafasni chiqarishga yordamlashishini yodda saqlash lozim. Mashg‘ulotlarni bajarishda ularning eng soddasidan boshlab, asta-sekin murakkablashtirib borish lozim. Dastlab qo‘llardagi mayda mushaklar bilan mashq qilishni boshlash so‘ngra katta mushaklarni jalb qilish maqsadga muvofiqdir.

Hayot–harakatdan iboratdir. Inson harakat orqali shakllanadi, takomillashib boradi. Shu boisdan insonning salomatligi, avvalo, uning doimiy ravishda harakatda bo‘lishi bilan bog‘langan.

Harakat inson organizmidagi ichki modda almashuvi jarayonlarini tezlashtiradi, chiqindilarni chiqaruv a’zolariga qarab yo‘naltiradi. Buning aksincha kamharakatlik (gipodinamiya) insonning yarim uyqu holatida yashashiga sabab bo‘ladi. Odamlar o‘zlarining harakatsizligi tufayli orttiradigan bunday holatidan qahva, alkogolli ichimliklar, narkotik moddalar yordamida chiqish uchun harakat qiladilar, bu esa o‘z navbatida inson umrini qisqartirishga, o‘limini tezlashtirishga sabab bo‘ladi.

Biroq har qanday harakat ham organizmga ijobiy ta’sir ko‘rsatavermaydi. Og‘ir jismoniy mehnat, og‘ir ish sharoitlari odam organizmiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Turli xil kasalliklarni keltirib chiqaradi. Faqat davriy ravishda takrorlanuvchi – mushaklarning kislorodni qabul qilishini kuchaytiruvchi, yog‘ kislotalarini esa sarf bo‘lishiga olib keluvchi –xolesterin moddasini kamaytiruvchi harakatlargina inson umrini uzaytirishga olib keladi.

Shunday ta’sirga ega bo‘lgan ko‘plab,organizmni jismoniy sog‘lomlashtiruvchi harakat tizimlari yaratilganki, ko‘pchilik odamlarga xos erinchoqlik tufayli, ular o‘z organizmlarini sog‘lomlashtirish uchun juda foydali bo‘lgan bunday tizimlardan foydalanmasdan, o‘zlariga katta zarar yetkazadilar, jismoniy mashg‘ulotlar tizimidan keladigan foyda, xuddi tamaki chekishdan kelgan zarar singari tezda emas, balki ma’lum muddat o‘tgandan keyingina yuzaga chiqadi.

Insonga xos erinchoqlik uning o‘zi uchun foydali bo‘lgan jismoniy mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanish o‘rniga,ko‘pchilik odamlar o‘zlarining qimmatli vaqtlarini ko‘p seriyali televizion ko‘rsatuvlarga, pivo yoki boshqa ichimliklar ichib,”dam olishga” sarflashni afzal ko‘radilar,natijada ular bunday kam harakatlilikoqibatida kelib chiqadigan turli kasalliklar tufayli o‘zlari rejalashtirgan maqsadlarga yetolmasdan turib hayotdan erta ko‘z yumishga majbur bo‘ladilar.

Inson o‘z salomatligini saqlashi uchun bir-biri bilan uzviy bog‘langan quyidagi ikki holatga alohida e’tibor berishni nazarda tutishi lozim.

Birinchidan –o‘z organizmining ichki muhiti doimiyligi – gomeostazni bir maromda saqlab turishga, uni tashqi muhit sharoiti o‘zgarishi ta’siridan asrashga, o‘zini jismoniy va aqliy zo‘riqishdan saqlashga intilishi lozim.

Ikkinchi tomondan – organizmni tashqi muhitning o‘zgaruvchan sharoitlariga moslashuv mexanizmlarini chiniqtirishi lozim. Shu maqsadda turli mamlakatlar olimlari tomonidan ko‘plab organizmni jismoniy sog‘lomlashtirish dasturlari ishlab chiqilgan. Ular orasida keyingi paytlarda amaliyotda keng qo‘llanilib kelinayotgan amerikalik vrach K.Kuper va ukrainalik mashhur olim vrach N.Amosovlarning tizimlarini, shuningdek, Hind yoglari jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini ko‘rsatib o‘tish mumkin.

Aerobika – organizmning zaxirasi imkoniyatlarini yuzaga chiqaruvchi ana shunday muhim vositalardan biri bo‘lib hisoblanadi. Professor L.M.Suxarevskiyning fikricha, agar inson tug‘ilganidan boshlab, sog‘lom turmush tarzida yashab, psixogigiena me’yorlari, jismoniy yuklama talablari, ovqatlanish tartibi, mehnat qilish va dam olish qoidalariga amal qilgan taqdirda kamida 150-200 yil yashashi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.S. Manasova. Ovqatlanish gigiyenasi (Nutritsiologiya). “ILM VA FAN” nashriyoti Toshkent – 2022.

2. Z.T. Rajamuradov, B.M. Bozorov A.I.Rajabov, D.G. Haytov. “” Yosh fiziologiyasi va gigienasi” Toshkent “TAFFAKUR B O‘STONI” 2013.

3. Do’stov K.T. Sportchilarning oqilona ovqatlanishi. Qarshi 2016.

4. Sh.I. Karimov tahriri ostida. Sog’lom ovqatlanish – salomatlik mezoni. Toshkent 2015.

16-18 YOSHLI KURASHCHI QIZLARNI PSIXOLOGIK TOMONLAMA QO‘LLAB-QUVVATLASH

Razaxov Kopbergen Dauletbaevich

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali o‘qituvchisi.

Jannazarova Barno Ramazanovna

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali talabasi

Kalit so‘zlar: *kurash sport turi, sport bilan shug‘ullanuvchi qizlar, yuqori sport natijalariga erishish, psixologik hamkorlik, murabbiy va o‘quvchi o‘rtasida yuzaga keladigan psixologik muammolar.*

Ключевые слова: *кураш, спортсменки, достижение высоких спортивных результатов, психологическое сотрудничество, психологические проблемы тренера и спортсмена.*

Key words: *kurash, female athletes, achieving high sports results, psychological cooperation, psychological problems of a coach and an athlete.*

Mavzuning dolzarbligi: Hozirgi vaqtda sportchi qizlarni psixologik qo‘llab quvvatlash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish eng dolzarb ishlardan biri

hisoblanadi. Biz yuqori sport yutuqlari sohasida ishlaydigan mutaxassislarning aksariyati bugungi kunda sport mashg‘ulotlari tarkibidagi psixologik tarkibiy qismning ulushi sezilarli darajada oshganiga rozi bo‘lishiga ishonamiz. Sportchilarning raqobatbardosh faoliyati samaradorligini oshirishning eng muhim shartlaridan biri bu psixologik yordamni tashkil etishdir.

Kostromina S.N. va Smirnova V.V. ta’kidlaganidek, psixologik hamrohlik sportchilar bilan ishlashda asosiy o‘rinni egallashi mumkin. O‘z tadqiqotlarida ular zamonaviy sport, birinchi navbatda, natija emas, balki sportchining salohiyatini ro‘yobga chiqarishga qaratilgan raqobatbardosh faoliyat ekanligini yozadilar. Shu munosabat bilan biz ularning fikriga qo‘shilamiz: “diqqatni natijadan potentsialga tubdan yangi o‘zgartirish butun o‘quv jarayonini tashkil etishga o‘zgartirish va yondashuvni talab qiladi”. Bu yuqori malakali sportchilar uchun stress omillari ta'sirining ko‘payishi, shikastlanish ehtimoli yuqori, jismoniy va neyropsikiyatrik stresslarning ko‘payishi bilan alohida ahamiyatga ega. E‘tibor bering, yuqori darajadagi stressga chidamliligi, qat'iyatliligi va yakuniy natijaga erishish uchun eng kichik imkoniyatdan foydalanib, asosli tavakkal qilishga tayyor bo‘lgan sportchilar qizlarining salohiyati va imkoniyatlarini maksimal darajada oshirishlari mumkin.

Tadqiqot obekti Biz bu ishimizning tadqiqot obyekti sifatida O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali kurashchi qizlarni oldik.

Tadqiqot predmetini O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida tahsil oluvchi kurashchi qizlarning o‘quv-mashg‘ulot jarayonlarida umumiy jismoniy tayyorgarligi.

Kurash sport turi, ayollarda erkaklarnikidan farq qiladigan tananing bir qator morfologik, fiziologik va aqliy xususiyatlariga ega bo‘lishiga qaramay, qizlarga fiziologik va psixologik nuqtai nazardan “erkak” talablarini oshiradi. Sportning tanaga ta’sirini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlarning aksariyati, mashg‘ulot rejimi va metodologiyasini asoslash bo‘yicha, erkak sportchilarda o‘tkazildi, shunga ko‘ra ularning natijalari ko‘pincha mexanik ravishda ayollarning mashg‘ulot jarayoniga o‘tkaziladi, bu hajmi erkaklarnikidan kam emas.

Kurashchilarni tayyorlash metodologiyasini ayollar tayyorgarligi sohasiga avtomatik ravishda o‘tkazish natijasida ayollar musobaqalarida kurash uslubi erkaklarnikidan deyarli farq qilmaydi [2]. Biroq, O‘zbekiston terma jamoalarining muntazam o‘quv-mashg‘ulot yig‘inlarida musobaqadan oldingi tayyorgarlik paytida ko‘p yillik kuzatuvlar natijasida biz kurashchi qizlarning muayyan muammolarni hal qilishning og‘zaki analitik strategiyasi, harakatlarni nutqni tartibga solishning yuqori darajasi bilan ajralib turadi degan xulosaga keldik. Shuning uchun, ularni mashq qilishni o‘rgatish jarayonida hikoya qilish usuliga e’tibor qaratish lozim. Harakatlarni tushuntirish, og‘zaki tahlil qilish, ularning individual elementlarini ongga etkazish, xatolarni tushuntirish harakatni o‘zlashtirishni, vosita ko‘nikmalarini shakllantirishni sezilarli darajada tezlashtiradi. Ayollar yuqori hissiy qo‘zg‘aluvchanlik, beqarorlik va xavotirga ega bo‘lganligi sababli, ularning harakatlarini baholashda rag‘batlantirish va

mulohazalar muhim rol o‘ynaydi. Shuning uchun qizlarni sport bilan tayyorlashda ularning psixologik xususiyatlarini hisobga olish juda muhimdir.

Qizlar tashqi ta'sirlarni yaxshi ko‘radilar va shuning uchun fiziologik sabablarga ko‘ra jismoniy kuchga muhtoj bo‘lgan go‘zal amplituda texnikasini o‘rganishga intilishadi. Shunday qilib, quvvat komponentisiz texnikani qayta-qayta takrorlash noto‘g‘ri mahoratni mustahkamlaydi va tashqi tomondan kam ta’sirli texnikani o‘rganish ularga qiziqish uyg‘otmaydi va zaif assimilyatsiyaga olib keladi, bu qisqarishlarda samarali foydalanish uchun etarli emas. Jang qobiliyatsiz himoyalar bilan birlashtirilgan to‘ntarishlarning kuchli samarasiz urinishlari bilan ozgina ajoyib kurashga aylanadi. Bu nostandart pozitsiyalarga (vaziyatlarga) va etarli bo‘lmagan motorli harakatlarga olib keladi, bu jarohatlar, charchoq va qizlarning kurash mashg‘ulotlariga qiziqishini yo‘qotishiga olib keladi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, professor A. I. Zavyalov tomonidan ishlab chiqilgan elektrokardiogramma charchoqlarini baholash usuli ayollar kurashidagi o‘quv jarayonini baholashda samarali hisoblanadi. Jismoniy mashqlar paytida qizlar, o‘zlarining temperamentlariga qarab, charchoq darajasiga ko‘ra bir necha guruhlarga bo‘linadi: charchoq yo‘q, kichik, o‘rtacha, o‘tkir, tanqidiy charchoq va ortiqcha ish. Eng yuqori mashg‘ulot effekti o‘tkir va tanqidiy charchoqni keltirib chiqaradi. Ushbu zonalarda mashq qilayotgan sportchilarning foiziga ko‘ra, o‘quv jarayonining samaradorligini pedagogik baholash mumkin [7, 10-bet].

Biz Ryzhenko O. V. ning fikriga qo‘shilamiz. jangning to‘g‘ri tanlangan taktikasi ko‘p jihatdan boritsaning ma'lum bir lahzadagi psixologik holatiga bog‘liq va uning natijasiga sezilarli ta'sir qiladi. Shunday qilib, o‘quv-mashg‘ulot yig‘inlari paytida Kasılmaların tahlili shuni ko‘rsatdiki, sportchi qizlar passiv taktik harakatlar bilan ajralib turadi: himoya taktikasi (92%), kutish (83%), manevr (74%). Oshkor qilish (66%), to‘satdan (62%) va muvozanatdan chiqish (46%) kamroq mashhur. Kamdan kam hollarda tahdid (27%) va takroriy hujum (12%) ishlatiladi va kamdan kam hollarda chalg‘itish (5%), chaqiruv (4%), bog‘lash (2%) ishlatiladi. Jang paytida, uning shartlari va vazifalariga muvofiq, sportchilar bir nechta taktik harakatlardan foydalanadilar. Ushbu ma’lumotlarni hisobga olgan holda, har bir alohida holatda sportchilarning kurashini yaxshilashga yordam beradigan individual taktik harakatlar tuziladi [3].

Xulosa: Yuqoridagilarga asoslanib, psixolog yuqori sport natijalariga erishish uchun kurashchi qizlarni psixologik qo‘llab-quvvatlashning bir qator muammolarini hal qilishi kerak: Har bir sportchining psixikasi va shaxsiyatining individual xususiyatlarini, ularning aqliy zaxiralarini, temperamentini, o‘quv jarayoni va musobaqalarning turli vaziyatlaridagi xulq-atvor xususiyatlarini o‘rganish. Kurashchi qizlarning ehtiyojlari, qiziqishlari, motivatsiyasini aniqlash, uni tayyorlash samaradorligiga ta'sir qiladi. Murabbiy va o‘quvchi o‘rtasida yuzaga keladigan psixologik muammolarni hal qilishga imkon beradigan faoliyatni tashkil etish. O‘quv jarayonini o‘tkazish va kurashchini musobaqalarga tayyorlash bo‘yicha individual amaliy tavsiyalarning psixologik jihatini ishlab chiqish. Jamoadagi shaxslar aro munosabatlar muhitini optimallashtirish, ziddiyatli vaziyatlarni yengish uchun psixolog va murabbiyning hamkorligi. Sportchilarga va

ularning tarbiyasiga ta'sir qilishning qulay psixologik pedagogik usullari va usullarini o‘rgatish. Aqliy o‘zini o‘zi boshqarish usullarini o‘rgatish va boritsning ruhiy holatini tuzatish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Tastanov N.A. – Kurash turlari nazariyasi va uslubiyati. Darslik ―Sano standart‖ Toshkent. 2017 y. 480 b.

2 Arslonov Sh.A., Tangriev A.J. - Sport pedagogik mahoratini oshirish (Kurash). Darslik. Toshkent ―O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati‖ 2017 y. 188-b.

3. Kerimov F.A. Sport sohasidagi ilmiy tadqiqotlar. Darslik. T., 2004.

BOKSSHÍLARDÍŃ TAYARLÍQ PROCESINDE MEDICINALÍQ QADAǴALAW HÁM ÓZ-ÓZIN BAQLAW

Adilshaev Pamir Maxsetbaevich

Ózbekstan mámleketlik dene tárbiyası hám sport universiteti Nókis filialı assistent oqıtıwshısı

Tayanısh sózler: *medicinalıq tekseriwler, sportshılardıń salamatlıǵı, awır nokaut, jarıslar.*

Ключевые слова: *медицинские осмотры, здоровье спортсменов, тяжелый нокаут, соревнования.*

Key words: *medical examinations, health of athletes, heavy knockout, competitions.*

Kirisiw. Medicinalıq qadaǵalaw boks shınıǵıwları hám jarıslardıń zárúr shárti bolıp tabıladı. Qalalardaǵı dene tárbiyası komandalarında shuǵıllanatuǵın boksshılar poliklinikalarda yamasa sport komandaları yamasa BÓSM medicinalıq-sanitariya bóliminde, awıllıq orınlardaǵı shuǵıllanıwshılar bolsa uchastka yamasa rayon, awıl emlewxanalarında yamasa poliklinikalarda qánigeler tárepinen medicinalıq tekseriwden ótedi. Respublika, wálayatlar, qalalardıń jetekshi boksshıları, balalar hám óspirimler sport mektepleri oqıwshıları, sport ustaları hámde sport ustalıǵına kandidatlar sonıń menen birge birinshi razryadlardaǵı sportshılar dispanserizaciyadan ótiwi shárt. Dispanserizaciya usılı sportshılardıń medicinalıq baqlap barıwdıń eń nátiyjeli forması esaplanadı. Ol boksshılardıń fizikalıq qáliplesiwi, salamatlıǵı hámde jumıs qábileti ózgerislerin úzliksiz túrde baqlap barıwǵa múmkinshilik jaratadı.

Izertlewdiń maxseti: boksshílardíń tayarlíq processinde medicinalíq qadaǵalaw hám óz-ózin baqlaw.

Izertlewdiń wazıypaları: Medicinalıq tekseriwlerdiń wazıypaları, shınıǵıwlar hám jarıslarǵa qatnasıw ushın ruxsat beriw múmkinligin anıqlaw, shınıǵıwlardıń salamatlıq jaǵdayına tásirin bahalaw, boksshınıń shınıqqanlıq dárejesin belgilew.

Medicinalıq tekseriwler dáslepki, qayta hám qosımsha túrlerine bólinedi. Dispanserizaciya waqtında medicinalıq tekseriwler tiykarǵı (dáslepki), bar (basqıshlı) hám qosımsha tekseriwlerden ibarat boladı. Boksshınıń nerv sisteması

